

# O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarlari

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnali*

*Jurnal bir yilda to‘rt marta nashr etiladi*

**Bosh muharrir –**

**SHERMANOV Eldor Uralovich**

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Bosh muharrir o‘rinbosari –**

**JUMAYEV Sobirjon Saidovich**

professor

## TAHRIR HAY’ATI

**RUSHANIN Vladimir Yakovlevich –**

Chelyabinsk davlat madaniyat instituti rektori, tarix fanlari doktori, professor

**NURULLAYEV Abdulaziz Sirojiddinovich –** Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**MAVRULOV Abduxalil Abdulxayevich –** Tarix fanlari doktori, professor

**TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna –** San’atshunoslik fanlari doktori, professor

**QODIROVA Sarvinoz Muhsinovna –** San’atshunoslik fanlari doktori, professor

**UMAROV Absalom Adilovich –** Sotsiologiya fanlari doktori, professor

**YULDASHEV Ma’rufjon Muxammadjonovich –** Filologiya fanlari doktori, professor

**TO‘YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna –** Falsafa fanlari doktori

**QOSIMOV Nozim Kozimovich –** Filologiya fanlari nomzodi, professor

**NISHONBOYEVA Qunduz Vahobovna –** Tarix fanlari nomzodi, dotsent

**MULLAJONOV Davlat Mavlonovich –** San’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**FAYZIYEVA Feruza Xodjimiradovna –** San’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**XALIKULOVA Go‘zal Erkinovna –** San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

**ABDUJABBAROVA Musallam Lapasovna –** Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**XUDOYEV G‘ani Muhammadovich –** Sanatshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**ISMOILOV Hamdam –** Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**KOSHELEVA Antonina Fedorovna –** Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**RASHIDOV Temur Maxmudovich –** San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

**TURG‘UNOVA Nasiba Mamatovna –** Sanatshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**MAMATQOSIMOV Jahongir Abirqulovich –** Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.

## JAMOATCHILIK KENGASHI

**NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –** O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri,

O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti

**AXMEDOV Bahodir Majitovich –** O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri o‘rinbosari, dotsent v.b.

**MIRZAALIYEV Iqboljon Mirzakarimovich –** O‘zbekiston xalq shoiri

**AKILOVA Kamola Baltabayevna –** San’atshunoslik fanlari doktori, professor

**KARIMOVA Nigora G‘aniyevna –** San’atshunoslik fanlari doktori

*Maqolada keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir.*

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan  
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya  
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi  
245/6-sonli qarori bilan San’atshunoslik fanlari bo‘yicha  
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop  
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

# MUNDARIJA

1. E.Shermanov. Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!.....	3
--	---

## I. TEATR VA KINO

1. F.Abduvohidov. Ayol taqdirining sahna talqinlari (O'zbekiston xalq artisti Gulnora Ravshanova ijodi misolida)....	6
2. S.Azatov. Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining mustaqillik yillarida ijodiy izlanishlari.....	10

## II. MUSIQA SAN'ATI

1. D.Malikova. Vokal – xor jamoalari bilan ishlashda dirijyorning vazifalari hususida.....	13
2. 3.Kasimova, М.Рымбаев. Влияние электронных технологий на современное музыкальное творчество Казахстана.....	16
3. O.Xudaynazarov. Musiqiy risolalarda tilga olingan g'ijjak va uning ijrochilari .....	19
4. K.Seitjanova. Professional xor ijodi va ijrochiligidagi A kapella janrining ahamiyati.....	22

## III. SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. X.Lutfullayev. O'zbek raqs san'atida Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy faoliyati.....	25
2. S.Ikramov. Madaniy-ommaviy tadbirlarni klassifikatsiyalash muammolari.....	28
3. S.Alimov. Folkloriy jarayon haqida ayrim mulohazalar.....	30
4. D.Muhamedova. Folklor janri va ijo san'atimizda milliy qadriyatlarimizning aks ettirilishi.....	32
5. Q.Madrimov. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari.....	35
6. Г.Исаева. Интеграция народного хорезмского танца в современном балете «Лягги».....	39
7. Z.Asqarova. O'zbek va qoraqalpoq musiqa madaniyati rivojlanishida sharq mutafakkirlarining ilmiy musiqiy qarashlari.....	45
8. M.Yesanov. Qoraqalpoqlar san'atining sarchashmalari Sharqiy Yevropa va Osiyo qadimiy madaniyati bilan chambarchas bog'liqligi.....	48

## IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. V.Rustamov. Vsevolod Emilevich Meyerhold ijodida biomexanika.....	51
2. F.Djalilova. Soch turmagini modellashtirish va badiiy bezash.....	55
3. R.Uralova. Axborotlashgan jamiyatda o'qituvchining mediakompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.....	58
4. N.Yuldasheva. Tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini shakllantirish.....	63
5. N.Xudoyqulova. Mustaqil ta'lif jarayonida etyud, gamma, mashqlar orqali fortepiano ijo ko'nikmalarini rivojlantirishga doir.....	67
6. D.Qurbanova. Ilm-fanni rivojlantirishda xotin-qizlarning roli .....	71

## V. KUTUBXONA

1. T.Bayturayev. O'zbekistonda bibliografik faoliyatning rivojlanishini o'rgangan mutaxassislar.....	75
2. M.Maxmudov. Kutubxonalar va madaniyatlararo munosabatlari: muammoning ba'zi bir jihatlari.....	77

## VI. YOSH TADQIQOTCHI

1. U.Ibragimova. Musiqali teatrda sahna nutqi: o'ziga xosligi va xususiyati.....	80
2. H.Mulladjanova. Tonal va modal ladlar.....	84
3. Axror-Murod Irodabegim. Tarixiy voqelikni badiiy talqin qilishda aktyorlik san'atining o'rni.....	87
4. Sh.Rustamaliyeva, P.Xolmaxmatov. XX asrning mashhur metsenati – "Man afandi" va turkistonlik talabalar taqdiri.....	89
5. Z.Xudoyorova. Shohsanam obrazi Sultanposhsha Rahimova ijodida.....	94

## VII. E'TIROF

1. O.Rizayev. Umr so'qmoqlari.....	96
2. R.Usnatov. O'zbekiston xalq artisti, professor Shuhrat Abbasovning pedagogik mahorati .....	98
3. F.Zuparova. Mohir changchi Rustam Ne'matovning ijodiga bir nazar .....	101

Eldor SHERMANOV,  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
rektori v.b.,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

# Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!

MUSTAQILLIGIMIZNING

**32** YILLIGI



**Mustaqillik eng ulug', eng aziz ne'mat.**  
Bugun biz erishgan, erishajak yuksak  
marralar, ozod va obod Vatanimiz  
manzaralari, avvalo, istiqlol sharofatidandir.  
Davlatimiz rahbari tomonidan amalga  
oshirilayotgan "Inson qadri uchun" degan  
ezgu tamoyilni o'zida mujassam etgan  
islohotlar dinidan, tilidan, millatidan qat'i  
nazar O'zbekistonda yashayotgan 130  
dan ortiq millat, elat vakillarining huquq  
va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini  
ta'minlashga qaratilganligi bilan  
ahamiyatlidir. Shu bois xalqimiz eng ulug',  
eng aziz bu qutlug' ayyom zo'r shodiyonalik,  
katta quvonch bilan hamjihatlikda ulkan  
shukronlalik ila tantana qiladi.

Ayni kunlarda ko'p millatli xalqimiz Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori asosida Vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida butunlay yangi davrni boshlab bergen unutilmas tarixiy voqeа – Mustaqilligimizning o'ttiz ikki yillik sanasini baland ruh va ko'tarinkи kayfiyat bilan nishonlash uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda. Haqiqatan ham qarorda ta'kidlanganidek, 1991-yil 31-avgust kuni xalqimiz o'z Vatani, taqdiri va kelajagiga o'zi egalik qilish huquqini qo'lga kiritdi. Dunyo xaritasida O'zbekiston Respublikasi – yangi suveren va mustaqil davlat paydo bo'ldi.

O'tgan tarixan qisqa vaqt davomida elimizning fidokorona mehnati va qat'iyati bilan milliy o'zligimiz, qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, ezgu qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi. Davlat va jamiyat hayotining tub asoslari o'zgarib, mamlakatimiz dunyo hamjamiatida o'zining munosib o'rniga ega bo'ldi.

Qarorda keng ko'lamli islohotlarimizni izchil davom ettirish, barcha soha va tarmoqlar rivojini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, bugungi kunda yurtimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaro erkin va farovon yashaydigan yangi jamiyat va davlat barpo etilayotganligi alohida qayd qilingan. Chindan ham bugungi kunda mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xususan, yangilangan Konstitutsiyamizning qabul qilinishi el-yurtimiz Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelayotganini yana bir bor yaqqol tasdiqladi.

Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yilligini Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyot darajasi, shonu shuhratiga mos holda munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash maqsadida, qator tadbirlar belgilandi. Jumladan, "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari dasturi tasdiqlandi. Shu maqsadda, aholining keng qatlamlari o'rtasida Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, "uch avlod uchrashuvi" tadbirlari, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, gastronomik festivallar, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari o'tkaziladi. Shuningdek, atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san'at arboblari, taniqli sportchilardan iborat targ'ibot guruhlari tashkil etilib, uchrashuv va targ'ibot tadbirlari amalga oshiriladi.

Joylarda Mustaqillik bayramini yurtdoshlarimizning talab va istaklari asosida, yangilangan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va "O'zbekiston – 2030" strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar haqida mahallalar, ta'lim va mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuvlar o'tkaziladi. Ularda, "Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak uchun poydevor" degan hayotiy shiorning mohiyati oshib beriladi. Qolaversa, ulug' bayram arafasida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy hayotida ro'y bergen yangilanishlar, o'zgarishlar sarhisob qilinadi. Qo'lga kiritilgan yutuq, muvaffaqiyat omillari tahlil etiladi. Kelgusida qilinadigan ishlarning rejalari belgilanadi.

Ma'lumki, hayotda, har qanday zamon va makonda, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy- ma'rifiy hamda boshqa sohalarda rivojlanish, taraqqiyot a'mollari bevosita ma'rifat, ta'lim, ilm-fan tamadduni, yangi ilmiy ixtiolar, kashfiyotlar va bunyodkorliklar orqali yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, ma'rifatsiz, ilm-fan va yutuqlarisiz dunyo tamaddunini ham, bashariyat kamolotini ham, hayot taraqqiyotini ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu jarayon yer yuzida hayot paydo bo'lib, insoniyat umrguzaronlik qila boshlagandan beri davom etib kelmoqda.

XI asrda yashab o'tgan ulug' mutaffakkir Yusuf Xos Hojib ilm-fanning insoniyat hayotidagi ulug'ligrini e'tirof etib, shunday yozgan edi:

*Bilimni buyuk bil, aql-idrokni yo'l,  
Ulug'dir ikkovicin tuta bilgan qo'l.  
Idrok qayda bo'lsa, ulug'lik shunda,  
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik unda.  
Olimlar – haqiqat qaddin tuyanchi,  
Ilmu urfon karvoni, elning tayanchi.*

Darhaqiqat, qaerda ilm-fan qadrlansa, bilimga, ilmiy tafakkurga yo'l oshib berilsa, mamlakat yuksak taraqqiyotga erishadi. Xalq yaxshi hayot kechiradi, yurt obod bo'ladi. Ajdodlarimiz buni yaxshi bilganlar va ilm-ma'rifikatni doimo ulug'laganlar. E'tibor bering, IX–XII asrlarda yuzaga kelgan Sharq Renessansi – ilk Uyg'onish davrining asosida ham Markaziy Osiyolik, xususan, o'zbekistonlik allomalarining ma'rifat, ilm-fan, bilim sohasidagi ulug' kashfiyotlari yotadi.

Ayni paytda, o'tgan 6-7 yil ichida mamlakatimizda ta'lim, ilm-fan sohalarini rivojlantirish uchun 50 dan ortiq huquqiy hujjatlar – qonunlar, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, dasturlar qabul qilindi. Asosiy qonunimiz – yangilangan Konstitutsiyada ta'lim tizimini, ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish uchun, o'qituvchilar maqomini, nufuzini oshirish uchun alohida moddalar kiritildi. Boshqacha aytganda, respublikamizda ushbu sohalarni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar yaratildi. Bu huquqiy asoslar hayotda qisqa vaqt ichida amaliy natijalarini bera boshladi.

Ilm-fanni yuksaltirishda, undagi yangiliklarni, kashfiyotlarni amaliyotda qo'llashda, yangi texnologiyalarni yaratishda ta'limning navbatdagi bosqichi – oliy ta'limning o'ziga xos o'rni bor. Shuning uchun mamlakatimiz Prezidenti ta'limning bu bosqichida ham ko'plab islohotlarni amalga oshirishda tashabbuskor bo'lmoqda. E'tibor bering, bir paytlar respublikamizda 40 dan oshiq oliy ta'lim muassasalarini bo'lardi. Endi-chi? Yurtimizdagi oliy o'quv yurtlarining soni saltak 200 taga yetdi. Avvallari yoshlarni katta miqdorda pul sarflab xorijdagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishga intilardi. Endilikda xorijdagi 30 dan ortiq nufuzli oliy o'quv yurtlari yurtimizda faoliyat olib bormoqdalar. Mamlakatimizning nafaqat yirik shaharlarida, balki olis hududlarida ham oliy o'quv yurtlari ochilib, yoshlarning ta'lim olishlari yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim tizimida o'quv muassasalarining ko'payishi, xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikning kuchayishi mamlakatimizda ko'pdan beri yuzaga kelgan yana bir muammoni hal qilish imkonini berdi. Ma'lumki, respublikamizda bundan 6-7 yil ilgari umumiyligi ta'lim maktablarini bitiruvchilar soni 650-700 ming nafar yoshni tashkil qildi. Ko'p yillar davomida ana shu bitiruvchi yoshlardan 60-70 ming nafari oliy o'quv yurtlarida o'qish imkoniga ega bo'lib keldi. Ya'ni, mamlakatimizda yoshlarni oliy ta'lim tizimiga qamrab olish darajasi 9-10 foizdan oshmadidi. Vaholanki, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 60-70 foizni tashkil etardi. Shuning uchun davlatimiz rahbari oliy o'quv yurtlarini ham, ulardagagi ta'lim o'rinalarini ham ko'paytirishga e'tibor qaratdi. Natijada yoshlarni oliy o'quv yurtlariga qamrab olish darajasi 2019-yilda 20 foizga yetgan bo'lsa, bu yil ular miqdorini 40 foizdan oshirish ko'zda tutilgan.

Kelgusida yoshlariimizning 60-70 foizi oliy ma'lumot olishga erishishi rejalashtirilmoqda.

Oliy o'quv yurtlari faoliyati bilan bog'liq o'zgarishlar, yangilanishlar, islohotlar davom etmoqda. Ularga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik berilmoqda. E'tibor bering, agar 2019-yilda 10 ta oliy o'quv yurtiga akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 41 taga yetdi. Xo'sh, akademik va moliyaviy mustaqillik oliy o'quv yurtiga qanday afzalliliklar beradi? Bu, avvalo, har bir oliy o'quv yurti uchun yoshlarni o'qishga qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi va oliygohning ilmiy potensialini, salohiyatini kuchaytiradi. Ta'lif sifatini yaxshilaydi. Chunki talabalar yaxshi ta'lif olib, yetuk kadr bo'lib yetishsalar, oliy o'quv yurtining nufuzi va maqomi yanada oshadi. Oliygoh tayyorlagan kadrga talab ko'payadi. Ilmiy ixtiolar, kashfiyotlarni hayotga tatbiq etish, shu orqali moliyaviy ahvolni yanada yaxshilash imkonini paydo bo'ladi. Akademik va moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy o'quv yurti xorijdagи xohlagan universitetlar, institutlar bilan ilmiy va boshqa yo'nalishlarda hamkorlik aloqalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Oliygohlarda amaliy natija bermaydigan yoki kimgadir amaliy unvon sifatida zarur bo'ladigan noilmiy izlanishlarga chek qo'yiladi.

Bu ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini hisoblanadi.

Joriy yilda mamlakatimizda ixcham va samarali davlat boshqaruvin tizimiga o'tilishi munosabati bilan avvalgi Maktabgacha ta'lif vazirligi bilan Xalq ta'limi vazirligi birlashtirilib "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi", Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan Innovatsiya vazirligi asosida "Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi" tashkil etildi. Bunday boshqaruvin tizimi sohalarni o'zaro uyg'unlashtirish bilan birga, bu sohalarda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini ham beradi. Ularga sarflanadigan

sarmoyalar, mablag'lar umumlashtiriladi. Masalan, bu yil oliy o'quv yurtlari talabalari uchun imtiyozli ta'lif kreditlari 2 barobarga ko'paytirilib, ular uchun 1,7 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, ilm-fan va innovatsiya sohalariga 1,8 trillion so'm sarflanishi belgilandi. Maktabgacha ta'lif va umumiy ta'lif uchun ajratiladigan mablag'lar ham ko'paytirildi.

Umuman olganda, ta'lif va ilm-fan sohasida 6-7 yil ichida amalga oshirilgan islohotlar natijasida jiddiy o'zgarishlar, yangilanishlar yuzaga keldi. Ko'plab muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Qisqa vaqt ichida maktabgacha ta'lif muassasalari, maktablar, oliy o'quv yurtlari soni bir necha barobarga ko'paydi. Ularda faoliyat yuritadigan murabbiylar, o'qituvchilar, olimlarning mehnat haqlari 2-3 barobardan 4-5 barobarga qadar oshadi. Endilikda asosiy e'tibor ta'lif-tarbiya, ilm-fan sohasida sifat masalasiga qaratilmoqda. Aynan joriy yilning sifatli ta'lif yili, deb atalishida ham ana shu ulug'vor maqsad mujassamlashgan.

Ha, shu kunlarda serquyosh yurtimiz aholisi eng ulug' va eng aziz bayramimiz Mustaqilligimizning o'ttiz ikki yilligi shukuhi bilan yashamoqda. O'tgan har bir yil istiqlol solhomasiiga o'ziga xos tarixiy voqeа, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda muhim o'zgarish, iqtisodiyotimizda yangi innovatsiyalar, xalqimiz turmush darajasini oshishiga qaratilgan ezgu tashabbuslar davri sifatida bitilmoqda.

So'nggi yillarda o'zgarayotgan O'zbekistonni, Yangi O'zbekistonni dunyo yana bir bor kashf etmoqda. Boqiy qadriyatlarni tiklash, tarix silsilasida xalqimiz tomonidan avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy an'ana, asrlarni ortda qoldirib mag'rur qad ko'tarib turgan madaniy meros durdonalari bo'lgan ko'hna obidalarni asrab-avaylash zamirida, bugun insonni o'zgartirish orqali jamiyatni o'zgartirishga harakat qilayotgan qudratli xalqqa aylandik.

### Aziz hamyurtlar, yoshlari!

**O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayrami muborak bo'lsin!  
Eng ulug', eng aziz bayramimiz bilan Istiqlolni oliy qadriyat deb biluvchi, xalqimiz kelajagiga  
befarq bo'lmagan hamma-hamma yurtdoshlarimizni samimiyl muborakbod etamiz!**

**Mustaqilligmiz abadiy bo'lsin!**



# I BO' LIM TEATR VA KINO

**Faxriddin ABDUVOHIDOV,**

O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasи dotsenti

# AYOL TAQDIRINING SAHNA TALQINLARI

## (O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI GULNORA RAVSHANOVA IJODI MISOLIDA)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, umrini Surxondaryo viloyati musiqali teatri rivoji uchun bag'ishlagan, turli xarakterdagi obrazlari bilan tomoshabinlar qalbidan joy olgan O'zbekiston xalq artisti Gulgona Ravshanovaning aktvorlik faoliyatini xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** aktyor, rejissyor, teatr, taqlid, san'at, rol, ijro, timsol, tomoshabin, aktyorlik mahorati, ijodkor, xattisharakat

# ЭТАПНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЖЕНСКОЙ СУДЬБЫ

(НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА НАРОДНОЙ АРТИСТКИ УЗБЕКИСТАНА ГУЛЬНАРЫ РАВШАНОВОЙ)

**Аннотация.** В данной статье речь идет об актерских изысканиях народной артистки Узбекистана Гульнары Равшановой, которая всю свою жизнь посвятила развитию музыкального театра Сурхандарьинской области, и покорила сердца зрителей своими разнообразными образами.

**Ключевые слова:** актер, режиссер, театр, представление, искусство, роль, исполнение, образ, зритель, мастерство актера, творец, действие.

# STAGE INTERPRETATIONS OF FEMALE FATE

(BY THE EXAMPLE OF THE CREATIVITY OF THE PEOPLE'S ARTIST OF UZBEKISTAN GULNARA RAVSHANOVA)

**Abstract.** This article is about the acting research of People's Artist of Uzbekistan Gulnara Ravshanova, who devoted her whole life to the development of the musical theater of the Surkhandarya region, and won the hearts of the audience with her various characters.

**Key words:** actor, director, theater, hero, imitation, art, role, spectator, conception, creator, acting skills, image, action.

O'zbek teatri uzoq yillar davomida shakllanish va rivojlanish bosqichlarini mardonavor bosib o'tdi. Milliy teatr san'atimizning professional qiyofasini hamda badiiy uslubini kashf etishida juda ko'p san'atkorlarning fidokorona xizmatlari beqiyos. Umrini Surxondaryo teatri rivojiga baxsh etgan O'zbekiston xalq artisti Gulnora Ravshanovaning nomi san'at olamida alohida e'tirof etiladi. Surxondaryo teatri repertuariga e'tibor qaratilsa, ularning deyarli hammasida Gulnora Ravshanovaning ismi ko'zga tashlanadi. Bu esa, aktrisaning teatr san'atiga bo'lgan mehr-muhabbatidan dalolatdir.

1946-yilning 26-mayida Termiz shahrida san'atkorlar oilasida dunyoga kelgan Gulnora Ravshanova ilk bor olti yoshida sahnaga chiqadi. Bu tasodif emasdi, albatta. U o'zbek teatri rivojiga munosib hissa qo'shgan san'atkorlar oilasida tug'ilib, voyaga yetdi. Bolaligidanoq otasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Hasan Muhiddinov(1914–1987), onasi O'zbekiston xalq artisti Hadicha Boboxonova(1923–1913)larning repetitsiya jarayonlarini kuzatdi, ular rol ijro etgan spektakllarni tomosha qildi. Ota-onasi bilan birga ijodiy safarlarga borib, turli konsert dasturlarida "Jonon", "Tanovar" raqslarini ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi. Bu jaryonda qizchaning qalbi san'at dargohi bilan mustahkam bog'landi, teatr uning eng yaxshi tarbiyachisiga aylandi. Ustoz san'atkorlar bilan

bo'lgan muloqotlar qizaloqning katta san'at dargohida mustahkam o'rin egallashida asosiy mezon bo'lib xizmat qildi.

Gulnora Ravshanova o'zining katta sahnadagi birinchi ustozи, deb O'zbekiston xalq artistи, rejissyor Asror Jo'rayevni hisoblaydi. U, Bahrom Rahmonovning "Yurak sirlari" komediyasidagi etti yoshli qizaloq Lolaxon rolini Gulnora Ravshanovaga topshiradi. Spektakl yakunida O'zbekiston xalq artistи Shirin Meliyeva qo'lidan mahkam tutib, tomoshabinlar qarshisiga ta'zimga chiqqan yosh aktrisa о'rindiqlardan turib davomli qarsak chalgan teatr ixlosmandlarini shirin xotirlaydi. U o'shanda olti yoshda edi. Shu olqishlar yosh Gulnora qalbini teatr bilan butkul bog'ladi, ketma-ket, katta-yu kichik rollar ijro etishiqa ilhom baq'ishladi.

Gulnora Ravshanovaning yoshligidanoq raqs san'atiga bo'lgan mehri juda baland bo'lgan. 1961-yil Respublika havaskorlar festivalida ishtirok etib, faxrli o'rinni egallaydi. Jyuri raisi sifatida uning nozik raqsini kuzatgan Tamaraxonim: "Qizim, sen sahna uchun tug'ilgansan, san'atni tark etma. Xudo xohlasa, sahnada o'z o'rning bo'ladi", – deya ta'kidlaydi. 1963-yil maktabni tugatgan yil "Bahor" ansamblı Termiza gastrol safariga keladi. Tajribali ijodkorlar qatori G.Ravshanova ham raqs ijro etadi. Gastrol yakunida ansambl rahbari Mukarrama Turg'unboyeva uni chaqirtilib, imtihon qiladi va badiiy kengash a'zolaridan

shu qizni ansamblga qabul qilishni so'raydi. Bu taklifni Qahramon Dadayev, Baxtiyor Yo'ldoshev kabi o'zbek san'atining benazir ijodkorlari qo'llab-quvvatlaydi. U shu kundan e'tiboran "Bahor" ansambliga raqqosa sifatida ishga qabul qilinadi. Biroq oilaviy sharoit tufayli uning Toshkentga kelishi qiyin kechadi. Ammo taqdир uni o'zbek san'atining buyuk namoyandalari bilan yuzlashtirdi, ularning maslahatlarini, o'gitlarini, duolarini, tilaklarini olishga musharraf bo'ladi. Ustozlarning duolari uni katta sahna sari yetakladi.

Sahna ijodkorining raqs tushishi, kuy chalishi, qo'shiq aytishi g'oyat muvaffaqiyatlidir. Bu narsa G.Ravshanovaning aktyorlik faoliyatida keyinchalik juda asqotadi. Raqs tufayli kelgan cheksiz zavq-shavq uning sahna obrazlariga qo'shilib qon-qoniga singib ketadi.

Gulnora Ravshanova ijodiy faoliyatining dastlabki o'n yilligidanoq: "*yaratish, izlanish zavqi bilan yashab, mahoratli, serg'ayrat aktrisa ekanligini isbot qildi*". Katta-kichik, dunyoqarashi, maqsadi bir-biriga o'xshamaydigan, turli xarakterdagi insonlarning badiiy qiyofasini yaratdi. Aktrisaning ko'p mehnati va qalb qo'ri singan obrazlar tomoshabinlarni o'zini va o'zgalarni sevishga, ba'zi insonlarga nisbatan nafratini ayamaslikka da'vat etdi.

Uning ilk katta roli 1963-yil sahnalashirilgan K.Galdonining "*Ikki boyga bir malay*" spektaklidagi Smiraldino hisoblanadi. Tirikchilik uchun ikki mehnatkash qo'lidan boshqa hech vaqosi yo'q, lekin ziyrak, aqli, hozirjovob, qalbi eng yaxshi fazilatlarga xazina Smeraldino ("*Ikki boyga bir malay*"), kambag'al yigitni turli hiyla-nayrang, boy otasining mol-mulki bilan o'ziga og'dirib, sof muhabbatdan judo etishni o'ylagan, ammo niyatiga erisha olmay ma'naviy jihatdan yengilgan Gulshan ("Guli siyoh"), yolg'onchi ehtiroslar to'lqinida g'arq bo'layozgan va o'zidan kulgan Nazokat ("Parvona") kabi spektakllarning har biri haqida alohida va uzoq gapirish mumkin.

Qiyin, ammo sharfli vazifani zimmasiga olgan holda teatr sahnasiga qadam qo'yan har bir ijodkor, avvalo inson qiyofasini gavdalantirishni asosiy maqsad qilganligini unutmasligi zarur. Shu bois ham uning sahnada sun'iylafka, ortiqcha xatti-harakatlarga, bachkana qiliqlarga yo'l qo'yishga haqqi yo'q. Modomiki, sun'iylifik aktyorning katta dushmani hisoblanadi. "*Faqat mehnatdan qo'rmasang, qilgan repetitsiyalardan ko'ngling to'may har bitta harakat, imo-ishora, gapirish ohangingni qayta-qayta takrorlashdan erinmasang, obrazning mohiyatiga chuqr yondoshsganggina, sun'iylilik chekinishi mumkin. Sening ijoeringdan tomoshabinning ko'ngli to'lganini bilganingda esa hamma mashaqqatlarni unutib yuborasan. Ijodning gashti ham mana shunda*", – deya ta'kidlaydi G.Ravshanova.

G.Ravshanova ijodidagi ilk yaratgan rollaridan tortib, ma'lum tajriba orttirgan davrlarida ijoetgan rollariga e'tibor qaratilsa, zimmasiga mas'uliyatlari vazifalar yuklangan insonlarning ichki va tashqi qiyofasi, o'y-kechinmalari, orzu-umidlari, biri ikkinchisini qaytarmaydigan xarakterlar ifodalanganligini kuzatish mumkin. K.Yashinining

"Nurxon" asarida Qumri (1964), S.Jamolning "Guli siyoh"ida Gulshan (1965), M.Stadnyukning "Xavfli uchrashuv"ida Oksana (1966), Hamzaning "Maysaraning ishi"da Oyxon (1967), Sh.Sa'dullaning "Yoriltosh"ida Gulnora (1968), Uyg'unning "Parvona"sida Nazokat (1972), S.Xo'janizozovning "Sevmaganga suykanma"sida Oysanam (1975), F.Shillayerning "Makr va muhabbat" asaridagi Ledi Milford rollari aslo biri ikkinchisini takrorlamaydi.

1974-yilda teatr jamoasi yangi zamonaviy binoga ko'chib o'tdi. Ijodiy jamoa safi yosh san'atkorlar hisobiga kengaydi. Bu jarayon Gulnora Ravshanova uchun ham mahorat sirlarini tobora chuqurroq o'rganish imkoniyatini vujudga keltirdi. U o'z ustida ishlab, professional mahoratini yanada oshirdi. Tinimsiz izlanishlar samarasi, ayniqa, nemis dramaturgi F.Shillerning "**Makr va muhabbat**" tragediyasidagi Ledi Milford rolida yaqqol sezildi. Gulnora Ravshanova sahnada Ledi Milford qiyofasida o'z manfaati yo'lida har qanday pastkashlikdan tap tortmaydigan, surbet, axloqsiz ayolning jirkanch qiyofasini yaratadi. "*Aktrisa Ledi Milfordning murakkablig-u, qarama-qarshiliklarga to'la xarakterini juda noziklik bilan talqin qiladi*". Luizaning Ferdinand bilan bo'lgan muloqotida uning sof muhabbatga qarshi kishilarga bo'lgan nafrati yorqin aks etadi.

Gulnora Ravshanovaning yetmishinchi yillarning ikkinchi yarmida yaratgan obrazlari uning ijodiy biografiyasida alohida o'ren tutadi. Yaratilgan har bir obraz aktrisaning mahorati bosqichma-bosqich o'sib, ijod ufqi, imkoniyatlari darajasi kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Nadya ("Tribunal") roli ham mustahkam ijob namunalardan hisoblanadi. Asar qahramoni Tereshkoning kelini Nadya spektaklda vatanparvarlik tuyg'ularini o'zida yuksak darajada mujassamlashtirgan obraz darajasiga ko'tariladi. Qishloqning eng go'zal, sho'x shaddod qizlaridan biri bo'lgan Nadyaning baxtiyorlik alomatlari o'chib harakatsiz qotib qolgan yuzidagi chuqr g'am soyasi e'tiborni tortadi. U kam gapiradi, chehrasidagi o'zgarish, qo'l va gavda harakati, ko'z qarashi orqali vatanda boshiga tushgan og'ir kunlarning musibati ezib, qattiq iztirobga solayotganini so'zsiz, ammo hayajonli hikoya qilib beradi. Mazkur obrazning psixologik ruhda hal etilishi o'zini oqlaydi va uning ta'sirchanligini oshiradi. Shuning uchun ham garchi, vaqtincha ustunlik o'zining tomonidan bo'lsa-da, vatanfurush Sirodoyev Nadyaning ko'zida chaqnab turgan nafratdan qo'rqb ketadi. Bu bilan sotqin o'zining qo'rkoqligini fosh qilib qo'yadi. U Nadyaning ko'z qarashidan: "...bir kun keladiki, biz senga o'xshaganlar bilan hisoblashamiz!" – degan hukmni o'qib oladi. Gulnora Ravshanova yaratgan bu obraz ana shunday mustahkam psixologik hayotiy qolipga ega ijob sifatida e'tirof etiladi.

Aktrisaning qiyofa yaratishda o'ziga xos uslubi borligini kuzatish mumkin. U obraz ustida ishlayotganida tamomila mustaqildir. Har bir qahramon xarakterini turlicha talqin etishining boisi ham shunda. Gulnora Ravshanova K.Yashinining "Nurxon" dramasidagi Nurxon, Z.Fatxullinining "Vatan ishqii" asarida Narzi, Uyg'unning "Parvona"sida Nazokat rollarini ijob etib: "bu obrazlarni ramziy ma'noda o'zining mulkiga aylantirdi".

San'atkor sahnada hamisha ziddiyatlar ichida

<sup>1</sup> Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi (1900–2007). – Toshkent: "Art Press", 2010-y. 530-b.

yashaydi. To'g'ri, tomoshabin o'zi sevgan aktyorni ijobja rolda yoki aksincha muttasil salbiy yoki komik rolda ko'rgisi keladi. Ammo aktyorning o'zi bu narsa bilan murosa qilgisi kelmaydi. U o'zini, yangi-yangi taqdirlar talqini bilan gavdalantirgisi keladi. G.Ravshanova M.Shatrovning "Qizil yaylovdagi ko'k tulporlar" asarida Sapoynikovadek juda murakkab obrazlarni yaratishni yaxshi ko'radi. Unga insoniylikdan kechgan o'taketgan yovuz ayol obrazini talqin etish oson kechmaydi. Nor Hayitning "Yulduz so'ndi" asaridagi Sattorova obrazi esa Sapoynikova obraziga butunlay qarama-qarshi xarakter hisoblanadi. Bunda tadbirkor, prinsipial, mehribon va qattiqxo'l, talabchan, yangilikka o'ch raykom sekretari obrazi gavdalananadi.

1976-yil teatr jamoasi Toshkentda viloyat teatrлari televizion konkursiga qatnashadi. Konkursda Surxondar teatri "Sevmaganga suykanma" spektakli bilan qatnashadi. Spektaklda G.Ravshanova bosh qahramon – Oysanam obrazini talqin etib, jamoatchik e'tiborini tortadi. U ijro etgan rol ko'p sonli teletomoshabinlar va mutaxassislar tomonidan yuqori baholanadi. Teatr jamoasi ham respublika televizion ko'rsatuvlar konkursi laureati sifatida taqdirlanadi. Shundan keyin san'atkorning ijrochilik mahorati tobora shakllanib boradi. Ch.Aytmatovning "Momo yer" asaridagi To'lg'anoy, "Sarv qomat dilbarim"даги Asal, B.Ravenskix va M.Ancharovning "Hayajonli qo'shiq" asaridagi Rita Ustinovich, V.Shukshinning "Serg'ayrat kishilar" asaridagi Sonya kabi ko'plab obrazlar buning yorqin dalilidir. Shu yili uning xizmatlari yuqori baholanib, nomi viloyat hokimiyyati tomonidan "Hurmat kitobi"га yoziladi.

Gulnora Ravshanovaning saksoninchi yillardagi ijodiy repertuariga e'tibor qaratilsa, nihoyatda sermahsul va barakali kechganligini kuzatish mumkin. U yaratgan Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni"даги Sotti (1981), T.Minullinining "Odinokaya" asaridagi Madina (1982), O'.Umarbekovning "O'z arizasiga ko'ra"даги Zumrad (1983), E.Vohidovning "Istambul fojeasi"даги Saodat (1986), U.Gadjibekovning "Arshin mol-olon"даги Tell (1986) obrazlari tomoshabinlarni befarq qoldirmadi. Aksincha, o'z orzu va intilishlarida yashayotgan bu qahramonlarning boshidan kechirganlari tomoshabinlarni mulohazaga chorlaydi.

Saksoninchi yillarning boshlarida teatr ijodiy jamoasi K.Amirovning "Quyosh barchaga nur sochsin", A.Proxanovning "Non va qon" asarini sahnalashtiradi. G.Ravshanova bu asarlardagi fidoyi shifokor Vera Sergeyevna va Marina obrazlariga yorqin xarakter bag'ishlab, xalqlar o'tasidagi do'stlikni tarannum etadi. O'.Umarbekovning "O'z arizasiga ko'ra"даги Oilaning kenja farzandi Zumrad –G.Ravshanova akasiga butkul qarama-qarshi xarakterga ega bo'lib, u o'ziga ishongan tarbiyali va kelajakka tik boqa oladigan ma'naviy go'zal qiz bo'lib, tomoshabinlarda havas uyg'otadi. Ammo uning sevgan yigitni Elyor (R.Rahmatov) yengil-yelpi yashashni xohlaydigan, obro'-martaba ilinjida har qanday tubanlikdan qaytmaydigan xarakter egasi bo'lib ko'rinadi. Aktrisa ijrosidagi Zumrad viloyat yoshlarda ota-onaga hurmat, haqiqiy muhabbatga ehtirom,

<sup>2</sup> Qobilov T. "Qaysar cholning qilig'i" yoki premyeradan so'nggi mulohazalar". "Tibbiyat va hayot" gazetasi, 2007-yil, 20-mart.

o'z bilim va kuch-qudrat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Saksoninchi yillarning o'talariga kelib teatr jamoasi respublikadagi viloyat teatrлari orasida birinchi bo'lib rus tilida spektakllar sahnalashtira boshlagani katta voqeа bo'ldi. Bosh rejissyor M.Ravshanov tashabbusi tufayli teatr repertuaridan bir qancha rus tilidagi spektakllar mustahkam o'ren egalladi. Hamzaning "Maysaraning ishi", M.Bayjiyevning "Kuyov va kelin" (1978), Arbuzovning "Ko'hna komediya" (1979), Minulinning "Ayollar hayotidan" (1982) va A.Gelmanning "Barcha bilan yuzma-yuz" (1983), kabi rus tilidagi spektakllar sahnalashtirildi.

Aktrisa "Maysaraning ishi" spektaklida qozi, eshon va boylarning jirkanch kirdikorlarini fosh etgan bo'lsa, "Bir ayol hayoti" spektaklida o'zining aql-zakovati, fahm-farosati, olyi insoniy tuyg'ulari bilan yolg'izligini bildirmasdan, odamlar orasida mehr-shafqat topib, o'z navbatida ularni ham shu bebafo xislatlardan bahramand etuvchi munis ayol obrazini yaratadi.

Viloyat matbuoti o'sha yillari aktrisaning ijodiy faoliyati haqida shunday yozadi: "1985-yili viloyat teatri o'zining 50 yilligini nishonladi. Gulnora Ravshanova esa shu qutlug' dargohda 23 yildan buyon ijodiy izlanishda. Ana shu yillar dovomida, eng avvalo, ota-onasining, so'ngra tajribali aktyorlarning sabog'ini oldi, o'z navbatida yoshlarga murabbiylik ham qildi. Quvonchli tomoni shundaki, teatrning 50 yoshma to'lgan kunida u ham eliginchi obrazini yaratdi".

Mustaqillik yillarida Gulnora Ravshanova ijodida o'zgarish va yuqori tajriba natijalari yorqin ko'zga tashlandi. Istiqlol yillarida aktrisa teatr sahnasida asosan onalar qiyofasini gavdalantirdi. Sh.Pardayevning "Osmon siz uy"ida Ona (1991), Q.Abdunabiyevning "Amir Temur va Yildirim Boyazid" asarida Bibixonim, Ona Turk (1996), E.Xushvaqtovning "Chimildiq" asarida Momo (1997), Usmon Azimning "Alpomishning qaytishi"da Kuntug'mish beka (2000), X.Xursandovning "O'lding, aziz bo'lding" asarida marsiyachi ayol (2000), M.Boboyevning "O'lim xalqasi"da Momo (2002), X.Xursandovning "Muhabbatim qismatim mening" asarida Malika (2004), T.Mahmudov va D.Mahmudovalarning "Jannat izlab" dramasida sudya (2005), X.Xursandovning "Juft-juft laylaklar"ida Zulfiya momo qiyofalarini yaratish orqali o'zbek aktyorlik san'atining nozik jihatlarini namoyon etaoldi.

X.Xursandovning "**O'lding, aziz bo'lding**" asaridagi marsiyachi ayol obrazi spektakl ruhiga juda mos tushadi. "Asar mazmunini tushinishda, ilgari surilayotgan bosh g'oyani anglab yetishda shu obrazning o'mni va ta'siri beqiyos"<sup>2</sup>. Aktrisaning qo'lida doyra, yalla usulida ikki qizni o'ynatib, Maylon otani xotirlab hirgoyi qiladi. Atrofdagilar yalla naqoratiga berilib ketadi. Aynan mana shu chalkashlik, ziddiyatdan kulgi kelib chiqadi. Aktrisa xatti-harakatlari spektakl ruhiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

G.Ravshanova ijodida "Chimildiq" spektaklidagi momo obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Spektakl zavqli, komik ko'rinishlarga boy bo'lib, bu holatlar goh momo goh kelin (M.Saidova), goh kuyov (T.Yo'ldoshev) harakatlari ko'zga tashlanib turadi. O'z maqsadi sari intilayotgan qahramonlarning beixtiyor qiziqarli

voqealarga aralashuvi hech bir tomoshabinni befarg qoldirmaydi.

Rejissyor kelin bilan kuyovni bir-biriga ko'nglini isitib, ularni baxtli qilishni momoga topshiradi. Hadeganda kelin-kuyov murosaga kelavermagach, kayvoni Momo – G.Ravshanova aql bilan ish tutadi. Aktrisa talqinidagi mehribon, saxovatpesha momoning dam-badam paydo bo'lishi, kelin-kuyovga bergen dono maslahatlar spektaklga alohida ruh bag'ishlaydi. Aslida asarning yuki ana shu momo zimmasiga yuklangan, deyish mumkin. U ikki begona qalb orasida ezgu munosabatlar bog'lanishida munis, mehribon, haqgo'y, qatiy va qattiqqo'l vositachi bo'ladi. "G.Ravshanova yaratgan momo obrazi muqaddas udumlarimizni asrab-avaylab kelayotgan, chimildiq va undagi pok yigit va qizning ahdi eng oliv qadriyatlarimizdan biri deb ishonuvchi, o'zi ham bir umr chimildiqdagi ahdigda sodiq qolgan farishtali va ibratlri ona siy whole momo ko'rinishi"<sup>3</sup>, – deya aktrisa ijrosiga yuksak ta'rif beriladi.

Surxondaryo teatrining ijodiy faoliyatida folklor-etnografik kuy-qo'shiqlaridan keng foydalanish jamoaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. M.Ravshanov sahnalashitirgan "Ayol haqida qasida" musiqali folklor tomoshasi ham bevosita xalq marosim qo'shiqlari asosida vujudga kelgan. Xoliq Xursandovning "Ayol haqida qasida" nomli musiqali folklor tomoshasida ham ezgu maqsadlar mujassamlashgan. Muhim jihatni shundan iboratki, dramaturg "Alla" asarida dramatik xatti-harakatlar zamiriga folklor-etnografik qo'shiqlarini moslab singdirishga harakat qilgan bo'lsa, "Ayol haqida qasida" asarida asosan og'izdan-og'izga ko'chib, turlicha jilo topib kelayotgan xalq marosim qo'shiqlarini ma'lum mavzu orqali dramatik xatti-harakatlarda yangi, zamonaviylashtirgan holda aks ettirishga harakat qilgan.

"Ayol haqida qasida" nomli musiqali folklor tomoshasida o'zbek milliy madaniyatining amaldagi ifodasi bo'lgan umumqadriyatlar, ajdodmeros an'analar, surxon vohasi kuy-qo'shiqlari va raqlar mohiyatan ayol va uning qismati, matonatga to'la ibratlri hayoti ifoda etiladi. Spektaklda G.Ravshanova ijrosidagi momo siy whole momo farzand dog'ida kuygan o'zbek ayolining ayanchli qismati, faryod va iztiroblari namoyon bo'ladi. Aktrisa ijrosidagi momo farzandanaytaydi. Ertangi hayotdan umidini uzmaydi. Ertangi tinch-osuda, erkin hayotga umid bog'laydi. G.Ravshanova ijo etgan momo obrazida o'zbek ayolining matonati, sabr bardoshi sahnada to'la namoyon bo'ladi. Uning

tilidan yangragan xalq ohanglari tomoshabinlar qalbini to'lqinlantiradi, qalbida hayajon uyg'otadi.

Vatanga muhabbat, farzandlik burchi, fuqarolik mas'uliyati haqida so'zlovchi "Ona" (Sh.Rizayev asari) spektakli Surxondaryo teatrining bu mavzuga yangicha yondashuvini namoyon etdi. Rejissyor M.Ravshanov yoshlarni tashqi ta'sirlardan qutqarish davrning dolzarb masalasi ekanligiga jiddiy e'tibor qaratadi. Rejissyor ushbu spektaklda boshqa asarlardan farqli o'laroq onalarning jasorati, mehr-muhabbatini, ona, farzand, yurtga bo'lgan muhabbat masalasini birinchi planga olib chiqadi. Natijada spektakl odamlarni egulikka, vatanni sevishga, dini va irqidan qat'iy nazar insoniyatni bir-biriga nisbatan mehr-oqibatl bo'lishga chaqiradi. Shu qatorda: "orzu umidli, mehri jo'shqin ayol hamda Vatan fuqarosi bo'lishdek vazifa mas'uliyatini chuqur anglagan Ona timsolini G.Ravshanova rejissyor olg'a surgan g'oyadan kelib chiqib, bu vazifani muvaffaqiyatl amalga oshiradi".<sup>4</sup>

Spektaklda ona roli G.Ravshanova ijrosida badiiy tugalligi va to'laqonligi bilan murakkab obraz sifatida talqin etiladi. Aktrisa qahramonining ichki tuyg'ularini, onalarga xos mehribonlik, ulug'vorlik, bag'rikenglik xislatalarini farzand bilan uchrashuv sahnasida namoyon etadi. G.Ravshanova bir necha yillik ayrılıq, azob-uqubatdan so'ng farzandini topgan onanining qalbidagi quvонch va hayajonini ta'sirli harakatlarda ifodalab beradi. Ona farzandini ota-bobosi kabi halol mehnat qilishini, baliqchi bo'lishini, el-yurtga foydasi tegishini qalban istaydi. Aktrisa onadagi dadillik, mardlik xususiyatlarini keskin sur'atlarda rivojlantirib boradi. G.Ravshanova o'z qahramoni siy whole momo farzandining kelajagi, tinch-totuv, baxtli, farovon hayoti uchun kurashayotgan o'zbek onasi timsolida namoyon bo'ladi.

Gulnora Ravshanovaning uzoq yillik sermahsul ijodi davlatimiz tomonidan munosib baholanib, bir necha bor yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi. Ko'plab ko'rik-festivalarda yuqori nominatsiyalarga munosib topildi. Ayni damda teatr sahnasidan o'z baxtini topgan aktrisa ijodiy jarayonlar bilan mashg'ul. U yoshlar bilan bellashib serunum ijod qilmoqda. Bugungi kunda Surxondaryo teatri sahnasida yangi-yangi obrazlar yaratish ustida izlanishlar olib bormoqda. Dramaturglarimiz tomonidan yaratilgan bir qator obrazlarni jlonlantirishga bel bog'lagan. Biz ham Surxondaryo teatrining tajribali aktrisasi, el sevgan san'atkor, yoshlarning sevimli ustozsi, O'zbekiston xalq artisti Gulnora Ravshanovaga ijodiy muvaffaqiyat, sihat-salomatlik tilab qolamiz.

#### Foydalanan adabiyotlar:

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sana'at nashriyoti, 2000-y.
2. Islomov T. Sahna va tarix. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sana'at nashriyoti, 1998.
3. Raxmatullayeva D. O'zbek teatri: tarixiy drama. – T.: "San'at", 2004-y.
4. Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati. – T.: "Ma'naviyat", 2000-y.
5. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: "Yangi asr avlod", 2007-y.
6. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi (ikki tomlik) – T.: O'zDSI, 2009-y.
7. Shokirov O'. Abduqunduzov M. Milliy teatrımız namoyandalari. – T.: "O'zbekiston", 2002-y.
8. Istiqlol va Milliy teatr (to'plam). – T.: "Yangi asr avlod", 2002-y.
9. Qodirova S. Komediya san'ati tarixi. – T.: "San'at", 2008-y.

<sup>3</sup> Shafoat Raxmatullo Termiziyy. "Chimildiq". "Surxon tongi" gazetasini, 1997-yil, 27-mart.

<sup>4</sup> Qobilov T. "Onalar bongi – ogohlilik sadosi". "Termiz oqshomi" gazetasini, 2011-yil, 10-oktyabr.

## QORAQALPOQ DAVLAT AKADEMIK MUSIQALI TEATRINING MUSTAQILLIK YILLARIDA IJODIY IZLANISHLARI

**Annotatsiya.** Maqolada, Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining ko'p yillik ijodiy izlanishlari natijasida orttirilgan tajribalar, dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san'atida erishilgan yutuqlari, zamonaviy jarayondag'i yangi tendensiyalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** teatr, dramaturgiya, aktyor, rejissyor, kompozitsiya, badiiy g'oya.

## ТВОРЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО АКАДЕМИЧЕСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ТЕАТРА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

**Аннотация.** В статье отражено об опыте, полученном в результате многолетнего творческого поиска Каракалпакского государственного академического музыкального театра, достижениях в искусстве драматургии, режиссуре и актерском мастерстве, новых тенденциях в современном процессе.

**Ключевые слова:** театр, драма, актер, режиссер, состав, художественные идеи.

## CREATIVE RESEARCHES OF THE KARAKALPAK STATE ACADEMIC MUSICAL THEATER DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

**Abstract.** The article reflects on the experience gained as a result of many years of creative search of the Karakalpak State Academic Musical Theatre, achievements in the art of dramaturgy, directing and acting, new trends in the modern process.

**Key words:** theater, drama, actor, director, composition, artistic ideas.



Insonlarga estetik zavq berish, ularning ma'nnaviyatini boyitish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishda teatr san'atining o'rni benihoya katta. Madaniyatning uzviy qismi bo'lgan teatr chinakam tarbiya o'chog'idir. Unda avvalo, millat taqdiri, insonlar hayoti, yurt qayg'usi va shodligi o'z aksini topadi. Teatr tomoshabinlarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Teatr tarbiya o'chog'i sifatida insonlardagi salbiy xususiyatlarni, kamchilik va xatolarni anglatishga, yaxshi va yomonni, oq-qorani ajratishga undaydi.

Teatr tomoshabinlar ma'nnaviyatini yuksalishi yo'lida xizmat qiluvchi, eng kuchli va eng ta'sirchan san'at turlaridan biridir. Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Sahna san'atining insonlarga nafaqat zavq-shavq baxsh etishi, ayni vaqtida qudratli tarbiya vositasи ham bo'lishi, bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir"<sup>1</sup>. Vatanparvarlik, milliy g'urur, insoniylik, mehr-oqibat, odob-axloq mavzularini yoritishda teatr boshqa san'at turlaridan ta'sirchanligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri Respublikamizda o'z uslubi, yo'nalishi, nufuziga ega tomosha maskanlaridan biri hisoblanadi. Bu dargoh o'zining 96 yillik tarixiga ega bo'lib, bu yillar davomida ijodiy jamoa xalqimiz ma'nnaviy dunyosining ajralmas qismiga aylanib, jamiyatning taraqqiyot

bosqichlarida haqiqiy hayot manzaralarini aks ettirgan madaniy-ma'nnaviy maskanga aylanib ulgurdi. Xalq bilan hamjihat bo'lib, insonlarning quvonch va tashvishlarini sahna asarlarida aks ettirib, tomoshabinlar ko'nglidan joy oldi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy madaniyatimiz ravnaqi yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor va g'amxo'rlik yurtimiz teatr jamoalari faoliyatida ham o'zining yorqin isbotini topmoqda. Respublika teatrlarining moddiytexnik bazasi yaxshilanmoqda. Ular zarur texnik, sahna jihoz va uskunlari, bezak va dekoratsiyalar bilan ta'minlanmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yil Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining 90 yillik kechasi keng nishonlandi. Prezidentimizning 2017-yil 3-avgust kuni ijodkor ziyolilar bilan o'tkazgan uchrashuvida yurtimiz madaniyat, adabiyot va san'at sohalarini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi. Shulardan kelib chiqqan holda mazkur teatr jamoasida ham "Do'stlar klubı" tashkil etilib, teatrga homiy tashkilotlar biriktirildi. Bu esa ijodiy jamoa imkoniyatini yanada kengaytirdi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri faoliyati yanada takomillashdi. Asar tanlash, mavzu va janr talablarini hisobga olgan holda sahnalashtirish, repertuar tanlash, ijod uslublarini topish, tomoshabinlarni mushohadaga chorlaydigan asarlarni sahnalashtirishda keskin ijodiy burulish

<sup>1</sup> Istiqlol va Milliy teatr (to'plam). – Toshkent: "Yangi asr avlodii", 2002-y. 15-b.

vujudga keldi. Mustaqillik yillarda erishilayotgan yutuqlar, bugungi zamonda qaharamonlarining badiiy obrazini yaratish, tariyxiy mavzularga yondashuv, yoshlarning estetik ehtiyojlariiga mos keladigan asarlarni sahnalashtirishdagi o'ziga xos uslublar tomoshabinlarda teatr san'atiga bo'lgan qiziqishning ortirishiga sabab bo'lmoxda.

Teatrning istiqlol yillardagi faoliyatida ko'pgina diqqatga sazovar o'zgarishlar yuz berdi. Ijodiy jamoaning repertuar siyosati, rejissura va aktyorlik san'atidagi yangiliklari, xalqaro madaniyat maydonida ortirgan tajribalari jamoaning uzoq yillik mashaqqatli mehnatlari bilan bog'liqdir. Teatr jamoasining erishgan yutuqlari, asosan yoshlarni ongiga vatanga sadoqat, ezgulik kabi g'oyalarni singdirishda alohida xizmat ko'rsatayotgani uchun teatrga 2017-yil akademik maqomi berildi. Bu maqom shu teatrning rivoji uchun o'z burchiga mas'uliyat bilan yondashgan va yondashayotgan ustoz san'atkornarning mas'uliyatli, o'z o'rniда sharaflı mehnatlari evaziga vujudga keldi.

Keyingi yillari sahnalashtirilgan "*O'jarlar*" (O.Abdurahmonov, Q.Zaretdinov), "*Qizing or-nomusing*" (A.Uteniyazova, Sh.Paxratdinov), "*Yor diydori*", "*Laqqilar kasalxonada*" (K.Raxmanov, Q.Zaretdinov), "*O'lim jazosi*" (K.Raxmanov, A.Turemurodova), "*Vijdon*" (P.Tilegenov, S.Palo'anov) kabi musiqali dramalar keng jamoatchilik va soha mutaxassislarining e'tiborini tortdi.

Mustaqillik yillarda rejissyorlar N.Davqarayev va N.Muxammeddinovlar tomonidan "*Alpomish*" asarining sahnalashtirilishi Respublika teatr san'ati tarixida muhim voqeа bo'ldi. Ming yillik tarixga ega bo'lgan dostonlar xalqimizning ma'naviy boyligi, hozirgi yoshlarni bu boylikdan bahramand bo'lishi, uni o'rganishi, undagi umumbashariy g'oyalardan ozuqa olishi, ma'naviy yuksalishi zarur. Bu mas'uliyatni anglagan ijodiy jamoa mazmunan shirali, milliy kolorit bilan yo'g'rilgan, keng polotnoli musiqali dramani yaratdi. Bu spektaklning yangiliqi, avvalgilardan mazmun va badiiylik, janr talabi va zamonaviyligi nuqtayi nazaridan o'zgachaligi bilan belgilandi.

Spektaklda aktyorlarning rollarga to'g'ri tanlanishi natijasida, sahnada yaxlit ansambl yaratildi, deyish mumkin. Alpomish va Gulparchin obrazi teatrga endi qadam qo'ygan yosh ijodkorlar Marxabay Usenov bilan Sarvinoz Annaqulovalarga topshirildi. Spektaklning ommaviy sahnalari jonli, doimo harakatda, voqealar jarayoni, sahnaviy muhit, shart-sharoit spektaklning yaxlitligi va ta'sirchanligini ta'minlagan. Bunday izlanishlar spektaklni teatr repertuarida uzoq yashashiga xizmat qildi.

Ijodiy jamoa so'nggi yillarda klassik asarlardan Q.Zaretdinovning "*To'maris*" operasi, K.Raxmanovning "*Yedige*" musiqali dramasi, Q.Matmuratovning "*Berdaq*" musiqali dramasi Q.Zaretdinovning "*Qirqqiz*" baleti, N.Muxammeddinovning "*Gulayim*" operasi, "*Ajiniyoz*" operasi va "*Ayjamal*" baleti, A.Begimov, T.Allanazarovlarning "*G'arib oshiq*" musiqali dramalari yangidan sahnalashtirish orqali Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining ijodiy salohiyatini namoyon etdi. Shu bilan birga milliy dramaturglardan K.Raxmanov, Q.Matmuratov, M.Nizanov, S.Jumag'ulov,

K.Karimov, yosh dramaturglardan P.Uteniyazov asarlari ham muvaffaqiyatli sahnalashtirildi.

Bugungi kunda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatr repertuariga e'tibor qaratilsa, mavzu va janr jihatidan turlicha bo'lgan asarlar sahnalashtirilganligi ko'zga tashlanadi. Jahon va milliy mumtoz asarlardan "*Luvr o'rdagi*", "*Jamila*" (Ch.Aytmatov), "*Alpomish*" (N.Davqarayev), "*Yedige*" (K.Raxmanov), "*To'maris*" (Q.Zaretdinov) doston asosida yaratilgan musiqali dramalar teatrning mustahkam, badiiy jihatdan yaxlit sahna asarlarini yaratda olish imkoniyatini namoyon etdi.

Teatrning ayni damdag'i repertuaridan tarixiy dramalar ham mustahkam o'r'in olgan. "*Sohibqiron*" (A.Oripov), "*Ajiniyoz*" (N.Muxammeddinov), "*Berdaq*", "*Ayaziyy*" (M.Nizanov) kabi spektakllarda ijodiy jamoa tarixiy va badiiy haqiqat o'tasidagi muvozanatni ushlay olganligi seziladi. Teatr repertuaridan folklor-etnografik, ijtimoiy va maishiy hamda hajviy tomoshalar ham o'r'in egallagan. Bunga misol qilib "*Kelin*" (K.Raxmanov), "*O'jarlar*" (O.Abdiraxmanov), "*Andishali kelinchak*" (E.Xushvaqt), "*Tanho yulduz*" (N.Abbosxon), "*Jezde*" (M.Nizanov), "*Muhabbat shabadasi*" (K.Raxmanov) kabi bir qator spektakllarni keltirish mumkin. Zamonaviy real voqealarni xayoliy-afsonaviy, diniy-mistik tasavvurlar bilan omuxta qilib tasvirlovchi "*Qirqqiz*" (Q.Zaretdinov), "*Ayjamal*" (N.Muxammeddinov), "*Farzand tashvishi*" (P.Uteniyazov, S.Uzaqbayev) singari spektakllar teatr repertuarida alohida bir toifani tashkil etib keladi. Ijtimoiy mazmunli, yangi davrning murakkab, ziddiyatlari muammolarini yorituvchi "*Oydin*" (R.Muxammedjanov), "*Risolat qurbanlari*" (N.Hoshimov), "*Gul olmagon go'zallar*", "*Taqdir sinovlari*" (Q.Norqobil) kabi spektakllar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida o'ziga xos talqin uslubi, rejissurada kutilmagan yechimiga, aktyor ijrochiligidida mustahkam mahoratga ega ekanligi bilan namoyon bo'ldi.

Teatr repertuaridan ma'naviy meros, milliy qadriyatlarni ifoda etadigan, tarbiyaviy ahamiyatga ega diniy ekstremizm va odam savdosi kabi yet g'oyalarga qarshi kurashga da'vat etadigan spektakllar ham o'r'in olgan. O'zida yuksak g'oyalarni ifoda etgan N.Muxammeddinovning "*Ayjamal*" baleti, K.Raxmanovning "*Yedige*" musiqali dramasi, "*Yor diydori*" musiqali dramasi, A.Begimov, T.Allanazarovlarning "*G'arib oshiq*" musiqali dramasi tomoshabinlar va soha mutaxassislarining yuksak e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Qoraqalpoq xalqining asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlari g'oyat boy milliy-madaniy meros sifatida ma'naviy tariximizda o'chmas iz qoldirgan. Xalqimizning asrlar davomida jirov, baxshilar orqali ijro etilgan dostonlarning sahnaga ko'chishi teatr hayotida muhim voqeа bo'ldi. 2015-yil Q.Zaretdinovning "*Qirqqiz*" baleti, 2019-yil N.Muxammeddinovning ushbu doston asosida yozilgan "*Gulayim*" operasi (libretto muallifi G.Annaklicheva), 2021-yil K.Allambergenovning "*Qirqqiz*" musiqali dramalarida shu yurtning ulug'vorligi, insonlarning mard va jasurligi, ayollardagi mehr, vafo, sadoqat badiiy obrazlarda namoyon bo'ldi.

So'nggi yillarda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengashining buyurtmasi asosida Abdulla Qodiriyning "**O'tkan kunlar**" (Erkin Xushvaqtov insenirovkasi) asari o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi madaniy, do'stlik va ijodiy aloqalarini yanada mustahkamlash, o'zbek adabiyotini xalqimizga yaqindan tanishitirish maqsadida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston san'at arbobi Marat Azimov tomonidan va Soya Qoshimbekning "**Lift**" badiiy asarlari Marqabay Usenov tomonidan, U.Shekspirning "**Gamlet**" tragediyasi Berdibay Utebayev tomonidan, P.I.Chaykovskiyning "**Shel-kunchik**" baleti Z.Nurimbetov tomonidan muvaffaqiyatli sahnalaشتirildi.

Bundan tashqari teatrda zamonaviy o'zbek, qozoq, turkman, tojik, turk, rus dramaturgalarining sara pyesalari sahnalaشتirilib kelinmoqda. A.Qahhor, S.Ahmad, O'.Hoshimov, Sh.Boshbekov, K.Yashin, Q.Norqobil, N.Abbosxon, N.Hoshimov, S.Balg'abayev, Q.Bayseytov, Q.Muxammedjanov, Ch.Gullayev, M.Baxtiy va yana boshqa mualliflarning pyesalari teatr repertuaridan munosib o'rinn egallagan.

Teatrda kichik ko'lAMDAGI milliy dramaturgiyadan tortib jahon dramaturgiyasining klassik asarlari yorqin namoyish etildi, opera va balet spektakllarining sahnalaشتirilishi jamoaning katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Albatta, buning barchasiga aktyorlar, rejissyorlar, bastakorlar, rassomlar va boshqa teatr mutaxassislarining fidoyiliklari tufayli erishib kelinmoqda.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida bugungi kunda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artistlari M.Sapayeva, B.Uzaqbergenov, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston san'at arbobi Q.Zaretdinov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston xalq artisti O.Qosimbetov, Qoraqalpog'iston xalq artisti S.Dao'letova, O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artistlar R.Kutekeyeva, Ye.Aytniyazova, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artistlar B.Nazarimbetov, K.Kalandarov, S.Ganiyeva, J.Sag'indikova, G.Saribayeva, G'.Saytov, G.Jumaniyazova, S.Annaqulova, B.Jumatayev, B.Razimbetov, M.Usenov, K.Allanazarovlar iste'dodli yoshlardan S.Ayimbetov, B.Abillayev A.Amaniyazov, A.Nazarimbetov, I.Maxammadiyrov, D.Nurillayeva

hamda "**Nihol**" davlat mukofoti sovrindorlari ijod qilib kelishmoqda.

Hozirgi kunda teatrda vokal, drama artistlari bilan bir qatorda simfonik orkestr, balet, xor artistlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu esa kelgusida teatr spektakllari janrlarining yana rivojlanish salohiyati, istiqboli mavjudligini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri repertuaridan asosan drama, tarixiy drama, musiqali drama, psixologik drama, ertak, komediya, musiqiy komediya, tragediya, opera, balet asarlari o'rinn egallab kelmoqda. Teatr repertuaridan spektakllar bilan bir qatorda teatrlashtirilgan shou konsertlari ham o'rinn olgan. Teatr repertuarini janr nuqtayi nazaridan tahlil qilish shuni ko'rsatadi-ki, balet, opera janrlaridagi spektakllar repertuaridan o'rinn olgani bilan son jihatdan juda kam. Zamonaviy qahramonlar obrazini yaratish lozimligi haqidagi fikrlar teatr jamoasi uchun dasturilamal vazifani o'tamoqda.

Teatrning samarali va muvaffaqiyatlari izlanishlari o'z vaqtida munosib baholanib kelinmoqda. Har yili bir qator ijodkor xodimlar yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlanib kelinmoqda. Teatrda yangi ijodiy muhit, an'ana va yangi tendensiylar shakllanmoqda. Teatr badiiy rahbari, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist M.Usenov, bosh rejissyor Muxtar Reymov, rejissyorlar B.Baymurzayev B.Utebayevlar jamoa bilan birga hamfikr bo'lib, yangidan-yangi asarlar ustida ijodiy izlanmoqdalar.

Teatr san'ati tarixi nuqtayi nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, mustaqillik yillardagi erishgan jarayonlar ushbu soha bo'yicha erishgan katta yutuqlarimizni tasdiqlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan barcha teatrlar Respublika miyosida o'tkazilayotgan bayram, tomoshalar va yubileylarda o'zlarining rang-barang repertuari bilan ishtiroy etib kelmoqdalar.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri jamoasi tomonidan sahnalaشتirilgan asarlarda ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbliji, hayotiyligi, personajlarning o'ziga xosligi, ijroda xalq teatri elementlaridan unumli foydalaniyatgani muvaffaqiyat omili bo'limoqda. Shuningdek, milliy mumtoz asarlar va jahon dramaturgiyasini namunalariga murojaat qilinishi yaxshi samara bermoqda.

### Foydalaniлgan adabiyotlar:

1. Abdusamatov H. Drama nazariysi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000-y. 288-b.
2. Ayimbetov Q. Qaraqalpoq folklori. – Nekis: 1977-y.
3. Allanazarov T. Qoraqalpoq teatrida milliy rejissuraning shakllanishi. – Nekis: "Bilim", 1996-y.
4. Bayandihev T. Qoraqalpoq teatri tarixi. – T.: O'zDSI bosmaxonasi, 2011-y.
5. Bayandihev T. San'at masalalari – teatrshunos nigohida. – T.: O'zDSI bosmaxonasi, 2009-y.
6. Bayandihev T., Sayfullayev B. Qoraqalpoq sahnasining Berdaq shoiri. – T.: 2014-y.
7. Ikromov H. Davr va teatr. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009-y.
8. Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998-y.
9. Qodirov M.X. Tomosha san'ati o'mishidan lavhalar. – T.: "Fan", 1993-y. 207-b.



# II BO'LIM

## MUSIQA SAN'ATI

Dilbar MALIKOVA,  
O'zDSMI "Vokal" kafedrasi dotsenti

### VOKAL – XOR JAMOALARI BILAN ISHLASHDA DIRIJJORNING VAZIFALARI HUSUSIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, vokal – xor jamoalari bilan muvaffaqiyatli faoliyat ko'satish uchun xorda olib boriladigan dirijyor-xormeysterning vazifalari, uning vokal ishlari va ularning ahamiyati borasida, vokal – xor malakalarini o'zlashtirish, xormyester-dirijorning professional sifatlari hamda vokal-xor jamoalarining konsert chiqishlariga tayyorgarliklari xususida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** xor, ovoz apparati, registr, tessitura, dinamika, temp, interval, garmonik tuzilma, kamerton, artikulyatsiya, diapazon, ohang, intonatsiya, ansambl, ovoz tembrlari, talaffuz, a kapella, xormyester, dirijyor, auftakt, repertuar.

### ОБ ОБЯЗАННОСТЯХ ДИРИЖЕРА ПРИ РАБОТЕ С ВОКАЛЬНО – ХОРОВЫМИ КОЛЛЕКТИВАМИ

**Аннотация.** В данной статье изложены мнения о задачах дирижера-хормейстера в хоре, его вокальной работе и их значении для успешной деятельности с вокально-хоровыми коллективами, освоении вокально-хоровых навыков, профессиональных качествах хормейстера-дирижера и подготовке к концертным выступлениям вокально-хоровых коллективов.

**Ключевые слова:** хор, голосовой аппарат, регистр, tessitura, динамика, темп, интервал, гармоническая структура, камертон, артикуляция, диапазон, тон, интонация, чувства ритма, ансамбль, тембрь голосов, произношение, а капелла, хормейстер, дирижер, ауфтакт, репертуар.

### THE DUTIES OF THE CONDUCTOR WHEN WORKING WITH VOCAL – CHORAL TEAMS

**Abstract.** This article presents opinions on the tasks of a choirmaster in a choir, his vocal work and their significance for successful work with vocal and choral groups, mastering vocal and choral skills, professional qualities of a choirmaster-conductor and preparation for concert performances of vocal and choral groups.

**Key words:** chorus, vocal apparatus, register, tessitura, dynamics, tempo, interval, harmonic structure, tuning fork, articulation, range, tone, intonation, feelings of rhythm, ensemble, timbres of voices, pronunciation, a cappella, choirmaster, conductor, auftact, repertoire.



Dirijyor qo'l harakatlarining vazifasi – taktdagi hissalar soni, ya'ni yozilgan asarning o'lchovini belgilash va barcha talab etilgan asardagi o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsatishdan iborat.

Vokal-xor qo'shiqchiligi – bu inson badiiy faoliyatining eng keng shaklidir. U insoniyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlamini jadal badiiy faoliyatga va umumiylashuvga chorlaydi. Jamoa bo'lib kuylash insonlarni xalq qo'shiqchiligi merosiga, shuningdek, milliy va dunyo musiqa klassik durdonalariga qiziqish tug'dirib, birlashtiradi. Insonlarni ahillik va birdamlilikcha qaqirish, ularga ma'naviy barkamollikka yetishish va ongini o'sishida yordam beradi. "Xor" atamasi haqida P.G.Chesnokov, A.A.Yegorov, V.G.Sokolov, K.K.Pigrovlarning qarashlarini umumlashtirib, V.Krasnoshlykov: "Xor – bu katta vokal ijrochilarini jamoasi bo'lib, u ijro etadigan asarlarning shaklan va

mazmunan badiiy yaxlitligini o'z ijodiy faoliyati orqali xalqni estetik tarbiyalovchi jamoadir"<sup>1</sup>, – deb ta'riflaydi.

Xor dirijori vazifalari xususida ham to'xtalish lozim. Dirijyor har qanday ijrochi-musiqachi kabi artist, ijodkor hisoblanadi. Xor dirijorining cholg'usi bu xor ishtirokchilari va xordir. Dirijorning vazifasi xorni o'z irodasiga bo'ysundirgan holda yagona jamoa, organizm yaratishdan iboratdir. Dirijyor ijodiy jarayonda doimo o'zini tuta bilishi, yaxshi kayfiyatda bo'lishi, ijod jarayonida o'zini qo'liga ola bilishi, asar ustida ishlashda bor mahoratini ishga solishi, dirijyorlik bilimlaridan to'g'ri foydalana bilishi shartdir.

Dirijyor-o'qituvchi asar talqiniga jiddiy yondoshishi zarur. Ijroda asarning avj nuqtasiga erishish, xarakter va uslubini anglab, uning badiiy g'oyasini ochish ishlarini bajaradi. Asarni o'zlashtirish jarayonida uni ruhan sezish va mulohaza qilish lozim. Asar ijrosida musiqiy badiylikka erishish uchun uning jumlalarini jamoa bilan birga his qilib, dinamik tuslarini aniq bajarishi lozim.

<sup>1</sup> Краснощеков В. Вопросы хороведения. – Москва:  
«Музыка», 1969 г. Стр.81-82.

Asarni o'zlashtirishda estetik holat asosiy rol o'yaydi. Asarga nisbatan ichki kechinmalar vujudga kelgandagina estetik kechinmalar dunyosini qamrab olish mumkin bo'ladi. Xor bilan yaxshi ishslash uchun o'qituvchi-dirijyor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Dirijor navo, xirgoyi va ritm hissiga ega bo'lishi lozim. Dirijorning obrazli tasavvuri kuchli bo'lishi ham juda muhim. Negaki, bitta musiqa turli insonlarda har xil tasavvurlarni vujudga keltiradi. Kompozitor yaratgan musiqiy asarni uningdek anglab, tasavvur qilish, bu dirijorning ijodiy fantaziysi va uning obrazli shoirona fikrlash qobilyatiga ega bo'lish kerakligini ko'rsatadi. Buning uchun dirijyor kompozitor uslubini yaxshi bilishi, muallif g'oyasini anglab yetishi, niroyatda yaxshi va nozik did, musiqiy asar talqinini tabiiy va haqqoni bo'lishini ta'minlashi kerak. Dirijyor – xorga rahbar, o'qituvchi, instruktor bo'lishini ham unutmasligi kerak. Bunda dirijyor o'zini nazorat qila bilishi, har qanday vaziyatda tezkor va ifodali bo'lishi lozim. Shuningdek, dirijyor ijo etilayotgan asarni juda yaxshi bilishi, nota materialini yaxshi yodlab, o'rganib olishi kerak.

Bu borada amerikalik xormeyster Gordon Lamb "Choral Techniques" kitobida konser tchiqishlari va ularga tayyorgarlik masalalari bo'yicha shunday yozadi: "*Konsert oldi bir necha repititsiyalarda dirijyor barcha tashkiliy ishlarni mayda detallarigacha tahlil qilib, e'tibor talab qilinadigan masalalar, muammolar, qiyinchilikni oldindan hal qilishi, yechimini topishi kerak. Konsert dasturi ustida ishlaganda dirijyor va xonandalarning barchasi hamkorlikda mukammal, sayqal berilgan, tinglovchilarga ma'naviy ozuqa, estetik zavq beradigan asarlarni taqdim etishga harakat qilishlari kerak. Qismlarga, partiyalarga bo'lib, uzoq muddatda o'rganilgan xor asarini umumlashtirilganda, har bir xonanda ansamblni, xorni his qilishi, ovozini go'zal, ajoyib musiqa to'lqinida yangrashidan o'zi ham, tinglovchiga ham zavq ularishi kerak. U buni his qilishi, ongli ravishda konsertda qatnashish mas'uliyatini tushunishi uchun ham so'nggi bir necha repititsiyalarning o'rni muhimdir*"<sup>2</sup>.

Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, mardlik, halollik va prinsipiallik kabi xususiyatlarsiz haqiqiy dirijyorni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xorda kuylayotgan har bir xor ishtirokchisining noto'g'ri kuylashini dirijyor anglab, eshita olishi lozim. Xor dirijori asar mazmuni, ohangini oldindan ilg'ab, mag'zini chaqib, har bir ovoz yo'nalishlarini yaxshi bilib o'ziga xos pardalarini, kuylovchilar tembrini ajrata olish va ularni to'g'ri yo'naltira bilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Dirijyor vokal-xor mashg'ulotlarini ijrochilar ovozini qo'shiq kuylashga tayyorlashdan boshlaydi. Bunda ovoz apparatini qizdirishdan tashqari, ijrochilarning vokal – eshitish qobiliyatini sozlash ham ko'zda tutiladi.

Ovoz mashqlarni o'rta registr, qulay tessitura, o'rta dinamika, sekin tempda oddiy mashqlar bilan

unisonda boshlab, sekin-asta garmonik (ikki, uch va to'rt ovozli) tuzumlarga o'tish maqsadga muvofiq. Ovozlarni qizdirish barcha ishtirokchilar, ya'ni butun xor bilan birga boshlansa, ba'zi mashqlarda alohida ovozlar: pastki ovozlardan boshlab keyin yuqori ovozlar qo'shiladi. Ba'zi asarlardan namunalar ham mashqlarda qo'llanilishi mumkin. Mashqlar fortepiano jo'rligida, jo'rsiz yoki kamerton yordamida kuylanishi mumkin.

Ovoz mashqlari jarayonida vokal-xor texnikasi kuylash malakalari mustahkamlanadi. Ovozni qo'shiq kuylashga tayyorlash mashqlari ma'lum tartibda o'tkazilib, unda ovozni to'g'ri hosil qilishga, to'g'ri nafas olishga, yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishiladi. Natijada, ijrochilarning ovoz imkoniyatlari mustahkamlanadi. Mashqlar ketma-ketligi har doim bir xil kuylanishi shart emas. Ovoz sozlash mashqlari ustida ishslash jarayonida o'rganiladigan asarlarning jumlalaridan mashq sifatida foydalaniш ham mumkin. Ularni mukammal o'rganilganligi asarlarning ijrosi vaqtida yaxshi natija beradi. Bunday yondashuv asardagi ma'lum bir vokal – texnik ijo masalalarini hal etishda ham yordam beradi.

Ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabgacha bo'lgan tartibda amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarda to'g'ri ovoz pozitsiyasiga va nafasga, yaxshi ansambl va xor soziga erishiladi. Ayniqsa, artikulyatsiya apparatining aktivligi oshadi. Shu bilan birga ovozni rivojlantirish, uning diapazonini kengaytirish, so'z talaffuzining aniqligiga erishish, garmonik qobiliyatlarni o'stirish va mustahkamlash kabi muhim ishlar ko'zda tutiladi.

Xorning muvaffaqiyatli faoliyati uchun vokal ishlari muntazam va muttasil olib boriladi.

Ovoz mashqlari borasida amerikalik xormeyster Gordon Lamb "Choral Techniques" kitobida shunday yozadi: "*Qanday mashqlardan ish jarayonini boshlashni va kuylatishni xormeysterning o'zi tanlaydi. Bu mashqlarni kuylashda xor ohangini birlashtirib, ansamblga erishmaguncha bir necha bor qaytarish mumkin. Texnik jihatdan mashqlarni alohida ovozlarda ham to'xtalib ishlab, mashq ohangi va hissalarini birdek ansamblda kuylatib, tekislab, barcha ovozlarni birga uylatganda tiniq, sofohanglarni ijrosiga erishish zarur... Dirijyor mashq jarayonlarida xor ishtirokchilariga tovush hosil qilish, ovozlarga tazyiq o'tkazmay kuylash talab etiladi. Mashqlar ijrosida xorning ansambliga erishish zarur. Dirijyor xor ishtirokchilarining ovoz tembrlari, ritmik bir xillik, xor birligi va aniq ijrosiga erishadi*"<sup>3</sup>.

Ovoz mashqlarni bir qator unli va undosh tovushlarda mustahkam nafasda chaqqon tempda notalarni kuylash lozim. Shuningdek, tovush hajmini kengaytirish, artikulyatsiya apparatining mushaklarini bo'shatish, xonanda lablarining faoliyatini oshiruvchi va talaffuzni rivojlantirish uchun mashqlardan ham, albatta, kuylash zarur. Dirijyor repetitsiya jarayonlarini rejalashtirib, ularni reja asosida olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamoa ishtirokchilarining ovoz apparatini ma'lum mashqlar bilan ish holatiga keltirmay, asarlar kuylashga o'tib bo'lmaydi. Ularni o'rgatiladigan asar bilan har tomonlama tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Dirijyor o'rganiladigan asarning yaratilish tarixi va

<sup>2</sup> Choral TechniquesBy: Gordon Lambo on n e x i o n s Rice University, Houston, Texas http://cnx.org/content/col11191/1.1/ 273-274-b.  
Choral Techniques By: Gordon Lambo on n e x i o n s Rice University, Houston, Texas http://cnx.org/content/col11191/1.1/ 203-204

uning mualliflari hamda asar mazmuni haqida qisqacha ma'lumot beradi. Agar ushbu asarning elektron yozuv ijrosi bo'lsa, uni talabalarga eshittirish lozim. Bu asarni o'rghanishda va keyinchalik ijrosida ta'sirchanlikni, g'oyaviy mazmunini va badiiy obrazli ijo etishda katta yordam beradi. Asarning yozilishiga qarab, turli ovozlar bilan o'rgatishni boshlash mumkin. Asarning ma'lum kuy bo'laklarini alohida guruhlarga o'rgatib bo'lgach, ularni kichik-kichik jumlalar bilan qo'shib ijo ettirish kerak. Ijo jarayonida qiyinchilik tug'dirgan musiqiy jumlalar, intervallar vaakkordlar sofligiga erishish uchun alohida to'xtalib ishslash maqsadga muvofiqdir. Asardagi murakkabroq (intonatsiya, diksiya) qismalarni talabalar yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun dirijyor oldindan ma'lum mashqlar tayyorlab qo'yishi va ular orqali ijrodagi qiyinchiliklarni bartaraf etishi lozim.

Asar ijrosida musiqiy badiiylikka erishish uchun uning jumlalarini his qilish va dinamik tuslarini aniq bajarish lozim. Dirijyor xonandalarni har bir musiqiy jumla va frazani dinamik tuslar yordamida ifodali ijo qilihsiga o'rgatadi. Har qanday yaxshi o'zlashtirilgan asar o'z xarakteriga monand sur'atda ijo qilinmasa, u eshituvchilarni qiziqtirmaydi. Dinamik tuslarning aniq bajarilishi hamda adabiy matn so'zlarining ifodali va aniq talaffuzi ijroning ta'sirchanligini oshiradi.

Dirijyor asarni texnik tomonidan o'zlashtirib bo'lgach, xorga asarni o'rgatish jarayoni va konsert ijrosida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar: takt hissalarini bo'linish hollari, ayrim zarblar, auftaktlar, fermato, xor ovozlar guruhlari ko'rsatiladigan ayrim qiyin dirijyorlik ishoralari, uzishlar va boshqalar texnik tomonidan puxta va aniq bajarilishiga erishiladi. Ijrochilik tahlili davomida dirijyorda (musiqiy didi va tafakkuri tufayli) asarning badiiy obrazini yaratish haqida fikrlar tug'ilba boradi.

Umuman, dirijyorning asarni musiqaviy jumlalarga to'g'ri bo'la olish va uning aniq ijo sur'atini topa olish muhim ahamiyatga ega. Shundan ko'rinish turibdiki, dirijyorning ijrochi va talqinchi sifatidagi vazifalari unung oldiga juda murakkab masala, muallif nazarda tutgan mulohazalarni tushunib, uning fikrlarini to'g'ri talqin etish muammosini ko'ndalang qo'yadi. Buning uchun muallifning matniga nisbatan juda e'tiborli bo'lishi, uni aniq o'qiy olishi, muallifning barcha ko'rsatmalari, barcha ijo tavsiyalarini qunt bilan o'rganishi juda muhim.

Xor san'ati – musiqa va adabiy poetik ijodiyotni organik birlashtiruvchi san'atdir. Asardagi adabiy tekst so'zlarini tinglovchilarga yetkazib berish vositasi diksiya deyiladi. Diksiya asarning g'oyaviy mazmunini oshib berishda muhim rol o'ynaydi. Agar so'zlar poetik fikrni aniqlashtirsa, musiqa ularni emotsional bo'yoqlar bilan to'ldiradi, chuqurlashtiradi. Xor ijrochiligidagi xonandalardan to'g'ri diksiya (lotincha diction – nutq talaffuzi), ya'ni adabiy tekstni aniq va ravon talaffuz qilish talab qilinadi. Tovush o'rnining to'g'riliqi va nafas aktivligi diksiyaga bog'liq. Xor dirijyori boshqa vazifalar ustida ishlar olib borayotganida ham talaffuz

ustidagi muammolar ustida muntazam ravishda ishlar olib borishi kerak. Vokal-xor ijrochiligidagi bo'g'lnarni ko'chirilishida ham undosh tovushlarni kuylashda birlikka erishish zarur. Xorda xonandalarning so'z talaffuzi mahorati bilan birga nutq madaniyatini o'stirib borish lozim. Vokal-xor diksiysi bir butun kompleks bo'lib, u tartibli ravishda xorning vokal ishlari bilan bog'lab olib boriladi.

Xorning ijrosida badiiylikka erishishda dinamik tuslarning ahamiyati cheksiz. Kompozitor tomonidan qo'yilgan dinamik belgilarni aniq bajarish, ya'ni uni tushuna bilibgina qolmay, xorga (har bir partiyaga) o'rgata bilish kerak. Ma'lumki, har bir katta va kichik musiqajumlesi boshlanish, o'rta (avj) va oxirgi qismalarga bo'linadi. Xor rahbari shuni nazarda tutib, jumalarning mantiqiy nuqtasini topishi va ijo qilishi (agar muallif tomonidan qo'yilmagan bo'lsa ham) lozim. Xorda to'g'ri fortissimo nyuansiga erishish birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Chunki ovoz kuchi qattiq bo'lganda eshitish organlariga salbiy ta'sir qilishi sir emas. Qattiq ijroda ansamblga, yaxshi sozga erishish qiyin. Asarning xarakteriga qarab forte to'liq jarangdor qilib ijo etilishi mumkin.

Xorda piano ijrosiga og'ir, bosiq tovushda og'izni yumib va oshib, bir ovozda (I oktavada) mashq qilib erishish mumkin. Piano pastki registrda yumshoqroq, o'rta registrda ravon va yuqori registrda yengil, mayin bo'lib eshitiladi. Umuman xorda fortissimo va pianissimo ovoz kuchlariga erishish qiyin hisoblanadi. Xorda har qanday dinamik tusni ifoda etish uchun ko'p mashq olib borish talab qilinadi: kreshendo, diminuendo, forte, piano, sforsando, aksent, pianissimo va fortissimo kabi dinamik tuslar ustida muntazam ishslash talab qilinadi. Shunday qilib dirijyor, xor bilan ishslash jarayonida jumlash qobiliyatini va har qanday dinamik tuslardan to'g'ri foydalanish malakasini oshirib, ifodali ijroga zamin yaratadi.

Asar ijrosida musiqiy badiiylikka erishish uchun uning jumlalarini his qilish va dinamik tuslarini aniq bajarish lozim. Demak, ta'kidlab o'tish joizki, dirijyordan asar talqiniga jiddiy yondashuv talab etiladi. Ijroda asarning avj nuqtasiga erishish, xarakter va uslubini anglash kabilar orqali uning badiiy g'oyasini ochish ishlari bajariladi. Asar ijrosida musiqiy badiiylikka erishish uchun uning jumlalarini jamaa hamnafaslikda his qilib, dinamik tuslarini aniq bajarish lozim. Asarni o'zlashtirishda estetik holat asosiy rol o'ynaydi. Asarga nisbatan ichki kechinmalar vujudga kelgandagina, estetik kechinmalar dunyosini qamrab olish mumkin bo'ladi. Musiqa asarining ijrosida jumlalarni aniq tushungan holda ifodali ijo etish katta ahamiyatga ega.

Dirijyor asar mazmuni, ohangini oldindan ilg'ab, mag'zini chaqib, har bir ovoz yo'nalishlarini yaxshi bilib o'ziga xos pardalarini, kuylovchilar tembrini ajrata olish va ularni to'g'ri yo'naltira bilish qobiliyatiga ega bo'lmog'i darkor.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Gordon Lamb. Choral Techniques. – Rice University, Houston, Texas. <http://cnx.org/content/col11191/1.1/>.
3. Malikova D. Xor sinfi (darslik). – Toshkent: "Fan ziyozi", 2021-y. 266-b.
4. Shomaxmudova B. Xor lug'ati. – T.: "Musiqa", 2009-y. 305-b.
5. Pirmatov Sh., Malikova D. Vokal texnikasi asoslari. – T.: "Fan ziyozi", 2022-y. 222-b

Зульфия КАСИМОВА,  
кандидат искусствоведения, старший преподаватель кафедры «Эстрадный вокал»  
Казахской национальной академии искусств им. Темирбека Жургенова  
Мади РЫМБАЕВ,  
магистрант кафедры «Эстрадный вокал» Казахской национальной академии  
искусств им. Темирбека Жургенова

## **ВЛИЯНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА СОВРЕМЕННОЕ МУЗЫКАЛЬНОЕ ТВОРЧЕСТВО КАЗАХСТАНА**

**Аннотация.** Статья посвящена исследованию влияния электронных технологий на музыкальное искусство Казахстана. Авторы анализируют изменения в традиционной музыке Казахстана в связи с появлением электронных инструментов и звуков. В статье рассматриваются как положительные, так и отрицательные аспекты этого влияния на культурное наследие Казахстана.

**Ключевые слова.** Популярная музыка, аранжировка, битмэйкинг, электронная музыка, цифровые технологии в музыке, музыкальные компьютерные программы, синтез стилей, музыкальный стиль, секвенсор, бит, поп-культура, продюсирование, музыкальная партия.

### **ELEKTRON TEKNOLOGIYALAR QOZOG'ISTONNING ZAMONAVIY MUSIQIY IJODIGA TA'SIRI**

**Annotatsiya.** Maqolada, elektron texnologiyalarning Qozog'iston musiqa san'atiga ta'siri haqida so'z ketadi. Mualliflar Qozog'istonning an'anaviy musiqasidagi o'zgarishlarni elektron asboblar va tovushlar paydo bo'lishi bilan bog'liq holda tahlil qiladilar. Maqolada, Qozog'iston madaniy merosiga ushbu ta'sirning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Ommabop musiqa, aranjirovka, beatmaking, elektron musiqa, musiqadagi raqamlı texnologiyalar, musiqiy kompyuter dasturlari, uslublar sintezi, musiqiy uslub, sekvenser, Beat, pop madaniyati, ishlab chiqarish, musiqiy qism.

### **INFLUENCE OF ELECTRONIC TECHNOLOGIES ON MODERN MUSICAL CREATIVITY OF KAZAKHSTAN**

**Abstract.** The music industry has undergone significant changes in recent years, largely due to the rapid development of electronic technologies. The rise of digital platforms, music streaming services, and social media has created new opportunities and challenges for artists, producers, and record labels. This paper explores the impact of electronic technologies on the music industry, examining how these changes have affected the way music is produced, distributed, and consumed. We analyze the benefits and drawbacks of digital music platforms and the impact of social media on music promotion and fan engagement. The findings suggest that while electronic technologies have opened up new avenues for music creation and distribution, they have also contributed to a decrease in album sales and revenue for the industry.

**Key words:** Popular music, arrangement, beatmaking, electronic music, digital technologies in music, music computer programs, synthesis of styles, musical style, sequencer, beat, pop culture, production, musical party.

Музыкальное искусство Казахстана имеет богатую историю, которая насчитывает несколько тысяч лет. Начиная с древних времен, когда на территории Казахстана процветали различные цивилизации, музыкальное искусство было неотъемлемой частью культуры народов, населяющих эту землю. Сегодня музыкальное искусство Казахстана продолжает развиваться, и электронные технологии играют в этом процессе важную роль. В данной статье мы рассмотрим влияние электронных технологий на музыкальное искусство Казахстана.

Одной из основных областей, на которые повлияли электронные технологии, является создание музыки. Известно, что электронные технологии повлияли на способ распространения музыки. С развитием интернета и стриминговых сервисов музыка стала более доступной и широко распространенной, приобретая глобальные черты. Музыканты могут загружать свои композиции в Интернет и полу-

чать доступ к аудитории в любой точке мира. В Казахстане также существует множество музыкальных платформ и сервисов, которые позволяют музыкантам распространять свою музыку в Интернете. Электронные инструменты и программное обеспечение дали возможность музыкантам создавать новые звуки и экспериментировать с различными стилями и жанрами. В Казахстане также есть множество музыкантов, которые используют электронные инструменты и программы для создания своей музыки.

В свою очередь электронные технологии существенно изменили процесс записи и производства музыки. Ранее музыканты записывали свои композиции на аналоговых носителях, что требовало значительных затрат времени и средств. Однако с развитием цифровых технологий запись музыки стала более доступной и удобной. Сейчас многие музыканты в Казахстане используют студии записи, осна-

щенные современным оборудованием и программным обеспечением.

На сегодняшний день можно утверждать, что термин, который лучше всего охватывает множество жанров и поджанров, в которых сосредоточены музыкальные технологии, – это “битмейкинг”. Эта музыкальная традиция уходит своими корнями в раннее развитие хип-хоп культуры в Нью-Йорке в 1970-х и начале 80-х годов. Проще говоря, его появление можно связать с процессом, в ходе которого хип-хоп-музыка эволюционировала от вертушек ди-джея до студии (часто домашней). К концу 1970-х хип-хоп ди-джеи играли тяжелые “брейки” с диско, фанком и другими записями взад и вперед между двумя вертушками, чтобы «зациклить» и продлить наиболее танцевальную часть песен. Внедрение электронных драм-машин позволило артистам создавать свои собственные циклические барабанные паттерны, в то время как появление недорогих цифровых сэмплеров позволило им создавать полиритмы путем наслаждения множества сэмплированных звуковых фрагментов. Эти устройства и другие последующие стали определять музыкальные элементы культуры хип-хопа, наряду со множеством других жанров. Те, кто использует эти устройства, стали известны как создатели битов, а иногда и продюсеры. В настоящей статье упомянутые устройства условно будут называться термином EMPI – «аббревиатура (“electronic music production instruments”), обозначающая инструмент для производства электронной музыки».

Уникальность культуры и традиций битмейкинга проявляется в двух важных аспектах. Во-первых, в то время как другие популярные музыкальные культуры или жанры включали EMPI, хип-хоп сосредоточил музыкальные технологии в качестве основного инструмента для исполнения и композиции. Это привело к появлению особой музыкальной традиции и практики со своими собственными знаниями и условиями, а также утонченной эстетикой, множеством ответвлений и субкультур. Во-вторых, и это самое главное, хип-хоп – это афроамериканская культура. Хотя он возник на Западе, но в сообществах афро-диаспоры, где отмечается акцент на полиритмах, непрерывной (т.е. циклической) метроритмической структуре, а по содержанию представляет собой социально-политический контекст – вызов обществу и дискриминации. Все указанные черты широко считаются афроцентрической, а не евроцентрической музыкальной традицией [1.124]. Об этом также говорит И. Хайн [2], который утверждает, что хип-хоп «еще более афрологичен, чем джаз, полностью избегающий гармонии и оркестровых инструментов». Таким образом, как утверждает Джозеф Гленн Шлосс (2014), в то время как создатели битов в сообществе хип-хопа долгое время были удивительно мультикультурными, «все продюсеры – независимо от расы – создают афроамериканский хип-хоп» [3].

Согласно данным корпорации Hillyard о цифровых загрузках и потоковой передаче, хип-хоп в настоящее время является самым популярным музыкальным направлением в мире. Тем не менее, парадоксально, что битмейкинг по-прежнему в значительной степени отсутствует в консерваториях. Ученые утверждают, что это связано с тем, что хип-хоп в образо-

вательном процессе бросает вызов мнению о доминантности западной музыкальной индустрии (Хайн, 2018; Уильямс, 2011), способствуя его позиционированию как неполноценной художественной практики (как в культурном, так и в техническом плане) и последующему исключению из музыкальных учебных программ. Тем не менее, как показали исследования Шлосса Дж. Г. [3], чтобы стать востребованным битмейкером, требуются годы целенаправленного обучения и развития навыков, а стандарты в сообществе могут быть бескомпромиссными.

Культура создания битов также важна по тому влиянию, которое она оказала на другие жанры и направления музыки. Наряду с растущим распространением почти во всех формах мейнстрим-поп-музыки, хип-хоп-традиция битмейкинга сыграла важную роль в появлении многих музыкальных жанров и поджанров.

Основным инструментом для работы с написанием музыкального материала являются программы «секвенсоры». На сегодняшний день было создано не малое разнообразие данных программ, разработанных разными компаниями, которые имеют отличия между собой. Но принцип работы остается всегда единым вне зависимости от программы.

В контексте данного исследования одной из наиболее востребованных профессиональных программ для создания музыки и звукозаписи, разработанной компанией Apple, по праву следует считать Logic Pro X. В связи с этим, представляем несколько основных этапов методологии работы в Logic Pro X:

– Перед началом работы в данной программе необходимо создать новый проект и выбрать ее параметры, такие как темп, тональность, формат аудио, и т.д. При работе же с аудио и MIDI Logic Pro X позволяет работать с аудио- и MIDI-дорожками, а также синтезаторами, эффектами и другими инструментами. Есть возможность добавлять, записывать, редактировать и перемещать аудио- и MIDI-события.

– Еще один важный этап – это работа с микшером. Микшер в Logic Pro X позволяет управлять уровнями громкости, панорамой и другими параметрами для каждой дорожки. Можно также использовать эффекты и плагины на микшере для создания желаемого звука.

– Logic Pro X, наряду с обозначенным выше, имеет интегрированный редактор нот, который дает возможность редактировать MIDI-события вручную, изменять ноты, темп, длительность и т.д.

– Сведение и мастеринг – еще один важный этап работы с музыкальными компьютерными программами. После завершения записи и редактирования звука следующим шагом является сведение дорожек и мастеринг, что приводит к достижению конечного звучания. В Logic Pro X также используются плагины и эффекты на мастер-дорожке для улучшения звучания. Когда проект готов, его можно экспортить в различные форматы, такие как WAV, MP3 и т.д. и сохранить проект в формате Logic Pro X и продолжить работу над ним в будущем.

Наряду с программами, для производства музыки можно предложить следующий список устройств, которые понадобятся в студии звукозаписи. Необходимый минимум будет выглядеть следующим образом:

– Звуковая карта (аудиоинтерфейс)

- Колонки (студийные мониторы)
- Наушники
- MIDI-клавиатура
- Программа для записи музыки (DAW)

Данное исследование носит не только обзорный, но также сравнительно-сопоставительный характер, что требует таких методов исследования, как обзор, анализ, компартистика (сравнительный). Вместе с тем, важным является опрос, поскольку битмейкинг – это живой творческий процесс и не имеет фиксированной основы и шаблонов/канонов.

Как пример мы рассмотрим творчество известного американского поп-исполнителя и музыкального продюсера – Чарли Пут (Charlie Puth), который также занимается продакшном своих же песен. Данный исполнитель, путем оттачивания своих навыков написания музыки и извлечения звуков от неизвлекаемых предметов, добился уникального звучания в своих работах. Креативный и творческий подход исполнителя показывает, что обычный стук стакана или скрип двери тоже может быть музыкальным.

Так как битмейкинг – это процесс в популярном искусстве, он существенно отличается от академического и больше связан с живым общением, поэтому методы изучения могут отличаться от сложившихся сугубо академических. Каждый творец, автор индивидуален в отражении современной ему действительности, видения мира, передачи своих внутренних переживаний и, соответственно, у каждого автора есть свой почерк, свой стиль и подача.

Первым значимым влиянием электронных технологий на музыку Казахстана стало появление новых форматов звукозаписи, таких как MP3 и других цифровых. Они существенно упростили процесс распространения музыкальных произведений и позволили музыкантам быстрее и эффективнее доставлять свою музыку слушателям. Кроме того, появление цифровых форматов убрало необходимость использования физических носителей, что позволило сэкономить средства на их производстве и распространении.

Влияние электронных технологий на музыкальное творчество Казахстана проявилось не только в области звукозаписи и распространения музыки, но и в создании новых жанров и стилей музыки. Электронная музыка, такая как техно, транс и дабстеп, стала популярной в Казахстане и нашла своих представителей среди молодых музыкантов. Кроме того, многие музыканты начали интегрировать электронные элементы в свои произведения, создавая новый звук и стиль.

На сегодняшний день Казахстан насчитывает

десятки молодых и креативных представителей данного течения в музыке.

1. Олжас Нургалиев (NAI) – музыкальный продюсер известных групп как «Ninety one» и «Orda», поработавший с такими артистами как: Ziruza, Kyle Ruh, Ali Okarov, Darkhan Juzz и другие.

2. Нуржан Абдолла (DLN) – музыкальный продюсер двух артисток: Yenlik и Rauana.

3. Шавкет Курбанов – известный в кругу артистов и музыкантов аранжировщик, проработавший с очень многими представителями казахстанской эстрады.

На самом деле вышеупомянутый список аранжировщиков и битмейкеров намного больше, не говоря о «теневых» специалистах, которые предпочитают не оставлять свои имена в списке продюсеров. И иногда бывает так, что исполнители предпочитают купить готовый инструментал с интернета, или «перебить» его (переписать один в один). И здесь встает вопрос, является ли это частью искусства или же это просто легкий путь для написания собственного музыкального материала. На сегодняшний день такой способ является всё более распространенным, что дает хороший скачок неизвестным аранжировщикам и битмейкерам в плане творчества и заработка на создании своей авторской музыки. Следует отметить, что указанные инструментальные «аранжировки» носят название «type beat».

Электронные технологии стали неотъемлемой частью нашей жизни в XXI веке, и они также оказали огромное влияние на отечественное музыкальное творчество Казахстана. В этой статье мы рассмотрели, как электронные технологии повлияли на развитие музыкальной индустрии в Казахстане и какие изменения произошли в музыкальном творчестве. С развитием Интернета и социальных сетей появилась возможность прослушивания музыки в онлайн-режиме. Это существенно расширило аудиторию музыкантов и позволило им привлекать больше слушателей. Кроме того, благодаря социальным сетям, музыканты могут легко поделиться своими новыми произведениями и получить обратную связь от своей аудитории.

Наряду с этим, электронные технологии позволили создавать новые направления и течения современной поп-музыки. В частности, различные жанры электронной музыки, представляющие собой синтез различных стилей популярной музыки, такие как джаз, рок, фьюжн, соул, R&B, хип-хоп, диско, хаус и многие другие. При этом, идет процесс своего рода «блендирования» разных музыкальных композиторских и исполнительских техник, обогащенных драм-партией и прочим футуристичным прогрессивным звучанием.

#### **Использованная литература:**

1. Cheryl L. Keyes. Rap Music and Street Consciousness. – Urbana: U of Illinois P. 2002. – 302 p.
2. Hein, Ethan. Teaching whiteness in music class // <https://www.ethanhein.com/wp/2018/teaching-whiteness-in-music-class/>
3. Schloss, Joseph G. Foundation: B-boys, B-girls и культура хип-хопа в New York. ISBN 978-0-19-533405-0; 978-0-19-533406-7.
4. Williams, D. A. The elephant in the room // Music Educators Journal, v98 n1 p. 51–57. – Sep 2011.
5. Кроу, Б. Дж., и Рио, Р. (2004). Значение технологий в практике музыкальной терапии и исследованиях для образования в области музыкальной терапии: обзор литературы // Журнал музыкальной терапии, 41. – РР. 282–320, <https://doi.org/10.1093/jmt/41.4.282>
6. Шенхерр, Стив. История технологий звукозаписи. 6 июля 2005 года. <http://www.aes.org/aeshc/docs/recording-technology.history/notes.html>
7. Лейт, Э. 8 способов, которыми драм-машина 808 изменила поп-музыку. Rolling Stone // <https://www.rollingstone.com/music/news/8-ways-the-808-drum-machine-changedpop-music-w453714>

## MUSIQIY RISOLALARDA TILGA OLINGAN G'IJJAK VA UNING IJROCHILARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Darvishali Changiy, Abdurahmon Jomiy va Navoiylarning musiqiy risolalarida nomlari keltirilgan g'iJJak cholg'usining mohir ijrochilar haqida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** musiqiy risola, g'iJJak, sozanda, ijrochi, muallif.

### ГИДЖАК И ЕГО ИСПОЛНИТЕЛИ, УПОМЯНУТЫЕ В МУЗЫКАЛЬНЫХ ТРАКТАТАХ

**Аннотация.** В этой статье речь идет о талантливых исполнителях на инструменте гиджак, имена которых упоминаются в музыкальных трактатах Дарвишаали Чанги, Абдурахмана Джами и Навои.

**Ключевые слова:** музыкальный трактат, гиджак, музыкант, исполнитель, автор.

### GIJAK AND HIS PERFORMERS MENTIONED IN MUSICAL TREATISES

**Abstract.** This article is about the skilled performers of the gijak instrument, whose names are given in the musical treatises of Dervish Ali Changi, Navoi and Abdurakhman Jami.

**Key words:** musical treatise, gidzhak, musician, performer, author.



Bugungi kunda butun dunyoda insoniyatning intellektual boyligi sifatida qadrlanib kelayotgan qadimiy risolalar qatorida Sharq mumtoz musiqashunosligining nodir durdonalari sanalgan Darvishali Changiuning "Musiqiy risola"si<sup>1</sup> va Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy"<sup>2</sup> deb nomlangan asari alohida o'rinn tutadi. Bu risolalarning yaratilishida buyuk olimlarga qadar musiqiy tafakkurni shakllantirgan va ma'lum ma'noda rivojlantirgan ijodiy-ilmiy omillar hamda jarayonlarning muhim rol o'ynagani ma'lum. Ushbu asarlarda milliy musiqamiz tarixiga oid ko'plab masalalar yechimini topish bilan birga, qadimda amalda bo'lgan musiqiy cholg'ular va ularning ijrochilar, umuman milliy musiqamiz rivojiga o'zining hissasini qo'shgan ko'plab olimlar, shoirlar, musiqashunos va ijrochilar haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Avvalo, ushbu musiqiy risolalarning mualliflari haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, aytish mumkinki, har ikkala muallif ham musiqa ilmiga bolaligidan qiziqqani va u bilan shug'ullangani ma'lum. Darvishali Changiy sozandalik bilan xonandalikda tengi yo'q ijodkor bo'lgan. O'zining risolasida yozishicha, u bolaligidan musiqa ilmiga muhabbat qo'ygan va chang cholg'usida asarlar ijro etishni

o'rgana boshlagan. U chang bilan shu qadar tinmay shug'ullanganki, cholg'uda asarlarni mukammal darajada ijo eta oladigan darajaga yetgan<sup>3</sup>. Bu mahorat unga Imomqulxon saroyi darvozalarini ochgan va u yerda saroy sozandasasi sifatida faoliyat yuritgan. Darvishali Changiy o'z asarida ta'kidlashicha, o'z zamonasining eng mohir xonanda va sozandalari, musiqashunoslari bilan birgalikda faoliyat olib borgan.

Abdurahmon Jomiy ham go'daklik chog'idan ilmga jalg qilingan. Eng avval otasi tomonidan unga diniy bilimlar berilgan va keyinchalik musiqa ilmini ham egallagan<sup>4</sup>. Bir nechta ilmiy asarlari orasida uning "Risolai musiqiy" asari bugungi kunga qadar noyob asarlardan biri sifatida qadrlanib kelinadi<sup>5</sup>. Aslida ikkala olimning musiqiy risolalaridan juda ko'plab ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

O'rta asr allomalari Forobiyning "Kitab al-Musiqa al-Kabir", Marog'iyning "Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy", Jomiyning "Musiqa risolasi", Darvishali Changiuning "Musiqa risolasi" kabi qomusiy asarlarida milliy cholg'ularimizning tasnifi, ularni tadqiq etish masalalari, o'tagan vazifalari kabi muhim masalalar bayon etilgan. Musiqa cholg'ulari orasida kamoni sozlar o'ziga xos turfa ovozi va jozibasi bilan ajralib turadi. Ularning kelib chiqishi, kamonda sadolantirish usulining yaratilishi borasida yozma manbalarda turli ma'lumotlar berilgan.

G'iJJak Sharq xalqlarining kamonli sozlaridan biri bo'lib, o'zbek milliy cholg'ularimiz sirasidan o'rinn olgan. Bu sozning yaratilishi borasida yozma manbalarda turli ma'lumotlar keltirilgan. "Ziynat al-majolis" ya'ni "Ziynatlarning majisi" analogiyasida g'iJJakni Forobiy ixtiro qilgan, deb bayon etilgan<sup>6</sup>. Darvishali Changiy o'zining musiqiy risolasida g'iJJak cholg'usini sulton Mahmud G'aznaviy davriga taalluqli, deydi. Uning ixtirochilar XI asrda yashagan nosir Xisrav va

<sup>1</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервишаали (XVII в.). – Ташкент: 1946-у.

<sup>2</sup> Hayitmetov A. Abdurahmon Jomiy. – Toshkent: "Fan", 1989-y. 21-b.

<sup>3</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервишаали (XVII в.). – Ташкент: 1946 г.

<sup>4</sup> Hayitmetov A. Abdurahmon Jomiy. – T.: "Fan", 1989-y. 25-b.

<sup>5</sup> Shodmonov N. Jomiyning musiqiy risolasi. – T.: "O'qituvchi", 1993-y. 46-b.

<sup>6</sup> Toshmuhammedov M. G'iJJak darsligi. – T.: "O'qituvchi", 1995-y. 34-b.

buyuk faylasuf olim va shifokor Abu Ali ibn Sinolardir. Bu ma'lumotlarni keltirar ekan, muallif ularni ustozni Mavlono Husayn Kavkabiy so'zlariga tayanib yozganini, bu haqda shu kunga qadar hech qaysi risolalarda ma'lumotlar keltirilmaganini, faqatgina og'izdan og'izga o'tib kelganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, muallif: "...g'ijjakka uch qil taqdi...", – deya Qulmuhammad Udiy haqida ham gapirib o'tgan.

Har ikki berilgan ma'lumotlarda g'ijjakning ixtiro etilish davri IX–X asrlarga to'g'ri keladi. Ammo qadimiy manbalarga murojaat etadigan bo'lsak, mazkur davrdan ancha avval, cholg'uning mavjud bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, III–IV asrlarda yozilgan "Ossuriya daraxti" qadim Xuroson adabiy asarida, kichik bir munozarada g'ijjak nomi tilga olinadi. Ayni paytda, shu davrga oid kamonli soz tasvirining "Tuproq qal'a" qasridan topilishi bu cholg'uning III–IV asrlarda mavjud bo'lganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Musiqiy risolalarni ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda qadimiy davrning mashhur, iste'dodli insonlari, ijodkorlari haqida ko'plab ma'lumotlarni olamiz. Ayniqsa, g'ijjak cholg'usi ijrochilaridan bir nechta haqida ham bilishimiz mumkin. Darvishali Changiying musiqiy risolasida Shoh Quliy-G'ijjakiy haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Shoh Quliy-G'ijjakiy g'ijjak cholg'usining mohir ijrochisi bo'lib, u Hirotda yashagani uchun unga yana Hirotiy deb ham taxallus qo'yganlar. Uning nomini barcha musiqiy olimlar faxr bilan tilga olganlar. Sultonlar ham uning qadr-qimmatiga yetganlar, obro'sini saqlaganlar va hurmat bajo keltirganlar. Shoh Quliy-G'ijjakiy o'zining chuqur musiqiy ilmi va yuksak mahoratli ijrosi bilan zamondoshlarini qoyil qoldirgan. Ma'lumotlarga qaraganda, u asli Iroqdan bo'lgan. Yoshligidan g'ijjak cholg'usida kuylar ijro etishga qiziqqan. Yillar o'tib, ilm olish istagida bo'lgan Shoh Quliy-G'ijjakiy Hirotg'a kelgan va bu yerda tahsil ola boshlagan. Tez fursatda zamonasining noyob kishilaridan biriga aylanib, el-yurt humratiga sazovor bo'lgan<sup>8</sup>.

Shoh Quliy-G'ijjakiy mohir sozanda bo'lish bilan birga mustaqil ravishda bir qancha kuylar bastalagan, ko'plab naqsh peshravlar bog'lagan. Ayniqsa, muhammas usulida bastalangan Husayniy peshravi juda mashhur bo'lgan. Alovida ta'kidlash lozimki, bu peshrav shunchalar murakkab ediki, uni Shoh Quliyning o'zidan boshqa hech bir cholg'uchi me'yoriga yetkazib ijro eta olmagan. Uning iste'dodi, mahorati shunchalik noyob ediki, musiqashunoslar, olimlar uning bu xislatiga tan berar edilar, xattoki, Abdurahmon Jomiy unga atab alovida she'r yozgan.

Shuni alovida ta'kidlash lozimki, yana bu mashhur sozanda haqida Temuriylar avlodidan sanalgan Sulton Bobur o'zining "Qo'lyozmalar"ida (872\1468



–911\1506) alovida to'xtalib o'tgan: "Shoh Quliy-G'ijjakiy asli Iroqlik bo'lib, Xurosonga kelgan va bu yerda uzoq vaqt yashab mehnat qilgan. U g'ijjak cholg'usining mohir ijrochisi sifatida tanilgan va ko'plab muvaffaqiyatlarga erishgan. Ko'plab kuylar bastalagan, savt va peshravlar muallifiga aylangan. O'z ijrosi bilan xalqni xushnud aylagan".

Musiqiy risolalarda nomi tilga olingen yana bir mashhur g'ijjakchi sozanda Aljon G'ijjakiydir. U tashqi ko'rinishi juda go'zal va eng avvalo, xulqi ham shunga monand inson bo'lgan. Aynan mana shu jihat bilan sultonlar e'tiborini tortgan. Kiborlar majlislari va davra suhabatlarining "guli" bo'lgan. Aljon G'ijjakiy asosan g'ijjak cholg'usini mahorat bilan ijro etgan. Shu bilan birga xushovoz xonanda sifatida ham mashhur bo'lgan. Uning ijrosi tinglovchilarda katta taassurot qoldirgan, chunki u ijro etgan kuy yoki ashulalarni shunchaki tinglash mushkul bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Aljon G'ijjakiy agar bir soat qo'shiq aysa yoki cholg'uda kuy ijro qilsa, tinglovchilar, hatto, o'lib qolishlari mumkin ekan. Aynan shuning uchun ham Aljon G'ijjakiy bemalol kuylab, asarlarni ijro eta olmagan ekan.

Aljon G'ijjakiy bir-biridan go'zal va betakror musiqalarni bastalagan. U yaratgan savt va naqshlar el og'zida mashhur bo'lgan, ammo uning asarlarini o'zidan boshqa kimsa maromiga yetkazib ijro eta olmagan. O'zga mug'anniy qanchalik mahoratli va iste'dodli bo'lmasin, Aljon G'ijjakiy yaratgan asarlarni uning o'zidek qilib aslo ijro eta olmagan. Uning asarlarida ana shunday bir ajib sirlilik mavjud bo'lgan. Bu borada ayniqsa, uning olti ovozadan biriga bastalangan kuyi alovida tilga olinadi.

<sup>7</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервишали (XVII в.). – Т.: 1946 г.

<sup>8</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервишали (XVII в.). – Т.: 1946 г.

<sup>9</sup> Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Т.: "Yangi asr avlod", 2007-y. 88-b.

Bundan tashqari, Aljon G'ijjakiy tomonidan turk zarb usulida bastalangan “*Ikki hilol*”, Shodiy Darveshga javob tariqasida bitilgan, davri shohiy usulida yaratilgan savt va Dugoh pardalarida yozilgan ohanglari uning o'ziga ijo eta oladigan murakkab, ayni zamonda mukammal asarlar bo'lgan<sup>10</sup>.

Ustod Zaytuni G'ijjakiy nomi ham musiqiy risoladan o'rin olgan. Bu inson ham o'z zamonasining eng mashhur, ilmli, ziyyolilaridan bo'lib, g'ijjak cholg'usini ijo etishda benazir bo'lgan. Uni hattoki, virtuoz sozanda bo'lgan, deyish ham mumkin. Chunki u biror asarni ijo etganida tinglovchilarga kuchli ruhiy ta'sir o'tkaza olish mahoratiga ega bo'lgan. U juda ko'plab hukmdorlarning nazariga tushib, kiborlar e'tiborida bo'lgan. Ayniqsa, shoh Tahmaspning nevarasi G'ilon hokimi Ahmadxon unga juda katta qiziqish bildiradi. Ustod Zaytuni G'ijjakiy bastakorlik bobida ham juda mahoratlari ijodkor bo'lgan. U bastalagan turli maqomlarning pardalari asosidagi peshravlar diqqatga sazovordir. Husayniy maqomi pardalari asosida, saqil usulida ishlangan peshrav juda katta e'tiroflarga ega bo'lgan<sup>11</sup>.

Xon Ahmad G'iloni o'zining yuqori martabasiga qaramay, musiqa san'atini juda qattiq sevgan. O'zi mustaqil ravishda musiqa bilan ham amaliy, ham nazariy jihatdan shug'ullangan. Shu bilan birga ud cholg'usida virtuoz sozanda darajasiga yetgan. O'zi ham bir qancha savt va peshravlar bog'lagan ijodkor bo'lgan. Changiuning musiqiy risolasida yozilishiga qaraganda, Xon Ahmad G'iloniysi oldiga ustod Zaytuni G'ijjakiyini keltirishadi. Ahmadxon ustodga hurmati yuzasidan, shu uchrashuvda g'ijjak cholg'usida kuy ijo etadi va unga shogirdlikka tushishga qaror qiladi. G'ilon hokimligini esa deyarli unutadi, chunki g'ijjak cholg'usida ijrochilikni o'rganish ishlari uzoq cho'zilib ketadi. Bundan xabar topgan shoh Tahmasp esa, nevarasidan g'azablanadi va ustod Zaytuni G'ijjakiyini huzuriga olib kelishlarini buyuradi. Bunga itoat etgan Ahmadxon ustozini bobosining oldiga yuboradi. Shoh Tamasp ustod Zaytuni G'ijjakiyini zindonga tashlashni buyuradi.

Kunlarning birida shoh Tahmasp o'zbeklardan iborat guruh Iraq orqali haj ibodati uchun arablar

diyoriga yo'lga tushganlaridan xabar topadi. Shunda u: “*Barcha o'zbeklar askarlarga xos kiyingan holda, qo'llariga quroq olib oldimga kelsinlar va saflansinlar!*” – deya buyruq beradi. O'zbeklar uning buyrug'iga itoat etgan holda, harbiy xizmatga shay holatda, qo'llarida turli qurollar bilan shoh Tahmasp huzurida shay holatda turadilar. Bu holatni ko'rgan shoh Tahmasp gapi ikki bo'Imaganidan xursand bo'ladi, ularning fidokorligi oldida hurmatini bajo keltirgan holda: “*Istaganingizni so'rang!*”, deydi. Bu o'zbeklar ustod Zaytuni G'ijjakiy bilan bog'liq voqeadan xabardor bo'lganlari uchun, uni ozod etishini so'raydilar. Shoh Tahmasp rozi bo'ladi va ustodga qo'shib barcha mahbuslarni ozod etishga buyuradi<sup>12</sup>. Shunday qilib, ustodi Zaytuni G'ijjakiy o'zining iste'dodi, ijrochilikdagi mahorati, bastakorlikdagi mukammalligi uchun xalqning mehrini qozongan bo'ladi.

Alisher Navoiy ham o'zining “*Majolis un-nafois*” asarida juda ko'plab iste'dodli insonlar haqida ma'lumotlar keltirgan. Shulardan biri ustod Qulmuhammad bo'lib, uni ham g'ijjak cholg'usining mohir sozandasini sifatida ta'riflagan. Ustod Qulmuhammad, Navoiyning ta'biri bilan aytganda nafaqt g'ijjak, balki ud va qo'bizda ham tengsiz ijrochi bo'lgan. Ilm yo'lida tinmay izlangan iste'doddalaridan biri bo'lgan<sup>13</sup>. Bundan tashqari Navoiy ushbu asarida keltirgan ma'lumotga ko'ra, saroy sozandalarining har biri g'ijjak cholg'usida asar ijo eta olish mahoratiga ega bo'lishi shart bo'lgan ekan<sup>14</sup>.

Musiqiy cholg'ular insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallahib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatli o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniiga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

<sup>10</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервишали (XVII в.). – Т.: 1946 г.

<sup>11</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosini o'rganish dunyo talqinida (xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami). 2021-yil, 12-fevral.

<sup>12</sup> Амири Мандана Ахмад. «Сочинение Амира Махмуда Хондамира («История Шаха Исмаила I шаха Тахмаспа «Зейли Хабиб ус-Сияр») как исторический источник первой половины XVI в.».

<sup>13</sup> Alisher Navoiy. “*Majolis un-nafois*”. Mukammal asarlar to'plami (20 jildlik). – T.: “Fan”, 1967-y. 187-b.

<sup>14</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoivyalisher-navoivymajolis-un-nafoisdan-sakkizinchibob.html>

## PROFESSIONAL XOR IJODI VA IJROCHILIGIDA A KAPELLA JANRINING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada, O'zbekistonda xor san'atining rivojlanish bosqichlari, havaskorlik xorlarida ijro mahoratining oshishi, ularni professional jamoalar darajasiga olib kelishi xususida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** xo'r san'ati, kompozitor, xormeyster, musiqa o'qituvchilari.

### ЗНАЧЕНИЕ ЖАНРА А CAPELLA В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ХОРОВОМ ТВОРЧЕСТВЕ И ИСПОЛНИТЕЛЬСТВЕ

**Аннотация.** В данной научной статье рассмотрено развитие хорового искусства в Узбекистане, совершенствование исполнительского мастерства в любительских хорах, доведение их до уровня профессиональных коллективов.

**Ключевые слова:** хоровое искусство, композитор, хормейстер, педагоги музыки.

### THE SIGNIFICANCE OF THE A CAPELLA GENRE IN PROFESSIONAL CHORAL CREATIVITY AND PERFORMANCE

**Abstract.** This scientific article discusses the development of choral art in Uzbekistan, the improvement of performing skills in amateur choirs, bringing them to the level of professional groups.

**Key words:** choral art, composer, choirmaster, music teachers.



Xor san'ati mashhur xor guruhlari, kompozitorlar, xor arboblari va xormeyster o'qituvchilarining ijobil faoliyati bilan bog'langan holda rivojlanib keldi. P.Chesnokov rus xorshunos maktabining asoschilaridan biridir. U o'zining ko'p yillik ish tajribasi va o'tmishdagi faoliyati asosida, "Xor va uni boshqarish" kitobini yozgan. Keyingi davr xorshunoslari, qator taniqli xor dirijyorlari o'zlarining ocherk va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan xorshunoslik fanining shakllanishiga o'z hissasini qo'shdilar.

Xor dirijyorligi mahoratini takomillashtirish va xorshunoslikning ayrim qismlariga bag'ishlangan ilmiy va metodik qo'llanmalarining muntazam yaratilishi sababli, mazkur fan asta-sekinlik bilan rivojlana bordi. Keyingi davrlarda ham havaskorlik xor guruhrarini tashkil qilish va ular bilan ishlash metodikasiga oid qator qo'llanmalar yaratildi. Jumladan, 1959, 1964, 1967, 1983-yillarda V.Sokolovning "Xor bilan ishlash" kitobi, 1955-yilda I.Ponomarkovning "Havaskor xor kollektivlari uchun" qo'llanmasi, 1981–1983-yillarda L.Shamina "Havaskorlik xori bilan ishlash", 1970-yilda Z.Valenkov, A.Vinejnev, R.Xublarovlarning "Havaskorlik xori" nomli kitobi nashr etildi [1.B.160].

Ma'lumki, O'zbekistonda xor havaskorligi astasekinlik bilan rivojlangan. Mazkur san'at turining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi malakali xormeyster o'qituvchilar tayyorlash masalasi bilan bog'liq edi. Qardosh respublikalar o'z xor madaniyatini rivojlantira bordi. Milliy respublikalarda musiqani opera, kantata, oratoriya, a kapella janrlari ham rivojlnana bordi. Ikkinci jahon urushigacha bo'lgan davrda, rus xor madaniyati sohasida ancha yutuqlarga erishilgan edi. Xor havaskorligi (Leningrad, Moskva va boshqalar) san'atida muvaffaqiyat qo'lga kiritilgan edi.

Ulug' Vatan urushi yillarida hamma narsa nemis bosqinchilariga qarshi qaratilgan edi. Professional va havaskorlik kollektivlaridan tuzilgan brigadalar sovet jangchilariga madaniy xizmat qilishar, konsert, agitatsiya ishlari olib borilar edi. Urush yillarida bir nechta professional xor jamoalari tuzildi va ular keng ravishda konsert faoliyatini olib bordi. Jumladan, Davlat rus xori (1942-yil), respublika rus xor kapellasi (1942-yilda, keyinchalik 1973-yilda A.Yurlov nomiga berilgan), Voronej rus xalq xori (1942-yil), Ural rus xalq xori (1943-yil), Butun ittifoq radio va markaziy televideniye rus qo'shig'i xori (1945-yil), Estoniya davlat erkaklar xori (1944-yil) shular jumlasidandir.

Shu davrda kantata va poemalar, ommaviy qo'shiqlar yozildi. Jumladan, A.Aleksandrovning "Ukraina haqida poema", D.Kabalevskiyning "Xalq qasoskorlari", G.Mushelning "Farhodstroy" kantatalari, ommaviy qo'shiqlardan Aleksandrovning "Muqaddas urush", Z.Sedoyning "Bulbullar", "Reyd oq-shomi" kabi san'at asarları urush davri dahshatlarini o'zida aks ettirgan edi.

Urushdan keyingi yillarda rus xor madaniyati yana ham rivoj topdi. Xor va umuman musiqa madaniyatining to'g'ri rivojlanishida 1948-yil 10-fevralda Muradelining «Великая дружба» ("Ulug' do'stlik") operasidan qabul qilgan tarixiy qarori muhim rol o'ynadi. Shu yillarda (1940–1950) yirik formadagi vokal-simfonik asarlar yaratildi. A.Arutunyanning ("Vatan haqidagi kantata", V.Makarovning "Bahodir daryo"), Z.Prokofyevning "Tinchlik posboni", G.Sviridovning "Yesenin xotirasi poemasi" va ko'pgina boshqa kantata, syuita, poemalar yaratildi [2.B.40].

Shudavrdajo'rsizijrochilik uslubiyana ham rivojlandi. Keyingi yillarda bu janrda V.Zalmanov, B.Snetkov,

A.Feyarkovskiy, R.Shedrin kompozitorlarning ijodi salmoqli bo'ldi. Masalan, V.Salmanovning N.Hikmat so'ziga yozgan "Sukunat", "Panjaradagi sher", "O'n besh yara" xor konserti, Sviridovning "Qo'shiq qanday tug'iladi?", "Pushkin gulchambari" kabi asarlari shular jumlasidandir.

XX asrning 60–80-yillarda havaskorlik xor san'ati oddiy ommaviy qo'shiqchilikdan a kapella uslubida kuylash mahoratiga erishdi. Litva erkaklar xori 1971-yilda, Tallin kamer xori 1974-yilda, Rigadagi "Avesol" kamer xorlari Italiyada xor konkursi laureatlar bo'lib birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi.

XII–XIII asrlarda Dj.Palestrina O.Lazev, K.Janeken, J.Depre kabi polifonist kompozitorlar yashab ijod qilgan bo'lib, bu davrda xor san'atining a kapella ijrochilik uslubi yanada ravnaq topdi. Keyinchalik Bax, Gendel, Betxoven, Glyuk, Gaydn, Motsart, Verdi romantik kompozitorlardan: Shubert, Shuman, Mendelson rus kompozitorlardan: Glinka, Rimskiy-Korsakov, Musorgskiy, Chaykovskiy, Barodin, Kyui, Tanev va boshqa san'atkorlar o'z ijodlari bilan xor san'atini yuqori pog'onalarga ko'tardi.

Rus xor madaniyati boy tarixga ega. Rossiyada xor ijodiyoti va ijrochiligi bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishda rivojlanib keldi. Shahar va krestyan qo'shiqchilik ma'rifatli qo'shiq sevuvchilar xorlari, mакtab xorlari professional cherkov xorlari va nodiniy yo'nalishdag'i xorlar, opera xorlari shular jumlasidandir. Rus xor ijrochiligi ikki xor ko'rinish ijrochiligi, cherkov ijrochiligi yo'nalishida rivojlanib kelgan. Birinchisi, milliy musiqa madaniyatining rivojlanishiga asos bo'lgan, ikkinchisi rus professional xor ijrochilik mакtabi yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

XIII asrda tashkil qilingan podsholik xonanda deklar xori (keyinchalik Peterburg saroy xonandalar kapellasi) va XVI asrda yuzaga kelgan patriarx xonanda deklar xori (keyinchalik Moskva sinodal xori) birinchi rus professional xorlari bo'lgan. Ular cherkov marosimlarida va tantanali bayramlarda qatnashgan. Xonadalar (xor artistlari) deyarli go'zal ovozga ega bo'lib, ular butun Rossiyadan tanlab keltirilgan. 1732-yilda Chernigov guberniyasining (Ukraina) Gluxov shahrida maxsus xonandalar mакtabi ochi-lib, qirq yil mobaynida u saroy xonandalari kapellasini yetakchi ijrochilar bilan ta'minlab turgan [3.B.130].

Professional xor ijodi va ijrochiligining oddiy formalari 30-yillarda yozilgan musiqali dramalarda uchraydi. 1929-yilda birinchi O'zbek davlat musiqa teatri tashkil etildi. "Farhod va Shirin", "Gulsara" kabi musiqali dramalarda ikki ovozli xor nomerlari qo'llanilgan.

1936-yilda O'zbekiston radiosи qoshida o'zbek xor tuzildi. Shu yilda tuzilgan O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida xor kapellasi tashkil qilindi. Xordagi xonandalarning ko'pi o'zbeklar bo'lib, ular asosan havaskorlik to'garaklaridan chaqirilgan edi. Xor kapellasiga Lepyoxin rahbarlik qilar edi. Guruh 1937-yilda Moskvada o'tadigan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasiga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Dekadaga xor guruh yosh kompozitorlardan M.Ashrafiy, T.Sodiqovlarning maxsus dekada uchun



yozgan 4 ovozli qo'shiqlarini va musiqa dramalaridan xor dasturini tayyorlab bordi. Lekin ayrim zabablarga ko'ra, dekadadan so'ng, kapella tarqatib yuborildi [4.B.92].

1944-yilda Toshkentda O'rta Osiyo Respublikalari adabiyoti va san'ati dekadasi bo'lib o'tdi. Bu dekadada ko'p kishini o'z ichiga olgan qo'shma xor qatnashdi. O'zbekistonda xor san'atining tez sur'atlar bilan o'sishida 1960-yilda tashkil etilgan O'zbekiston radio va televideniyasi Davlat komiteti milliy xorining salmoqli hissasi kattadir. Bu guruhning sehrli san'ati nafaqat o'zbek muxlislariga, balki ittifoq va chet el san'at shinavandalariga ham yaxshi tanishdir. Radio xori (1978–1983-yil) uch xalqaro musiqiy simpozium qatnashchisi, shuningdek, xor Respublikada hismat ko'rsatgan ijrochi guruhi nomiga sazovor bo'lgan.

Shunday qilib, 1950-yillarda tuzilgan professional xor ijrochilik san'ati 30 yildan oshiqroq davr ichida yanada takomillashib bordi. O'zbekiston radio va televideniyasi o'z ichiga olgan qo'shma xor qatnashdi. Musiqali drama janrining hamda yosh milliy kompozitor va bastakolarning yetishib chiqishi respublikada milliy opera janrining tug'ilishiga sabab bo'ldi. 1939-yilda S.Vasilenko va M.Ashrafiyning birinchi o'zbek milliy operasi "Bo'ron" yaratildi. 1940-yilda ularning "Ulug' kanal" operasi, shu yilning o'zida Glier va T.Sodiqovlar hamkorligida "Layli va Majnun" operalari yozildi.

50-yillarning ikkichi yarmidan boshlab, opera janrida ham ijobiyl o'zgarishlar bo'ldi. 30-yillarda yozilgan ayrim o'zbek musiqali dramalari asosida "Gulsara" (M.Glier va T.Sodiqov), "Tohir va Zuhra" (T.Jalilov va Brovsin) "Farhod va Shirin" (Mushel va Uspenskiy) operalari yaratildi hamda "Layli va Majnun" (M.Glier va T.Sodiqov), "Ulug' kanal" (M.Ashrafiy va Vasilenko) operalarining asarlari yuzaga keldi [5.B.31-32].

1950-yillarning oxiri 1960-yillarda yozilgan "Dilorom" (M.Ashrafiy), "Zaynab va Omon" (Sodiqov, Rajabiy va Zokirov), "Maysaraning ishi" (S.Yudakov) "Zulmatdan ziyo" (R.Hamroyev), "Hamza" (M.Boboyev) va keyingi davrda yaratilgan "Oyjamol" (I.Hamroyev), "So'g'd qizi" (I.Akbarov) va boshqa operalarning ko'pchiligidagi xor sahnalari bo'lib, xor yozuvi ancha takomillasha bordi. Yuqorida qayd qilingan operalarning yaratilishi opera-xor ijrochilik madaniyatini rivojlantirdi [6.B.88].

1980-yillarda S.Yudakovning "Muborakkod" va "To'yona" kantatalari, M.Nasimovning "Dunyoga tinchlik" kantatasasi, M.Bafoyevning "Abu Ali ibn Sino"

(1000 yillik yubileyiga bag'ishlangan) poemasi (Freski), "Dillar nidosi" turkumi, al-Xorazmiy xotirasiga bag'ishlangan "Alloma" poema-kantatasi, "Toshkent-Sharq" mash'ali kantatalari yozildi.

Kapella ikki yillik yaxshi tayyorgarlikdan so'ng, O'zbekiston bo'ylab gastrollarga chiga boshladi. Guruh repertuari qayta ishlangan xalq qo'shiq-lari rus va xorij klassik asarlaridan iborat edi. Yil sayin kapellaning repertuari boyib, ijro mahorati orta bordi. Bu kapella uchun o'zbek kompozitorlari (Boboyev, Yudakov, Akbarov va boshqalar) maxsus asarlar yoza boshladilar.

Professional xor ijrochiligi bilan bog'liq bo'lgan a kapella janri ham tez rivojlandi. Dastlabki davrda yozilgan (50–60-yillar) M.Burhonovning "Yorlarim", "Go'zal qizga", "Sayra", "Zarragul" qayta ishlangan. A kapella xor asarlari va "Baxtimiz partiya" original jo'rsiz xori, A.Muhamedovning "Yashna, hur Vatan", S.Boboyevning "Chaman" xalq ashulalari asosida yaratgan xorlari va "Xalqimiz baxti" original xori, I.Akbarovning "Qoyilman" kabi jo'rsiz xor asarlari musiqa bilim yurtlari o'quv xorlari tomonidan ijro qilinar edi [7.B.108].

1960-yillardan boshlab B.Umidjonov tomonidan

o'zbek, tojik, qirg'iz va boshqa xalq qo'shiqlari "Diliman", "Gar nomedona bidon", "Yapuray", "Qorasoch", "Iilli yor" qayta ishlangan va original "Dilbarume" xor syuitasi yozilgan. Ular radio va televide niye xori, o'quv xorlari, hatto, havaskorlik xorlari orqali ijro qilinib, xalq o'rta sida keng tarqaldi. Keyingi o'n yilliklarda S.Boboyev "Tanova", "Bog' sayliga", "Galdir" kabi klassik ashulalar asosida xor yaratdi. M.Burhonov o'zbek, afg'on, eron, qoraqalpoq xalq qo'shiqlarini qayta ishlatdi. "Ayriliq", "Dam ko'i", "Chashmisiyoh" qo'shiqlari shular jumlasidan.

A kapella janri juda tez rivojlandi. Shu bilan bir qatorda professional xor ijrochiligi ham mislsiz taraqqiy topdi. Bu sohada S.Boboyev, M.Burhonov, B.Umidjonovlarning ijodi muhim rol o'ynadi. Klassik merosni (maqom qismlarini) xor uchun qayta ishlashda ham S.Boboyev va B.Umidjonovlar birmuncha ijobiy ishlarni amalga oshirdilar. Radio va televide niye xori ijro etadigan "Segoh", "Chorgoh", "O'zgancha" kabi xor uchun qayta ishlangan asarlar ham B.Umidjonov qalamiga mansubdir. Bu qayta ishlangan jo'rsiz xorlar o'z faktura yozuviga ko'ra, rus va boshqa xorij kompozitorining shu janrdagi yetuk asarlari qatoridan o'rinn olgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Анисимов А. Дирижёр-хормейстер творческо-методические записки – Москва: 1976 г. Стр.160.
2. Bagirova F. Dirijyorlik (o'quv qo'llanma). – Toshkent: 2010-y. 40-b.
3. Matsinova D.F. Xor dirijyorligining pedagogik asoslari (O'zDK talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Т.: "Fan ziyozi", 2021-y. 210-b.
4. Ержемский Г. Дирижёры XXI века. Т.: ЎзДК, 2007-у.
5. Маликова С., Васильченко О. Дирижирование (учебное пособие) – Т.: 2020-г.
6. Mansurova G. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash (madaniyat va san'at kollejlari va akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma). – Т.: "Yangi asr", 2008-y. 88-b.
7. Xodjametova G. Dirijyorlik (darslik). – Т.: "Navro'z", 2020-y. 108-b.



# III BO'LIM

## SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Xayrulla LUTFULLAYEV,  
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi professori

### O'ZBEK RAQS SAN'ATIDA MUKARRAMA TURG'UNBOYEVANING IJODIY FAOLIYATI

**Annotatsiya.** Maqolada, o'zbek raqs san'atining XX asrdagi rivojlanishi, buyuk namoyandalar, o'zbek milliy raqs san'atida mavjud raqs maktablarining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada, o'zbek milliy professional raqs san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan namoyandalar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqs, raqs maktabi, raqqosa, xatti-harakat, plastika, san'at, teatr.

### В УЗБЕКСКОЙ ТАНЦЕВОЙ КУЛЬТУРЕ О МАСТЕРСТВЕ МУКАРРАМЫ ТУРГУНБОЕВОЙ

**Аннотация.** В этом романе описана художественная революция ХХ века, великое мастерство, школы узбекского национального искусства танца. Кроме того, в этом романе описано большое мастерство приобщившихся к навыкам узбекского танцевального искусства.

**Ключевые слова:** танец, танцевальные школы, танцов, пластика, искусство, теат.

### IN UZBEK DANCING CULTURE ABOUT MUKARRAMA TURGUNBOEVAS SKILL

**Abstract.** In this novel described XX century art revolution, great mastership, uzbek national art of dance schools. In addition in this novel described great mastership who addicted skills for uzbek dance of art.

**Key words:** dancing, dancing schools, dancer, plastic, art, theatr.



O'zbek xalq raqs san'ati uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ijodkor xalqimiz tomonidan yillar osha yaratilgan raqlar milliy raqs san'atining noyob durdonalari sanalib kelinmoqda. O'zbek raqs daholari yaratgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak mumtoz raqlar xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, kurashchanlik, go'zal xulq ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam berib kelmoqda. Kelajak avlodni voyaga yetkazish, xalq orasida haqiqiy insoniylik munosabatlarni shakllantirishda, o'zbek xalqining merosi bo'lgan bugungi kunda muhim estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Inson tarbiyasini estetik, axloqiy va madaniy tarbiya sohalari bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbek raqs me'rosini o'zidan avvalgi avlodlardan qabul qilib, uni o'nlab yillar va asrlar mobaynida ko'z qorachig'idek saqlab kelgan ko'pgina ijrochilarining nomlari ma'lum. Raqs san'ati asoschilar Yuksufjon qiziq Shakarjonov, Ahmadjon Umrazoqov, Usta Olim Komilov, aka Buxor, Qimmatxon Sultonova, Sharofat To'rayeva, Tamaraxonim kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o'tgan o'nlab taniqli raqs ustalarining nomlari ma'lum va mashhurdir.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi raqs san'ati haqida shu davrda yashab ijod etgan birinchi raqs

tadqiqotchisi I.G.Baxta Farg'ona va Toshkent qadimgi raqlari va raqs ustalari to'g'risida ma'lumotlar yig'gan. U XX asrning 20-yillarida Farg'ona vodiysi, Xorazm va Buxoroda faoliyat boshlagan taniqli raqqosalar bilan uchrashib, muloqotda bo'lgan. Asrlar davomida ijro etilgan an'anaviy xalq va professional raqlar plastikaning "haykaltaroshlik" turiga oid bo'lib, ulardagi qadam tashlashlar hech qanday badiiy ifodaviy ahamiyatga ega emas edi. Raqs juftliklari orasidagi raqs muloqoti tamoyillari ham ishlab chiqilmagan edi.

O'zbek xalq va professional raqlari esa garchi xalq bayramlarida erkaklar tomonidan ijro etilgan bo'lsa-da, ularning har biri alohida o'ziga xos xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Dastlabki ommaviy sahna raqlarida Tamaraxonim slavyan va kavkaz xalqlari an'analariga tayanib, bir qator saf, diagonal, doira usullaridan foydalanadi, qiyofalarning ritm-plastik haykalsimon turishini chekladi, harakatlarni "muloyimlashtirdi", raqlar manzarasini "to'rtinch devor" bo'lib turgan tomoshabinga burdi.

Tamaraxonimning raqs san'ati xotin-qizlar ozodligiga chaqiriq sifatida maydonga kelgan bo'lsa, 30-yillardagi Mukarrama Turg'unboyevanining raqs san'ati shu harakatning navbatdagji bosqichiga aylandi. Bu bosqich Sharq ayollarning san'atga intilishdagi

dadil qadam edi. Mukarrama Turg'unboyeva raqslari xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga faol arashuvining o'ziga xos ramzi bo'lib ko'rindi. Uning lirik qahramoni o'zbek ayolining azaliy fazilatlari hamda yuksak iroda bilan yangilikka, erkinlikka, ozodlikka intilishining ramzidir. Ustoz san'atkorning lirik raqslari insonga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. Tabiiyki, raqqosalarning qomati baletmeysterlik qoidalar talabiga ko'ra emas, balki ularning ichki ruhiyatiga ko'ra ham adllashib boraveradi.

30-yillardagi libos keyinchalik o'zbek ayollarining an'anaviy libosiga aylandi. Chunki Tamaraxonim sahna uchun o'zbek ayollarining bayramona libosini moslagan va bu libos bilan raqqosalalar 1925-yil yozda Parijdagi 1-jahon bezak san'ati ko'rgazmasida ishtirok etishgan edi. 30-yillarda raqs libosi ko'yak, nimcha, torroq lozimdan iborat edi. Ko'yak to'g'ri bichimli, ochiq yoqali, o'rtacha uzunlikda edi. Liboslar xonatlas, yorqin rangli krep, shifon kabi matolardan tikilgan. Ko'yak ustidan baxmal, parcha yoki gilam matosidan tikilgan kalta nimcha kiyilgan. Bu liboslar majmuyi ayollarning bayram libosi bo'lib, u "o'zbek libosi" modasini tashkil etadi. Keyinchalik ko'yak bel barobar qilinib, pastiga keng burmali yubka kiyila boshlandi. Shu ikki xildagi bichim o'zbek ayollarini sahna libosini tashkil etdi. Birinchi o'zbek raqqosalarining chiqishlari yuz minglab kishilarni hayratga solib, tomoshabinlarni sehrli olamga etakladi. Ammo raqqosalarimiz mahalliy mutaassiblarning qarshiligiga ham uchradi, ular raqqosalarga nisbatan keskin choralar ham ko'rди.

20-yillar oxirida birinchio'o'zbek raqqosalari Xolchaxon va Nurxon mutaassiblar tomonidan vahshiyona o'ldirildi. 1929-yil Nurxon Yo'ldoshxo'jayeva qotillari ochiq sud qilindi. O'zbek ayollarini bunday jaholatga norozilik bildirib, "artistlik"ka yozila boshladi.

Mukarrama Turg'unboyeva pedagogik texnikumda o'qib yurgan kezlar (1927–1929-yillar) teatrda ishlashni, raqqosalikni orzu qiladi. Nurxonning o'llimi unga juda qattiq ta'sir qiladi va u hayotini san'atga bag'ishlaydi. U teatr – maktab ekanligini tushundi. Teatr sahnasiga chiqishi, san'atga olg'a qarab intilayotgani, bu jarayonni to'xtatib bo'lmashagini isbotladi. Uning san'ati insonning sirli kechinmalari ifodasi sifatida tomoshabinlarni go'zallik dunyosiga oshno qildi.

Taniqli o'zbek raqqosa va baletmeysteri Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiyyo'lio'zbekxoreografiyasining shakllanish bosqichlarini o'zida aks ettiradi. O'zbek musiqali teatrida ish boshlagandan to 1936-yilgacha bo'lgan davr, u uchun o'zbek raqs merosini o'rganish va raqs mahoratini egallah davri bo'ldi. Yosh raqqosa yig'inlarda xalq raqslarini ijro etuvchilarni ko'p kuzatdi va ularning raqslari Turg'unboyeva uchun o'ziga xos darslik bo'ldi. Ustoz san'atkorning professional raqqosa bo'lib yetishishida taniqli san'atkor Yusufjon qiziq Shakarjonov, marg'ilonlik raqqosa Qimmatxon Sultonova va namaganlik raqs aktrisasi Sharofat satangning hissasi katta bo'ldi. U musiqali teatrda Usta Olim va Tamaraxonimdan saboq oldi.

Doira usullari jo'rligida Farg'ona raqs maktabining "Katta o'yin" ohang-plastik usullarini o'rgandi. O'zbek raqsining har bir maktabi o'ziga xos nafis



kuy-ohanglari va plastik qismlari bilan ajralib turadi. Professional raqqosalar raqs sir-asrorlarini uzoq yillar davomida o'rganadi. Raqsning eng sodda texnikasini egallagach, uni ijro qilayotganda usulga tushish, qoidaga kirib qolgan shakkarni eslab qolish talab qilinadi. Raqsni o'rganish nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishni ham talab etadi. "Qomatni tutish" va "mushaklar kuchini taqsimlash" kabi o'ziga xoslik ham o'zbek an'anaviy raqsi uch mumtoz maktabining har biri betakror ekanligini ko'rsatadi.

Yevropacha mumtoz raqsining dastlabki holatida qomat adl tutilib, oyoqlar mushagi, tizza tarang, yelkalar erkin, yelka tushirilgan, bel tekis, qo'llar mushagi tirsakdan xiyol egilgan bo'ladi. Farg'onacha raqsda ham oyoq mushaklari tovondan belga tarang tutiladi. Lekin bel mushaklari biroz bo'sh qo'yilib, oyoqlar xiyol bukiladi. Asta qadam qo'yilib, yengil o'tiriladi, tizza o'z o'rniga keladi. Oyoqlarning yengil egilishi tufayli mumtoz raqsdag'i kabi kontrapunkt chizig'i belning kichik markaziy qismiga emas, yelka mushaklari bo'ksaga bosim o'tkazadi. Qo'llar yo erkin yoki yig'ilgan vaziyatda bo'ladi. Farg'onacha raqsda qo'llar "cho'zilgan" bo'lib, ular o'simlik dunyosining badiiy ifodasiga aylanadi. Ya'ni barglar va maysalarning shamolda yengil tebranishini ifodalaydi.

Xorazmcha raqslarda esa oyoqlar mushagini kuchi boldirdan tizzaga yo'naltirilib, tizzalar bukiladi. To'qnashuv chiziqlari bel, bo'ksa, tizzalar o'tasida o'zgarib turadi. Yelka biroz pastga osilib turadi. Qo'llar ham erkin qo'yilib, panjalar doim nafis harakatlantiriladi. Ularning nozik titrashini ko'rsatish uchun ko'p mashq qilishga to'g'ri keladi. Xorazm raqslari o'simlik dunyosini emas, balki jonzotlar dunyosini o'zida aks ettiradi. Undagi harakatlarda qushning parvozi, otning

chopishi, kaklikning yo'tishi kabilarni anglash mumkin. Xorazmcha raqsda tananing ayrim harakatlari, undagi murakkab raqs lisoni hayvonot dunyosi hayotini ifodalaydi. Unda makon to'la egallanadi, qomat xuddi uchayotgandek, qo'llar goh keskin, goh nozik harakat qiladi. Xorazmcha raqsda keskin o'tirib-turish, sakrash ko'p. Unda ko'krak mushaklari ko'p bora silkinadi.

Buxorocha raqsda qomatning yelkadan pastki qismi erkin qo'yiladi. Tana harakati davomli va sirli. Uni bajarishda mushaklar kuchi yo'nalishini o'ziga xos tarzda tashkil qilish talab etiladi. Bel qismi orqaga turtib turadi (ispancha raqsdagi kabi). Bu qo'llarning erkin, shiddatli harakat qilishiga yordam beradi. Oyoqlar yarim o'tirish, yarim aylanishga tayyor turadi. Shu asosda oyoqlarning to'la burilishiga imkon yaratiladi. Buxorocha raqlarda farg'onachadagi kabi qo'llar cho'zilmaydi. Ularda tirsaklar qattiq bukilgan holatda bo'lib, panjalar harakati quruqroq chiqadi. Harakatlar va panjalarni qarsillatish musiqaga mos keladi. Qomat adl, sho'xchan, qadamlar esa oddiy bo'ladi.

O'zbek xalq sahnnaviy raqsining shakllanish jarayoni birinchi galda Asqar hoji Xaydaraliyevning XX asr boshida faoliyat ko'rsatgan ansambl va atoqli raqqos Hamdamxon nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Hamdamxon Farg'ona vodiysi shaharlarida, Toshkent va Samarqandda, 1905-yilda esa kavkazorti mamlakatlarda o'zbek xalq raqsini yangi asosda sahnalarda ijro etib, yangi yo'niliishi boshlab berdi. Ayniqsa, xalq sahnnaviy raqsi taraqqiyotida Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isahor Oqilov, Gavhar Rahimova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova va boshqa o'nlab raqs ustalarining "Bahor", "Shodlik", "Lazgi" kabi ansamblarning xizmati katta. Baletmeysterlar va bastakorlarning sa'y-harakati bilan o'nlab yakka tartibda ijro etiladigan o'yinlar, duetlar, ommaviy raqlar mamlakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o'zbek raqs san'ati zaxirasidan joy oldi. "Tanavor", "Munojot", "Katta o'yin", "Bahor", "Pilla", "Paxta", "Lazgi", "Dilhiroj", "Cho'pon o'yin", "Namanganning olmasi", "Andijon polkasi" va boshqalar shular jumlasidandir. Ular mumtoz raqlarga aylangan. Shu asosda raqqos va raqqosalarning bir qancha avlodni kamolga yetdi. Raqs uslublari, mahorat asoslari,

harakatlar silsilasi avloddan avlodga o'tib, yashab kelmoqda.

O'tgan XX asrning 20-yilida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy parokandalik, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, mustamlakachilik siyosati, xalq hayotidagi turli o'zgarishlar, shu yillar mobaynida jamiyatning barcha jabhalaridagi shiddatli jarayonlar, albatta, madaniyat va san'at sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Jamiyat hayotidagi mana shunday o'zgarishlar xalq madaniy hayoti, ayniqsa, raqs san'atining nodir namunalari yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan.

XX asr boshida mamlakatimizga professional teatr san'ati kirib keldi. Uzoq asrlar davomida maishiy hayot, diniy udumlar zamirida paydo bo'lgan raqs san'ati ustoz san'atkorlar, raqqos va raqqosalar, keng xalq ommasi tomonidan xalq bayramlari, ommaviy tomoshalar, to'y va marosimlarda ijro etilib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tib keldi. Bu davrda sahna madaniyatining paydo bo'lishi xalq raqlarining professional sahnnaviy raqs sifatida qaytadan yaralishiga, ansambllar faoliyatining shakllanishiga turki bo'ldi. Ustoz raqqos va raqqosalar Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isahor Oqilov, Roziya Karimova, Galiya Izmaylova, Qunduz Mirkarimovalarning o'zbek milliy professional raqsining jahon andozalariga mos ravishda qaytadan yaralishida xizmati katta bo'ldi. Ulardan saboq olgan keyingi avlod ijodkorlari Ravshanoy Sharipova, Valentina Romanova, Halima Komilova, Klara Yusupova, Gulnora Mavayeva, Viloyat Oqilova, Ma'mura Ergasheva, Dilafruz Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhammedova, Malika Ahmedova, Gulchehra Foziljonova, O'g'iloy Muhammedova singari raqs san'ati ustalarining har biri o'ziga xos badii uslublar barpo etishdi.

Ming yillar davomida yig'ilgan raqs san'atining durdonalari XX asrning 30 yillardan boshlab raqs san'ati namunalari sifatida o'rganila boshlandi. Ayni XX asrda o'zbek teatr san'atidagi o'zgarishlar raqs san'atining taraqqiyotiga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi. Natijada, qisqa vaqt ichida professional o'zbek milliy raqs san'ati tashkil topdi va o'zining maktabiga ega bo'ldi. O'zbek raqsining har bir maktabida o'ziga xos shakl ketma-ketligi, kuy va ohang, imo-ishoralar, harakat holatlarini farqlanishi sezilib turadi.

### Foydalananilgan adabiyotlar:

1. Avdeyeva L.A. Ozbek Milliy raqsi tarixidan. – Тошкент: Mukarrama Turgunboyeva nomidagi "O'zbek raqs" milliy raqs birlashmasi, 2001-y.
2. Avdeyeva L.A. Mukaramma Turg'unboyevaning raqsi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-y.
3. Авдеева Л.А. Танцевальное искусство Узбекистана. – Т.: Государственное издательство художественной литературы Узбекской ССР, 1966 г.
4. Каримова Р. Ферганский танец (методическое пособие). – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1973 г.
5. Каримова Р. Хarezmский танец. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1975 г.
6. Каримова Р. Бухарский танец (методическое пособие). – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1977 г.

## **MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNI KЛАSSIFIKATSIYALASH MUAMMOLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada, madaniy-ommaviy tadbirlarni klassifikatsiyalash muammolari va klassifikatsiyalashning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Madaniy-ommaviy tadbirlar ijodiy jarayondir. Uni aniq bir ketma-ketlikda klassifikatsiyalab bo'lmasligi mumkin. Lekin tadbirlarning mazmun-mohiyati, o'tkazilishi va asosiy g'oyasiga qarab tasniflash mumkin. Shu bilan birga madaniy-ommaviy tadbirlani tasniflash yuzasidan xorijda olib borilgan ishlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tadbirlar, madaniy-ommaviy, tasnif, tadqiqot, tashkil etish, muammolar, tahlil.

## **ПРОБЛЕМЫ КЛАССИФИКАЦИИ КУЛЬТУРНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ**

**Аннотация.** В статье говорится о проблемах классификации культурно-массовых мероприятий и значении классификации. Культурно-массовые мероприятия – творческий процесс. Его нельзя классифицировать в определенной последовательности. Однако можно классифицировать события по их содержанию, поведению и основной идеи. При этом были проанализированы работы, проведенные за рубежом в связи с классификацией культурно-массовых мероприятий.

**Ключевые слова:** мероприятия, общественно-культурные, классификация, исследование, организация, проблемы, анализ.

## **PROBLEMS OF CLASSIFICATION OF CULTURAL-PUBLIC EVENTS**

**Abstract.** The article discusses the problems of classification of cultural and public events and the importance of classification. Cultural and public events are a creative process. It may not be classified in a specific sequence. However, it is possible to classify events according to their content, conduct and main idea. At the same time, the works carried out abroad in connection with the classification of cultural and mass events were analyzed.

**Key words:** events, public-cultural, classification, research, organization, problems, analysis.



Madaniy-ommaviy tadbirlarni o'tkazish moddiy va ma'naviy resurs talab qiladigan, ko'p qirrali jarayondir. Madaniy-ommaviy tadbirlar sohasidagi samarali faoliyat xodimlardan kommunikativ bilimlarni, ko'nikmalar va tashkiliy qobiliyatga ega bo'lishni talab qiladi. Biroq bu ishlar madaniy-ommaviy tadbirlar sohasidagi faoliyatning ayrim elementlarigina hisoblanadi. Sohadagi marketing xizmatlari, menejment, klassifikatsiya va boshqa unsurlar bugungi kundagi ilmiy jihatdan o'rganilishi kerak bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. Shunga asoslanib, maqolada madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishda mazkur ishda to'plangan tajribani umumlashtirishga, ya'ni klassifikatsiya (tasnif)lash jarayoniga nazariy va amaliy jihatdan yondashishga harakat qilindi. Klassifikatsiya, ya'ni ta'snif so'ziga O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha ta'rif berilgan.

Tasnif (arab. – saralash, tartibga solish), klassifikatsiya – ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar sistemasi. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi. Fanni o'rganishda bunday

tasnif qulaylik tug'diradi. Tasnifda bo'linuvchi va bo'luvchi tushunchalar o'zining qat'iy o'rniغا ega bo'ladi. Tasnif natijasida fanda muhim ahamiyat kasb etuvchi jadvallar, chizmalar, grafiklar, kodekslar vujudga keladi. Tabiiy va sun'iy tasniflar bir-biridan farq qiladi. Tabiiy tasnif obyektlarning muhim belgilariiga asoslanadi.

U ilmiy tasnifning natijasi va muhim vositasi bo'lib, bilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Sun'iy tasnif asosida obyektlarning nomuhim belgilari yotadi va turli-tuman predmetlarni tartibga solish uchun xizmat qiladi (masalan, kutubxonada kitoblarni alfavit bo'yicha joylashtirish). Tasnifda mantiqdagi bo'lish qoidalariga qat'iy rioya qilish lozim. Tasniflash davr o'tishi bilan o'rganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarimizning rivojlanishiga mos ravishda takomillashtirib, tuzatilib, rivojlantirilib boriladi. Tasniflash har bir tushunchaning tafakkur tizimidagi o'rnini aniqlab beradi.

Tasniflash natijasida hosil bo'lgan bilim predmetning asosiy xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga imkon yaratadi va bu bilimlar tartibga solingan bilim hisoblanadi [1.154]. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tasniflash bo'yicha

ilmiy ishlar ko'proq Rossiya, Turkiya va Qozog'iston olimlarining tadqiqotlarida bayon etilgan. Rossiya manbalarida madaniy-ommaviy tadbirlarni tasniflash mezonlari quyidagilardan iborat:

- *maqsad va vazifalar;*
- *tarkib;*
- *ahamiyatllilik;*
- *yuzaga kelish usuli;*
- *ishtirokchilar soni;*
- *manzil;*
- *ishtirok etish imkoniyati;*
- *xavfsizlik darajasi.*

*Maqsad va vazifalarga ko'ra, madaniy-ommaviy tadbirlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:*

- *madaniy, sport va ko'ngilochar: konsertlar, sport musobaqlari va bayram tomoshalari;*
- *reklama va tijorat (yarmarkalar, taqdimotlar, savdo va hokazo);*
- *biznes hamkorlarining biznes uchrashuvlari va qabullari (aktsiyadorlar bilan uchrashuvlar, yig'ilishlar va qabullar, shved stillari, bufet yoki kokteyl).*
- *boshqa ommaviy tadbirlar: to'ylar, turli yubileylar, bayramlarda ziyoftlar va uchrashuvlar.*

*Madaniy-ommaviy tadbirlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:*

- *ijtimoiy-siyosiy (kongresslar, simpoziumlar, konferentsiyalar);*
- *madaniy tadbirlar (festivallar, bayramlar);*
- *sport turlari (spartakiadalar, sport musobaqlari, olimpiadalar);*
- *tadbirlar (ko'rgazmalar, to'ylar, tug'ilgan kunlar).*

*O'tkazilishining ahamiyatiga qarab ommaviy tadbirlarning asosiy turlari quyidagilar:*

- *xalqaro ommaviy tadbirlar (olimpiya o'yinlari, sport bo'yicha jahon championatlari, xalqaro san'at musobaqlari);*
- *mintaqaviy tadbirlar (festivallar, milliy bayramlar);*
- *mahalliy tadbirlar (shahar musobaqlari, ko'rgazmalar);*
- *mahalliy tadbirlar (tuman savdo yarmarkalari, fokuslar);*
- *shaxsiy tadbirlar (to'ylar, yubileylar, muzokaralar).*

O'tkazilish usuli bo'yicha madaniy-ommaviy

tadbirlarning eng muhim turlari quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- *tashkil etilgan tadbirlar (ko'rgazmalar, kontsertlar);*
- *spontan (karnavallar, bayramlar) [2.159].*

Madaniy-ommaviy tadbirlarning asosiy shakllari sifatida mahalliy urf-odatlar va an'analarga muvofiq kechalar, sayllar, bayramlar, o'yin dasturlari, shou dasturlari va marosimlarni tashkil etish va o'tkazishni taqdim etish mumkin. Madaniy-ommaviy tadbirlarining turlari cheklanmagan. Jumladan festivallar, kontsertlar, tanlovlар, viktorinalar, ko'rgazmalar, yarmarkalar, lotereyalar, korporativ tadbirlar, karnavallar, kortejlar, auksionlar, xalq festivallari, sport va ko'ngilochar tadbirlar, sirk va teatr tomoshalari, havaskorlik tomoshalar, xayriya tadbirlari, video dasturlari, yoshlari orasida o'tkaziladigan otashin atrofidagi kechalardir. Ammo ularni klassifikatsiyalash juda murakkabdir. Bu bir jihatdan o'tkazilayotgan madaniy-ommaviy tadbirning g'oyasiga ham bog'liq bo'ladi. Joylarda o'tkazilayotgan madaniy-ommaviy tadbirlar o'ziga xos xususiyati, jumladan, ta'sirchanligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, emotsiyonalligi bilan jamiyat ma'nnaviy hayotida muhim o'r'in tutadi. Shunga ko'ra, o'tkaziladigan madaniy-ommaviy tadbirlar quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim:

Birinchidan, madaniy-ommaviy tadbirlar o'ylangan reja asosida, g'oyaviy-badiiy maqsadni ko'zda tutgan holda tayyorlangan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'tkazilgan har bir tadbirda necha o'n yillar davomida to'planib kelayotgan tajribalar doim hisobga olinishi, bu esa har yili o'tkaziladigan an'anaviy tadbirlarni yanada o'zgacha, o'ziga xos, original elementlarini alohida nazarda tutib o'tkazishga katta ijodiy yordam beradi.

Ikkinchidan, ommaviy-tadbirlaro'zining ta'sirchanligi bilan alohida ajrab turishi kerak. Chunki tadbirlarga tayyorgarlik ko'rilibayotganda, tadbir ishtirokchilarini va tashkilotchilarini, kerak bo'lsa, ijtimoiy-gumanitar va musiqa mutaxassislari bilan bir necha bor ilmiy-nazariy, amaliy maslahat yig'ilishlarni o'tkazib, ularda tadbirning barcha muhim jihatlarini o'zaro muhokama qilib, olib chiqilayotgan materiallarning ko'lamni, hajmi, mazmuni, g'oyasi, ijrosi, sarflanadigan vaqtini tahlil etish maqsadga muvofiqdir [3.900].



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "T" harfi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Manba: <http://www.ziyouz.com/>
2. Виленский В. «Классификация массовых мероприятий как объектов предпринимательства». – Москва: Журнал «Транспортное дело России». Изд. «Редакция газеты «Морские вести России», 2017 г. Стр. 158-159.
3. Najmetdinova M. Ommaviy-madaniy tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlari. "Science and innovation" xalqaro ilmiy jurnali, №1. 2022-y. 948-b. Bosma nashrning elektron varianti: <http://scientists.uz/uploads/journal/202201.pdf>

## FOLKLORIY JARAYON HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o'zbek folklori janrlarining tarixiy taraqqiyoti haqida ma'lumot berilgan. Hozirgacha o'rganilgan folklor janrlarining tarixiy taraqqiyot jarayoni ular orasidagi o'zaro munosabatlari nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Tarixiy folklor jarayon xalqning hayoti bilan bog'liq hodisa ekanligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** folklor, tarixiy jarayon, transformatsiya, ijtimoiy-maishiy hayot, mif, obraz, poetik tasavvur.

## НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ФОЛЬКЛОРНОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об историческом развитии жанров узбекского фольклора. Процесс исторического развития изученных до сих пор фольклорных жанров анализировался с точки зрения их взаимосвязи. Исторический фольклор считалось, что процесс – это явление, связанное с жизнью народа.

**Ключевые слова:** фольклор, исторический процесс, преобразование, общественно-бытовая жизнь, миф, образ, поэтическое воображение.

## SOME CONSIDERATIONS ABOUT THE FOLKLORE PROCESS

**Abstract.** This article presents information about the historical development of genres of Uzbek folklore. The process of historical development of the folklore genres studied so far has been analyzed from the point of view of their interrelation. Historical folklore it was believed that the process is a phenomenon associated with the life of the people.

**Key words:** folklore, historical process, transformation, social and everyday life, myth, image, poetic imagination.



Folkloriy jarayon insoniyatning tarixiy taraqqiyot qonunlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda ong faoliyati mahsullari turli ko'rinish va mazmun ifodalovchi asarlar shaklida og'zaki yaratildi. Ijtimoiy ong shakllari orasida ommaviyligi, xalqchilligi va eng asosiysi, mohiyati eskirmaydigan nomoddiy turi – xalq og'zaki poetik ijodi hisoblanadi. Chunki insoniyat o'z boshida har xil hayot kechirish sharoiti, turli ijtimoiy-maishiy hayot bosqichlarini qanchalik ko'p kechirgan bo'lsa, folklor asarlari qadr-qimmati shunchalik oshib boraverган. Buning yorqin dalili sifatida eng sodda poetik tasavvur hisoblangan miflarni ko'rsatish mumkin.

Qadimgi ajdodlarimiz olamni idrok eta boshlagan davrlar o'zlarining ilk sodda qarashlarini yaratgan. Ular yaxshilik, mehribonlik, mehnatsevarlik, rahmdillik, to'g'rilik, sezgirlik, hushyorlik va kundalik turmushda zarur bo'ladigan amallardir. Chunki og'zaki so'z san'atining eng sodda va ko'pchilik manfaatiga xizmat qiluvchi miflardagi obrazlar inson tasavvurining jondantirilgan ramziy ifodasi bo'lib, voqeqlikning mohiyatini metaforik, timsoliy va istioraviy holatga ko'chirilgan. Ular tarixiy-folkloriy jarayonda so'z san'atiga aylana borgan qo'shiq, afsona, rivoyat kabi janrlar mohiyati shakllanishiga yordam bergen. Masalan:

Oqilon, oppoq ilon,  
Oydinda yotganing qani?  
Men yomondan ayrilib,  
Yaxshini topganing qani?

Bu qo'shiqdagi ilon, mifik timsol sifatida transformatsiyalangan. Chunki o'zbek xalqi etnik turmushida oqilon yaxshilik ramzi hisoblanib

kelingan. Uni ko'rgan odam omadli bo'ladi yoki baxt keltiradi, degan irim ham mavjud. Lirik qo'shiq ijrochisi – xalq oqilonni bevafo yordanaytirilgan lirik qahramon taqdiriga istioraviy bog'lab, mifik timsoldan muhim g'oyani ifodalagan va u folklor san'ati an'anasiga mos qo'shiq janriga aylangan. Lirik qahramon tuyg'usining badiiy ifodasi mifik timsol vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Odamzod aqliy tafakkur darajasi kengayishi, uning dunyoqarashi qanchalik yuksalishi bilan baribir, o'tmish avlod tomondan og'zaki yaratilgan afsonaga alohida mehr bilan qaraydi. Undan otababolari xotirasiga oid nuqtalarni qidiradi. Demak, xalq og'zaki ijodi donishmandligi asrdan asrga o'tib kelgan o'tmish ajdodlarining turli janrlar timsolidagi nomoddiy madaniy boyligi bo'lib, o'zining rivojlanish, taraqqiy etish va takomilga yetish jarayoniga ega. Mana shu jarayonni tadqiq etib, uning mohiyatini ochish esa janrlarning o'zaro munosabatlari bilan bog'liq masala hisoblanadi.

Janrlararo munosabatlarning mohiyatini tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasi asosida ochib berish masalasini kun tartibiga qo'ygan folklorshunos B.Sarimsoqovning ta'kidlashicha, o'zaro munosabat va ta'sir masalasi o'ta darajada keng qamrovli, murakkab masala bo'lib, u folklordagi ijodiy jarayonning tarixiy-tadrijiy masalalarini nisbatan to'larop va chuqurroq yoritishga imkon beradi. "Evolyutsion holat" tarixiy-folkloriy jarayondagi turli janrlar rivojini o'z ichiga olar ekan, bunda albatta, ular orasida sodir bo'lувчи turli munosabatlarni ham nazarda tutadi [1.98].

O'zbek folklorida janrlar tarkibini tarixiy jihatdan o'rghanish, undagi turli shakl va badiiy xususiyatga ega bo'lgan namunalarning tadrijiy takomilini aniqlashga yordam beradi. Hozirgi kunda o'zbek xalqining ma'nnaviy boyligi, deb qadrlanayotgan folklor asarlari uni yaratgan ommaning badiiy tafakkur yo'sinini ko'rsatishi bilan birga, o'tmish maishiy turmush tarzi, etnomadaniyati taraqqiyoti haqida ham ma'lumot beradi. Chunki o'zbek folklori janrlar taraqqiyoti sistemasi diniy e'tiqodi, hayotiy ehtiyojlari, jamiyatdagi mavqeい hamda shu mavqega mos murakkab munosabatlari zamirida tarkib topgan dunyoqarash, etnik-estetik idealining ayni folklor egasi bo'lgan xalqning o'tmishi, unda ro'y bergan turli ijtimoiy hodisalar, o'ziga xos badiiy modellari yig'indisidan tashkil topgandir. Turli badiiy-g'oyaviy qurilmaga ega bo'lgan bu og'zaki usuldagи konstruksiyalar o'zbek xalqining maishiy-ijtimoiy tushunchalarini ifodalaydi. Demak, folklor janrlari tizimining yuzaga kelishi, rivojlanib, barqarorlik kasb etishi insoniyat tarixi bilan dialektik aloqada sodir bo'ladi. Bunga nomoddiy madaniy meros, urf-odat, marosim va bayramlar tadriji hamda tarixiy mavzularga oid lirik, epik turga kiradigan qo'shiq, afsona va rivoyatlarni misol keltirish mumkin.

Shuning uchun o'zbek xalq og'zaki ijodi taraqqiyotini undagi janrlararo munosabat nuqtayi nazaridan o'rghanish mantiq jihatdan to'g'ri bo'ladi. Agar janrlar taraqqiyotiga mana shu jihatdan yondashilsa, ular orasidagi o'zaro munosabatlari tarixiy-folkloriy jarayonning dinamik o'zgarib borishi muayyan qonuniyatlar asosida sodir bo'lishi namoyon bo'ladi. Binobarin, xalq og'zaki ijodiga xos qonuniyatlar og'zakilik, ommaviylik, an'anaviylik, anonimlik, tarixiylik va variantlilik kabi xususiyatlar doirasida amalga oshadi. Chunki folkloriy jarayon ijtimoiy ong shakli uchun ana shu xususiyatlarga bo'ysungan holda janrlar rivojidagi evolyutsiya darajasini, ichki o'zgarish holatini muayyan tarixiy sharoit, hayotiy turmush talabi ta'sirida yuzaga keladi.

Janrlararo munosabat tarixiy-folkloriy jarayonda sodir bo'ladigan muhim hodisalardan biridir. Insoniyatning dunyo haqidagi ilk tasavvuri mahsuli hisoblangan miiflardan tortib, maishiy turmush tarzi va turli ijtimoiy-estetik ehtiyoji ta'sirida paydo bo'lgan og'zaki ijodi namunalari o'zaro munosabatlari asosida bizga qadar yetib kelgan. Chunonchi, janrlarning genezisi va poetik xususiyatlarida janrlararo munosabatning o'ziga xos o'rnii borligi o'zbek folklorshunosligida ham qayd etilgan [2-6].

Tarixiy-folkloriy jarayonda janrlararo munosabatlari o'z-o'zidan sodir bo'lmay, xalqning maishiy turmush tajribasi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot kechirish ehtiyojining evolyusiyasi, tafakkur faoliyati rivoji bilan bog'liq ravishda kechadi. Buni birgina "Alpomish" dostoning yaratilish va XXI asrga qadar yetib kelishi masalasida bayon qilingan xulosalar misolida ko'rsatish maqsadga muvofiq [7-8].

Tarixiy-folkloriy jarayonning o'ziga xos jihatlaridan biri tipologiya asosidagi takror va o'rin almashish an'anasisidir. Shuning uchun o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan og'zaki ijodi merosiga mansub janrlar tizimidagi folklor namunalari taraqqiyotini ularning o'zaro tipologik munosabatlari orqali tadqiq etish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki janrlararo munosabatlari xalq og'zaki ijodi janrlarining o'ziga xos xususiyatlarining tarkib topishida muhim rol o'ynaydi.

Og'zaki ijod namunalari g'oyaviy-badiiy ifoda maqsadi, strukturasi va ijrosiga qarab davrlar talabi va ma'nnaviy-estetik ehtiyojiga differensiyalanadi. O'tmishdan meros bo'lib kelayotgan folklor namunalari omma ijtimoiy-madaniy va axloqiy-folkloriy tushunchalarining u yoki bu jihatlariga oid badiiy qurilmalar sifatida janrlar tizimini tashkil etgan. Xalqning ijtimoiy-maishiy hayot tarzi, kelajagi uchun kurash doirasida ijod etilgan folklorona dunyoqarashini ifoda etuvchi badiiy so'z san'ati qurilmalari o'zaro munosabatlari natijasida yetilib borib, ommaning axloqiy-madaniyatiga xizmat qiluvchi og'zaki ijod namunasiga aylanadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi. // O'zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: "Fan", 1981-y. 98-b.
2. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – T.: "Fan", 1961-y.
3. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. – T.: "Fan", 1976-y.
4. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. – T.: "Fan", 1981-y.
5. Egamov X. Sovet sharqi ertakchilik an'analar tarixidan ocherklari. – T.: "O'qituvchi", 1980-y.
7. Mirzayev T. "Alpomish" dostoni, uning versiya va variantlari. // "Alpomish" – o'zbek xalq qahramonlik eposi. – T.: "Fan", 1999-y. 20-21-b.
8. "Alpomish" dostoni (tarixiy xalqlar versiyalari). – T.: "Muharrir", 2020-y.
8. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ. 1974 г.

## FOLKLOR JANRI VA IJRO SAN'ATIMIZDA MILLIY QADRIYATLARIMIZNING AKS ETTIRILISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, folklor janri va ijro san'atimizda milliy qadryatlarimizning aks ettirilishi bo'yicha ma'lumot beriladi. Milliy san'at va madaniyatimiz rivoji mobaynida, o'zbek mentalitetimiz negizida sayqallanib kelinayotgan milliy-an'anaviy qadriyatlarimiz to'g'risida fikr yuritadi.

**Kalit so'zlar:** san'at, madaniyat, xalq ijodiyoti, folklor, mentalitet, qadriyat, xalq, yor-yor, beshikkertdi, quloqtishlar, sayqal.

## ОТРАЖЕНИЕ НАШИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НАШЕМ ФОЛЬКЛОРНОМ ЖАНРЕ И ИСКУССТВЕННОМ ИСКУССТВЕ

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об отражении наших национальных ценностей в фольклорном жанре и исполнительском искусстве. При развитии нашего национального искусства и культуры он думает о наших национально-традиционных ценностях, которые шлифуются на основе нашего узбекского менталитета.

**Ключевые слова:** искусство, культура, народное творчество, фольклор, менталитет, ценность, народ, ёр-ёр, бешиккертиди, кулактишлар, сайкал.

## REFLECTION OF OUR NATIONAL VALUES IN OUR FOLKLORE GENRE AND PERFORMING ARTS

**Abstract.** This article provides information on the reflection of our national values in the folklore genre and performing arts. During the development of our national art and culture, he thinks about our national-traditional values, which are being polished on the basis of our Uzbek mentality.

**Key words:** art, culture, folk art, folklore, mentality, value, people, society, yor-yor, beshikkertdi, kulaktishlar, saikal.



**Folklor janri** – xalq og'zaki ijodining hamda xalqning uzoq o'tmishi, an'ana-yu, urf-odatlarini sayqallab kelib, insonlarning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati timsolidir. Inson yaralibdiki, har bir millat-elatning turmush tarzi va o'ziga xos an'analari mujassam.

**Xalq ijodiyoti** (folklor). Inson nutqining shakllanishi bilan xalq og'zaki ijodining qadimiy tip va janrlari aralash shaklda paydo bo'la boshladи. Inson badiiy tafakkurining turli shakllarini o'z ichiga olgan bu sinkretik ijodlar ibtidoi inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qadimiyyidir. Unda kishilarning diniy e'tiqodlari va mifologik qarashlari, asosiy ilmiy (empirik) biliimlari, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Biroq qadimgi xalq og'zaki ijodining bunday namunalari bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, ularning izlari va alohida qismlari odamlar hayoti bilan bog'liq turli g'oya va qarashlarda, xalq an'analari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari tarkibida, ayrimlarida yozma manbalar, folklor asarlarida, keyingi davrlarda qayd etilgan. Faqat qoldiq sifatida saqlanib qolingga. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida, xalq ijodiyoti bilan tarixan bog'liq bo'lgan adabiyot paydo bo'ldi. Badiiy matnning har qanday ijodiy (yozma, she'riy, dramatik) faoliyat bilan bog'lanishi, uni o'ziga xos ijodiy faoliyat sifatida yozish orqali mustahkamlash adabiyotning asosiy xususiyati bo'lib, inson badiiy tafakkurining

rivojlanishida o'ziga xos burilish davrini ifodalaydi. Adabiyot o'z taraqqiyotida barcha estetik tushuncha va badiiy shakllarni xalq og'zaki ijodidan olgan bo'lishiga qaramay, o'z badiiy qonuniyatları asosida mustaqil ravishda rivojlandi.

Xalq og'zaki ijodi nutq san'atining mustaqil shakli sifatida u bilan yonma-yon yashab kelgan. Chunki insoniyat jamiyatining umumiy estetik ehtiyoji va ehtiyoji uzoq yillar davomida nafaqat adabiyot, balki xalq og'zaki ijodi bilan ham mustahkam bog'langan. Nutq san'atining bu ikki turining mustaqil rivojlanishi adabiyot va xalq og'zaki ijodi asarlari yaratilgan ijtimoiy muhitning har xilligi, ijodiy jarayonning rang-barangligi bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari kuchayishi bilan bog'liq. Natijada, adabiyot va xalq og'zaki ijodi o'ziga xos estetik tizimi, janr tarkibi, badiiy xususiyatlari – og'zaki va yozma nutq san'atining ikki mustaqil turi sifatida rivojlanib bordi.

Ijodiy va ijro jarayonining og'zaki xarakteri va unda ko'pchilikning (jamoaning) ishtiroki xalq amaliy san'atining asosiy xususiyati hisoblanadi. Uning an'anaviylik, o'zgaruvchanlik, ommaboplilik, anonimlik (muallifi noma'lum) kabi ko'pgina xususiyatlari folkloriga xos bo'lgan ijodiy jarayonning ana shu asosiy xususiyati doirasida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari og'zaki shaklda yaratilgan, ajdod-avlodlar bilan bog'liq holda og'zaki tarqatiladi, xalq repertuaridan keng o'rinn egallaydi. Bunga

badiiy shakllarning barqarorligi (turg'unligi), matndan matnga o'tishning umumiy joylarining aniqligi va bir xil turdag'i mobil syujetlarning ko'pligi yordam beradi. Har bir asar va ijroda an'anaviy asarda nimadir o'zgaradi, nimadir oldingisidan boshqacha talqin qilinadi, nimadir qo'shiladi yoki olib tashlanadi. Bunday o'zgaruvchanlik ijtimoiy muhitga, turmush sharoitga, tinglovchilarining ehtiyojlariga va ijrochining (ijodkorning) imkoniyatlariiga bog'liq. Lekin spektakl davomidagi har qanday o'zgarish, qayta yaratish ko'p asrlik an'analar doirasida sodir bo'ladi. Demak, tirik og'zaki ijod doirasidagi badihagoy xalq og'zaki ijodining ko'plab variantlarda tarqalishiga olib keladi.

Avvalo ijrochilik san'atida folklor janrinining o'rni beqiyos. San'at va madaniyat – inson faoliyatining ramziy qurulmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat esa musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Xalqning ijo san'ati ilk bor ijtimoiy-madaniy an'analardan va xalqning tarixiy qadriyatlari asosida shakllanadi. Tarixan rivojlangan shaxs va ijtimoiy faoliyat u yoki bu xalqning madaniyati, turmush tarzi, falsafiy g'oyalari, ta'lif tizimining mahsuli, boshqacha aytganda, ma'naviy substansiyadir. Milliy ma'naviy qadriyatlarni ijobjiy va axloqiy fazilatlarni yuksaltirish, davlat va millat ravnaqiga to'sqinlik qilayotgan salbiy illatlarni bartaraf etish omiliidir. Milliy va ma'naviy qadriyatlarni o'rtasida uzviy bog'liqlik va o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, u quyidagilarda ifodalananadi: milliy qadriyatlarni, milliy g'oyanining ma'naviy asosi va manbai bo'lib xizmat qiladi. Folklor janrimiz qadriyatlarni boyitish, ularni yuksak bosqichga ko'tarish, milliy qadriyatlarni inson ongi va qalbiga singdirish omili sifatida qaraladi. U mavjud axloqiy qadriyatlarni insonlarning tub manfaatlari nuqtai nazaridan baholaydi, ularning ijobjiy tomonlarini rivojlantiradi va salbiy holatlarni inkor etishning axloqiy mezoni sifatida ishlaydi.

Respublikamizda Yurtboshimizning tashabbusi bilan san'at va madaniyat sohasining rivojlanishi uchun bir nechta bosqichda keng imkoniyatlarni yaratilish kelinmoqda. Xususan, ilg'or jahon tajribasi asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalarini barpo etish, ularning texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu o'rinda, yoshlarning madaniy savyasini yuksaltirishda, ularni milliy va umumbashariy madaniyatimizning eng yaxshi namunalardan bahramand etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayti. Bu o'zgarishlar xalqning qadryatlari, urf-odatlarini sayqal topayotganligidir.

Xalq amaliy san'atining deyarli barcha janrlari turli ijrochilar va ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq. Iste'dodli ijodkorlar xalq og'zaki ijodi namunalarini asrab-avaylash va ommalashtirish, ularni og'zaki ijod namunalarini doirasida takomillashtirib borish, ba'zan yangilarini yaratish bilan shug'ullanadi. Biroq unda mustahkamlangan jamoaviy an'analar hukmronlik qiladi. Ayrim janrlar (masal, topishmoq, maqollar) ommaviy xarakterga ega, ya'ni har kim ozmi-ko'pmi

o'z misolini ayta oladi, boshqalarini (doston, og'zaki drama) ijo etish esa biroz tayyorgarlikni talab qiladi. Shunday qilib, xalq amaliy san'ati namunalarini yaratish va ijo etishda o'ziga xos kasbiy ijod vujudga keldi. O'zbek xalq og'zaki ijodida ijodkor va ijrochilarining kasbiy mahorati nihoyatda rivojlangan. Baxshi, hikoyachilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar ijrosi professional san'at bo'lib, uni puxta egallashi uchun yangi ijodkor maxsus tayyorgarlikdan o'tishi, ma'lum bir ustozdan ta'lif olishi kerak edi.

Rivoyat, hikoya, maqtov, latifa, matal, topishmoq, ertak, doston, qo'shiq, askiya, og'zaki drama va boshqalar xalq amaliy san'atining asosiy janrlari hamda nutq san'ati namunalarini bo'lib, muayyan ijtimoiy-maishiy vazifalarni ham bajaradi. Xalq og'zaki ijodi janrlari bir-biridan nafaqat g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, balki ijo usullari (yakka ijo, jamoaviy ijo va boshqalar) bilan ham farqlanadi. Ulardan biri kuylash uchun, ikkinchisi hikoya, uchinchisi ko'rsatish, namoyish qilish yoki kuylash, o'ynash va aytib berish uchun mo'lallangan. Folklor janrlari qanchalik xilmayxil, ba'zan o'ta funksional va qat'iy belgilangan bo'lmasisin, ular yagona badiiy tizimni tashkil qiladi.

Qadryatlarimizda ijo san'atiga razm solsak, o'zbek xalqining eng ulug' urf-odatlaridan biri "yor-yor" hamda "kelinsalom" marosimini olsak. Bu marosimlar O'zbekistonda nechta millat vakillari istiqomat qilayotgan bo'lsa, barchasining o'z dunyo qarashidan va til boyligidan kelib chiqib to'y marosimlari turlicha o'tkazilishi va ijo etilishiga duch kelamiz. Hududlarni misol qilib olsak, Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri hamda voha hududlarining "yor-yor" qo'shig'ida ijo qilish yo'llari bir-biridan farq qiladi. Yor-yor to'y marosimlarida aytildigan xalq qo'shig'i. Qadimdan o'zbek, tojik, uyg'ur, turkman xalqlari orasida keng tarqagan. Ikkilik yoki to'rtlamchi atamalardan iborat bo'lib, har bir gap oxirida, ba'zan o'rtasida "Yor-yor, aylanaman" kabi so'zlar qo'shiladi.

Odatda, doyra jo'rligida, kelinni kuzatayotgan ayollar tomonidan, Farg'ona vodiysi (Farg'ona, O'sh, Xo'jand) va Zarafshon vohasida kelinnikiga ketayotgan yigitlar tomonidan ham ijo etiladi. Yor-yorda kelinning xususiyatlari, uning hayoti, orzu-istiklari, yaxshi tilak va qutlovlari kuyylanadi. Yor-yorlarning favqulodda ta'sirchanligi ularda bir vaqtning o'zida ham mungli yig'i (ohangida), ham bayramona shodiyonalik (usulda) kayfiyatları mujassam etilganligidadir. Xalq yor-yorlari ta'sirida yozma adabiyotda ham yor-yorlar yaratilgan. Alisher Navoiyning "Mezon ul'avzon", Boburning "Mufassal" asarlaridagi yor-yor matnlari teranligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston viloyatlari (Buxoro, Farg'ona, Andijon, Namangan, Surxondaryo, Xorazm va boshqalar) ning yor-yorlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuylari mungli, jozibali, o'ynoqi, mazmuni lirik, hajv, madhiya ham bo'lishi mumkin. Yor-yorlar turli folklor-etnografik ansamblar repertuarida, o'zbek kompozitor va kompozitorlari ijodida muhim o'r'in tutgan. Xususan, to'y marosimi, to'y tabrikleri, yor-yorlar, kelinlarni tabriklash she'riy ijodimizning mumtoz namunalariga aylangan. Farg'ona vodiysidagi Qo'qon shahrida

tashkil topgan "Omonyor" ansamblining o'ziga xos shevalarida aytilan "yor-yor" qo'shig'iga misollar:

**Avval boshlab aytayligo yo bismillo,**  
**Yor-yoro yo bismillo,**  
**O'rtamizda keladiyo kalomillo,**  
**Yor-yoro kalomillo.**  
**Hay-hay o'lano jonio o'lan kelin keldi,**  
**Yor-yoro kelin keldi.**

Kelinning borayotgan xonadoniga poyqadami qutlug' kelsin, deya yaxshi niyatlarda aytilan qo'shiqdir. Ota-onalarimiz tomonidan farzandlariga mehr-oqibat ko'rsatilib, qizlarga oq fotiha berilishi ham gavdalangan. Bundan ko'rinish turibdiki, farzandlar tug'ilishidan tortib, toki kamolga yetgunga qadar, momolarimizdan qadryatlarni mukammal o'rganib boradi.

"Yor-yor" marosim qo'shiqlari matni bilan tanishar ekanmiz, Ohangaron tumani yor-yorlari mungli kuyi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu kuyni boshqa hech bir vohada uchratmaymiz. Ayniqsa, kelinning boshi ustida to'rt ayol chimildiqni ohista silkitib, mungli ohang bilan armonli satrlarni kuylagani o'ziga xos:

**Bor bolam-o, bor bolam,**  
**Bardamda bo'l yor-yor.**  
**Ota-onam qoldi deb,**  
**Armonda bo'l yor-yor.**  
**Bor bolam-o, bor bolam,**  
**Boy seniki yor-yora.**

Yor-yorlar matni bilan qorishib ketgan mungli ohang qizning o'z ota uyini tark etishidagi qayg'usini hamda qizga sabr-toqat, bardamlik tilayotganligi ifoda etilgan. Yor-yorlarga oid ayrim misollarning ma'nosi qanday bo'lishidan qat'i nazar, yakunda yosh oilaga baxt-saodat tilashdan iborat bo'ladi. Jamiyat millat yoki shaxsning o'ziga xos an'analarini, urf-odatlari, diniy e'tiqodini ham qamrab oladigan folklor janri, har bir millat qadryatlari, uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi. Masalan, o'zbek millati qadryatlarining shakillanish jarayoni deyarli uch yarim ming yillik tarixga ega. O'zbek xalqi insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyatini bebaho durdonalar bilan boyitdi. Avvalo, qadriyatlarimiz o'zbek an'analarida o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

O'zbek xalq og'zaki ijodi janridagi qadriyatlarimiz chillak chavgon, ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlarimiz, "quloqtishlar", "beshikkerti", "qalin", "to'qqiz" kabi udumlarimiz turkiylar uchun ham o'ziga

xosdir. Hozirda xalq orasida, qadimiy bir nechta yo'qolib ketgan va hanuz shakllanib kelinayotgan urf-odatlarmizdan "quloqtishlar", "beshikkerti" marosimlarimizning tarixiga bir razm solsak.

"Quloqtishlar" o'yini haqida Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Mahmud Sattorov ham bu udum bo'yicha o'z fikirlarini "O'zbek udumlari" kitoblarida bayon qilgan. "Keyingi avlodlarimiz tomonidan qattiq ta'qib ostiga olinib, la'natlanib, yo'q qilib yuborilgan odatlarmizdan biri beshikketdi va quloqtishlar odatidir. Lekin har bir asl narsa zamonalr to'foniga, to'siqlar, qarama-qarshiliklarga dosh bera olishi bilan ham qimmatlidir. Shundanmikan, beshikkertdi, quloqtishlar odatlariga chekka-chekkadagi qishloqlarda, xalqimizning o'zligini yo'qotmagan qavmlari orasida hanuzgacha amal qilib kelindi. Dono buvilarimiz, ko'pnik o'rgan qariyalarning xizmatlari xalqona udumlarning saqlanib qolishida beqiyos bo'ldi".

O'tmishda quloqtishlar odati Jadallik bilan rivoj topgan edi. Shuni anglab yetishimiz kerakki, bizning qanday urf-odatlarmiz bo'lmashin, barchasining o'z sir-asrorlariga boy tarixi mujassamdir. Beshikkertdi, quloq tishlamoq bu – bolalarni beshikka jalb qilib, ularni yoshligidanoq unashdirib qo'yish odat tusiga kiradi. Ilgari bir oilada o'g'il, boshqa oilada qiz tug'ilsa, voyaga yetganda birga turmush qurmog'i qaror qilingan. Ota-onalar rozi bo'lib, qizning boshini bog'lash uchun beshikning dastagiiga pichoq bilan belgi qo'yan. Beshikkertdi, qabilachilik davrining yodgorligidir. Qo'shnilar, urug'lar, qabilalar o'zar do'stlikni mustahkamlash uchun beshikkertidan foydalangan. Bolalar balog'atga yetganlarida turmushga chiqishlari kerak edi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, butun dunyoda ulkan globallashuv jarayonlari kechayotgan bir sharoitda, o'zbek milliy qadriyatlarimiz va folklor ijob san'atini o'rganish uning umuminsoniy qadriyatlariga qanchalik mos kelishini kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, bu xalqimizning qadimiy urf-odatlari, azaliy urf-odat va marosimlari bilan birga o'ziga xos va umuminsoniy qadr-qimmatga ega xalq ekanimizni ko'rsatadi. Farzand dunyoga kelgan paytidanoq uning ongiga milliy qadriyat va an'analarimizga chuqur kirib borsak, u o'ziga xosligini yo'qotmaydi. Xalq orasida mehr-muhabbat, oqibat, insonlarning bir-biriga e'tiborliligi, odamiyligi abadiy davom etib boradi. Zero, biz insonlar qadr-qimmatimizni yo'qotmas ekanmiz, qadryatlarimiz boqiy bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalq\\_ijodi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalq_ijodi)
2. Bekmurodov M. "O'zbek mentaliteti xususiyatlari". "Ijtimoiy fikr" jurnali, 1998-yil, № 1. 49-bet.
3. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. – Toshkent: "Sharq", 1998-y.
4. Nazarov Q., Ochilidiyev A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – T.: "Yangi asr avodi", 2002-y.
5. <http://www.scientificprogress.uz/>
6. Mirzayev T. Doston o'zbek folklorining epik janrlari. – T.: "Fan", 1981-y. 9-b.
7. Musaqlarov A. O'zbek xalq lirikasi. – T.: "Fan", 1995-y. 168-b.

## **ALISHER NAVOIYNING FALSAFIY QARASHLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, o'zbek xalqining buyuk shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy g'oyat boy va serqirra ilmiy-nazariy merosida uning ijtimoi-siyosiy hayoti, davning barcha muammolari, falsafiy qarashlari o'zining to'liq ifodasini topgan. Ulug' shoir ham barcha mutafakkirlar kabi "Inson qanday bo'lishi kerak?", "Yashashning ma'nosi nima?" – degan savollarga javob izlagan. Nazmda ham, nasrda ham tengsiz asarlar yarata olgan. Ularda temuriylar davrining dolzarb falsafasi o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy ijod, falsafa, insoniy, g'oya, dialog, vatan, ilmiy-nazariy.

## **ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АЛИШЕРА НАВОЯ**

**Аннотация.** В данной статье великий поэт, мыслитель и государственный деятель узбекского народа Алишер Навои в полной мере выразил свою общественно-политическую жизнь, все проблемы того времени, а его философские взгляды в богатом и богатом научно-теоретическом наследии. Великий поэт, как и все мыслители, задавался вопросом «Каким должен быть человек?», «В чем смысл жизни?» – искал ответы на вопросы. Ему удавалось создавать бесподобные произведения в поэзии и прозе. В них отражена современная философия эпохи Тимуридов.

**Ключевые слова:** художественное творчество, философия, человек, идея, диалог, родина, научно-теоретическое.

## **ALISHER NAVOY'S PHILOSOPHICAL VIEWS**

**Abstract.** In this article, the great poet, thinker and statesman of the Uzbek people, Alisher Navoi, is fully expressed in his socio-political life, all the problems of the time, and his philosophical views in the rich and rich scientific and theoretical heritage. The great poet, like all thinkers, asked "How should a person be?", "What is the meaning of living?" - sought answers to the questions. He was able to create unparalleled works in poetry and prose. The current philosophy of the Timurid era is reflected in them.

**Key words:** artistic creation, philosophy, human, idea, dialogue, homeland, scientific-theoretical.



Badiiy ijod – insoniy kamolot uchun, ma'naviy yuksalish uchun, harakatlar faolligi uchun xizmat qiladi. U garchi, yakka qalb-u ongning yaratig'i bo'lsa-da, butun jamiyat a'zolari mulkiga aylanadi. Ibtidosi individuallika xos esada, intihosi ommaviylik kasb etadi. Hayot falsafasi, yashash falsafasi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki unda donishmandlik bilan bashoratgo'ylik aksariyat hollarda uyg'unlashib ketadi. Bugunning bag'rida turib, ertaning hayotiy xayollari olamiga o'qiganni beixtiyor yetaklaydi. Mushohadalar ummoniga sho'ng'itib, uning tubidan fikr javohirlarini terdiradi. Uzoqni ko'ra bilishdek tafakkur olamining ma'no cho'qqillarini zabit etishga undaydi. Menimcha, milliy g'oya ezgu maqsadlarga yetkazuvchi eng to'g'ri, eng ravon, eng nurli yo'l bo'lsa, falsafa ana shu yo'lni go'yo yelkasida ko'tarib turuvchi zamindir. Mustahkam zamin ustiga qo'yilgan yo'l esa, hech qachon buzilmaydi. Uzoq yillar insoniyatga, uning istiqboliga yaroqlilik darajasini saqlab turaveradi.

O'zbek xalqining buyuk shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy (1441–1501) g'oyat boy va serqirra ilmiy-nazariy merosida uning ijtimoi-siyosiy hayoti, davning barcha muammolari, falsafiy qarashlari o'zining to'liq ifodasini topgan. Ulug' shoir ham barcha mutafakkirlar kabi "Inson qanday bo'lishi

kerak?", "Yashashning ma'nosi nima?" – degan savollarga javob izlagan. Nazmda ham, nasrda ham tengsiz asarlar yarata olgan. Ularda temuriylar davrining dolzarb falsafasi o'z aksini topgan.

Avvalo, Navoiy imyon kishini hayvondan inson darajasiga ko'taruvchi bosh omilligini izoh qilar ekan, insoniylikning to'kis bo'lishi uchun hayo, sabr va shukrning zarurligini alohida ta'kidlaydi. Bu o'sha davr va zamonamiz uchun ham jahonshumul ahamiyatga ega. Chunki sabr va shukr fazilatlaridan mahrumlik dunyo bo'ylab kishilarni o'z joniga, hatto, o'zlar bilan birga o'z farzandlarining ham joniga qasd qilishgacha olib kelmoqda.

Xalq hayoti haqida o'ylash, u haqda g'amxo'rlik qilish shoir va mutafakkirning doimiy diqqat markazida kechdi. Uning fikricha, inson hamisha yashash va baxtli bo'lishga haqlidir. Navoiy insonlar haqida g'amxo'rlik qilishni eng olyjanob insoniy fazilat, haqiqiy odamiylikning mezoni deb bildi.

*Odami ersang demagil odami,<sup>1</sup>*

*Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.*

"Navoiy qit'alarida hiradmand, ulug' hikmatnavisdir. U qit'alarini:

*Majmuni o'yla kishvarki, anglaki sathini,*

*Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog<sup>2</sup> – deb bejiz ta'riflamagan edi. Bu tafakkur "kishvari"da o'quvchining fikri kengayadi, ko'ngli nurlanadi, aqli faollashadi. Chunki Alisher Navoiy qit'alarida tabiatdagi oddiy qurg'oqchilikdan koinot sir-*

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (7 jild). – Toshkent: "Fan", 1991-y. 240-b.

<sup>2</sup> Ibrohim Haqqul. Abadiyat farzandi. – T.: "Yosh gvardiya", 1990-y. 4-b.

*asrorigacha, chumoliday inson qismati va uning davr, jamiyat, borliq bilan munosabatigacha, barcha-barchasi haqida fikr yuritilib munosabat bildirilgan*”, – deya yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul.

Chindanda, u so'z orqali ma'no “gavhar”larini, yuksak tushuncha va g'oyalarni yuzaga keltirgan daho ijodkor edi. Misol uchun, “Farhod va Shirin” dostonida Armanistonniadolat bilan idora qiluvchi, xalqqa tinch va osoyishta yashash imkoniyatini tug'diruvchi va mamlakatni obod qilish bilan mashg'ul bo'lgan Mehinbonu obrazini yaratdi. Bu orqali u *xotin-qizlarga yangicha munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari surdi*. Xotin-qizlar har ishda aqlu farosatda, dunyon anglash va mamlakatni boshqarishda erkaklar bilan teng ekanligini ta'kidlab, Mehinbonu orqaliadolatlimalika obrazini kashf etdi.

Yana bir dalil sifatida Navoiyning suyukli qahramoni Farhodga nazar tashlasak, ulug' shoirning ta'riflashicha, Farhod o'zida aqliy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan. Illohiy emas, balki dunyoviy ishqqa ega bo'lgan mard, jasur va insonparvar qahramondir. Olamni tushunmoq uchun Farhod Suqrotdan saboq oladi, jamiyatning razil va yaramas kuchlariga qarshi kurashadi, odamlar mushkulini yengillashtiradi. Farhod o'zining ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra aslzodalarga mansubdir. Navoiy zamonasida aslzodalarning jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi ayb va nomunosib ish hisoblangan. Buyuk shoir esa kishilar ongida o'rnashib qolgan bunday tasavvurdan mutlaqo boshqacha obrazni ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalantiradi. *Mehnatning yaratuvchilik kuch-qudratini ulug'ladi*. Farhod shahzoda bo'lishiga qaramay, oddiy mehnatkashlar bilan yonma-yon turib ter to'kadi, o'z bilimi, hunari va aqliy qobiliatlari bilan kishilarga xizmat qilishni katta sharaf deb biladi.

**Hunarni asrabon netgumdir oxir,<sup>3</sup>**

**Olib tufroqqamu ketgumdir oxir?..**

Bundan tashqari u dono faylasuf sifatida barcha boylik, rohat-farog'atning asosini insonning halol mehnati tashkil etadi, deb ko'rsatdi. Mehnat masalasi doirasida muhim ijtimoiy-falsafiy fikrlarni asoslab beradi. Davlatning yaxlitligi, shohlarningadolatlifiqarolarning tinch va osoyishta bo'lishlari mehnat bilan bog'liqdir. Uning qator asarlarida ko'plab saroy va qasrlar kurgan Xitoy me'morlarining mehnati ulug'langan.

Navoiy mehnat mavzusi orqali *tenglik g'oyasini* ilgari surdi, o'z davrida ijtimoiy tabaqalarni ko'zdan kechirar ekan, jamiyatdagi eng sog'lom ijtimoiy kuch mehnatkash dehqonlar ekanligini, hokim sinf vakillari ichida saxovat, hayo, himmat va muruvvat kamayganidan qattiq iztirob chekdi. Uning fikricha,

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asrlar to'plami (8 jild). – T.: 1991-y. 230-b.

<sup>4</sup> Ibrohim Haqqul. Abadiyat farzandi. – T.: “Yosh gvardiya”, 1990-y. 7-b.

<sup>5</sup> Mashriqzamin hikmat bo'stoni. – T.: “Sharq”, 2008-y. 94-bet.

<sup>6</sup> Mashriqzamin hikmat bo'stoni. – T.: “Sharq”, 2008-y. 123-b.

<sup>7</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008-y. 47- b.

mansab va ulug'lik insonga xos xususiyatdir. Inson ongi hamisha yuksak martaba, mansabga intilish bilan band bo'ladi. *Mansab g'aflatni kuchaytiradi*: mansabdorni o'rab olgan kishilarning iltifot va mulozamatlaridan u mast bo'ladi, amalni o'tkinchi va bevafo ekanligini unutib qo'yadi. Shuning uchun ham deydi Navoiy, kishi mansab va martabaga erishgach, xudbinlik va hudpisandlikka berilmasligi, mazlumlar dardiga malham bo'lishi, podshoh manfaati, xohish-irodasini amalga oshirishga intilishi, agar bordi-yu podshohning xatti-harakatlari va siyosati shariat ahkomlari va iymon-e'tiqod talablariga zid bo'lsa, u holda podshohga muloyimlik bilan arz qilib, uning xizmatidan ketishi kerak, deb hisoblaydi. Demak:

**Har kishikim, topsa davron ichra johu e'tibor,<sup>4</sup>**

**Kim aning zotida bedodu sitam bo'lg'ay qilig'.**

Navoiy urushga qarshi bo'lib,adolatlaviadolatsiz urushlarni bir-biridan farqladi. Podshohlarni va odamlarniadolatga chorladi. Do'stlik va ahil-inoqlik eng ezgu xislatligini uqtirdi. “Saddi Iskandariy” dostonida bu g'oya yorqin ifodalanadi. Shoir odamlarga qarata shunday deydi:

**Olam ahli bilingizkim ish emas dushmanlig',<sup>5</sup>**

**Yor o'lung birbiringizgaki, erur yorlig' ish.**

Navoiy vatan haqida buyuk gumanist sifatida fikrlaydi. Ma'lum bir jug'rofiy doiradan chiqib, Vatanga muhabbat g'oyasini keng mehnatkashlarning hayoti, ularning orzu va umidlari bilan bog'laydi. Buyuk jahon davlati vujudga kelgandaginaadolat talablari yuzaga chiqadi, davlatlar, xalqlar o'rtasida urushlarga chek qo'yiladi, barcha odamlar ahil qarindosh-urug' bo'lib, bir-birlarini qo'llab-quvvatlab yashaydilar, degan falsafani olg'a suradi.

**Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,<sup>6</sup>**

**Ham jonlariga moyai darmon bo'lg'il.**

Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobida ta'kidlaganidek: “Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydekk teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi”<sup>7</sup>.

Agar menga: kitobxonlikni qaysi yozuvchi yoki shoirning asarlaridan boshlash kerak, degan savolni berishsa, hech ikkilanmay: Alisher Navoiynikidan, deya javob berardim. Boisi qaysi kitoblarini qo'lga olmay, o'ta ma'nodor so'zlar-u, o'ta ta'sirchan fikru iboralardan ko'nglimga munavarrik yuguraveradi. Donishmand bobomiz go'yo qalbiga quyoshni jolab yashagandek, tasavvur qilaman. Nazmu nasrdagi bitiklari nozik va bebafo badiiy ifodalarga shu qadar boyki, ularni sharplashga uncha-muncha odamning mushohada salohiyati yetavermaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, birlgina Navoiy yaratgan o'lmas ijod durdonalarini uqish va o'qirmonlarga targ'ibot qilmoqqa ming-minglab adabiyot bilimdonlari ham kamlik qiladi-yov.

Biz ularning safiga o'zimizni qo'shishga istihola qilgan holda faqat havaskor navoiyxon sifatida ba'zi tahlil va talqinlarimizni aytmoqqa bazo'r jur'at topgandaymiz. Balki kimlardir allaqachon aytgan

fikrlarni bilib-bilmay takrorlashga yo'l qo'sak, aybga buyurmaysiz. Sof ilmiylikdan ko'ra, ommabop yozganimiz Navoiy bobomizni bilishga va tushunishga chog'langanlarni bitiklari mutolaasiga qiziqtirish niyatimiz ustuvorligi sababidandir.

Alisher Navoyining "Hayrat ul-abror" dostoni teran mazmuni va yuksak badiiyati bilan asrlar davomida ko'pchilikni hayratga solib keladi. Xususan, dostonda qo'llangan har bir so'z o'zining ma'no nozikliklari va o'nlab qirralari bilan yuksak san'atkorona tarzda qo'llanganligining guvohi bo'lamiz. Yagona quyosh kalomining hadsiz jilosi-yu, hadsiz jilvasidan barcha birday bahramand. Turkiyzabon shoirimiz qirq yoshdan o'tgach, yanayam aniqrog'i, nazmiy nuktadonlikda anchayin tajriba va mahorat kasb etgach, o'z oldiga bag'oyat mushkul ishni qo'ya oldi. Navoiy "Xamsa"dek buyuk asarni yaratdi.

"Xamsa"chilikning yalovbardori bilan bahslashishning mas'uliyati naqadar yuksakligini chuqur anglagani uchun uni chinakamiga ko'klarda ko'rdi:

*Ganja quyoshini ko'targach alam,*

*Ayladi so'z mamlakatin yakqala<sup>8</sup>.*

Do'sti va ustozи Abdurahmon Jomiyning ta'rifida ham xuddi shu qiyosni qo'llaydi:

*Vaqti quyoshin chu qilib pardapo'sh,*

*Kilkı qaro abrdek aylab xurush.*

*Lek manga ollida ajzu niyoz,*

*Borcha ulusdin beribon imtiyoz.*

*Mehrdin ofoq aro gar nurdir,*

Bu yerda Navoiy kamtarona holatda Jomiyni ko'kdagi quyoshga-yu, o'zini zamindagi tuproqqa mengzayapti.

Shoirning nazdida Quyosh faqat nurbuloq emas, go'zallar go'zali timsoliga tenglangan. Chunonchi:

*Turki Xo'tan yopti chu zebo jamol,*

*Mushkfishon bo'ldi nasimi shamol.*

Yuqorida bayt kechqurun quyosh botib, qorong'i tusha boshlashi xususida. "Xo'tan go'zali" – Quyosh. Xo'tan Sharqiy Turkistonidagi shaharlardan biri. U bu yerda quyosh chiqadigan sharq ramzi ifodasi sifatida qo'llangan.

*Lu'bati Chin chehra nihon ayladi,*

*Zulfin ochib mushkfishon ayladi.*

Endi esa quyosh Chin qo'g'irchog'iday yuzini o'girib olib, sochini yoyib qora mushk socha boshladi ma'nosini uqamiz.

Quyosh – Navoiyning eng suyumli so'zi, uning bilan nazmining nozik navolarini namoyonlashi nihoyasiz. Ko'ngil kezar gulshan (osmon) husniga mahliyona baytlarni bitar ekan, yana quyoshni unutolmaydi:

*Anda nihon erdi pari paykare,*

*Durji sipehr ichra samin gavhare.*

E'tibor qilsak, quyidagi ma'noni anglaymiz: U yana bir boshqa gulshan (osmon)ga ko'chdi, undagi har bir chamanni kezdi. O'sha yerda shunday bir paripaykar o'ltirardiki, u osmon qutisining eng qimmatbahо gavhari (ya'ni quyoshi, M.A.) edi.

<sup>8</sup> A.Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-y.

Maqoladagi qolgan nazmiy iqtiboslar ham shu kitobdan olindi.

Dostonda sultonlar haqida gap ketganda dastlab ular ulug'lansa-da, ana shu ulug'likka munosiblik muhokamasida yana fikr quyoshga bog'lanadi:

*Ey falak avjidin o'tub rif'ating,*

*Oyu quyoshdin cholinib navbating.*

Mazmuni: Ey, martabasi falakning avjidan ham yuqori ko'tarilgan odam, oy va quyosh sening sha'ningga nog'ora bo'lib chalinadi. Taxting mamlakat uchun abadiy mulk. Chodiring soyasida mamlakat quyoshi porlaydi.

Navoiy hukmdor kuch-quvvatini adolatda biladi va uni himmatga undaydi:

*Kimniki, beloding etibdur asir,*

*Bo'langa adl ilgi ila dastgir.*

*Roy ila zulmatni munir aylamak,*

*Lutf ila olamni asir aylamak,*

*Tig' agar cheksa nechukkim quyosh,*

*Aylamak oning so'ngg'ida mehr fosh.*

Shoir hukmdorni kimga adolatsizlik ko'rsatgan bo'lsa, unga adolatli munosabatda bo'lishini, to'g'ri fikrlash bilan quyoshdek zulmatni yoritishini, lutf bilan olamni o'ziga qaratishini istaydi. Hatto, birovg'a quyoshdek tig' solsa ham ortidan mehr-shafqat ko'rsatishi kerakligidan ogohlaydi.

Xayr-u ehson vasfida qalam yo'nganida saxovatning nainki suratiga, siyratigacha nazar tashlaydi. Quyoshning xatti-harakati bilan boyligi bisyorlarning isrofarchiligi, telba va mastligini taqqoslab, idrokimizni tobora teranlashtiradi:

*Charxki, mehr oltunin aylar nihon,*

*Yuzini oning qaro aylar jahon.*

*Yoshurur anjum diramin turki mehr,*

*Yerga ko'mar bosh tuban on sipehr*

*Chunki xazon ilgi sochar zarvaraq,*

*Ko'rkı quyosh rashki bo'lur har varaq.*

Demak, quyosh oltinni berkitgani uchun jahon osmonning yuzini (kechasi) qaro qiladi. Quyosh go'zali yulduz kumushlarini yashirgani uchun osmon uni boshi bilan yerga ko'madi. Kuz kelib oltin varaqlarini qo'li bilan sochgani uchun har bir yaproq quyosh rangida bo'lishini shoir badiiy jihatdan hayotiy tarzda xayr-saxovatga qiyoslab dalillaydi.

Adab bobida to'xtalganida tunu kuningga nur berib turadiganlar ota-onas ekanligini, ularning oy-quyoshdek yakka-yu yagonaligini, qoshida hamisha farzandlik burchini a'lo darajada o'tashlik bola odobining umrbo'yи betugal talabi bo'lib qolaverishini anglashga chaqiradi:

*Boshni fido ayla, ato qoshiga,*

*Jismni qil sadqa ano boshig'a.*

*Tun kununga aylagali nur fosh,*

*Birini oy angla, birini quyosh.*

Qanoatlining ta'madan yiroqligini-yu, ta'magirning xorlikka duchorligidan so'z ochib, mol-mulkiga mag'rur kimsalarni yana ko'knинг beta'ma ehsonchisini hamma uchun qadrli ne'mat – nonga o'xshatadi, uning osmonga ko'tarilganiga havaslantiradi. "Charxki, bir qurs ila tuzdi maosh" deya butun bir osmon bitta qurs, ya'ni non bilan kun kechirishini aytib boy insonlar o'zlarini katta deb bilmaslikka, qanoat boyligini boshda

ko'tarib yurishga da'vat etib, quyoshday qadr-qimmat topishlariga umidvor bo'ladi. Qanoat fazilatini ulug'lab, osmon aylanasini go'yo uyning toqiga, quyoshni esa ana shu toqdagi naqshga qiyoslaydi:

*Toqi muallo anga gardon sipehr,*

*Shamsasi ul toq uza raxshanda mehr.*

Vafoni gavhar deb bilgan shoir o'z zamonasida uni noyoblashgani uchun anqo ataydi. Bu bilan ham ko'ngli to'lmaydi. Quyosh yuzidagi chiroylı xat tusida ko'z o'ngimizda jonlantiradi:

*Mehrigiyo demaki, anqodur ul,*

*Javhari fardu duru yaktodir ul.*

*Mehr uzori uza xatti g'ubor,*

*Tun sochining tobida mushku totor.*

Vafo gavhari qanchalar sharofatli bo'lmasin, qadr-qimmatidan ko'ngli to'imasligini yashirolmaydi shoir. Kimki bir vafo qilsa, unga ming jafo javobidan kelib chiqib, achchiq haqiqatdan dalil keltiradi, xulosa beradi. Quyosh ham boshdan oyoq mehrdan iboratligi uchun har kecha osmon uni yerga kirgizib yuborish holatiga taqqoslaydi:

*Chunki, quyosh boshtin-ayoq bo'ldi mehr,*

*Yerga kiyurdi ani har tun sipehr.*

Ilm va ilmdorlar xususida gap ketganida Navoiy mustahkam e'tiqodidan chekinmagan holatda haqiqatni pardalab o'tirmaydi. Olimlarning xorligi, johillarning azizligidan afsus chekish bilan cheklanmay, ma'rifat yalovini ushlaganlarni quyosh timsolda sifatlaydi, jonlantiradi. Jaholatparastlarni bulutga o'xshatadi:

*Ko'ktaki, ko'zgudek o'lub nuru tob,*

*Yopib oni oh tafidek sahab.*

Bu behad san'atkorona qiyos: Osmonda quyosh ko'zgudek yarqirab porlab turadi, bulut esa ko'zguga puflangan hovurdek uni to'sadi.

Navoiyning qalam ahllaridan iborat qavmnинг bir guruhi qalbi poku, bir guruhi turlanuvchanligi haqidagi maqolati ham quyosh so'zidan bezaklangan. Nomaqbul va maqbul kotiblarning sa'y-harakatlari va ularning ijobi va salbiy xislatlari, oq qog'oz ustidagi xizmatlari tahlildan o'tkaziladi. Shoir oshiq-ma'shuqlarning nomalarini ko'chirishni tilga olibgina qolmay, ijtimoiy hayotga daxldor maktublar el-ulusga nihoyatda nafdorligini ko'rsatishga alohida urg'u beradi:

*Naf'da ul nav'ki mehri munir,*

*Qudrat aro o'ylaki charxi asir.*

*Shakli hilol avjida tug'ro anga,*

*Lavni shafaq boshida volo anga.*

Ya'ni, bu xat odamlarga nurli quyoshdek foydali, yuksak osmondek qudratli. Yangi oy shaklidagi sarlavha ustiga bosilgan muhr tonggi shafaq ustidagi yuksak quyoshday.

Ulug' ijodkor odamlar orasida tong kabi kumush sochishga o'rgangan kishilarning mehrini quyosh bilar ekan, ularning atrofida hasadgo'ylarning, iblis mijozlarning ham borligini unutmaydi. Elga mehri baxshidalarini madh etadi, xudbinlarni qoralaydi. Quyosh nurini to'smoqqa chirangan bulutlarga achinadi:

*Mehrki – ravshanliq etar fosh ani,  
Kimga gunah – ko'rmasa xuffosh ani.  
Lek quyosh javhari chun keldi pok,  
Bo'lsa bulut nurig'a mone' ne bok.*

Ya'ni, quyosh yorug'lik berib, nur sochib turadi. Ko'rshapalak buni ko'rmasa kimga foyda?! Quyoshning javhari pok yaratilgani uchun bulut uning nurini to'sishga intilsa ne qo'rqinchli. Shoir yaxshi insonlar bee'tibor qolmasligiga, yaxshilikning umri ziyyodaligiga ishonadi. Buni hayotiy hodisalarning badiiy talqiniga singdirib yuboradi:

*Shishaki ruxsor uza sepgay gulob,*

*Toq uza asrarlar ani orzulob.*

*Zulfu sanamlarning erur mushkfosh,*

*Kim oni ruxsor uza asrar quyosh.*

Tushunishimizcha, shisha o'zidagi gulobni odamlar yuziga sepgani tufayli uni avaylab tokchaning ustida asrashadi. Sanamlarning sochlari anvoysi hid tarqatib turgani uchun quyoshdek yuzining tepasidan o'r'in olganlar.

Navro'zning butun borliqni ziynatlashi haqida to'lib-toshib tabiat tasvirlarini berayotgan shoir hamal ayvonini quyosh yorita boshlashi bilan ko'knинг zaminga mehr izhori kuchayganidan darak berayotganini zavq-shavq ila olqishlaydi. Bu bejiz emas, umr gulshanida ham xuddi shunday quyosh charaqlaydigan bahoriy yoshlik pallalarda inson tanasi hamalga kirishidan hayot g'animatligini, uning har lahzasi ezgulikka yo'g'rilishini juda-juda istagan ulug' ijodkor.

*Chun hamal ayvonini yorutti mehr,*

*Dahrg'a mehr ayladi zohir sipehr.*

*Umr quyoshig'a chu bo'ldi mahal,*

*Inson baytush – sharafidin hamal.*

Navoiy sadoqatli ishq bandalarini bebafo tuyg'ular ardog'idagi "jabri jafo"lari-yu, fidoyiliklaridan hikoyat aylarkan, sevgilisiga sodiq oshiqning paxsadev orasida azoblanib tursa-da, zarracha nola qilmaganini sharaflaydi va kech kirish pallasidagi quyoshni shunga yarasha g'oyat chiroylı nom bilan ataydi:

*Tog' aro yoshundi chu zarrin g'izol,*

*Mushki Xo'tan sochdi nasimi shamol.*

G'izol ohudir. Uning tog' orasiga yashirinish holatiga uyg'unlab, ulug' ijodkor hayratomuz tarzdagi ta'rifni topgan.

So'z mulking sultoni xayoliy hayratini hayotiy hayratga omuxtalab yuborish uchun bebafo qalamini mohirona tebratgan. Birgina quyosh kalomining sinonimlari tizimini, chunonchi: **quyosh, xurshid, shams, alam, gavhar, nuri tob, zarli bayroq, zarrin ohu, bitta non, Chin qo'g'irchog'i** va yana turli shakklardagi so'z va iboralar ifodasini asar mazmun-mohiyatini teran ochishga va kuchaytirishga behad san'atkorona safarbar etgan. Osmonning, undagi oy-yulduzlarning ko'rinishi, holati, harakati va vazifasigacha quyoshga bog'lab aks ettirilgan.

"Hayrat ul-abror"ni qancha e'tibor bilan o'qisangiz, shuncha ko'proq saboq olaverasiz. Uqqanlarining o'zingizniki, hayotda chinakam insoniy fazilatlar kasb etishingizga beminnat ko'maklashaveradi bu kitob.

## ИНТЕГРАЦИЯ НАРОДНОГО ХОРЕЗМСКОГО ТАНЦА В СОВРЕМЕННОМ БАЛЕТЕ «ЛЯЗГИ»

**Аннотация.** В статье представлены результаты анализа эмпирического исследования использования фольклорного танца «Лязги» в современном балете. Особенности стилистики народного танца в направлении современной хореографии *contemporary* и *contemporary ballet*. Рассматривается соотношение оригинального смешения музыки, современной пластики, элементов традиционного хорезмского танца, сурдоперевода, постановочного решения балета, сценографического оформления, оказавших влияние на развитие узбекского балета.

**Ключевые слова:** танец-модерн, монтажная драматургия, фольклорный танец Лязги, современная сценография, аранжировка народной музыки.

## XORAZM XALQ RAQSINING ZAMONAVIY BALETDA “LAZGI” INTEGRATSIYASI

**Annotatsiya.** Maqolada, zamonaviy baletda folklor raqsidan foydalanishni empirik o'rganish natijalari keltirilgan. Zamonaviy xoreografiya va zamonaviy balet yo'naliishi bo'yicha xalq raqsi uslubining xususiyatlari ko'rib chiqilgan. O'zbek baletining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan musiqa, zamonaviy plastika, an'anaviy xalq raqsi elementlari, surdo tarjimasi, baletning sahnalashtirilgan yechimi, sahnalashtirish bezaklari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil etilgan.

**Kalit sozlar:** Art Nouveau raqsi, montaj dramaturgiyasi, folklor raqsi “Lazgi”, zamonaviy szenografiya, xalq musiqasini tartibga solish.

## INTEGRATION OF FOLK KHOREZM DANCE IN MODERN BALLET «LAZGI»

**Abstract.** The article presents the results of the analysis of an empirical study of the use of the folk dance Lazgi in modern ballet. Features of the style of folk dance in the direction of contemporary choreography and contemporary ballet. The correlation of the original mixing of music, modern plastics, elements of traditional Khorezm dance, sign language translation, ballet staging, and set design, which influenced the development of Uzbek ballet, is considered.

**Key words:** modern dance, assembly dramaturgy, folk dance Lazgi, modern scenography, arrangements of folk music.



Народная культура, являвшаяся основой и питательной почвой всей культуры в современном глобализованном мире с его унификацией, казалось бы, уже не играет роль, теряет свои первозданные смыслы и этническое разнообразие. Но на его фоне унификации явно прослеживается и обратная тенденция усиления интереса к уникальному выражющему своеобразие народа, то есть глобализация напрямую сопряжена с локализацией. Поэтому обращение к анализу как народной культуры в целом, так и её отдельных элементов, в частности, к исследованию народного танца, является актуальным кроме того, в современном обществе явно обнаруживается интерес к историческим корням народа, возрастает патриотический настрой<sup>1</sup>. Налицо проблемная ситуация: с одной стороны – разрыв, утрата традиций, с другой – осознание необходимости и значимости народной культуры как базы традиций узбекского народа.

В целом, в середине XX века отмечается особый интерес в балетоведении не столько к вопросам изучения, сколько задачам сохранения и исторической передачи народного танца. Необходимо отметить,

что процесс необратимых изменений формы и презентации народного танца связан с трансформацией условий его существования и с появлением индустриальной урбанистической культуры, где народная культура соединяется с городской. Существует теория, что народный танец – замечательное, но хрупкое искусство. Если его перерабатывать для сцены, он исказится и погибнет, и некоторые мастера балета приходят к заявлению о невозможности использования его в современном балете. Также многие утверждают, что народный танец – искусство малой формы, по своей природе не способный стать органическим элементом современной хореографической композиции. Есть и такое предположение, что народный танец – это искусство камерное и почти не имеет штрихов, которые были бы доходимы со сцены. Дело за подлинными художниками хореографии, за их желанием создать произведение, опирающееся на народное творчество, своими корнями уходящее в глубь жизни народов и их истории. Впрочем, действительность так и решает этот вопрос.

Народный танец завоёвывает новые позиции, укрепляя и усиливая подлинно народные мотивы. Фольклорный танец до начала 20 века использовался в классических балетных спектаклях в основном только

<sup>1</sup> Курюмова Н.В., Полякова А.С. «Танец постфолк: звено в развитии современной хореографической культуры».

в сценической форме, отточенной до приближения к движениям классической хореографии. На сегодняшний день можно перечислить множество работ различных балетмейстеров практиковавших соединение народного танца и современной хореографии. Но использование фольклора в его первозданном виде в современном балетном направлении ещё не встречалось, в настоящее время прослеживается неподдельный интерес теоретиков и практиков хореографического искусства к фольклорным основам, проявленный во взаимодействии техники современного танца и элементов фольклора. Это процессы не только заражают образно-художественные структуры современного танца энергией танца народного, но и является своего рода Hoy Xay современных хореографов в мировом масштабе.

Подобное явление не обошло и узбекский балет, своё развитие современная хореография получила и на сцене ГАБТа им. А. Навои. Впервые узбекский зритель увидел постановку современного балетного спектакля, в гармонизации которого взят в основу хорезмский танец «Лязги» и современное направление танца *contemporay*. Сегодня стало возможным наблюдать трансформацию хорезмского фольклорного танца Лязги в хореографию современного балета.

Почему был выбран именно танец «Лязги»?

«Лязги» зародился на территории Хорезма около 3х тысяч лет назад и воплощает творчество человека, передавая звуки и явления окружающей природы, чувства любви и счастья с помощью танца. 12 декабря 2019 года Межправительственный комитет ЮНЕСКО по охране нематериального наследия культуры, включил Хорезмский танец «Лязги» в Репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества. Для реализации постановки, которая должна была объединить в себе современный стиль балетного искусства, фольклорный танец Лязги с использованием течения *contemporay* и должна была дать новую ветвь в мировой хореографии под названием Постфолк. Японский мультимедийный художник и сценограф Йоко Сиама, стилист Фрол Буримский, осуществивший стилизованные национальные костюмы для артистов, а также специалисты, отвечающие за техническое освещение спектакля. На тот момент балет «Лязги», премьера которого состоялась 4 сентября 2021 года на сцене ГАБТа им. А. Навои был одним из немногих национальных балетов, поставленных в стилизованном варианте и фактически первым современным балетом использующем фольклор в его чистом исполнении. Сочетающий и раскрывающий в себе тему истории возникновения танца Лязги со времён Зороастризма, традиций того времени и их сочетание с действительностью новой эпохи.

У многих возникал вопрос и сомнения по поводу взаимодействия *contemporay*, а также европейского балетмейстера, не сталкивавшегося с узбекским народным творчеством.

По словам самого балетмейстера, для того чтобы как следует подготовиться к реализации постановки балета «Лязги», он лично отправился в Хорезм, ознакомился с нравами и обычаями и, в том числе, с танцевальными традициями Хорезма и его жителей<sup>2</sup>.

По впечатлению Раймондо, Хорезм имеет богатство и разнообразие танца, выражение которого в искренности души. Это необходимо учесть для передачи и попытки отразить многогранность Лязги в постановке балета. Через хореографию, в первую очередь, следовало идейно придать убедительность героям и придерживаться национального колорита.

Когда предложенный Фондом Поддержки и Развития культуры Узбекистана, проект попал к балетмейстеру, «Лязги» существовал для него в другом мире. Сталкиваясь с большим количеством танцевальных форм в своей жизни, и по всей Европе, Раймондо всё равно часто обнаруживал танцевальные стили и формы танца, о которых не слышал раньше, и которые не похожи ни на что, что он видел до этого. Главная удача в жизни балетмейстера заключается в том, что он постоянно встречает новых художников, изучает новые формы и стили танца, знакомится с новыми артистами, и это большой подарок жизни. Когда балетмейстер увидел этот танец- то понял, что это нечто совершенно иное, отличное от того, что он привык слышать и видеть. И как только он увидел его, сразу же углубился в изучение и обнаружил, что «Лязги» всегда танцевали большей частью женщины. «Я видел всегда танцующих женщин, в то время как мужчины составляли 20 % танцоров, мужчины 80%».

«Но изучая историю, я обнаружил, что когда танец возник, всё обстояло совсем наоборот. Мужская сторона традиционно была основой, но каким-то образом это впоследствии изменилось, и это было интересно обнаружить. Я понял, что Лязги для меня – это что-то женское. Женский танец, культура, и мужчины тут играют вспомогательную роль. Таким образом, я начал разрабатывать концепцию. И одной из задач было показать народу Узбекистана другую точку зрения на их культуру, и на танец «Лязги». Это философский взгляд – и мы начали с этого. Если мы представили «Лязги» в образе женщины, то нам тогда нужны сценические танцевальные персонажи. Лязги для меня женщина, и она расщеплена на двух персонажей, представляющих то, чем «Лязги» является для меня, во-первых, это Душа танца, душа культуры Узбекистана, а во-вторых. Любовь к танцу, к собственной культуре. То есть произошло разделение и у меня на сцене представлена Душа и представлена Любовь и «Лязги». Это философский и символический подход. Мне кажется это хорошая задача для аудитории – почувствовать танец через эмоциональное участие». Слово балет описывает одну форму выражения в танце. Это один стиль, есть чечётка, танго, хип-хоп, есть балет, *contemporay*, Лязги. Не стоит называть эту постановку балетом. Это хореографическое произведение, танцевальная постановка, театр. В спектакле используются и пуанты, и мягкие туфли и костюмы «Лязги». Потому что идея танца одинаково проявляется и в «Лязги», и в балете. В приоритете являлось показать, что у «Лязги» гораздо более давние традиции и культура. Балет с течением времени стал эстетичнее по форме, более формальным как танец. Но идея выражения чувств и эмоций в обеих формах одинакова. И это балетмейстер пытался показать в одном шоу, с одними и теми же танцорами.

Обычно есть танцоры балета и есть танцоры «Лязги», и сложность в том, что в его концепции они соединяются. Это не просто балет, это танец. Это

<sup>2</sup> Интервью с Раймондо Ребекком.

культура, это наша история, это история Узбекистана. Но Раймондо Ребек не специалист по «Лязги», и ему пришлось заимствовать материал и культуру Лязги, его язык, танцевальный язык, заключается в соединении разных подходов. И это было очень сложно и при этом очень захватывающе. Балетмейстеру удалось расширить для танцоров их взгляды на их будущее в танцевальном мире. У артистов исполнителей и у постановщика разные задачи, но у обеих сторон одна итоговая цель, обе стороны хотят что-то выразить. Танцовы предоставлены сами себе, они выступают, совершают много пируэтов или высоко прыгают, а в следующий раз могут делать что-то по-другому, а хореограф производит одно цельное высказывание. Его нужно донести, а они – передать публике. То есть балетмейстер теряет контроль, он отдаёт его им, а они показывают его замысел аудитории. И это захватывающе – творить и работать с творческими людьми, включая сценографов, художников по свету, художников по костюмам, танцов, чтобы вместе создать то, что, трогает сердца, умы, и стимулирует фантазии. Их участие очень важно, так как хореография – это всего лишь один из элементов.

В ХХI веке у нас так много возможностей, нам нужна поддержка. Участие света, костюмов, сценографии для создания и стимулирования фантазии. Балетмейстер работал с фантастической командой настоящих профессионалов своего дела: костюмы к спектаклю «Лязги» были созданы известным дизайнером из Санкт-Петербурга, Фролом Буримским, так много знающего об орнаментах Узбекистана, мелких национальных деталях, о которых балетмейстер не мог узнать самостоятельно – это довольно сложно. Для художника было важным не создавать историческую реплику, потому что это не историческая постановка, сказка или легенда, это фантазия Раймондо на тему «Лязги». И все конечно же знают об истории этого танца и его значении, и поэтому безусловно традиционные национальные элементы должны были остаться, основные цвета являются жёлтый или оранжевый для танцовщицы Лязги и поэтому главная героиня в основном остаётся в этой цветовой палитре. Если говорить о самой постановке, то это не классический балет, здесь можно встретить и пунтаны, и в мягкой балетной обуви и в кедах, то есть получается полная танцевальная эклектика, что несёт собой довольно оригинальную картину в целом. Что ещё очень интересно, что здесь очень много исторических эпох представляется, воображаемых Раймондо, и поэтому постановка спектакля нестандартная и костюмы получились соответственными, это не ожидаемые хорезмские костюмы, а совершенно иная подача костюмов.

Йоко Сиама – известный медийный дизайнер, стилизовавший в сценографии Древний Узбекистан в современный ни на что не похожий дизайн сцены. Дизайнеру удалось подойти к исторической концепции современными методами. Сделать «Лязги» частью более современной культуры, объединить и преобразовать все традиционные элементы в новое измерение. Тим Бацлек – в роли отличного дизайнера света, использовавшего новейшие технологии в освещении сценического произведения; Дэвидсон Джаконелло так замечательно работающий с огромным миром персидской и узбекской музыки, ему удалось сде-

лать аранжировку узбекской национальной музыки, а также произведения современных композиторов; Так как «Лязги» существует примерно две-три тысячи лет и за всю историю танца в Узбекистане, как мы полагаем, было достаточно балетов Лязги или танцевальных постановок. Лязги или танцевальных постановок. Идея заключалась в том, чтобы показать это явление с западной точки зрения, с открытой позиции, более философской, менее сосредоточенной на формальных элементах танца Лязги, потому что существует много групп, трупп и представлений, и они могут работать просто с традицией Лязги. Но создаётся сцена в Оазисе, сцена с Караваном, начало Шёлкового пути, и это очень красавая сценография. Действие происходит где-то между Ташкентом и Самаркандом, звучит отличная новая музыка, на сцене узбекские музыканты играют вживую. Эта сцена отображает рождение танца Лязги в эпоху Зороастризма, Душа в исполнении главной героини попадает в одно из среднеазиатских племён, балетмейстер решил эту задачу путём появления балерины на заднем плане в центре сцены на луче прожектора создающего эффект восхода солнца. Она медленно будто затерявшаяся в пустыне и обессиленная доходит через песчаные барханы, созданные артистами балета, лежащими под золотой материей, до водопада и ложится без сил овеянная живительной влагой. Водопад искусно создан из мелкого песка, сыплющегося сверху сцены и подсвечиваемого мягким светом, в целом складывается реалистичная картина потока воды.

С пробуждением природы Шаман племени начинает свой ритуальный танец, движения отображают удары руками о землю, от чего содрогаются барханы. Его тело движется под воздействием соединения земли и неба. Здесь балетмейстер использует стиль contemporague, давая Шаману полную свободу в выражении внутренней энергии исходящей путём хореографии. В танце Шамана используются прыжки и повороты, устремлённые к земле, движения на полу определяют экстаз сознания, гимнастические повороты в воздухе и на земле впечатляют пластикой гармонично сочетающейся с образом Шамана. От ударов, барханы словно ожидают, артисты, находящиеся под покрывалом, накрывающим всю сцену, приподнимают поочерёдно руки, и тем самым позволяют зрителю наблюдать волшебство переливающегося эха двигающихся барханов.

Покрывало приподнимается над артистами путём закрепления невидимой для зрителя лески, прикреплённой в нескольких местах к материи, и останавливается над сценой в несимметричной форме в виде восточного шатра. Артисты балета начинают двигаться, повторяя хореографию Шамана. В начале это покачивания корпусом в сидячем положении на полу с отведёнными руками в сторону, далее следуют взмахи, словно дыхание внутри каждого артиста набирает силу. Здесь можно увидеть синкретическое зарождение танца, отображающего природу пустыни. Так как мелкие передвижения по 2 классической позиции в grand-plie довольно схожи с движениями пустынных животных варанов, скорпионов и змей. Постепенно примитивные хореографические элементы переходят в танец становящийся близким к современному узбекскому танцу, Мужчины начинают двигаться, используя такие движения рук и ног как упражнения вхо-

дящие и составляющие методический и практический сборник узбекских движений «Дойра дарс». А стиль contemporary трансформируется в стиль «ля фолк» – фольклорный танец, стилизованный под современный танец, также встречаются и элементы хорезмского мужского танца.

За мужчинами вступают в танец девушки, их хореография включает в себя выраженные движения корпусом с использованием рук, придаёт более пластическую форму, напоминающую ход змеи. У мужчин и у женщин схожи движения головой, покачивающейся из стороны в сторону. После танца девушек, все артисты выстраиваются в две параллельные линии попрёк сцены, садятся в поклоне встречая Лидера своего племени. Вариация Лидера выполнена в наиболее классическом стиле, сюда входят большие мужские прыжки, такие как pas de chat, jeté и т.д. пируэты, но позиции рук в некоторых упражнениях стилизованы под узбекские позиции. После того как закончилась вариация Лидера, начинается общий танец Шамана, юношей, девушек и Лидера, кордебалет двигается под руководством Шамана в общем строе следуя за его движениями.

Сцена «Караван» отождествляет собой хорезмский танец от его зарождения до появления в нём задатков нынешнего хорезмского танца. Балетмейстер в этой картине прибегает и к использованию дуэтных классических поддержек. Общий танец заканчивается динамичными крупными движениями, все будто застывают, когда Шаман замечает обессиленную Душу, лежащую возле водопада. Артисты наблюдают затем, как Шаман подходит к Душе, поднимает сначала за стопу одной ноги, потом зовёт четверых девушек которые перекладывают её на спину парня, поворачивая её полным tour land, передают Душу Шаману и он уводит её поддерживая на своих плечах через выстроенную в коридор диагональ между двух линий, девушки сидят на одном колене, держа широкие юбки в обеих раскрытых руках имитируя ширму, а парни провожают Душу и Шамана словно поддерживая и помогая им руками. В конце коридора Шаман передаёт Душу Лидеру, который уносит её в свой шатёр. После появления Души в племени, начинается веселье, музыканты начинают играть на своих инструментах, артисты сначала подтанцовывают музыкантам, а после вступают в общий танец, движения которого уже очень близки к хорезмскому танцу, исполняемому в нынешнее время. На общем веселье заканчивается первая картина.

Вторая картина сцены «Караван» начинается с игры теней Лидера и Души. Освещаемые прожектором, находящимся за шатром, заднем плане сцены, Лидер сидя наблюдает за плавным танцем рук Души, под фольклорную музыку с использованием слов на хорезмском диалекте. Тени Души и Лидера отображаются на полотне шатра. Затем они оба входят в шатёр, Душа останавливается в середине сцены, чуть медленнее идёт Лидер, подходит к ней, кладёт голову партнёрше на плечо и спускается по её руке вниз, проглаживая щекой руку Души. Начинается дуэт в чистом направлении contemporay, в дуэте встречаются скользящие движения по полу, схожие со скольжением фигуристов по льду, верхние и нижние поддержки дуэтного танца. Практически весь дуэт складывается в монолитном исполнении вытекающих друг

из друга и постоянно меняющихся дуэтных Pas. Это Adagio, представляется нам как первое знакомство, где Лидер показывает Душе свои владения, они оба любуются звёздам, и постепенно диалог перерастает в Любовь между Лидером и Душой. Дуэт заканчивается позой изображающей знак Бесконечности, являющейся сплетением судеб Души и Лидера.

В работе принимали участие настоящие танцоры Лязги. Весь проект – это постоянный баланс между реальными традициями и западным взглядом балетмейстера и всей команды, современным, более свежим взглядом. Музейная сцена поставлена по-другому, чтобы показать связь между традицией и культурой, связь между здесь и сейчас, показать присутствие. Сцена начинается с действия в музее, посетители которого разглядывают исторические экспонаты, в качестве экспонатов выступают артисты, помещённые в специальные стеклянные кубы, имеющие подсветку внутри, освещая каждого артиста, в основном все артисты одеты в национальные узбекские костюмы, но в одном из пяти кубов помещены двое танцовщиков, парень и девушка, танцующие и своими движениями напоминающие мифическое пустынное животное.

Довольно интересное решение хореографии, парень лежит на животе. Приподнимаясь на руках и поворачивая голову в разные стороны, держит на себе девушку, лежащую на спине, и двигает только ногами, направленными к его голове, поза рассчитана так, чтобы зритель видел только голову и туловище парня, и ноги девушки. В целом картина получается оригинальной и даёт полное ощущение видимости животного соединившего в себе варана и скорпиона. Оба артиста одеты в облегающие комбинезоны из материала, отливающего золотом, что придаёт ещё большую сказочность в изображении этого номера. Среди посетителей появляется девушка, она врывается в музейный зал, обегая каждый из кубов, её танец наполнен широтой и свободой движений, классические позы сменяются с движениями современного направления. Передвигаясь от одного куба к другому, она сталкивается с двумя экспонатами это Душа и Лидер, помещённые в один куб, и что-то будто останавливает её именно возле этих экспонатов, заинтересованно всматриваясь в парня и девушку у неё возникает в сознании dejavu, словно её душа когда-то была связана с этой парой.

В памяти возникают моменты соединявшие прошлое и настоящее, балерина, стоявшая в кубе, сменяется с другой танцовщицей в хорезмском костюме, выходит из куба, в этот момент свет в кубе и на сцене отключается, и вступает в парный танец Души и Любви, хореография поставлена так, что они во время танца постоянно держатся за руки, соединяются в одно целое и вновь расходятся. Из куба выходит Лидер и составляет танцевальное трио Души, Любви и Лидера. Появление Шамана в этот момент оправдывается тем, что это волшебное оживление не случайно, а вызвано колдовством и Шаман играет ключевую роль в трио переходящем постепенно в pas de quatre, в trio Любви, Души и Лидера встречаются поддержки, где Лидер одновременно держит на себе двух партнёрш, что оригинально для этого номера. Далее к ним присоединяется танцовщица хорезмского танца, её встречает Лидер и Шаман, она

вступает в общий танец Любви, Души и Лязги. Движения этой небольшой танцевальной композиции, соединены со стилизованными движениями рук и классическими движениями рук хорезмского танца. Pas de quatre заканчивается, и пары Шаман с Любовью, Лидер и Душа расходятся, на сцене остаётся танцовщица Лязги и с помощью Шамана, передвигаясь от одного куба к другому поочерёдно оживляет все экспонаты находящиеся в кубах, артисты выходят из кубов, в этот момент свет на сцене полностью погасает и светит прожектор освещая только главную героиню, она кружится в вихре хорезмской мелодии и с ней вместе вступают в общий танец Лязги ожившие музейные экспонаты и посетители музея, таким образом балетмейстер доносит до зрителя, что история танца Лязги актуальна и в современном мире.

В одной из сцен показывается жизнь и цвет Узбекистана, и эта картина называется «Бизнес», жизнь в современном мегаполисе. Сценографию этой картины Йоко Сиама оформила в виде нескольких колонн, где использовала основной атрибут своих работ известных по всему миру и из которых создаются формы художественного видения дизайнера. Каждая колонна состоит из нескольких белых резиновых лент, прикреплённых сверху к двигающемуся штанкету и снизу к рельсам, в определённое время рельсы двигаются и таким образом меняется визуальная картина сцены. Артисты одеты в деловые чёрные костюмы, балетмейстер в этой картине использовал офисные стулья как аксессуар к танцу, с которыми артисты непосредственно выполняют хореографию. Движения в этой картине отображают будничную работу офисных служащих.

Хореография поставлена в стиле contemporary, где балетмейстер изобразил деловой мир и традиции современной жизни. Люди всеми силами формируют своё будущее, безликие и боящиеся потерять работу, быт которых сводится в основном к тому, чтобы заработать деньги поглощая всё время и не оставляя шанса на наслаждение культурой прошлого и настоящего, свободой от постоянного давления руководства компании. Хореография поставлена так, что артисты поделены на две группы, Группа из десяти человек танцующих в верхней части сцены и группа из шести человек исполняющих свою роль в нижней части сцены. Обе группы не связаны между собой и не пересекаются во время танца. Кто-то печатает, кто-то отвечает на телефонный звонок, между некоторыми происходит конфликт, а кто-то обсуждает подаренные им украшения. Но все двигаются подобно работам или армии не имеющей человеческой души. В момент, когда сквозь эту суету проходит танцовщица Лязги, все артисты замирают, наблюдая за прохождением девушки в национальном хорезмском костюме, сквозь современную жизнь, как напоминание и связующего звена между прошлым и настоящим. После того как танцовщица прошла, работники офиса снова продолжают свою обычную деятельность и постепенно в конце картины друг за другом покидают сцену.

Следующая хореографическая зарисовка «Pas des six», в которой участвуют три пары артистов, эту картину можно объяснить как сплетение Прошлого, Настоящего и Будущего. В начале выходит пара, олицетворяющая собой Прошлое, их дуэт поставлен на

средние воздушные балетные поддержки, и в основном здесь используются мягкие и плавные движения, опирающиеся на developpe, далее к ним присоединяется пара «Настоящее», эту пару балетмейстер иллюстрировал как более динамичное pas, выход этой пары начинается с прыжков и дальнейшие движения подразумевают собой бурный поток нынешней жизни. Обе пары вступают в общий танец, но некоторые моменты их хореографии разделяются, как будто связующее звено между Прошлым и Настоящим имеет общий смысл, но в то же время у каждого есть своя отличительная черта. К двум дуэтам добавляется пара «Будущее», их появление словно иллюзия, имитирующая своей хореографией призрачность наступающего времени. Пара вливается в динамику танца Прошлого и Настоящего, словно волна воздушного потока, и дальнейший танец трёх пар уже поставлен как постоянно меняющийся ход событий истории. Пары то объединяются в общей постановке танца, то вновь разделяются, танцуя индивидуальную хореографию. Артисты одеты в белые комбинезоны, хореография исполняется в стиле contemporary ballet, так как девушки танцуют в пантаках. Pas des six заканчивается постепенным уходом каждой пары. В том же порядке, как и их выход на сцену, уходит прошлое, за ним будущее, и только настоящее остается на сцене, свет на сцене полностью выключается, и артисты покидают сцену.

На этом заканчивается эта зарисовка. Картину Pas de six заменяет музыкальная заставка под песню рок-певца Мерлина Менсона «Sweet Dreams», где четверо танцоров одетых в чёрную одежду и маски, поддерживают лёгкую белую материю при помощи лески и вентилятора так, чтобы создавалось ощущение летящего сквозь пространство духа танца Лязги, всё оформление этого момента выполнено в чёрном цвете, освещается только материя парящая над сценой. Это необычная находка балетмейстера, переносящая нас в следующую хореографическую экспозицию под названием «Танец рук». На высоком ступенчатом подиуме стоит танцовщица «Лязги», к её поясу сзади прикреплён длинный серебристый шлейф из воздушной лёгкой ткани, поддуваемый снизу за подиумом вентилятором и подсвечиваемый прожектором, меняющим в своей периодичности цветовую гамму света во время танца. Музыка звучит медленная, с использованием слов на хорезмском языке и с акцентами на каждый такт.

Танцовщица сначала исполняет танец только при помощи рук и корпуса, на ней бордовый хорезмский халат, шлейф переливается за счёт игры света. Во время её танца выходят на сцену восемь девушек по четыре с каждой стороны, в стилизованных узбекских костюмах голубого цвета, выход происходит одновременно с ударами занг, девушки выполняют движения рукой, ударяя себя в грудь с каждым выполненным шагом, далее встают на пальцы и в соответствии с главной танцовщицей исполняют танец руками, используя при этом корпус и минимально движения ног. В основном это шаги, glissade, pas suivi (непрерывное движение), pas de burre (перемена ног на пальцах). Хореография этого танца выполнена в основном с использованием геометрических рисунков, постоянно сменяющих друг друга. Сначала это диагонали, потом две вертикальные параллельные линии, в которых

девушки двигаются так, что линии приобретают снова новую форму, выстраиваются в полукруг, и вновь собираются в горизонтальные линии, пересекающиеся между собой. В середине танца к ним присоединяется главная героиня «Танцовщица Лязги», спустившись с подиума, она исполняет фольклорную хореографию, балетмейстер сочетал в одном танце фольклор солистки и стилизацию хорезмского исполнения рук артистов балета. Перед тем как ставить этот номер, Раймондо попросил артисток балета исполнить импровизированный вариант хорезмского танца на пальцах, девушкам это далось не очень легко, так как они впервые столкнулись с такой задачей. Но всё же это явилось толчком для балетмейстера в постановке данного танца. В конце этой миниатюры, к девушкам подходят парни в национальных узбекских костюмах, все артисты выстраиваются в две горизонтальные линии, девушки впереди, парни чуть позади, и под речь на хорезмском диалекте выполняют сурдоперевод текста. Для этой сцены балетмейстер пригласил специалиста, для обучения артистов жестам сурдоперевода.

Сложность подобной работы состояла в том, что артисты с одной стороны привыкли к отображению речи жестами, но не привыкли отображать речь и эмоции новыми движениями рук, без использования ног и музыки, никогда не встречавшимися в балетных постановках. Это достаточно уникальная находка балетмейстера для передачи смысла и значимости Лязги для нашего народа в подобной интерпретации. Эта картина заканчивается тем, что артисты медленными шагами уходят в глубь сцены, свет угасает, спускается золотистый занавес из лёгкой ткани, используемый ранее в качестве шатра, и картину заменяет фольклорный танец «Лязги», в исполнении главной танцовщицы и трёх музыкантов, играющих на дойре, дутаре и кошнайе.

Танец зажигательный, технически сложный по хореографии, включающий в себя всё разнообразие движений хорезмского танца. Танец заканчивается, занавес поднимается, яркий свет приглушается и начинается финальная сцена «Тироль», хореография этой картины выполнена в стиле *Contemporary ballet*<sup>3</sup>. Оригинальность этой картины состоит в том, что с первого звучания музыки из оркестровой ямы медленно поднимаются тысяча зажжённых свечей, и сверху сцены на специально установленных штанкетах спускаются в три ряда свечи, в начале они выстраиваются на одном уровне и между ними поочерёдно выходят пары артистов. Балетмейстер использовал свечи потому как они символизируют множество разных вещей: празднование, скорбь, веселье или, наоборот грусть, отбывание в вечность или рождение, надежда на осуществление мечты, на сцене тысяча

свечей, и это действительно очень красиво. Вот почему так важны сценографы, сценический дизайн, правильное освещение, чтобы привести в театр и дать людям новый взгляд, новые варианты постановки, которых не было раньше. Все эти технические вопросы довольно сложные.

В постановке пересекается много новых технологий, которые не использовались раньше. Хореография этой картины выполнена в стиле Contemporary ballet. И когда на сцене оказываются все артисты, а это восемь пар девушек с парнями, штанкеты приподнимаются над артистами на разный уровень, словно лестница, каждый уровень чуть выше предыдущего, этот эффект придаёт волшебность действующей картине, и выглядит впечатляюще для всех кто наблюдает эту картину. Вся финальная сцена проходит при свете свечей. Артисты балета одеты в чёрные костюмы, у парней облегающий верх и брюки, девушки в чёрном балетном трико и купальниках широкие рукава, которого выполнены из шифона.

Сцена «Тироль» поставлена балетмейстером на постоянном контрасте, используются и нижние поддержки, и верхние, прыжки, поочерёдное исполнение одной хореографии, одновременное исполнение, но с различной хореографией, либо это канон одной хореографии, Постоянно меняющийся рисунок танца, значительно обогащает хореографию этой сцены, используемые диагонали, конусы, шахматный порядок, линии меняющиеся из горизонтальной в вертикальную, трапеции, многогранные формы вместе собравшихся артистов, использование рук в различных движениях, придаёт картине ощущение живой материи, меняющей свою форму и плавно двигающейся под звук музыки. Это общий танец Души, Любви, Шамана, Лидера, Танцовщицы Лязги, артистов балета, меняющихся на сцене, то снова собирающихся вместе, динамика танца и сценография заполняет спектакль ощущением непрерывности движения танца Лязги в круговороте жизненного потока и передающегося из поколения в поколение через временное пространство<sup>4</sup>. Таким образом балет «Лязги» поставленный Р. Ребеком, стал важным событием в отечественном искусстве. Этот спектакль вывел на новый уровень узбекский балет с национальным характером и колоритом. Расширил границы фольклорно – народного танца и его применение в современном направлении балетной хореографии. Несмотря на то, что как кажется балетмейстер использовал различные формы танца в своей постановке, совершенно не похожие друг на друга, всё же ему удалось привести единую нить, связывающую все отдельные хореографические композиции в данном балете, и это танец «Лязги», прошедший тысячелетия и дошедший до нас в его оригинальном исполнении.

## Использованная литература:

1. Курюмова Н.В., Полякова А.С. «Танец постфолк: звено в развитии современной хореографической культуры».
  2. Указ Президента Республики Узбекистан от 16.10.2017 г. № ПП- 332
  3. Макарова О.Н «Национальный танец в современном балете».

<sup>3</sup>“Integrating Folk Dance into Contemporary Ballet: A Study of Choreographic Techniques” by Karen Eliot, Journal of Dance Education, Vol. 16, No. 1, 2016.

<sup>4</sup> “Folk Dance in Contemporary Ballet: A Study of Integration” by Emily Wilcox, Journal of Dance Education, Vol. 16, No. 2, 2016.

## O'ZBEK VA QORAQALPOQ MUSIQA MADANIYATI RIVOJLANISHIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMUY MUSIQIY QARASHLARI

**Annotatsiya.** Qoraqalpoq musiqa uslubi xalqning uy xo'jaligi, hududning geografik xususiyatlari, bevosita ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining shakllanishi va jarayoniga asoslanadi. Musiqiy janrlarga e'tibor qaratsak, ular ham juda rang-barang, ayniqsa, "Jirov" baxshilik uslubida alohida o'r'in tutadi.

**Kalit so'zlar:** milliy san'at, madaniyat, me'morchilik, milliy musiqa, meros, kubiz, dombra, balamon, chinkobiz, rassom, estrada janri, opera.

## НАУЧНО-МУЗЫКАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОЙ И КОРАКАЛПАКСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

**Аннотация.** Каракалпакские музыкальные стили основаны на бытовом хозяйстве жизни людей, географических особенностях региона и формирование в процессе прямого социально-исторического развития. Если обратить внимание их музыкальные жанры, они также очень разнообразны, особенно в стиле «Жиров бахшилик» имеет особое место.

**Ключевые слова:** народное искусство, культура, архитектура, народная музыка, наследие, жи-ров, бахши, кубыз, домбра, баламон, чинкобыз, художник, эстрадный жанр, опера.

## SCIENTIFIC AND MUSICAL VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK AND KORAKALPAK MUSICAL CULTURE

**Abstract.** Karakalpak musical styles are based on the household economy of people's lives, geographical features of the region and formation in the process of direct socio-historical development. If you pay attention to their musical genres, they are also very diverse, especially in the style of " Jirov bakhshilik" has a special place.

**Key words:** folk art, culture, architecture, folk music, heritage, jirov, bakhshi, kobyz, dombra, balamon, chinkobyz, artist, variety genre, opera.



Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki jamiyatning, jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlod tarbiyasiga bog'liq. Ma'lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariiga tayyorlash, shuningdek, uning ma'naviy, aqliy, jismoniylari va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta'sir etib boruvchi uzlusiz jarayondir. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarda "Qoraqalpoqiston, vatanim manim!", "Folklor" etnografik ansamblarning respublika tanlovlari, baxshi-oqinlarning xalqaro tanlovi, xalqaro "Sharq taronalari" musiqa festivali kabi qator nufuzli tanlovlarni tilga olish mumkin. Qadimiy va boy tajribaga ega qoraqalpoq milliy musiqa madaniyati barkamol yosh avlodga ta'llim va tarbiya berishda asosiy vosita hisoblanadi.

O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega ekanligini butun dunyo tan olmoqda, shuningdek, u o'zining qadimiyligini saqlagan holda, yangi zamona viy uslublar, janrlar va sohalar bo'yicha rivojlanib bormoqda. Shuning uchun ham umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari jarayonida amalga oshirilayotgan ishlar, milliy musiqa ta'llimining asosiy maqsadi ham o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy musiqa madaniyatimizni va jahon musiqasini tushuna olishi bilan birga uni farqlay biladigan shaxs sifatida kamol toptirishga qaratilgandir [1].

Ma'lumki, xalq musiqasini tashkil etuvchi mahalliy

musiqiy uslublar bir-biriga o'xshamagan holda rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Har bir voha, har bir viloyatga xos qo'shiqlar, raqslar, musiqiy asboblar va milliy raqsbop kiyimlar haqida 6-7-sinf musiqa darsliklarida imkon darajasida ma'lumot berilgan va bu ma'lumotlar o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini boyitishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bizning milliy musiqa uslublarimiz haqida gap ketganda, asosan Toshkent-Farg'on'a, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm musiqa uslublari alohida ta'kidlanadi. Boshqa viloyatlar musiqa uslublari esa shularga yondashgan holda shakllangan hisoblanadi.

Mazkurtadqiqotning maqsadi, o'zbek va qaraqalpoq xalq qo'shiqlarining janriy xususiyatlarini tadqiq etish, tasnifot masalalarini qiyosiy o'rganish, ilmiy jahatdan asoslash va ushbu jihatdan jarayonga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishga urinish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar o'rganiladi:

- o'zbek va qoraqalpoq xalq qo'shiqlarining tasnifi masalalarini qiyosiy o'rganish;
- xalq qo'shiqlari janrlarining yuzaga kelishiga asos bo'lgan poetik modellarning shakllanishida qadimgi ishonch-e'tiqodlar va arxaik miflarning o'rnini va vazifalarini oydinlashtirish [2].

Mazkur tadqiqot ishida o'zbek va qaraqalpoq xalq qo'shiqlarining folklorshunos va musiqashunos tadqiqotchilar tomonidan o'rganilish masalalari,

qo'shiqlar tasnifini, marosim va nomarosim qo'shiqlarining o'rganilishi, ularning tasnifi va nomoddiy madaniy merosda tutgan o'rni, ularning o'ziga xos jihatlari, poetikasi va janriy xususiyatlari yoritilgan.

VIII asr oxiri IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat Abbosiyarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O'rta Osiyoda Tohiriyalar, Safforiylar, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishlardan so'ng Movarounnahr Xurosondon ajralib, o'z mustaqqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ldi. Movarounnahrni birlashtirib mustahkam davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoni, 900-yilda Xurosonni ham Safforiylardan tortib olib, ulkan davlat barpo etdi. Xalifa Somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmronlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ldi. Shu tariqa IX asr oxirlariga kelib, Movarounnahr xalqlari arab xalifaligidan abadiy xalos bo'ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan yirik feodal davlat Somoniylar davlati tashkil topadi [3.B.243].

Somoniylar mamlakatni boshqarishda davlat ma'muriyatini tashkil etadilar. Mamlakat o'nta devon (devoni vazir, devoni mustafi, devon amir al-mulk, devoni sohib-ash-shurat, devoni sohibi muayid yoki borid, devoni mushrif, devoni mumallikayi xos, devoni muhtasib, devoni avqof, devoni qazo az-ziya) boshqaruvida idora etilgan. Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qildilar.

XI-XII asrlarda O'rta Osiyoda mulkchilikning yangi turi – iqta' tartiboti o'rnatiladi ("mulki sultoniy", "iqta'", "vaqf yerlari", "mulk yerlari"). XII asrning 30-yillari oxirida Movarounnahr Sharqdan kelgan ko'chmanchi Qoraxitoylar hujumiga duchor bo'ldi [4.B.249-250]. IX-XII asrlarda mamlakat ma'naviy hayotining asosi islam mafkurasi edi. Somoniylar islam mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro Sharqda islam dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va uning imlosi joriy etildi.

Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag'dod shahri edi. Bag'dodda "Bayt ul-Hikmat" ("Donishmandlar uyi") tashkil etilgan edi. "Bayt ul-Hikmat"da Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ta'lif olganlar. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. Uning ildizlari O'rta Osiyo, ayniqsa, Xorazm, shuningdek Bobil, Eron, Hindistonning antik dunyosiga va qadimgi madaniyatiga borib taqalar edi.

IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masih, Abulxayr ibn Hammor, Abunosir Arron va boshqalar edi. 1998-yil Ahmad Farg'oniyning 1220-yilligi nishonlandi. Ahmad Farg'oniy astronom, matematik, geograf edi. Bag'dod yaqinida Raqoq nomli mavzeda rasadxona qurilishiga boshchilik qilib, astronomiya maktabini tashkil etadi. Uning "Astronomiya asosi", "Samoviy harakatlar", "Yulduzlar haqidagi fan" nomli asarları mashhurdır.



Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy mashhur matematik, astronom, geograf, tarixchi edi. Vatandoshimiz algebra faniiga asos soldi.

Uning "Al-jabr", "Zij", "Quyosh soati haqida risola", "Sur'at ul-arz", "Usturlob holati haqida risola" kabi asarlari Sharq va G'arb mamlakatlarida ilmiy fikrlarning rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Abu Nasr Forobi Sharq falsafasining ulug' mutafakkiri bo'lib, qadimgi dunyo falsafiy merosini saqlashda va rivojlantirishda katta hissa qo'shdi. U 160 dan ortiq asar yozgan, ulardan "Aristotelning "Metofizika"" asari maqsadlari haqida", "Musika kitobi", "Baxt-saodatga", "Siyosat al-madaniya" shular jumlasidandir [7.B.93-95].

Abu Ali ibn Sino ikki sohaga – meditsina va falsafaga qiziqli va bu sohalarda katta yutuqlarni qo'lga kiridi ("Kitob al-Qonun fit-tib", "Kitob ash-shifo", "Donishnama", "Risolat at-tayr"). XVII asrga qadar Yevropada tibbiyot tajribasi va fani Ibn Sino g'oyalari ta'siri ostida bo'lgan.

Xorazm madaniyati xorazmlik ulug' olim Abu Rayhon Beruniyning nomi bilan bog'langan. Abu Rayhon Beruniy 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan bo'lib, "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Meteorologiya" kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarini yaxshi bilgan qomusiy olim edi. U astronomiya, geologiya, gidrostatika, geografiya, tarix fanlarga katta hissa qo'shdi.

XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, sho'ir Abu Abdulloh Rudakiyning prozaik asarları, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si, Gardiziying "Zayn-ul-bahor" ("Go'zal xabarlar") asari, Majididdin Admoning "Tarixi mulki Turkiston" ("Turkiston tarixi"), Nizomulmulkning

"Siyosatnoma"si, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asarlari shu davrga oid bo'lib, undan tashqari shu davrlarda Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Amak Buxoriy, So'zani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar [5.B.43-44].

IX–XII asrda dunyoviy fanlar bilan birga diniy bilimlar ham keng rivojlandi. Ismoil Buxoriy, Abu Iso at-Termizi, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Hafs Kabir Buxoriy kabi ulamolar islam ta'lilotining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Islam dini ta'lilotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy o'rinni egalladi. Tasavvuf ta'lomi rivojlanib, O'rta Osiyoda uning turli xil yo'naliishlari (XII asrda Turkistonda Yassaviya, XIII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya) paydo bo'ldi va tarqaldi.

Bulardan tashqari yana bitta o'ziga xos uslub – qoraqalpoq musiqiy uslubi ham o'zbek milliy musiqa madaniyatida alohida o'rinni tutadi. Biz bu haqda umumta'lim maktablari musiqa darsliklarida ma'lumot bermas ekanmiz, o'quvchi-yoshlar ongida milliy musiqamiz tarixi, uning yuksakligi, dunyoda uning alohida o'rni borligini va eng asosiysi uning naqadar rang-barangligini tushuntirishimiz ancha qiyin kechadi [3.B.32-33].

Qoraqalpoq musiqiy uslublari mazkur xalqning maishiy tur mush tarzi, mintaqaviy geografik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, bevosita ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan. San'atkorlari estrada janrida ham ancha muvaffaqiyatga erishmoqda-ki, buni ham alohida

ta'kidlash zarur. Opera janrida ham ko'zga ko'rning san'atkorlar ijod qilishmoqda va muvaffaqiyat qozonmoqdalar.

Mashhur qo'shiqchilardan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalqartistlari Oyimxon Shomurotova, Gulbarchin Sirimbetova, Tamara Do'shimova va Bayram Matchanovlarni hayoti va ijodi haqida alohida ma'lumot berish mumkin. Bu qo'shiqchi xonandalarni O'rta Osiyo xalqi yaxshi taniyi.

Taniqli kompozitor Najimaddin Muxammeddinov boshchiligidagi Qoraqalpog'iston bastakorlar uyushmasi tashkil qilingan bo'lib, u yerda bir qancha bastakorlar ijodiy mehnat qilishmoqda va ular yaratgan asarlar mamlakatimizning to'y-tomoshalarida yangromoqda [5.B.115].

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq musiqa uslubi o'ziga yarasha xilma-xil va rang-barangligi bilan boshqa musiqa uslublardan keskin farq qiladi. Qadimgi davrlarda musiqa san'atini o'ziga kasb qilmoqchi bo'lgan yoshlar usta san'atkorga shogird tushib, yillar mobaynida uning uyida yashab, nafaqat ustozning san'at bobidagi mahoratini, balki uning barcha yaxshi fazilatlarini o'ziga singdirib olgan.

Qoraqalpoq xalqining yuksak milliy qadr-qimmati, or-nomusi va shon-sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir [6.B.334]. Farzand tug'ilishi bilan unga alla orqali ota-onaning orzu umidlari, his-hayajonlari, o'y-kechinmalari ohang orqali singdirilib boriladi. Bola ulg'ayib borgan sari unga turli janrdagi qo'shiq, aytim va quy-ohanglar hamroh bo'ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Biz kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydag'i "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi. – T.: "Musiqa" 2009-y.
6. Ta'lif taraqqiyoti (Umumiy o'rta ta'lilmning Davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi). – T.: "Sharq", 1999-y.
7. Maqsetov Q. Qaraqalpaq xalqiniñ ao'izeki döretpeleri. – Nekis: "Bilim", 1996-y. 340-b.

## QORAQALPOQLAR SAN'ATINING SARCHASHMALARI SHARQIY YEVROPA VA OSIYO QADIMIY MADANIYATI BILAN CHAMBARCHAS BOG'LIQLIGI

**Annotatsiya.** Qadimiya va boy tarixga ega qoraqalpoq folklorining asosini barcha turdag'i lirik va epik asarlar tashkil etadi. Lirik janrdagi asarlarga xalq, marosim qo'shiqlari (yor-yor, xao'jar, jo'qlov, ramazon, gulapsan, badik va b.), aytimlar (naql, qo'shiq bellashuvlar), tez aytishlar; epik janrdagi asarlarga ertaklar, she'rilar, dostonlar kiradi.

**Kalit so'zlar:** teatr san'ati, spektakl, rejissyor, dekoratsiya, musika.

### ИСТОЧНИКИ ИСКУССТВА КАРАКАЛПАКОВ И СВЯЗЬ С ДРЕВНЕЙ КУЛЬТУРОЙ ВОСТОЧНОЙ ЕВРОПЫ И АЗИИ

**Аннотация.** Всевозможные лирические и эпические произведения составляют основу каракалпакского фольклора, имеющего древнюю и богатую историю. К произведениям лирического жанра относятся народные, обрядовые песни (ёр-ёр, хаўжар, жоқлов, рамазан, гулапсан, бадик и др.), айтыс (рассказы, песенные состязания), скороговорки; к произведениям эпического жанра относятся сказки, стихи, былины.

**Ключевые слова:** театральное искусство, спектакль, режиссер, декорация, музыка.

### THE SOURCES OF THE ART OF KORAKALPOKS AND THE CONNECTION OF CHAMBARCHAS WITH THE ANCIENT CULTURE OF EASTERN EUROPE AND ASIA

**Abstract.** All kinds of lyrical and epic works form the basis of Karakalpak folklore, which has an ancient and rich history. Works in the lyrical genre include folk, ritual songs (yor-yor, khaojar, jokhlov, Ramadan, gulapsan, badik, etc.), aytis (narratives, song contests), quick phrases; works in the epic genre include fairy tales, poems, epics.

**Key words:** theater art, performance, director, decoration, music.



Qoraqalpoq tili – turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub tillardan; qozoq va no'g'ay tillari bilan birgalikda qipchoq tillarining qipchoq-no'g'ay guruhchasini tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat tili (o'zbek tili bilan birga) asosan, Qoraqalpog'istonda, shuningdek, Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qozog'iston va Turkmanistonning unga qo'shni hududlarida, Rossiya Federatsiyasi va Afg'onistonda tarqalgan. Qoraqalpoq tilida so'zlashuvchilarning umumiyl soni 425 ming kishidan iborat (o'tgan asrning 90-yillari o'rtalari). Qoraqalpoq tili asosan 2 ta: shimoliy-sharqiy va janubiy-g'arbiy lahjalarga bo'linadi. Bu lahjalar fonetik jihatdan o'zaro farqlanadi. Adabiy qoraqalpoq tili XX asrning birinchi yarmida sharqiy lahja asosida shakllangan. Ungacha qoraqalpoqlar eski o'zbek adabiy tilidan foydalanishgan.

Qoraqalpoq tilining o'ziga xos belgilari: unlilar ohangdoshligi – singarmonizm mavjud. Masalan, atlarimiz (otlarimiz), kunler (kunlar); umumturkiy **ch** undoshi **sh** bilan; **sh** esa s undoshi bilan almashadi. Masalan, qash (qoch), **tas** (tosh), **bas** (bosh). Ayrim so'zlarda **g'** undoshi o'rniда **v**, **g** undoshi o'rniда y ishlatalidi. Masalan, **tav** (tog'), **tiy** (teg) va boshqalar.

Qoraqalpoq tili yozuvi islohu qilingan arab grafikasi asosida 1924-yilda shakllantirilgan. 1929–40-yillarda lotin grafikasiga asoslangan qoraqalpoq yozuvini amalda

bo'lgan bo'lsa, 1940-yildan rus grafikasi asosidagi yozuv joriy etilgan. 1999-yildan lotin grafikasi asosidagi yozuvga o'tish ishlari amalga oshirilmoida. Bu xalq yarim o'troq hayot kechirib, sug'orma dehqonchilikni chorvachilik (ayniqsa, qoramol) va baliq ovlash bilan qo'shib olib borgan. Qoraqalpoqlarning aksariyat qismi XVI–XVIII asr o'rtalarida Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi bo'yulari (Turkiston, Jankent, Chirikrabot) hamda bir qismi Orol mintaqasida (Qo'ng'iroq, Shohtemir shahri) yashashgan. Biroq Yoyiq va Emba daryo bo'yularida ham qoraqalpoqlar istiqomat qilganliklari haqida ma'lumotlar bor. XVI–XX asr boshlarida qoraqalpoqlarda xo'jalik, ijtimoiy va oilaviy hayotda urug'-qabila tizimi va patriarchal urug'chilik munosabatlari qoldiqlari saqlanib qolgan [1.B.45-46].

Qadimiya va boy tarixga ega qoraqalpoq folklorining asosini lirik va epik asarlarining barcha turlari tashkil etadi. Lirik janr asarlariga xalq, marosim qo'shiqlari (yor-yor, xao'jar, jo'qlov, ramazon, gulapsan, badik va b.), aytim (aytishuv, qo'shiq-bellashuvlar), matal va maqollar, masallar, tez aytishlar; epik janr asarlariga ertak, to'gov, terma, dostonlar kiradi.

Dostonlar qoraqalpoq folklorining asosiy janri bo'lib, 4 tur (qahramonlik, lirik, ijtimoiy-maishiy, tarixiy dostonlar)ga bo'linadi. Qoraqalpoqlarda keng tarqalgan doston "Alpamis" dostoni, shuningdek,



**“Yedige”, “Qoblan”, “Qirqqiz”** dostonlari mash-hurdir.

Qoraqalpoq mumtoz adabiyotining yirik namoyandasasi shoir Jiyen Jirovning (1730–1784) faoliyati muhim ahamiyatga ega. O‘zining **“Ulug’ tog”**, **“Posqan yel”** dostonlarida qoraqalpoqlarning Xorazmga ko‘chib kelish tarixini yozgan. Qoraqalpoqlarning Turkistondan ko‘chib kelishiga shoirning yana bir **“Xush bo‘ling, do’stlar”** she’ri bag‘ishlangan. Yana bir shoir Kunxoja she’rlarida o‘zi yashagan davrdagi xalq hayotini tasvirlagan. Ajiniyaz XIX asrda ijod qilgan qoraqalpoq shoirlari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Uning asarlari alohida to’plamlar sifatida qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq va rus tillarida chop etilgan. Berdaq shoirning lirik, satirik, didaktik she’rlari, tarixiy dostonlari diqqatga sazovor. Shuningdek, Otesh Alshinbay o‘g‘li (1828–1902), Qolmurot Qurbosh o‘g‘li (1841–1926), Omar Sug‘irimbet o‘g‘li va boshqa shoirlarning she’r, doston va boshqa asarlari qoraqalpoq adabiyoti tarixida munosib o‘rin egallaydi [2.B.152].

XX asr boshlarida qoraqalpoq adabiyotida she’riyat yetakchilik qildi. Hozirgi zamon qoraqalpoq adabiyotining asoschilarini A.Musayev, S.Majitov, K.Avezov, K.Yormanov, I.Fozilov, N.Dovqorayev, A.Begimov, J.Aymurzayev, D.Nazberganov, M.Daribayev, A.Shomuratov, S.Qurban niyozov va boshqalarning ijodida madaniyat va ma’rifat, ta’lim, mehnat, tabiat, xalqlar do’stligi, ayollar tengligi va boshqa umuminsoniy masalalar asosiy mavzulardan bo‘ldi.

XX asrning 20–40-yillardagi qoraqalpoq adabiyotida Qozi Maulik Bekmuhammad o‘g‘li (1885–1950), A.Dabilov, S.Nurimbetovlar ijodida xalq og‘zaki ijodining boy an‘anaviy merosi keng tasvirlangan. 1940–45-yillarda qoraqalpoq adabiyotida tashviqtarg‘ibot yo‘nalishidagi publisistik asarlari bilan felyeton, ocherk, qisqa hikoyalari yaratila boshladi. Badiiy asarlarning asosiy mavzusi fashizm ustidan g‘alaba qozonish, qahramonlik g‘oyalari bo‘lib, badiiy

asarlarda ham urush qahramonlarining obrazlari yaratilgan.

Yozuvchi va shoirlardan I.Yusupov, T.Jumamuratov, B.Qaipnazarov, B.Ismoilov, X.Turimbetov, O.Xo‘janiyozov, T.Qaipbergenov, K.Sultonov, G.Seytnazarov, T.Seytjonov, J.Dilmurotov, S.Pirjonov va boshqalarning ijo‘ndi samarali bo‘ldi. Adabiy tarjimashunoslikka ham ko‘p e’tibor berildi. Qoraqalpoq yozuvchilarining ko‘p asarlari, ba’zi adiblarning to’plamlari o‘zbek, rus, qozoq tillariga tarjima qilindi. O‘z navbatida boshqa xalqlar adabiyot vakillarining saylanma asarlardan qoraqalpoq tiliga o‘girilgan tarjimalari nashr qilina boshlandi.

1960–1980-yillar qoraqalpoq dramaturgiyasida P.To‘legenovning **“Onalar”**, **“Ko‘lanka”**, **“Inson taqdiri”**, J.Aymurzayevning **“Berdaq”**, **“Qadrdon doktor”**, S.Xo‘janiyozovning **“Suymaganga suykalma”**, **“Ahmoq podsho”**, T.Seytjonov, I.Yusupovning pyesalari (A.Shamuratov bilan birgalikdagi) muhim ahamiyat kasb etadi. Shu davrda lirik-epik she’riyat mazmuni va mavzusi, uning janr jihatdan o‘ziga xosligi rivojlandi va boyidi.

1970–1980-yillar dramaturgiyasida teatr sahnalarida qo‘yligan K.Rahmonovning (1942–2002) **“U duniyoga taklif”** tragikomediyasi, I.Yusupovning **“Ajiniyaz”** opera-librettosi yangi muhim hodisa sifatida tan olindi. X.Saparov, Sh.Dilmurotov va boshqalarning she’riy to’plamlari qoraqalpoq bolalar adabiyotiga qo‘shilgan muhim hissa bo‘ldi. 1970–80-yillardagi qoraqalpoq prozasi G.Yesemuratova, U.Pirjanov, A.Atajanov, J.Seytov, S.Bahodirova, X.Hamidov, K.Mambetov, O.Bekbaulov, I.Qurbanboyev, S.Soliyev, M.Koyipov kabi yozuvchilar bilan boyidi. Hozirgi zamon qoraqalpoq prozasining rivojlanishida T.Qaipbergenovning ijodi alohida o‘rin tutadi.

Hozirgi zamon qoraqalpoq she’riyatini g‘oyaviy badiiy-estetik jihatdan boyitishga I.Yusupov salmoqli hissa qo‘shdi. 1980-yillarning ikkinchi yarmida K.Mambetovning **“Xujdan”**, O.Abdurahmonovning

“Bo'sag'a”, A.Otepbergenovning “Do'zax ichida”, K.Rahmonovning “Oqibat”, Sh.Seytovning “Xalq-obod” romanlari yaratildi. She'riyatda o'z ovoziga ega bo'lgan K.Karimov, K.Reymov, N.Toreshova, M.Jumanazarova, O.Seytayev, O.Satbayev, J.Xo'shniyozov, X.Dauletnazarov, J.Izboskanov, X.Ayimbetov kabi iste'dodli ijodkorlar kelib qo'shildi.

Teatrler sahnasida tragediya, komediya, tragikomediya janridagi K.Rahmonovning “Laqqilar kasalxonada”, S.Jumagulovning “Ekstrasens”, “Kuyovingni berib tur”, K.Matmurotovning “Farzand”, M.Nizamovniig “Noyob nusxa”, J.Xo'janovning “Qo'shniunning qizi” asarlari qo'yildi. Qoraqalpog'iston adabiyotshunoslik faniga 1930-yillarda N.Dovqorayev (1905–1953), K.Ayimbetov (1908–1973), I.Sagitov (1908–1993)lar tomonidan asos solingan. Ularning davomchilari: M.Nurmuhamedov (1930–1986), N.Japakov (1914–1975), S.Ahmetov (1929–1996), K.Maksetov (1927–2003), G.Yesemuratov (1930), J.Narimbetov (1937–2004), K.Sultanov (1932–2000), K.Mambetov (1942–2001), T.Mambetniyazov (1930), K.Bayniyazov (1934), S.Bahodirova (1944), A.Paxretdinov (1938) va b. [3.B.90-91].

Qoraqalpoq san'atining sarchashmalari sharqiy Yevropa va Osiyo qadimiy madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Qoraqalpoq ornamentlari Kiyev yaqinidan topilgan – kumushdan yasalgan tamg'ali belbog' qadamlari, fibullar va chakka halqalarida ham uchraydi. Chirikrabitda topilgan zargarlik buyumlaridagi motivlarni qoraqalpoq ornamentining timsoli, deb hisoblash mumkin. Qoraqalpoqlarda xalqning o'ziga xos etnik xususiyatlari gilam va kashta buyumlarida yaqqol aks ettirilgan.

Tasviriy san'at shakllari rivoj topdi (I.Savitskiy, K.Soipov, J.Izentayev, J.Kuttimurodov va boshqalar). Nukusda Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'lakashunoslik muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda. Qoraqalpoq san'ati an'anaviy shaklga, chuqur tarixiy o'tmishga ega. Qoraqalpog'iston san'atda o'ziga xos milliylik saqlanib qolgan mintaqadir. Xalq orasida o'tov, hovli an'anaviy yashash joylari hisoblanadi. Bugungi kunda ham san'atdagi an'anaviylik hamda milliy o'ziga xoslik saqlanib qolgan va o'z rivojlanishiga ega. Bu xalq musiqa madaniyati uzoq tarixga ega bo'lib, hozirgi kunda boy musiqiy folklor, og'zaki an'anadagi professional musiqa va shuningdek, rivoj topgan kompozitorlik ijodiyoti namunalariga egadir.

Musiqa folklor shakllar asosini qo'shiqlar tashkil etadi. Xalq marosimlari bilan bog'liq bir qancha janrlar (mavsum marosim qo'shiqlardan “Aydar-aydar” – shamolni chaqirish, diniy marosim – “Yaramazan”, oilaviy marosim va maishiylar qo'shiqlardan “Yar-yar”,

“Haujar”, “O'len”, “Sihsio”, “Joqlao” va b.) uning eng qadimgi qatlamini tashkil etadi. Badiiy mazmuniga ko'ra xalq qo'shiqlari ishqiy-lirik, tarixiy, marosim, ayollar (qizlar), bolalar qo'shiqlaridan iborat. Ularning aksariyati diatonik ladlarga asoslanib, ohanglari melizmatik bezaklarga boy kuychanlik xususiyatlarga ega.

Qoraqalpoqlarda islomdan oldingi madaniyat hisoblanuvchi ruhlarni chaqirish, ular yordamida bemorlarni davolash uchun porxay (parixon)lar tomonidan ijo etilgan aytimlar ham saqlangan (“balik”, “gulapsan”). Folklor musiqasida ayollar (qizlar)ning changqo'biz musiqasi, yigit-qizlarning teatrlashgan o'yin-qo'shiqlari, laparlari (“yag'li baxar”) mavjud [4.B.55].


Qoraqalpoqlarning og'zakian'anadagi professional musiqasining markaziy qismini doston musiqasi egallaydi. Qoraqalpoq doston ijrochilari uch turga bo'linadi: jirovlar, baxshilar va qissaxonlar. Ularning har biri o'ziga xos ma'lum ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga kelgan bo'lib, bir-biridan repertuaridagi dostonlar mazmuni, ijo uslubi, doston aytim kuylari hamda musiqiy cholg'u jo'rnavozligi jihatidan farq qiladi.

Milliy musiqa cholg'ulari qatoriga dostonchilarning cholg'ulari bo'lmish qo'biz, dutor, g'ijjak (girjek) va bo'lamondan tashqari changqo'biz, qamish surnay va bolalar xushtagi (“iskirauik”) kiradi. O'tmishda qoraqalpoqlarda chindovul, surnay, karnay, nog'ora, dap (doyra) kabi cholg'ularning mavjudligi haqida qahramonlik dostonlarida ma'lumotlar saqlangan. Bulardan qo'biz va dutor keng tarqalgan, ularda mohir sozandalar tomonidan qoraqalpoq mumtoz cholg'u kuylari chalinadi. Ayniqsa, dutor kuylari orasida “Muxalles”, “Nalish” kabi turkumiylar shaklan murakkab va ifoda vositalarining boyligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq xalq an'anaviy musiqa rivojlanishiga XX asrda Nurabullo jirov, Yerpo'lat jirov, Ho'qiz jirov, Jumaboy jirov, Qiyo baxshi Hayratdinov, Japaq baxshi Shomurotov, Yesjan baxshi Qospo'latov, Kenjaboy baxshi Tilevmurotov, Qoraqalpog'iston xalq artisti T.Qurbanov va boshqalar salmoqli hissa qo'shdilar [5].

Shu vaqtarda milliy bastakorlik ijodiyoti shakllana boshladi. Musiqali dramalar, kichik simfonik asarlar, xorlar, kamer asarlar va hokazolar yozildi. Bu sohaga Japaq baxshi Shomurotov va O.Halimovlar salmoqli hissa qo'shdilar. 1970–90-yillarga kelib opera, oratorya, simfoniya, konsert, sonata kabi yirik janrlardagi asarlarning ilk tajribalari paydo bo'ldi. N.Muhammeddinovning “Ajiniyaz” operasi (1974), “Birinchi qoraqalpoq simfoniyasi” (1971), birinchi milliy baleti “Oyjamol” (1996), G'.Demeshinovning ikki simfoniyasi, fortepiano va orkestr uchun konsertlari va boshqalar.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Aliyeva N. San'at – mening hayotim – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1975-y.
2. Bayandiyev T. “Qoraqalpoq teatri tarixi”. – T.: “O'zDSMI xabarları” jurnalı, 2011-y. 152-b.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: “Ma'naviyat”, 2006-y.
4. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – T.: “Badiiy adabiyot”, 1965-y.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. XVII-bob, 70-modda.
6. O'zbekiston Milliy Enseklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 11-tom.



IV BO'LIM

## PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

Vahobjon RUSTAMOV,  
O'zDSMI dotsenti

### VSEVOLD EMILEVICH MEYERXOLD IJODIDA BIOMEXANIKA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, rus rejissyorlaridan V.E.Meyerxoldning ijodiy faoliyati haqida so'z boradi. Rejissyorning hayoti, ijodiy faoliyati bilan bir qatorda biomexanika va konstruktivizm tushunchalari haqida yetarlicha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** rejissyor, biomexanika, konstruktivizm, stilizatsiya, grotesk, shartli teatr, maydon tomoshalari rejissurasi.

### БИОМЕХАНИКА В ТВОРЧЕСТВЕ ВСЕВОЛЬДА ЭМИЛЬЕВИЧА МЕЙЕРХОЛЬДА

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о творческой деятельности В.Э.Мейерхольда, одного из российских режиссеров. В статье достаточно информации о его жизни, творчестве, а также понятиях биомеханики и конструктивизма.

**Ключевые слова:** режиссер, биомеханика, конструктивизм, стилизация, гротеск, условный театр, режиссура площадных представлений.

### BIOMECHANICS IN THE WORKS OF VSEVOLD EMILEVICH MEYERKHOLD


**Abstract.** This article tells about the creative activity of V.E. Meyerhold, one of the Russian directors. The article contains enough information about his life, work, as well as the concepts of biomechanics and constructivism.

**Key words:** director, biomechanics, constructivism, stylization, grotesque, conditional theater, directing flat performances.



Har qanday nazariyaning vujudga kelishi ma'lum yangilik yaratilishi jarayonida, amaliy jihatdan isbotlangan aniq ish jarayonida amalga oshiriladi. Bu jihatdan aktyorlik mahorati va rejissura sohasida ham bizning davrimizgacha turli yo'nalishlar, turlicha qarashlar, nazariyalar vujudga kelgan. Yillar, davrlar o'tishi zaylida kishilar hayotidagi o'zgarishlar, ular qarashlaridagi, psixologiyasidagi tub o'zgarishlar ham bu soha xodimlarini aql bilan ish yuritishga majbur etadi. Har qanday san'at ham mafkuramizni targ'ib va himoya qilmog'i darkor. Aynan V.E.Meyerxoldning serqirra, bahsli ijodi ham o'z davri mafkurasini himoyachisi sifatida gavdalandi, ayni vaqtda u shu mafkuraning qurbanli ham bo'ldi.

Meyerxold (uning bolalikdagi ism-sharifi Karl Kasimir Theodor Meyerxold, keyinchalik Meyerxold-Rayx, deb chaqirishgan) Penzada (1874–1940)



VSEVOLD EMILEVICH MEYERXOLD

kamtarin, lekin o'ziga to'q oilada dunyoga keldi. Uning otasi Emil Fyodorovich Meyerxoldning shaxsiy ishlab chiqarish korxonasi bo'lib, ana shu zavoddan olgan daromad evaziga u oila boqardi.

Uning oilasida ko'pincha shu davrning etuk san'atkorlari – rassomlar, dramaturg, aktyor, shoir va yozuvchilarni uchratish mumkin edi. Yosh Meyerxold uchun bu uchrashuv, suhbatlar uni teatr san'atiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirar va uni ijod bo'sag'asiga yo'naltirardi. U sakkizinchli sinfda o'qib yurganidayoq matabda dramatik to'garak tashkil etdi. "Aqlililik balosi" asarini matab sharoitida sahnalaشتirib, tashkilotchi-rejissyorlik qobiliyatini namoyish etdi. (Keyinchalik u Moskva universitetining yuridik fakultetiga talabalikka qabul qilindi).

Meyerxold teatr san'atini juda sevardi. U Moskva Badiiy teatrida ishlab yurdi va bu erda bir necha

obrazlarni yaratdi. Lekin u o'zidan hech qoniqmadidi. U yangilik tarafdoi edi. Undagi jo'shqin ijodiy kuch, g'ayrat, shijoat uni mustaqil ish qiliishga undardi. 1902-yil Badiiy teatrda ketdi va o'zining mustaqil mavsumini Xersonda boshladi. Dastlab u sahnalashtirgan asarlar Moskva etaloni bo'yicha, ya'ni Badiiy teatrdagidek sahnalashtirildi (masalan, "Uch opa-singillar"). Lekin keyingi rejissyorlik ishlari u xersonliklarga butunlay boshqacha yo'nalihdagi sahna asarlarini taqdim eta boshladi. Chexov asarları – "Chayka", "Vanya tog'a", "Ivanov", «Медведь», G'arb dramaturglari – Gaubtman va Ibsen, Pshibivskiy va Zuderman asarları shular jumlasidandir.

B.Э.Meyerxold Moskva universitetining yuridik fakultetini tashlab, V.I.Nemirovich-Danchenko rahbarlik qilayotgan musiqali-dramatik bilim yurtining 2-kursiga o'qishga qabul qilinadi. 1988-yilda ko'pgina bitiruvchilar qatorida MXT<sup>1</sup> truppasiga qabul qilinadi. Bu yerda u bir qancha rollarni qoyilmaqom qilib o'ynadi. "Shoh Fyodor Ivanovich"da Vasiliy Shuyskiy, "Ioann Grozniyning o'limi"da Ioann Grozniy (L.N.Tolstoy asari), "Venetsiya savdogari"da shahzoda Aragonskiy (V.Shekspir), "Antigona"da Tireziy (Sofokl), "Yolg'iz odamlar"da logannes (G.Gauptrman), "Chayka"da Trepnev, "Uch opa-singillar"da Tuzenbax (A.Chexov) kabi rollari tomoshabinlar va spektakl jodkorlarida katta taassurot qoldirdi.

U 1902-yilda MXTdan ketadi va yosh aktyorlar gruppasiga rahbarlik qiladi (keyinchalik bu guruh "yangi drama o'rtoqligi" deb ataldi). Meyerxold bunda 100dan ortiq rollarni ijro etdi. 1902–1905-yillarda Meterlink, Chexov, Gorkiy, Ibsen, Gauptrman va boshqa mualliflarning 200 dan ortiq asarlarini sahnalashtirdi.

1905-yilda K.Stanislavskiy Meyerxoldning sahna mahorati haqida eshitib, uni eksperimentlarini Moskvadagi Povarskoy studiyasida davom ettirishni taklif qildi. Meyerxold Meterlinkning "Tentajilning o'limi" («Смерть Тентажиля») va Gauptrmannning "Shlyuk va yau" asarlarini tayyorladi<sup>2</sup>.

1906-yil Meyerxoldni V.F.Komissarjevskaya Peterburgdagi o'z teatriga bosh rejissyor sifatida ishlashga taklif qiladi. Bu yerda turli bahs-munozaralaraga sabab bo'lgan 13 ta spektakl qo'yadi. Bahslar, tortishuvlar, tanqidchilar e'tirozlari shu darajaga borib yetdiki, Komissarjevskaya uni teatrda ketishini iltimos qildi.

1906–1917-yillarda Peterburg imperatorlik teatrlerida, asosan Aleksandrinskiy teatrda faoliyat olib bordi. U rassom A.Golovin bilan hamkorlikda ishlab, yangicha sahnaviy forma va shakllar yaratish borasida izlandi. Molerning "Don Juan" (1910), P.Kalderonning "Qat'iyatl shahzoda" (1915), A.Ostrovskiyning "Momoqaldiroq" (1916), M.Y.Lermontovning "Maskarad" (1917) asarları

shular jumlasidandir. Rejissyor klassik asarlar bilan bir qatorda zamonaviy dramaturglarning ijod namunalariga ham murojaat qildi. L.Tolstoyning "Tirik murda" (1911), F.Sollogubning "Hayot garovlari" (1912), Z.Gippiusning "Yashil aylana" (1915) asarlari tomoshabinlarda chuqr qiziqish uyg'otdi. Mariinskiy teatrida u 3 ta opera spektaklini sahnalashtirdi. Bular, R.Vanerner "Tristian va Izolda" (1909), K.Glyukning "Orfey" (1911) va A.Dargomijskiyning "Tosh mehmon" (1917) asarlaridir.

Aynan shu yillar mobaynida Meyerxoldni maydon teatrлari, maydon tomoshalari rejissurasi juda qiziqtirdi. U iste'dodli rassomlar N.Sapunov va S.Sudeykinlar bilan birga maydonlarda sahnaviy kengliklarni, shartli teatr printsiplarini yaratish ustida izlanishlar olib bordi. U o'zining "Teatr haqida" kitobida (1913) "shartli teatr" konseptsiyasini nazariy asoslarini ishlab chiqdi (bu qarashlar ham bir qancha bahs-munozara, tortishuvlarga sabab bo'ldi, chunki bu sahnaviy naturalizmdan farqli bo'lib, unga qarshi fikr edi).

V.Mayakovskiyning "Misteriya-buff" asarida maydon ifoda vositalari, tomoshaviy effektlar, keng maydondagi sirk klounadasi, maydonni boshqarish, folklor va boshqa original topilmalar va priyomlarning V.E.Meyerxold tomonidan mahorat bilan qo'llanishi teatr munaqqidlarini ancha o'ylantirib qo'ydi.

20-yillarga kelib, u tajribasida to'plagan nazariy qarashlarini, yangi teatr modelini amaliyotda qo'ilay boshladi. Meyerxold Narkomprosning teatr bo'limi (TEO) boshlig'i sifatida ishlabdi. Shu yillarda u akademik teatrlarga nisbatan "urush" e'lon qildi. Bu teatrlar yangi haqqoniylilik bilan til topisha olmayapti, deb ochiqdan-ochiq ayta boshladi. 1921-yil A.Lunacharskiy uni TEO rahbarligidan ketishini iltimos qildi.

U Moskvada Teatr – RSFSR-1, yosh aktyorlar gruppasi Aktyor teatri, keyinchalik esa – GITIS teatrlerida (1923-yildan Meyerxold nomi bilan atala boshlandi) ishlabdi. A.Suxovo-Kobilinnin "Tarekkinning o'limi" (1922), F.Krommelinnin "Великодушный ро-гоносец" (1922) asarlarini sahnalashtirish jarayonida sahnaviy konstruktivizm va "sirk teatri" uslubini qo'lladi. Meyerxoldning aktyorlari maxsus o'quv «мастерской» ("ustaxona")larda tahsil olishgan. Bu ustaxona 1923–1931yillarda GEKTEMAS (Государственная экспериментальная театральная мастерская) deb atalgan. Bunda uslubning asosiy predmeti – biomexanika edi.

1923-yilda N.Ostrovskiyning "Serdaromad joy" va A.Faykoning "Lyul ko'li" asarlarini sahnalashtirdi. 1924-yilda N.Ostrovskiyning "O'rmon" («Лес») asarini "ijtimoiy niqoblar" («социальный маски»)ni qo'ilagan holda sahnalashtirdi. Ushbu asar tomoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olindi va 14 yil ichida 1338 marta namoyish etildi.

V.E.Meyerxold V.Mayakovskiyning "Kana" («Klop» 1929), "Hammom" («Баня» 1930), I.Selvinskiyning "Komandarm-2" (1929), V.Vishnevskiyning "Oxirgi qat'iyatlisi" («Последнего решительного» 1931), Y.Germannning "Chiqish" («Вступление» 1933), A.Dyumaning «Даму с камелиями» (1935) va Leningrad Maliy opera teatrda P.I.Chaykovskiyning

<sup>1</sup> Izoh: MXT-Moskva Badiiy teatri (Московский художественный театр).

<sup>2</sup> V.Rustamov. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolar. – Toshkent: 2013-y. 87-b.

<sup>3</sup> Мейерхольд В.Э. «Гроза». Речь режиссера к актерам. – Москва: «Искусство», 1968 г. Стр.285.

«Pikovaya dama» asarlarini sahnalashtirishda ham yangi yo'nalishni targ'ib qildi.

U tomoshabinga ta'sir qilishning turli yo'llarini K.Stanislavskiy prinsiplaridan farqliroq, ko'proq namoyish qilish, jestlar, mimikalar, pozalar orqali amalga oshirish borasida izlandi. Sahnalashtirgan asarlarida tomoshabin tomoshabin sifatida emas, balki bevosita shu asar ishtirokchisi sifatida gavdalangan, shu bois u mizansahnalarni mana shu vazifalarga mos qilib joylashtirardi. U improvizatsiyaga to'la erkinlik berardi. Buning uchun esa u pedagog sifatida asar temasi, g'oyasi, oliy maqsadi kabi tushunchalarni aktyorlarga singdirib, psixo-fizik holatlarini ana shu rolga mos qilib tayyorlar va repititsiya qilardi.

V.E.Meyerxoldning izlanishlari ko'p tanqidchilar uchun tayyor material edi. Shu davrda faqat K.Stanislavskiy tomonidan sahnalashtirilgan asarlarga muvaffaqiyat bilan himoya qilinardi. Kechinma san'at ruhidagi asarlar so'zsiz tahsin va maqtovlarga sazovor bo'lardi. Ba'zi tanqidchilar Meyerxolddagi izlanishlarni "jahon teatrлari tan olgan K.Stanislavskiy sistemasiga qarshi nazariyadir", degan xulosa chiqara boshladilar. Ular Meyerxold ish uslubidagi stilizatsiya metodini, grotesk shaklidagi harakatlarini: "*hayotni haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatyapti, hayotda esa bunday bo'lishi mumkin emas*", – deb jar soldilar.

Stilizatsiya bu – hayotiy materialning o'ziga xos sxematik ko'rinishi, ya'ni hayotiy materialni san'at asariga aylanishidir. Stilizatsiya Meyerxoldga aktyorning o'z tanasini boshqara olishi, sahnada erkin harakat qila olishi uchun kerak edi. Xullas, stilizatsiya – Meyerxold rejissurasida aktyor o'yinining prinsipi (принцип актёрской игры) sifatida namoyon bo'ldi.

Stilizatsiya usulining ikkinchi bosqichi – groteskdir. Bunda rejissyor aktyorlik mahoratining turli qirralarini ko'rsata olishiga imkon berdi, ya'ni grotesk orqali chiroylijestlar, so'znietkazishda qo'lharakatlari, chiroyli pozalar (holatlar) va harakatning yorqin ifodaviyligiga erishishni angladi va o'z aktyorlari bilan bu yo'nalish ustida ko'proq shug'ullandi. Uning teatri – eng avvalo tomoshaviydir. Uning spektakllari tomoshaga aylanib ketardi. Tomoshabin u sahnalashtirgan asarlarida rassomning turli rangda bo'yagan va bezatilgan dekorativ pannolari, fantastik xildagi kostyumlari, tomoshabinni turli holatga keltiruvchi musiqa va o'z tanasini mahorat bilan boshqarayotgan aktyorlik mahoratining uyg'unligidan estetik zavq olardi. Tomoshabin o'z qahramonining muvaffaqiyatidan quvonsa, halokati yoki muvaffaqiyatsizligidan kuyunardi. Bunday muvaffaqiyatga u o'z aktyorlariga bergen saboqlari orqali erishgan.

V.E.Meyerxold rejissurasida stilizatsiya usulidan tashqari maskadan foydalanish aktyor uchun



izlanish qurollaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Maska kiygan aktyorning holati, kechinmasi, qayg'usi, xursandchilagini sezish qiyin. Rejissyor esa bu holatlarni harakatlar orqali etkazishni vazifa qilib qo'ydi, ya'ni maska – aktyor harakatining aniq kombinatsiyasi uchun zarur quroq bo'lib xizmat qilgan.

Meyerxold ijodiyotini o'rganishda har bir uning yangilik yaratish borasidagi xizmati haqida ko'plab gapirish mumkin. Atoqli rejissyor V.Saxnovskiy Meyerxold ijodi haqida shunday deydi: "Meyerxold qo'yan asarları xuddi pamphletga o'xshaydi. Uning rejissurasidagi qahramonları, konstruksiyalari va boshqa badiiy jihatları siyosiy ruh kashf etardi. Rejissyor manerasida bu juda silliq yoki aniq aks etganday bo'lardi, lekin aslida esa tomoshabin agitpesa yoki pamphlet tomosha qilardi<sup>3</sup>. U materialni shunchalik zamonalivylashtirardiki, dramaturg asaridan ko'ra uning rejissurasida originallik yaqqol ko'zga tashlanardi.

Meyerxold o'zi sahnalashtirgan asarlarida spektaklning g'oyaviy-badiiy jihatdan ifodalovchi, sahna tili bilan aytganda, sahna bezagiga katta ahamiyat berardi. Nikolay Tarabukin (GITIS – tasviriy san'at o'qituvchisi) GosTIMning 10 yillik yubileyi munosabati bilan yozgan "GosTIMning tomoshaviy bezagi" («Зрительное оформление в ГосТИМе») maqolasida Meyerxoldning tomoshaviylik jihatlarini tahlil qilib shunday fikrlarni aytib o'tgan: "Spektakl tomosha qilinadi, demak u tasviriy san'at hamdir, chunki spektakl so'zi lotincha "ko'rmoq, tomoshagoh", – so'zidan olingen. Peysa esa qo'yiladi. Meyerxoldgacha rejissyorlardagi postanovkalarda tomoshabin faqat peysani eshitardi, lekin postanovkadagi kompozitsion tasviriy bezagini ko'rmas edi.

Aktyor o'zining ifodaviy va ta'sirchan vositalarini boshqara olishi kerakligi haqida Meyerxold shunday deydi: "Men sahnaga chiqib qynalishim, azob chekishim, haqiqiy ko'zyoshlarim bilan yig'lashim mumkin, lekin mening xatti-harakatlarim, holatlarim g'oyaga mos kelmasa, mening kechinmalarim hech qanday natija bermaydi. Men sahnada baqirishim, hatto, o'lishim mumkin. Lekin tomoshabin hech narsaga tushunmaydi yoki ta'sirlanmaydi, agar men

<sup>3</sup> Мейерхольд В.Э. «Гроза». Речь режиссера к актерам. – Москва: «Искусство», 1968 г. Стр.285.

<sup>4</sup> Internet ma'lumotlaridan olingen: <https://www.dissertcat.com/content/problemy-akterskogo-iskusstva-v-teatralnoi-kontsepsi-v-e-meierkholla-1920-1930.g>.

5 Мейерхольд В.Э. Статьи. Письма. Речи. Беседы. – М.: «Искусство», 1968 г. Стр.486.

*tomoshabinga nima demoqchi bo'lganimni etkaza olish yo'lini topmasam".*

Biomexanika – bu aktyor tanasining unga berilgan vazifa bo'yicha darhol bajarish uchun jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tiziminidir<sup>4</sup>. Meyerxold aktyorning sahnadagi harakati qonuniyatlarini eksperimental tarzda o'zlashtirishga, aktyor uchun inson xulq-atvori me'yorlari asosida mashqlar bajarilishini nazarda tutadi. Meyerxoldning fikriga ko'ra, biomexanika – birinchi navbatda, aktyor mahoratini oshirishga qaratilgan ta'lif metodologiyasidir. U tanani aniq belgilangan shaklga moslashtirib, aktyorni his-hayajondan ozod qiladi va aktyorga sahna uchun zarur bo'lgan ko'plab ko'nikmalarini rivojlantiradi. Undan tashqari, aktyorni bir ritmga bo'ysingan harakatlarini hamda tana muvozanatini nazorat qila olishga, o'zini tashqi tomongan ko'rish qobiliyati (ichki oyna "Spiegel")ni rivojlantirishga, mavzu bilan ishslash, guruh va sahna maydoni bilan o'zaro munosabatda bo'lish qibiliyatini rivojlantirishga, ijodi yish uchun butun psixofizik apparatni safarbar qilishga<sup>5</sup> undaydi.

Y.Ayxenvald Meyerxoldga savol tariqasida shunday deydi: "*Men tushunaman, aktyorga matndan tashqari yana ko'p vazifalarni bajarishi kerak bo'ladi, ammo jest, mimikalar aktyor psixologiyasining mohiyatini ochib bera olmaydi-ku?*" Meyerxold shunday javob beradi: "*Aynan shu narsalar uning psixologiyasining (ruhiyatini) mohiyatini ochib beruvchi vositalardir. Chunki aktyorda matndan tashqari "qudratli imkoniyat", ya'ni jest va harakat bor. Qarang, aktyor boshini pastga qaratib, yuzini qo'li bilan to'sib, boshini chayqayapti. Demak, tomoshabin tushundiki, aktyor yig'layapti. Lekin bu payt aktyor o'ziga tragik holat berib, balki kulayotgandir. Aktyorning pozasida, jestlarida ana shunday buyuk, ishontiruvchi qudrat bor*".

Meyrxold ijodini o'rganish, talaba-aktyor uchun ushbu sohaning eng muhim elementlarini o'rganish, ularni o'z rejissyorlik faoliyatida qo'llash, tomoshaviylikka erishish usullari va yo'llarini o'zlashtirish, aktyorlik mahorati va rejissura san'atini chuqr o'rganish va anglashda katta yordamchi bo'la oladi. Haqiqatan ham K.Stanislavskiy sistemasining "kechinma" san'ati ommaviy bayram va tomoshalarda doimo qo'l kelavermaydi. "*Ommaviy bayram va tomoshalar ochiq maydonlarda, bog'lar va ko'chalar, xullas, noan'anaviy sahnaviy kengliklarda o'tkaziladiganliklari uchun Meyerxold maktabi aynan qo'l keladi*"<sup>6</sup>.

Rejissyorligi eng asosiy fazilat bu – originallikdir. Meyerxoldning har bir sahnalashtirgan asarida, har bir rejissyorlik ishlarida originallik ko'zga yaqqol tashlanadi. Biror bir spektakl, bayram yoki tomoshani sahnalashtirishda u xoh ssenariyi yaratish bo'lsin, xoh rassom bilan ishslash, kostyum tanlash, chiroq, musiqi tanlash, shovqinlar, aktyorlar bilan ishslash jarayoni

bo'lsin, originallikka erishish yo'llarini topishimiz lozim. Shu jihatdan, Meyerxold maktabi aynan ommaviy bayram va tomoshalar uchun yozilgan ta'lifot emas. U yuksak yutuqlarga sahnalashtirgan spektakllarining original topilmalari, rejissyorlik g'oyalari orqali erishgan. Uning spektakllari ichida muvaffaqiyatsiz chiqqanlari deyarli bo'Imagan. Masalan, Pavel Gromov degan bir olim: "*K.Stanislavskiy sahnalashtirgan "Pikovaya dama" asari ko'ngildagidek chiqmadi. Ammo, Meyerxold tomonidan sahnalashtirilgan ushbu asar juda katta muvaffaqiyat qozondi. Uning "Pikovaya dama"si genialdir*", – deb eslaydi.

Xulosa qilib aytganda, V.E.Meyerxoldning ijodiy yo'li o'ziga xos yorqinligi bilan ajralib turadi. Uni nomi teatrning mashhur arboblari – K.S.Stanislavskiy, V.I.Nemirovich-Danchenko, E.V.Vaxtangov, A.Y.Tairov, K.A.Marjonovlar bilan bir qatorda turadi. Shu o'rinda E.B.Vaxtangov Meyerxold haqida: "*U kelajak teatrining ildizini yaratdi, kelajak albatta, bunga baho beradi*", – degan edi.

Meyerxold ijodining birinchi davri 1905–1917-yillar Moskva Badiiy teatrida K.Stanislavskiy va Nemirovich-Danchenko rahbarligi ostida boshlanganligi barchamizga ma'lum. O'sha kezlardayoq u o'zining yangi teatri, ya'ni "ramziy teatr"ini ochish rejalarini tuza boshlagandi. Uning bu orzusi K.Stanislavskiy bilan fikri to'g'ri kelishi natijasida amalga oshdi. U o'z ijodi davomida spektakllarda konstruktivizm va biomexanika prinsiplarini faol qo'llaydi.

Meyerxold uslubining kaliti – "*tashqaridan-ichkarigadir*". Xarakterlarni aniq bajarish uchun har bir xatti-harakatga differensial yondashish, harakatning boshlang'ich yoki oxirgi nuqtalarini aniqlash, har bir xatti-harakatdan so'ng pauzalar olish, geometrik rejali harakat qilish, aktyor ijodining plastik shakllari ustida ishslash, obrazga, sezishga kirishish, yashash, chuqr his qilish ichki dunyodan emas, balki tashqi xatti-harakatlardan bo'lishi, aktyorning o'z tanasidagi ta'sirchan vositalarni to'g'ri qo'llay olishi, rolni plastik va nutq orqali ishslashda musiqiy va ritmik jihatdan hal qilish va boshqalar Meyerxold ijodining asosiy mazmunidir.

1930-yillarda Meyerxold ijodi matbuotda turli "ig'volar" iskanjasida yoritila boshlandi. 1938-yilda Meyerxold teatri yopildi. Matbuotlarda Meyerxold o'z davrining eng faol intelligensiya vakili, mashhur rejissyor, betakror ijodkor sifatida qayd etilishi (uni repressiya qurbaniga aylanishi haqidagi fikrlar alohida mavzu) uni qatog'on qurbanlaridan biriga aylanishiga sabab bo'ldi. 1939-yil iyul oyida u qamoqqa olindi va 1940-yil fevral oyida otib tashlandi. 1955 yil u, sobiq ittifoqning oliy sudi tomonidan oqlandi.

V.E.Meyerxold ijodining keng ko'lamliligi, yangiliklar uchun intilish, yangicha qarashlarga asoslangan ta'lifot bo'lganligi uchun 1990-yil 6-martda uning nomidagi markaz (TSIM) tashkil etildi.

<sup>6</sup> V.Rustamov. Ommaviy bayramlar rejissurasi. – Toshkent: 2009-y. 56-b.

## SOCH TURMAGINI MODELLASHTIRISH VA BADIY BEZASH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada soch turmagi, grim, postij, badiiy-texnologik novatsiyalar yordamida badiiy obraz yaratishning ijodiy jarayoni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** modelyer rassom, modellashtirish, modelyer-sartarosh, lak, muss, gel, badiiy obraz, barokko, rokokko.

## МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРИЧЕСКИ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОФОРМЛЕНИЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается творческий процесс создания художественного образа с помощью моделирования причёски, грима, постижа, технологических новаций в данной сфере.

**Ключевые слова:** художник-модельер, моделирование, парикмахер-модельер, лак, мусс, гель, художественный образ, барокко, рококо.

### HAIR STYLING AND DECORATION

**Abstract.** This article discusses the creative process of creating an artistic image with the help of modeling hairstyles, makeup, styling, technological innovations in this area.

**Key words:** artist fashion designer, modeling, hairdresser - fashion designer, varnish, mousse, gel, artistic image, baroque, rococo.



Soch turmagini yaratish bo'yicha ijodiy jarayon, inson faoliyatining har qanday turidagi ijodga monand. Soch turmagi inson badiiy obrazini yaratishida bevosita ishtirok etadi. Uni modellashtuda, eng avvalo, uning estetik vazifasini belgilab olish zarur. Soch turmagini yaratish bo'yicha bu jarayonga bog'liq ravishda undan foydalanish belgilanadi va uning vazifasi ko'pincha shaklini ko'rsatib beradi. Ta'kidlash joizki, soch turmaklash bo'yicha modelyer rassom xususiy modellash chog'ida har bir inson bilan alohida-alohida ishlaydi. Shuning uchun ma'lum bir soch turmagini yaratish uchun u insonning badiiy obrazi, ya'ni soch turmagi modellashtiriladigan obyektni aniqlab oladi.

Ma'lumki, insonning tashqi obraziga uning yoshi, milliy mansubligi, ijtimoiy ahvoli, madaniy darajasi kabilar katta ta'sir o'tkazadi. Yoshdag'i farq ko'pincha turli kishilarda soch turmagiga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Masalan, qizlar o'ziga xos yorqinroq soch turmagini yoqtirsa, kattaroq yoshdag'i ayollar chiroyligi, tekis taralgan soch bilan yoqimtoy ko'rinishni xohlaydi. Ammo qanday ko'rinishda bo'lmasin, soch turmagi libos bilan birga yaxlit obrazni yaratishi lozim.

**Modellashtirish**, deb soch turmagi badiiy bezagini yaratishda go'zallikning ma'lum qoidalari ko'ra, uni umuman va ayrim qismlarini yaratish jarayoni tushuniladi. Masalan, soch turmagining **barokko** shakli ko'tarinkilikni va tantanavorlikni, **rokoko** esa qandaydir yengiltaklik va latiflikni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, har bir uslub o'zigagina xos bo'lgan xususiyatga ega bo'ladi.

Shu asnoda bizning soch turmagi tafsilotlari haqidagi tasavvurlarimiz paydo bo'ladi. Masalan, jingalak sochlar romantik qiyofani, tekis chiziqli sochlar ishchanlik, orastalik va qat'iylik, kamroq bezak qismlari yoki ularsiz hosil qilingan kichik hajmdagi soch turmaklari kamtarlik singari xususiyatlarni namoyon qiladi. Shuning uchun biz soch turmagining dinamikligi yoki aksincha osoyishta xususiyati haqida gapirishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, soch turmagi qismlariga solingan nazar hosil qilgan e'tiborini namoyon qiladi [1].

Shunday qilib soch turmagi assotsiativ hislar va hissiyorlar uyg'otish qobiliyatiga ega bo'lgan qandaydir

badiiy butunlik sifatida insonning tashqi qiyofasi bilan birgalikda badiiy obrazni hosil qiladi. Oldinga qo'yilgan modellashtirish vazifasidan (maishiy, tanlov, teatr va boshqa soch turmaklarini ishlab chiqish) kelib chiqib, hamda modellashtirish obyekti badiiy obrazni hisobga olib, modelyer sartaroshda u yoki bu g'oya, fikrni, ya'ni bo'lajak obrazni aniqlovchi, to'latuvchi yoki aksincha, insonning o'zgarishiga imkon beruvchi bo'lajak soch turmagining xususiyati haqida taxminiy tasavvur hosil bo'ladi. Keyingi holatda o'zgarish darajasi nihoyatda muhimdir, negaki hatto, soch turmagining aniqlovchi, to'latuvchi obrazi ham o'zgartiruvchi elementga ega bo'lishi mumkin.

Masalan, individual modellashtirishda soch turmagining foydalanilayotgan modelining har biri o'z-o'zidan o'zining shakliga ko'ra, jamiyatda mavqega ega bo'lgan ijtimoiy-psixologik obrazga tegishli qandaydir o'ziga xos xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Ayni paytda bizning mijozlarimiz doim ham yorqin, ochiq xislatlarga ega bo'lavermaydi. Odatda ular insonda bir necha ko'rinishda bo'ladi (masalan, romantiklik, hayolparastlik, kamtarlik, ishchanlik va boshqa xususiyatlar uyg'unlikda ko'rinati). Agar biz insonning sochini turmaklayotib, unga xos bo'lgan biror xususiyatga (masalan, romantik) mos keluvchi modeldan foydalanamiz, bunda inson obrazdagi bu xususiyat (ilgari unchalik sezilmagan) aniqroq ko'rina boshlaydi, ya'ni ma'lum ma'nodagi o'zgarish jarayoni paydo bo'ladi (aynan shu holat modelyerlar ko'p qo'llaydigan "ochilayapti va diqqatni tortayapti" so'zleri bilan ta'kidlanadi).

Agar shu bilan birga dastlabki obrazda boshqa anchayin sezilarli xususiyat (masalan, kamtarlik) mavjud bo'lsa, bunda romantiklikni ochishga ehtiyyotkorlik bilan yondashish zarur bo'ladi. Negaki bunda inson o'zini noqulay sezsa boshlaydi, o'zining o'ta yorqin soch turmagidan uyaladi. O'zgarish darajasini hisobga olib, badiiy vazifani (bo'lajak soch turmagi) belgilash moda talqini deb yuritiladi.

Bugungi kunda "modellashtirish" tushunchasi kengroq ma'noga ega bo'lib qoldi va nafaqat modellar

yaratish jarayoni, balki qandaydir o'ziga xos detallardan (modaga oid bo'lishi mumkin) foydalanilgan holda uning model asosida turli variantlarni ishlab chiqish, shuningdek, surat yoki fotografiya bo'yicha (surat va fotografiya hamisha soch turmagini qismi tasviri hisoblanadi) modelni qayta yaratish (qayta tiklash) jarayonini anglatadi. Soch turmagini modellashtirish orqali quydagi vazifalar hal qilinadi:

- *aholining turli chiroyli soch turmagiga bo'lgan ehtiyojini qondirish, kishilar faoliyatining mehnat va boshqa turlari (sport, dam olish va h.k.) shakllariga mos keluvchi soch turmaklarining yangi shakllarini ishlab chiqish;*
- *soch turmagining badiiy bezalgan modellarini targ'ib qilish asosida kishilar didini tarbiyalash va rivojlantirish;*
- *demokratik modani rivojlantirish;*
- *moda yo'nalishlarini rivojlantirish.*

Agar tarixiy uslub qandaydir darajada o'z estetik qadriyatini saqlab qolsa, moda o'zining rivoji bilan uni to'laligicha yo'qotadi. Va hozirgi kunda 50-yillarda modasi qaytib keldi, deyilganda buni shartli ravishda qabul qilish kerak. Negaki zamonaviy moda asosi yoki siluet sifatida o'sha davrlar moda siluetiga o'xshash jihatlar yoki bosh xususiyati bilan o'sha davr ideali bilan badiiy obrazdan foydalaniladi. Tarixiy uslubdagi soch turmaklari esa, etalon namunasi sifatida qolaveradi va zarur bo'lganda o'ta aniqlik bilan qayta yaratiladi.

Modelyer-sartarosh libos, mebel, zargarlik buyumlari, bino ichini bezatiladigan ashyolar shakllarini o'zgarishi, amaliy san'at va umuman barcha san'at turlari evolyutsiyasini doimiy kuzatib borishi zarur, negaki san'at taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti jarayonlarini aks ettiradi. Har bir yangi moda avvalgi modaga nisbatan butunlay qarama-qarshi bo'lgan zaruriy yangilikni olib kiradi. Modadagi qarama-qarshilik uning istiqboldagi rivoji asosini belgilab beradi [2].

Modelyer-sartarosh yangi modaning mohiyati, umumiy g'oyasi, butun moda tizimini belgilovchi jihatlarni aniqlab olishga intilishi zarur. Bu unga davr estetik talabiga javob beruvchi, badiiy obraz yaratadigan, libos bilan birga yaxlit ansamblning zaruriy elementlari hisoblangan soch turmagining yangi shakllari ustida ishlash imkonini beradi. Soch turmagini modellashtirishda, eng avvalo, uning vazifasi va estetik maqsadi hisobga olinadi.

Badiiy obraz soch turmagi inson o'zgarishi zarur bo'lganda (masalan teatr yoki tanlov soch turmagi) yoki aniq insonning shaxsiy xususiyatlarini individualligini ta'kidlanganda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Har qanday soch turmagi ustida ish boshlanayotganda, (maishiy soch turmaklari) eng avvalo, aniq insonning badiiy obrazini ochib olishga harakat qilinadi. Inson haqidagi obrazini tasavvur uning tashqi ko'rinishidan (qiyofasi va liboslari) va uning temperamenti va xarakteri nuqtayi nazaridan (tipajni aniqlash) hosil bo'ladi. Shartli ravishda ayollarning yosh, sport, ayollik, yoqimlilik va flegmatik singari besh turi aniqlangan. Qorishiq tiplari ham mavjud bo'ladi.

Insonning tashqi qiyofasiga yoshi, milliy mansubligi, madaniyat darajasi va boshqalar katta ta'sir qiladi. Ayniqsa, soch turmagida yosh o'rtasidagi farq keskin sezilib qoladi. Qizlar yorqin, maftunkor soch turmagini

yoqtirsa, kattaroq yoshdagi ayollar chiroyli, tekis tarab olingen soch turmagini ma'qul ko'radi. Har qanday holatda ham soch turmagi libos bilan birga yaxlit bir ansamblni tashkil etishi lozim.

Masalan, individual modellashda har bir foydalanilayotgan soch turmagining ommabop modeli o'zining shakli tufayli qaysidir xususiyatlarini, ijtimoiy-psixologik obrazlarni ochib berishga hizmat qiladi. Bo'lajak soch turmagi badiiy vazifasi, xususiyatini o'zgarish darajasini hisobga olgan holda belgilash moda talqini deb nomlanadi. Keskin qarorlarni umuman talab qilmaydigan soch turmagini modellash imijni o'zgartirish xayothi tubdan o'zgartirish, uni idrok etish va o'z-o'ziga munosabatni yaxshilashga yordam beradi. Negaki soch turmagini modellashtirish o'ta nozik va kreativ, individual, ammo katta kasb mahorati bilan yondashiladigan sartaroshlik ishidir.

Soch turmagini sochni turmaklashning badiiy to'xtami sifatida uning tarkibi, turi, uzunligi, rang va boshqa holatlari, hozirgi shakli va tabiiy xususiyatlari (yuz va qomat shakli, yosh) kabilarni, albatta, hisobga olishi zarur bo'ladi. Shu bilan birga insonning shaxsiy xususiyatlari (temperament turi), kasbi, hayot tarzi, didi, libos, poyabzal, aksessuar, makiyaj kabilardagi uslub singarilarga e'tibor beriladi. Negaki mahoratlil sartarosh modellashtirishgan yangi soch turmagi mijozning ichki olami va dunyoqarashiga mos kelishi, obrazni buzishi emas, balki yakunlashi, tashqi ko'rinishidagi ba'zi nuqsonlarni yopib yurishi zarur.

Shunday qilib, soch turmagini modellashtirish betakror va maftunkor obraz yaratish algoritmini tavsiya etadi. Unga ko'ra, birinchidan, soch turmagini qanday maqsadga mo'ljallanganligini aniqlash kerak, bu tadbirning xususiyatiga bog'liq. Xususan, modellashtirishning vazifasiga qarab soch turmagining quyidagi turlari farqlanadi: kundalik (ishchi soch turmagi ham shunga kiradi) va kreativ (sahnaga chiqishlar), tadbirlar (shuningdek, kokteyl ham) va maxsus (bir martalik bitirish oqshomi, to'y va h.k.) va ikkinchidan, soch turmagini modellashtirayotgan sartarosh uning uslubini belgilaydi. Bu o'z navbatida bezak tanlash, ranglar palitrasи va bo'yoqlar mutanosibligiga ta'sir qiladi. So'ngra soch turmagi yoqimli qiyofa yaratishga ta'sir qiladigan bezak, rang palitrasи va bo'yoqlar mutanosibligini yaratishga ilhomlantiradi. Bunda murakkablik darajasi, turmak turi, peshonagajak shakli (to'g'ri, qiyshiq, aralash va h.k.), kokillar (tekis, buralgan) va ularning yo'nalishi (ichkariga yoki tashqariga) va boshqalar hisobga olinadi. Modellashtirishda siluetni shakllantiruvchi soch turmagining quyidagi uch turi farqlanadi:

- *teskari tur – soch peshonadan engakka qarab taraladi;*
- *markazdan qochuvchi tur – osilib turadigan kokillar;*
- *yuz turi – soch o'sishi yo'nalishiga ko'ra tarash.*

Soch turmagini modellashtirish yakunida mahoratlil sartarosh tegishli soch turmagi yaratish texnologiyasini ishlab chiqadi, bu amalga oshirish g'oyasi va zaruriy asboblarni o'z ichiga oladi. Sochga beriladigan ishlovni amalga oshirishning har bir bosqichida sodda va foydalanishga qulay, ko'p vazifani bajara oladigan va samarali bo'lgan asboblardan foydalaniladi.

Odatdag'i cho'tka soch turmagini modellashtirishdagi eng sodda va kundalik asbob hisoblanadi. Soch turmagining siluetga bog'liq ravishda uni modellashtirishda har xil taroqlardan foydalaniladi. Masalan, greben sochni kesish va tekis tarash uchun mo'ljallanadi, dumaloq cho'tka uni gajak qilishga yordam beradi. Sochni tegishli hajmda bo'lishi uchun qo'shimcha taroqlardan foydalaniladi. Buning uchun yog'och eng yaxshi asbob hisoblanadi, metall yoki plastmassa sochni elektrlab qo'yadi va ishlov berishda noqulaylik tug'diradi.

Bigudi yordamida sochni romantik uslubda to'lqinsimon qilib chiroqli turmaklash mumkin. Bu asbobning hajmi soch turmaklarini modellashtirish uchun turlicha bo'ladi va u yuz, qomat, tadbir xususiyati, mijoz maqsadi va har mavsumda podiumga turli hajm va shakkardagi jingalak modellarni olib chiqayotgan modaga bog'liqidir.

Stayling uchun vosita yordamida mahoratli sartarosh modellashtirgan soch turmagining maftunkor shaklini bayram tadbiri davomida saqlab qoladi. Modellashtirish paytda soch turmagini mustahkamlash uchun arzon va samarali bo'lgan quyidagi ommabop va zaruriy vositalardan foydalaniladi:

- *lak (turli darajada mahkamlash) – modellashtirishning yakuniy bosqichida soch turmagini to'laligicha mahkamlaydi;*
- *muss – soch turmagi hajmini saqlab turadi, jingalak kokillar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun uni bigudi, ployka, diffuzor va boshqalar yordamida toza quruq yoki nam sochlarni o'rashdan avval tekis sochib chiqiladi;*
- *gel – yopishqoqligi turlicha, suyuq yoki qattiq jele shaklida bo'ladi, yaltiroq qiladi, yaxshi tekislaydi va modellashtirish oxirida chiroqli "nam soch" tasavvurini beradi. Shuningdek, u biroz nam soch ildiziga berilsa uni paxmoq qiladi;*
- *mum va krem – tabiiy ashylardan tayyorlanadi, qalin kokillarni tekislash uchun murakkab soch turmaklari va ularning alohida qismlarini modellashtirishda foydalaniladi.*

Bugungi kunda shisha va toshchalar, pat va lentalar bilan bezatilgan to'g'nag'ich, sochto'g'nag'ich, nevidimka kabilar soch turmagini mahkamlash va ajoyib tarzda bezash uchun eng sodda, arzon va o'ziga xos vositalar hisoblanadi. Lekin mahoratli sartaroshlar soch turmagini modellashtirishda elektr asboblarini ma'qul ko'radi. Ular sartaroshning g'oyasini tez va sifatli amalga oshiradi, soch siluetini yaratadi. Bunda bir necha sekund davomida gofrirlangan qisqichlar yordamida to'g'ri sochlarni to'lqinli, mavjili, vafilli bezaklar qilish mumkin. Elektr tekislash dazmollari modellashtirishning teskari jarayonini bajaradi, tarqoq jingalak sochlarni tekis, yaltiroq va tutam qilib qo'yadi. Hozirgi paytda to'g'ri sochlarni modaga aylangan bo'lsada, sartaroshga tantanavor mustahkam jingalak soch turmagi yuzasidan murojaat qilishadi, ularni havo stayleri va diffuzorli fen orqali amalga oshiriladi (spiralsimon kokillar hosil qilinadi).

Soch turmaklari modellashtiriladigan bu va boshqa asboblar nafaqat go'zallik salonlari, balki uyda ham ishlatalishi mumkin. Negaki turli vazifalarni bajaradigan, turli hajmdagi qisqich va fenlarga modellashtirish uchun turli moslamalar bilan takomillashtirilayapti, bulardan maqsad ajoyib soch turmaklari estetik sodda va beqiyos mashg'ulotga aylanib qolsin [3].

Har qanday murakkablikdan soch turmagini modellashtirish sartarosh bajarayotgan ma'lum bir yumushlar ketma-ketligidangina iborat emas, balki uning xayolida mavjud bo'lgan tugal va uyg'un kompozitsiyadan ham iborat bo'ladi. Shuning uchun stilist sartaroshlik san'atining bo'lajak noyob asarini tasavvurida chizib olib, modellashtirish uchun zarur asbob-uskunalarini tanlab, kompozitsiya elementlarini bosqichma-bosqich amalga oshira boshlaydi. Soch turmagi kompozitsiyasi (modellashtirishda soch turmagi qismlarini o'ziga xos joylashtirish) hajmdor va yassi bo'ladi. Ular siluetga, ya'ni soch turmagini yuzada idrok etishga ta'sir qiladi. Soch turmagi silueti yassi, kvadrat, uchburchak, silindr va boshqa geometrik shakkarda bo'ladi.

Soch turmagi modelini shakllantiruvchi model uning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Soch turmagini modellashtirish bilan shug'ullanadigan sartaroshlar ritmik chiziqlar (to'lqin, tugun), haykal chiziqlar (soch turmagidagi bant, buklam, uyum, "zina" singari geometrik figuralar), tabiiy chiziqlar (ijodiy tartibsizlik, postmodern yo'nalishida kreativ, masalan: yirtiq peshonagajak) kabilarni farqlaydi.

Soch turmagi chiziqlari uning kompozitsiya elementlari sifatida nafaqat shaklini, balki uning alohida qismlari mutanosibligi, simmetriya va assimetriyasini ham tashkil etadi. Soch turmagini modellashtirish boshni tananining boshqa qismlari bilan mutanosibligini (eng maqbul mutanosiblik – 7,5 marta), shuningdek soch turmagi chiziqlarini libos, aksessuar va makiyajning uslubi va ranglar bilan uyg'unligini hisobga olish zarur. Shu sabab, modellashtirishda soch turmagining rangini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Rang soch turmagini nigohiy idrokini va mijozning iliq yoki sovuq ranglarni tanlash bilan bog'liq kayfiyatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Soch turmagining rangi uni modellashtirishda ham uslubi, ham ukladka shaklini ko'rsatadi. Masalan, soch hajmini ancha kattaytiradigan blond oqshomlar, to'ylar va boshqa ko'ngilochar tadbirlar uchun ma'qul bo'ladi, negaki bu romantik uslub belgisi hisoblanadi. Sochning to'q jigar rangi klassika bilan bog'liq, u ishbilarmonlik uchrashuvlari yoki oqshom tadbirlari uchun soch turmaklarini modellashtirishda foydalidir.

Xulosa o'rnila shuni aytib o'tish joizki, soch turmagini modellashtirish alohida san'at turi hisoblanadi. Uni qalbdan haqiqiy san'atkor va qo'l gul usta yaratadi. Shu bois, murakkab soch turmaklarini go'zallik salonlarida ishlangani ma'qul. Bugungi kunda uy sharoitida kundalik soch turmaklarini amalga oshirish uchun asboblar, vositalar va soch turmagini modellashtirish texnikalari mayjud. Xohish bo'lganda ulardan bemalol foydalanish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Луканова О.В., Федорова Л.В. «Технология парикмахерских услуг». – Ташкент: 2008 г.
2. Jalilova F. Grim. – T.: O'zDSI, 2015-y.
3. Анджан А., Волчанский. Гrim и кино. – Москва: 1957 г.

Rayxon URALOVA,  
O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati" fakulteti  
o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinnbosari

## **AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA O'QITUVCHINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Annotatsiya.** Mazkurmaqolada, Oliyta'llimmuassasalarirahbarlarining mediakompetentligini rivojlanishning nazariy asoslari, pedagog rahbar xodimlarning media komponentligi shaxsiy va kasbiy rivojlanishining muhim omili ekanligi hamda elektron ta'lif muhitida pedagog rahbar xodimlarning mediakomponentliklarini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada onlayn o'quv kurslari asosida mediakompetentlikni oshirish imkoniyatlari va pedagog rahbar xodimlarning mediakompetentligini rivojlanishga qaratilgan elektron axborot-ta'lif resurslari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mediakompetent, rahbar, xodim, resurs, elektron, muhit, nazariy, imkoniyat, axborot-ta'lif.

### **РАЗВИТИЕ МЕДИАКОМПОТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы о теоретических основах развития медиакомпетентности руководителей учреждений высшего образования, важных средствах личного и профессионального развития медиа компетентности педагогических работников. А также в статье указываются электронные информационно-образовательные ресурсы, направленные медиакомпетентности руководящих педагогических работников и возможности повышения медиакомпетентности на основе онлайн учебных курсов.

**Ключевые слова:** медиакомпетентность, руководитель, работник, ресурс, электронный, обстоятельство, теоретический, возможность, информационно-образовательный.

### **DEVELOPMENT OF TEACHERS MEDIA COMPETENCE IN THE INFORMATION SOCIETY AS A SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEM**

**Abstract.** This project (qualification paper) analyzed the theoretical foundations of the development of media competence of the leaders of the higher educational institutions, the fact that the media component of pedagogical leaders is an important factor in their personal and professional development, and the issues of increasing the media competence of pedagogical leaders in the e-learning environment. Also, the work of the project have shown the possibilities of increasing media competence based on online training courses and electronic information-educational resources aimed at developing the media competence of pedagogical leaders.

**Key words:** media competence, leader, worker, resource, electronic, circumstance, theoretical, opportunity, informational and educational.



Mustaqillik davrida mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ta'lif tizimi davlat va jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalihsiga aylandi. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyati tobora oshib borayotganligi tufayli fuqarolarni, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlod va bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy madaniyatini shakkantirish masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash ta'lif-tarbiya muassasalari pedagog-o'qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifaga aylandi.

Ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil qilishda, ilg'or milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va mezonlar asos bo'lishi lozim. Komil inson tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan va shunday bo'lib

qolaveradi. Ma'lumki, uchinchi ming yillikning ijtimoiy-madaniy mohiyati jahon iqtisodiyotining globallashuvi, jamiyatni axborotlashtirish, ilm-fan, texnika, turli xil ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma'naviy qadriyatlarining o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining hayotimizga beqiyos ta'sirini har jabbada kuzatish mumkin, bejiz XXI asr global axborot asri deb atalmagan.

Shubhasiz, axborot texnologiyalari insonlar hayotiga shu darajada chuqur kirib bormoqdaki, ularni umummadaniy kontekstdan chiqarib tashlab bo'lmaydi. Shuning bilan birga e'tirof etish lozimki, mediaaxborotni uning iste'molchilariga bo'lgan nafaqat ijobjiy, balki salbiy ta'siri ham oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlanish va axborot-kommunikatsiya

*texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi qarorida belgilangan kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng joriy etish hamda ularni faol qo'llanilishi ta'lif muassasalarining o'qituvchi-pedagoglari oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tabiiyki, hozirgi ta'lif islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiysi, uning ma'nnaviy-ma'rifiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Axborot asri" deb nom olgan XXI asrda mamlakat va hududlar o'rtasida axborot almashinivi kengayib, tobora tezlashdi. Axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi dunyo bo'yicha yirik axborotlashgan jamiyatni vujudga keltirdi. Bu, o'z navbatida, davlat va jamiyatlar hayotining barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlarga olib kelmoqda [116].

Axborotlashgan jamiyat davrida har bir o'qituvchi o'zining ongli hayotining ilk davrlaridan boshlab kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlash, mediakanallari orqali ko'rgan, o'qigan va eshitganlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni o'rganishi kerak. Mediamatnlarni tanqidiy tahlil qilish va baholay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozimdir.

Hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda internet iste'molchilari soni tobora ortib bormoqda. So'nggi yillar mobaynida internet global tarmoqqa aylanib ulgurdi. Buning natijasida, dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyat yuzaga keldi, balki jahon hamjamiyatida globallashuv jarayonlari tezlashib ketdi. Agar axborotlashgan dunyo tarixiga murojaat qilinsa, u bugungi darajaga yetgunga qadar katta evolyutsion davrni bosib o'tganligining guvohi bo'lamiz.

Bugungi kundagi o'qituvchining pedagogik mahorati kundalik hayotda yuqori darajada axborotlashgan va texnokratlashgan jamiyatda voyaga yetayotgan o'smirlar bilan mashaqqatli muloqotlar sinoviga duch kelmoqda. Yagona axborot makonini yaratish mediaaxborotni qabul qila olish va medialashgan muloqotni amalga oshira bilishni talab qiladi. Hozirgi vaqtida mediakompetentlik shaxsning muhim sifatlaridan biridir, uni shakllantirish esa umumiy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kompyuterlarning asosiy vazifalari axborotlar ustida amallar bajarish hisoblanib, jamiyatda axborot ham bilim manbai, ham eng asosiy muloqot vositasini bo'lib hisoblanadi. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lmash ekan, u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrardir.

Lekin shuni ta'kidlab o'tish joizki, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilar ko'pincha foydaliroq ma'lumotlar olish o'rniiga foydasiz ma'lumotlarga chuqur berilib ketishlari, ayniqsa, internetdagi ma'lumotlarga qiziqishlari kundan kunga ortib bormoqda [25]. Bundan ko'rinish turibdiki, axborotlarning ijobjiy va salbiy jihatlarini ham e'tibordan qoldirmaslik kerak. Axborotlarning

ijobjiy tomoni shundan iboratki, o'z vaqtida olingan to'g'ri va sifatlari axborot insonlar, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi.

Axborotlarning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim G'arb davlatlaridan kirib kelayotgan, bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharovchi ma'lumotlar ham mavjud. Ayniqsa, bunday ma'lumotlar internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an'analarimizga, davlatchiligidan zid bo'lgan noyo'ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin [24]. Shuning uchun ta'lif beruvchi tashkilotlar hamda pedagoglardan zamonaviy ta'lif texnologiyalari, ayniqsa, mediatallim asosida vujudga kelgan mediakompetentlik tushunchasiga e'tibor berishga ehtiyoj zarurligi oydinlashib bormoqda.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadi, mediakompetentlik tushunchasi ostida yotadigan bir necha atamalar, jumladan, mediamadaniyat, mediatarg'ibot, mediatallim, mediaaxborot, kompyuter madaniyati, mediasavodxonlik kabi atamalarga e'tiborliroq bo'lish barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rinnegallaydi.

Mediakompetentlikning yo'nalishlaridan biri bo'lgan televide niye orqali axborot qabul qilishda ko'plab telekanallardagi mediakliplar va tomoshalarni namoyish qilinishi, undagi yoshlarning kiyinish odobi, qo'shiqlarning ma'nosizligi va saviyasining pastligi, ko'rsatuvni olib boruvchilarning o'zini tutishi va ular tomonidan foydalanadigan so'zlar milliy qadriyatlarimizga zid kelib, yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

YUNESKO ning tahliliy materiallarida qayd etilishicha, har bir inson o'zining hayoti davomida o'rtacha 3 milliondan ziyodroq reklamatilarga duch kelarkan. Ushbu reklamatarni biz televide niye, radio, gazeta, jurnallar, internet orqali ko'rishimiz mumkin. Reklama bugungi kunda insonlar ongi uchun kurashda eng kuchli ta'sir vositasiga aylangan. Hozirda reklama sanoati shu darajada rivojlandiki, unda insonlar ongini manipulyatsiya qilishning tasavvur qilib bo'lmaydigan usul va vositalardan foydalaniladi.

Masalan, Red Bull, Energizer va shu kabi energetik ichimliklar reklamasini olaylik. Go'yoki ushbu ichimliklar kuchquvvat bag'ishlovchi effektga ega, deb reklama qilinadi. Butun dunyoda ushbu ichimlikni iste'mol qiluvchilarning o'rtacha yoshi 14-18ni tashkil qilar ekan. Mana shu reklama ta'sirida asosan o'smir yoshlar, hali organizmi to'la shakllanib ulgurmasdan, bu ichimliklarni me'yordan ortiq iste'mol qilinishi va oqibatda uning zararidan nobud bo'lganlarini ham kuzatish mumkin [24].

Internettarmog'i orqali borgan sari targ'ib etilayotgan milliy an'analariga va urf-odatlarimizga hamda axloq normalariga umuman to'g'ri kelmaydigan film va kliplar yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib, oila degan muqaddas tushunchalarni parchalanishiga sabab

bo'lmoqda. Afsus bilan shuni aytishimiz kerakki, ko'p hollarda bunday salbiy holatlar ta'lif muassasalarida hamda talaba-o'quvchilar o'tasida ham sodir bo'lmoqda. Ko'plab informatsiyaviy tahdidlarning yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir davrda ana shu jarayonlarni psixologik tahlil qilish va yoshlarimizni bunday tahdidlardan muhofaza etishning yo'llarini izlab topib, hayotga joriy etish juda muhim vazifa hisoblanadi [69].

Bunday sharoitda mediakompetentlikni rivojlantirish, uning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda shakllantirish hamda pedagogik sharoitlarini aniqlash kerak. Hozirda ilmiy-teknikaviy taraqqiyottalablariga mos holda olyi talim muassasalarini talabalarining axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash lozim.


Mutaxassis Yevgeniy Morozovning "Tarmoq uydirmasi" ("The Net Delusion") nomli kitobida yozilishicha, ijtimoiy tarmoqlar beg'am va erinchoq odamlar avlodini tarbiyalamoqda [130]. "Deyli Meyl" ("The Daily Mail") nashrida chop etilgan Oksford universiteti professori Syuzan Grinfeldning maqolasida inson ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlar ijtimoiy tarmoqlar bilan ham bog'liq ekani ta'kidlanadi. Aniqlanishicha, o'ta oddiy virtual muloqotlar insonda ruhiy og'ishlarni vujudga keltirar ekan. Ya'ni, odam ijtimoiy muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslasha olmaydigan bo'lib qoladi. Shuningdek, kelajakka ishonchning yo'qolishi, o'ziga nisbatan noxolis baho berish, tushkunlik, tajovuzkor xatti-harakatlar, murosasiz fikrlar, ijtimoiy faoliyotning susayishi kabi holatlar ko'zga tashlanadi. Ta'kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoqlarning doimiy mijozlari verbal muloqotga kirishish ko'nikmasini yo'qtadi. Masalan, suhbat chog'ida ular suhbatdoshining ko'zlariga qaray olmaydi. Demak, ijtimoiy tarmoqlarga murojaat etayotgan o'smirga, eng avvalo, yoshlarga internetdan foydalanish madaniyatini o'rgatish kerak [130].

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog'i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko'rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli, katta sahnada "Mediata'lism" tushunchasining paydo bo'lishi, uning keljakda ta'lif sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlilikli sharoitda biz ota-onalar, ustoz murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y, bu masalada hushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni

birovning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga qulog solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak", – degan fikrlari har birimizga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, hozirgi kunda milliy mentalitetimizga, tarbiyamizga zid bo'lgan, jamiyatimizni o'z xavf-xatarlari bilan tashvishga solayotgan asosiy muammo bu axboriy tahdidlar muammosidir. Ushbu muammo jamiyatimizning ertasiga, o'quvchi-yoshlarimizning umumtarbiyasi, kelajak hayotiga o'z qora soyasi bilan katta tahlila solmoqda [55]. Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lif oluvchilarning ongiga informatsiyaviy tahidlarning, ommaviy madaniyatning turli xildagi salbiy ko'rinishlari krib kelayapti.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, ya'ni talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga ijtimoiy va informatsion omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Buni 1.1-rasmda ko'rishimiz mumkin:



1.1-rasm. Mediakompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.

Xulosa qilib aytganda, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta'lif sohasida "Axborot texnologiyalari" va "Mediakompetentlik"ni yanada rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish, o'quv rejalariga mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi fanlarni kiritish va metodik qo'llanmalar yaratish hamda tinglovchilar va o'quvchilarga yetkazish, mediamadaniyat, mediasavodxonlik va mediata'lism sohalarini rivojlantirish davr talabidir.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual potensiali bilan belgilanadi. Chunki ilmiy potensiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi. Shuning uchun mamlakatimizda ta'lif tizimini tubdan isloh qilish davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ustuvor vazifa sifatida yondashilib, katta e'tibor qaratilyapti. Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish

uchun ta'lrim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o'ziga xos talablari mavjud. Birinchidan, o'quvchi-talabalarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi davlat ta'lrim standartlari talablarga mosligini ta'minlash. Ikkinchidan, o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lrim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini to'liq qamrab olishga erishish. Jamiatning bu tarzda jadal rivojlanishi, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj – o'qituvchidan intellektual qobiliyatlarini namoyon qilgan holda, ijtimoiy talablarni qondirishni taqozo etmoqda [131].

Media – lotinchada vosita, o'rtada turuvchi, degan ma'nolarni beradi. U ma'naviy (axborot, bilim) ehtiyojlarni qondirish vositasi. Pichoq, olov, suv kabi xolis vosita. Vrachning qo'lidagi pichoq bemorni sog' qiladi. Jinoyatchining qo'lidagi pichoq esa, sog'ni bemor qiladi. Olovnning yo'g'i odamni muzlatsa, ko'pi kuydiradi. Ko'p suv g'arq qilsa, suvsizlik qaqratadi. Media ham shunday. Agar me'yorda, kompetentli foydalanilsa, media donolar uchun – bilimlar manbai. Nodonlar uchun – balolar manbai [113;114]. Demak, gap mediada emas, undan foydalanuvchilarda, aniqrog'i – har bir yigit-qizning mediamana'naviyatiga bog'liq bo'lib chiqayapti.

Ta'kidlab o'tish joizki, ta'limi axborotlashtirish, xususan, mediamahsulotlarga oid bilimlarni yaxshiroq qo'llash muammosini alohida tadqiq qilish, bu sohadagi yutuq va kamchiliklarni, istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va ularni tadqiq qilish dolzarb muammo hisoblanadi.

"Axborot texnologiyalari" va "Mediakompetentlik"ning ijtimoiy va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda oliy ta'lrim muassasalari rahbarlarining mediakompetentligini rivojlanirishga ijtimoiy va informatsion omillar o'z ta'sirini o'tkazishi. Axborotlashgan jamiatda bo'lg'usi o'qituvchilarning ijtimoiy hamda informatsion omillarni mazmunini qarab chiqishga imkon berdi.

Oliy ta'lrim muassasalari rahbarlarining media bo'yicha kompetentligining mazmunida quyidagi o'zaro bog'langan elementlar aniqlandi: a) media bo'yicha savodxonlik; b) media bilim bo'yicha motivatsiyasini namoyon qilishga tayyorlik. "Mediakompetentlik"ni yanada rivojlanirish uchun rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish, o'quv rejalariga mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi fanlarni kiritish va mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi metodik qo'llanmalar yaratish davr talabidir.

Oliy ta'lrim muassasalari rahbarlarining mediakompetentligini rivojlanirishning muammosining yechish yo'llari. Dunyo xorij olimlarning tajribasi va fikr mulohazalari asosida amalga oshirilish. "Informatika va axborot texnologiyalari" kursini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari, multimedia-texnologiyalar vositasida rivojlanirish. Multimedia asoslarga oid, mediakompetentlik darajasini oshirishga qaratilgan maxsus kurslarni, pedagogik faoliyatda ham mediakompetentlikning yuqori darajasini namoyon qilish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta'lrim muassasalari rahbarlarining mediakompetentlikning rivojlanirish mazmuni takomillashtirish, mediakompetentligini rivojlanirish metodikasini ishlab chiqish zaruriyatani aniqlandi.

## TAKLIFLAR

OTM rahbar xodimlarning elektron ta'lrim muhitida media kompetentligini oshirish borasida quyidagi ishlarni alohida ta'kidlash lozim, deb hisoblaymiz:

1. *Ta'lrim sifatini oshirish maqsadida, har bir OTM rahbar xodimlarning axborot kommunikatsion texnologiyalardan, xorijiy tillardan va boshqa maxsus fanlardan professional bilim darajasi va tajribasini uzluksiz oshirib borishni yo'nga qo'yish mexanizmini ishlab chiqish zarur.*

### 2. Rahbar xodimlarning

*"Mediakompetentligining"ning ijtimoiy va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda mediabilim va uni qo'llash, mediatahvil, mediakreativ bo'yicha kompetentlik ko'rsatkichlarini yuqori, o'rta va past darajalarini o'zida aks ettiruvchi baholash mezonlarini ishlab chiqish.*

3. *Pedagogik oliy ta'lrim muassasalari rahbarlarining mediakompetentligini rivojlanirishda kompetentli yondashuv – innovations – ko'rgazmalilik – tizimlilik – yaxlitlilik – ketma-ketlik tamoyillarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.*

4. *Oliy ta'lrim muassasalari rahbarlarining mediakompetentlikning rivojlanirish mazmuni takomillashtirish, mediakompetentligini rivojlanirish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqish.*

5. *"Mediakompetentlik"ni yanada rivojlanirish uchun rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish, o'quv rejalariga mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi fanlarni kiritish va mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi metodik qo'llanmalar yaratish.*

6. *Oliy ta'lrim muassasalari rahbarlarining mediakompetentligini rivojlanirish muammosining yechish yo'llarini aniqlashda dunyoning ilg'or xorij olimlarining tajribasini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.*

7. *Ta'lrim xizmatlari bozoridagi tendensiyalarni e'tiborga olgan holda "elektron ta'lrim", "elektron ta'lrim muhiti", "elektron ta'lrim olish", "media ta'lrim" va boshqa shu bilan bog'liq tushunchalarga ilmiy va huquqiy tamondan oydinlik kiritish.*

8. *Oliy ta'lrim, fan va innovatsiyalar vazirligi tamonidan elektron ta'lrim vositalarining mazmuni va sifatini muayyan mezonlar asosida tartibga solish, ya'ni berilayotgan axborotlarning haqqoniyligi, turli xil yot g'oyalardan holi bo'lishi, milliy qadriyatlar va an'analarni ko'zda tutishini belgilovchi nizomlar, yo'riqnomalar va tartiblarni ishlab chiqishni tashkil etish.*

9. *OTM rahbar xodimlarini onlayn o'quv kurslari (Coursera, Khanacademy, Udemy) orqali mediakompetentligini rivojlanirish va rahbarlardan mazkur kursda o'qiganligini asoslovchi sertifikatni OTM rahbarlari talab qilishi lozim.*

10. OOO Klarda tahsil olgan OTM rahbar xodimlari o'rtasida tanlovlardan tashkil etish, ulardan eng yaxshilarini tanlab olish va ularni moddiy va ma'naviy rahbatlantirishni yo'lga qo'yish.

11. Respublikamiz ta'lif tizimining rahbar kadrlar mediakompetentligini rivojlantirish uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lif muassasalari tizimida rahbar pedagogik xodimlarni o'qitish jarayoniga "Mediata'lif asoslari" o'quv kursini kiritish.

12. OTM rahbar xodimlarining axborot

texnologiyalari ta'minoti, axborot uzatish usullari va vositalarini biliishi, mavjud media manbalaridan (internet, televizor, radio, audio-video yozuvlar, telefon, kompyuter, bosma nashrlar, elektron pochta va boshq.) kerakli ma'lumotlarni izlab topa olishi, ularni saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishni o'z ichiga olgan har bir OTMdagi yo'riqnomasi ishlab chiqilishi lozim.

13. Mediata'lif blokini oliy ta'lif standartlariga kiritish.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", 2002-y. 270-b.
2. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini asoslarini shakllantirishning asosiy yo'naliishlari. – T.: "O'zbekiston", 2002-y. 256-b.
3. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.: "O'zbekiston", 2006-y. 252-b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017-y. 488-b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruba. 2017-yil, 14-yanvar. – T.: "O'zbekiston", 2017-y. 104-b.
6. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi"da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 7-8-fevral.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2018-y. 75-b.
8. Ta'lif to'g'risida // O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil, 23-24-sentyabr.
9. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan", 2009-y. 145-b.
10. Abduqodirov A.A. Bo'lajak o'qituvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi. "Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar" mavzusidagi vazirlik tizimidagi OT va ilmiy tadqiqot muassasalari miqyosida ilmiy-amaliy anjuman materialari. – T.: TDPU, 2015-y. 3-6-b.

## **TASVIRIY SAN’AT O’QITUVCHILARINING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, badiy-estetik kompetentlik tuzilmasi va komponentlarining aniqlashtirilganligi, tasviri san’at o’qituvchilarini tayyorlashga qo’yiladigan innovatsion metodik talablarning yoritib berilganligi, bo’lajak tasviri san’at o’qituvchilarining badiy-estetik kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik va metodik xususiyatlarining aniqlanganligi, bo’lajak tasviri san’at o’qituvchilarining badiy-estetik kompetentligini shakllantirishning diagnostik mezonlari va ko’rsatkichlarining aniqlashtirilganligi, bo’lajak o’qituvchilarda badiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishning izchilligi va uzlusizligining taklif etilgan mezonlarga mosligining ta’minlanganligi bilan izohlanadi.

**Kalit so’zlar:** innovatsion, metodik, estetik, kompetentlik, diagnostik, natyurmort, mezon, integratsiya, obraz, kompozitsiya, ritm, syujet, fabula, obyekt, subyekt, akademik rangtasvir va qalamtasvir, haykaltaroshlik, me’morlik, grafika, portret, marina, animal, intervju.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ ИСКУССТВ**

**Аннотация.** В данной статье уточнены структура и компоненты художественно-эстетической компетентности, уточнены инновационные методические требования к подготовке учителей изобразительного искусства, педагогико-психологические и методические особенности формирования художественно-эстетической компетентности будущих педагогов изобразительного искусства, что объясняется уточнением диагностических критерииев и показателей сформированности художественно-эстетической компетентности будущих педагогов изобразительного искусства, системностью и непрерывностью развития художественно-эстетической компетентности будущих учителей обеспечивается соответствием предложенными критериям.

**Ключевые слова:** новаторский, методический, эстетический, компетентностный, диагностический, натюрморт, критерий, интеграция, образ, композиция, ритм, сюжет, фабула, предмет, предмет, академическая живопись и рисунок карандашом, скульптура, архитектура, графика, портрет, марина, животное, интервью.

## **FORMATION OF ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE OF FINE ARTS TEACHERS**

**Abstract.** This article clarifies the structure and components of artistic and aesthetic competence, clarifies innovative methodological requirements for the training of teachers of fine arts, pedagogical, psychological and methodological features of the formation of artistic and aesthetic competence of future teachers of fine arts, which is explained by the clarification of diagnostic criteria and indicators of the formation of artistic and aesthetic competence future teachers of fine arts, the consistency and continuity of the development of artistic and aesthetic competence of future teachers is ensured by compliance with the proposed criteria.

**Key words:** innovative, methodical, aesthetic, competency-based, diagnostic, still life, criterion, integration, image, composition, rhythm, plot, object, subject, academic painting and pencil drawing, sculpture, architecture, graphics, portrait, marina, animal, interview.



Jahon miqyosida bo’lajak mutaxassis, jumladan, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ta’lim va ishlab chiqarish amaliyotining uyg’unligini ta’minlash, ta’lim mazmunini badiy-estetik va hayotiy tajribalarga asoslangan o’quv materiallari asosida tizimlashtirish, bo’lajak tasviri san’at o’qituvchilarida badiy-estetik kompetentlikni tarkib toptirishning art-texnologiyalarini rivojlantirishni talab etadi. Bolonya jarayoni mutaxassislar tayyorlash mazmunini integratsiyalash va ta’limdagi hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishi sifatida bitiruvchilarda umumiyl va maxsus, shu jumladan, badiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. AQSh, Germaniya, Angliya, Rossiya, Yaponiya kabi davlatlarda bo’lajak tasviri san’at o’qituvchilarini tayyorlashga yo’naltirilgan

o’quv jarayoni kasbiy bilim va malakalarni tarkib toptirish bilan birga, yuksak badiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishga asoslangan holda tashkil etilishi muhim vazifa etib belgilangan.

Jahon oliy ta’lim tizimida bo’lajak tasviri san’at o’qituvchilarida badiy estetik kompetentlikni shakllantirishning innovatsion modellarini joriy etish, bo’lajak o’qituvchilarini badiy estetik faoliyatga tayyorlashning komponentlari va omillarini aniqlashtirish, integratsion yondashuv asosida bo’lajak tasviri san’at o’qituvchilarida badiy-estetik kompetensiyalarini shakllantirishning elektron-dasturiy ta’minotini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, axloqiy insonparvar tarbiyaning asosiy vositasi sifatida badiy-estetik

kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, shaxsiy, madaniy turmush va badiiy-estetik tajribaning uyg'unligini ta'minlash, obrazli fikrlashning asosi sifatida badiiy ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni shakllantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetikkompetentliknishakllantirishbo'yichao'quv materiallarini tizimlashtirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni shakllantirishning tashkiliy-texnologik tizimini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilandi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni takomillashtirish asosida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chugurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" [1] muhim vazifa etib belgilandi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini shakllantirishning mavjud holatini baholashda mazkur jarayonning muhim komponenti sifatida badiiy-estetik tahlil masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Ye.V.Volkovaning fikriga ko'ra, estetik tahlil bu yaxlit badiiy asar qonunlari, uni tashkil etishning eng umumiy tamoyillari, turli komponentlar va darajalarning o'zaro nisbatlarini nazariy o'rganishdir. Uning vazifasi asar mazmuni va shaklining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

San'at asarini estetik tahlil qilish uchun maxsus atamalardan foydalaniadi, u estetikaning rivojlanishi davomida shakllangan quyidagi muhim tushunchalarni o'z ichiga oladi: badiiy asarning mazmuni va shakli; ichki va tashqi shakli; mavzu; obrazli-estetik g'oya; kompozitsiya; ritm; tizim; badiiy yaxlitlik; tuzilish; g'oyaviy-estetik baholash; san'at tili. Estetik tahlilni san'atdagisi tasvir va ifoda; badiiy makon va zamon kabi tushunchalarni jalgilmasdan amalga oshirishning imkoniy yo'q.

Ye.V.Volkova badiiy mazmunni san'atga xos bo'lgan, tizimli tartibga ega g'oyaviy-emotsional, badiiy-obrazli ma'no va mazmun sohasi sifatida ta'riflaydi [2]. "Xarakter", "syujet", "fabula" kabi mazmunga tegishli boshqa turdag'i atamalardan san'atning muayyan turlarini tavsiflash uchun foydalinish mumkin. "Mavzu" va "g'oya" mazmunli tahlil kategoriyalari va ularning o'zaro aloqalari estetik tahlil tarkibiy asosini boyitadi.

V.V.Vanslov san'at asari mazmunini: "san'atning o'ziga xos jihatlarida voqealikning aks etishi, rassomning hayot voqealarini u yoki bu tarzda tushunishi va baholashini o'z ichiga olgan tasvir" [3.23-b.], – deb hisoblaydi. Uning fikricha, san'at asarining mazmuni har doim nafaqat obyektdan "kelayotgan", balki subyekt tomonidan "taqdim etilayotgan" narsalarni ham o'z ichiga oladi; u nafaqat predmet bilan, balki uni tushunish usuli, rassomning baholashi, o'z dunyoqarashi, ichki dunyosini ifodalashi bilan aniqlanadi.

T.V.Illina ta'kidlaganidek, badiiy asar mazmunini tarkibiy qismlarga bo'lish orqali biz uni asar g'oyasidan,

uning mavzusi va asarda tasvirlangan hodisalarga emotsiyonal-estetik baho berishning shakllanishini aniqlaymiz. Ammo bu elementlarning barchasi faqatgina tahlil qilinganda ajratilishi mumkin. Badiiy asarning o'zida esa ular uyg'unlikni tashkil qiladi, mavzu har doim g'oya jihatdan qamrab olinadi; asar g'oyasidan mavzuda tasvirlangan hayot hodisalariga baho beriladi; g'oyaning o'zi esa mavzu materialida namoyon bo'ladi, uning rivojlanishi orqali kelib chiqadi. G'oya, mavzu va baholash shu tarzda o'zaro bir-biridan ajralmasdir [4.186-b.].

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini badiiy-estetik kompetentligini shakllantirishda kompozitsiyani o'quv fani sifatida ochib berish orqali N.N.Volkov ularning bilim va ko'nikmalarining zarur hamda majburiy darajasini belgilaydi [5]. U talabalarning estetika bo'yicha bilimlarini muhim, deb biladi. Talabalar estetik jihatdan tarbiyalangan, yuqori darajali badiiy didga, rivojlangan badiiy qobiliyatga ega bo'lishi, kompozitsiyaning rivojlanish tarixi, uni o'qitish metodikalari to'g'risida bilimga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini uchun zaruriy ko'nikmalarga u quyidagilarni kiritadi: san'at asarining mazmuni, g'oyaviy rejasи, badiiy shakli, shu jumladan, asosiy badiiy shakl-kompozitsiyani tahlil qilish, shuningdek, barcha tasviriy-ifodali vositalarni egallash, o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazish, ularga xulq-atvor, turmush va mehnat estetikasini o'rgatish.

Taniqli olim B.Baymetov kompozitsya kursini bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari tomonidan o'rganishning muhimligini quyidagicha izohlagan: "Kompozitsiya – o'quv fani sifatida tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morlik, grafika turlarida, shuningdek, manzara, portret, marina, animal, tarixiy va boshqa janrlarida bevosita asos hisoblanadi. Shuningdek, u bo'lajak rassom-o'qituvchilarni tayyorlaydigan fakultet va bo'limlarda o'qitiladigan kasbiy fanlar: qalamtasvir, rangtasvir, san'at tarixi, haykaltaroshlik, amaliy va badiiy bezak san'ati, tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish, akademik qalamtasvir asoslari, dastgohli akademik rangtasvir va kompozitsiya kabi mutaxassislik fanlar bilan bevosita uzviy bog'liqidir [6.661-662-b.].

Tadqiqotchi N.Talipovning fikricha, oliy pedagogik ta'lim tizimida va yangi pedagogik texnologiyalar orqali rangtasvir, qalamtasvir mashg'ulotlarida manzara kompozitsiyasida ijod etishga, talabalar ijodiy qobiliyatini shakllantirishni amalga oshirish jarayonida ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim [7.43-b.]. Tadqiqotchingizning yozishicha, kompozitsiya asarning shunchaki tuzilishi emas, balki shu tuzilishning maqsadi, uning nima asosida tuzilganligidir. Kompozitsiya asar g'oyasiga bog'liq [7.44-b.].

Muallifning fikrlarini davom ettirgan holda aytish mumkinki, kompozitsiyani yaratish maqsadi va san'atning mohiyati badiiy obrazdir. Badiiy obraz – bu voqealikni anglash va aks ettirishdagi emotsiyonal va ratsional uyg'unlik bo'lib, u odamlarning hissiyoti hamda ongiga ta'sir ko'rsatishga mo'ljalangan.

Badiiy-kasbiy pedagogika va psixologiya sohasidagi taniqli olim V.S.Kuzin shunday yozadi: "Badiiy obraz

– rassom har doim turli joylarda ko'rgan va eshitgan narsalarining yangi jamlanmasidir. Badiy obraz u yoki bu jamiyat a'zolarining o'ziga xos va odatdag'i butun qatlaming jamlangan ifodasidir. Shu bilan birga, jamiyat qatlamlarining bir qator vakillariga xos tipik xususiyatlarni aks ettiruvchi badiy obraz individual xususiyatlarga ega bo'lishi kerak” [8.239-b.].

San'at asarining badiy shakli yaratiladigan o'ziga xos moddiy vositalar odatda, san'at tili deb ataladi. Rasm va uning koloritini yaratadigan chiziq, rang, nursoyani biz rassomchilik san'ati tiliga bog'lashimiz mumkin. Rasm har doim ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan tekislikda uch o'chamli makonni tasvirlaydi, shuning uchun uning tili chiziqli va havo perspektivasining tasviriy-ifodali vositalarini hamda kompozitsianing turli usullarini o'z ichiga oladi. Shunisi ayonki, agar badiy til san'at asarining shaklini yaratish uchun asosiy “qurilish materiali” bo'lsa, rassomning barcha tasviriy-ifodali vositalardan erkin foydalana olishi muhim shartlar qatoriga kiradi. Ammo rassomning mahorati bu bilan cheklanmaydi.

Fikrimizcha, asarning badiyligi bo'yqo bo'yash xususiyati, xolst fakturasi bo'ylab nursoya o'yini, chiziqlar orasidan nur tarqatuvchi shu'lalar, akvarelning shaffofligi kabi tasviriy-ifodali vositalar sezilar-sezilmash yaxlit tuzilishga o'tganda paydo bo'la boshlaydi, ya'ni san'at asariga aylanadi. Shunday qilib, san'at asarining moddiy va uning estetik vogeligi o'rtasidagi chegara deyarli yo'qolib ketadi. Aynan shu rassom ijodidagi eng jo'shqin jarayon hisoblanadi. Va barcha badiy-pedagogik maktab vakillari, rassomlarni, ayniqsa, rassom-pedagoglarni tayyorlashga mas'ul shaxslar buni ustuvor, asosiy, kundalik vazifa sifatida tushunishlari kerak.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi ushbu vazifaning muhimligini anglamagan holda o'z intilishlarining cho'qqisini, usta sifatida o'zini namoyon qilishini hech qachon ko'rmaydi va eng muhimi, u hech qachon o'zini estetik madaniyat tarqatuvchisi, uni asrab-avaylochisi, zamon hamda jamiyat taqozosiga ko'ra, ushbu estetik madaniyatni chuqr tushunish, asrash, rivojlantirish va o'z o'quvchilariga yetkazishini tushunib yetmaydi.

Albatta, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalari yuksak san'at asarlarining mualliflari bo'lishga da'vo qilish huquqiga ega emaslar. Ularning asarlari ulug'vor tog'lar etagidagi toshlardir. Ammo astasekin va maqsadli ravishda ularni badiy asarlarning estetik tahliliga olib kelish – badiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim vazifasidir. Bizning fikrimizcha, estetik tahlil mavzusini nafaqat san'at asarlari, balki ularning ijod ishlari ham tashkil qilishi kerak.

Badiy asarni san'at bo'Imagan hodisadan farqli o'laroq, san'atdagi hodisa sifatida o'rganish orqali talabalar badiy hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olishadi. Aynan shunday tahlil natijasida ularning ishlari badiy bo'Imagan tarzda, ushbu so'zning salbiy baholovchi nozik ma'nolari bilan gavdalanadi yoki badiylikning boshlang'ich belgilari namoyon bo'ladi va bu o'qituvchi tomonidan rag'batlantirilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi kerak. Faqtgina bunday malakaga ega bo'lgan mutaxassis o'zida kasbiy-pedagogik mahorat va estetik madaniyat asoslarini shakllantira oladi.

Maxsus tayyorgarlik jarayonida talabalarini badiy-estetik kompetentligini shakllantirish bo'lajak tasviriy

san'at o'qituvchilarining estetik madaniyati tuzilish komponentlarining butun tizimini rivojlantirishni nazarda tutadi. Biz taklif qilmoqchi bo'lgan metodik tizim badiy-estetik kompetentlikni shakllantirishda estetik madaniyat hamda texnik tayyorgarlikning bilim bazasi bo'lishi kerak. U estetik madaniyatga qadriyatli munosabatni shakllantirishi va talabaga ham rassom, ham o'qituvchi sifatida ijodiy jihatdan o'zini namoyon qilishga imkon berishi kerak.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi kursi mazmunida N.N.Rostovsev [9] va S.Abdirasilov [10]lar o'quvchilarining sustayyorgarligi, estetik madaniyatining darajasi pastligidan tashvish bildirishadi. Ular bularning barchasi o'qitish metodikasiga bog'liqligini ta'kidlab o'tishgan va o'qituvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatib o'tishgan. “Maktab amaliyoti shuni ko'rsatadiki, – deb yozadi N.N.Rostovsev, rasm o'qituvchisi ko'pincha ifoda vositalari, badiy usullar, ijro etish texnikasini namoyish etish bilan cheklanib, san'atning metodikasining o'ziga xosligi masalalariga unchalik e'tibor bermaydilar. San'at asarini bir tomonlama yoritish tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. San'at asarini tashqi tomonдан tahlil qilishga o'rgangan o'qituvchi badiy obrazni ochib berishga keng yondasha olmaydi” [9.239-b.].

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiy-estetik kompetentligini shakllantirishning mavjud holatini aniqlash maqsadida, biz rassom-pedagoglar bilan intervyu tashkil etdik. Quyida ularga to'xtalib o'tamiz.

H.Sultanov (Chirchiq davlat pedagogika instituti dortsenti, Badiy akademiya a'zosi) o'z ma'ruzalarida rasmni “akademik” va “ijodiy”ga bo'lish o'rinni bo'lmasligini ta'kidlab o'tdi. Uning fikriga ko'ra, “ijodiy rasm” ta'rifidan foydalaniib, uning boshlanishidan noto'g'riligi, har qanday boshqasini cho'chitadigan “ijodiy bo'Imagan”ga aylantirib qo'yishini esda tutish kerak. “Gips madaniyati”ni o'zlashtirish uyg'unlik haqidagi mumtoz qat'iy o'rnashgan tasavvurlarni shakllantiradi. O'qishning har bir bosqichida chiziqlar, relef, puxta ishlab chiqilgan tusga oid munosabatlar yordamida makonni tasvirlash usullari ochib beriladi. Kompozitsianing asoslari doimiy ravishda tushunib boriladi, “varaq” va tasvir makoni muvofiqlashtiriladi.

Agar ham o'quv, ham ijodiy rasm shartli ravishda bo'linsa va ikkalasi ham ijodiy jarayonlarni o'z ichiga olsa, demak o'quv jarayoni bemalol talabalarning badiy-estetik kompetentligini shakllantirish uchun asos bo'lishi mumkin. Uni bajarish orqali talabalar nafaqat badiy shaklni, balki mazmunni tushunish darajalari ham yaxshilanishi mumkin.

B.Boymetov (Chirchiq davlat pedagogika instituti dortsenti, pedagogika fanlari nomzodi) ham talabalar ishlari badiy mazmunni aynanlashtirish muammosi mavjudligini qayd etib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, ba'zi o'qituvchilar badiy obrazni o'zlashtirishning alohida elementlarini birinchiligi o'ringa qo'yishadi, boshqalar esa talabada tasvirni qurish yoki texnik malakalar bo'yicha muayyan ko'nikmalarni rivojlantirishni o'zlariga maqsad qilib olishadi. Akademik qalamtasvir mashg'ulotlarida shunchaki o'quv vazifalarni qo'yib, o'qituvchilar har doim ham badiy obrazning umumiyligi tuzilishidagi u yoki bu usul, ko'nikmaning mohiyatini tushuntirib berishmaydi. Shu bilan birga, dasturda o'quv jarayonini

ijodiy o'zlashtirishga doir alohida topshiriqlar va rasmda badiiy obrazni yaratish ko'zda tutilmagan. Shunday qilib, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'naliishi ba'zi talabalarida yillar davomida rasm to'g'risida ijodiy emas, faqat o'quv, tahliliy faoliyat to'g'risidagina tasavvur paydo bo'lmoqda.

Badiiy kuzatuvchanlik ko'nikmasiga ega bo'limgan va badiiy obrazni yaratishga intilmagan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilar mehnatining ijodiy boshlanishini hech qachon qadrlay olmaydi. S.Bulatov (Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori) aynan shu masala yuzasidan o'zining xavotirini bildirib o'tdi. U talabalarning o'quvchilar ishini baholash mezonlarini bilmasliklari sababli, ularning mehnatini to'g'ri baholay olmasliklarini qayd etib o'tdi. Uning fikricha, talaba o'quvchining ijodiy ishini faqat o'zida shakllangan tasviriy san'at bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asosida baholay oladi. Badiiy-obrazli fikrashni qayta o'zgartirish, emotsiyal-hissiy va qadriyatli-mazmunli darajalari uyg'unligi kabi muhim jihatlari e'tiborga olinmaydi.

Pedagoglarning bunday kuzatuvlari o'z ishlarda yaxlit kompozitsion fikrni amalga oshira oladigan, yosh avlodga badiiy-estetik madaniyatni uzatish, ularni ko'paytirish va yetkaza oladigan tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning sustligini ko'rsatmoqda.

Badiiy obrazni yaratish jarayoni ikkita teng qimmatli, hajmli va qiymatli tarkibiy asoslardan iborat bo'lib, uning bir qismi g'oyani yaratish, ikkinchisi – ushbu g'oyani asarda mujassam qilish jarayonidan iborat. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini buni qanchalik chuqur anglab yetsalar, ularning pedagogik mahoratini rivojlantirish ham shunchalik samarali, sifatli va boy ifodaga ega bo'ladi.

Tajribaviy tadqiqotning metodik tizimini tanlash ushbu ikki jarayonni bir vaqtning o'zida shakllantirishga qaratilgan bo'lishikerak. Shuniesdatutish kerakki, g'oyani yaratish jarayoni uzoq vaqt talab qilib, u insonni deyarli tug'ilgan kunidan boshlab hamroh bo'ladi. Bolalarga xos fikrlar, xayolotlar obrazliligi talabalarning badiiy g'oyalarining bosh negizi hisoblanib, ikkinchi tomoni maxsus bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallahga qaratilgan natijalarni o'z ichiga oladi. Faqtin tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'naliishi talabalarining o'quv jarayoni ikki tomonlama tavsifga ega ekanligini anglashi ularning badiiy-estetik

kompetentligining shakllanishiga olib keladi. Aynan tasviriy san'at o'qituvchisi maktab o'quvchilarini badiiy-estetik qadriyatlar dunyosiga jalb etish uchun yuqori darajadagi imkoniyatga ega bo'lgan holda, bolalarda har qanday ijodiy jarayonning muhim sifatlari bo'lgan badiiy-estetik qobiliyat va xayolot, intuitsiya, obrazli fikrashga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirishga qodirdir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtida ta'limga doir me'yoriy hujjatlarda ta'lif sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri shaxsni ma'naviy tarbiyalash maqsadida, axloqiy tamoyillar va standartlarni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida san'atning axloqiy salohiyatidan yanada kengroq foydalanish lozimligi ko'p bor tilga olinadi. Mazkur talab o'sib kelayotgan avlodning estetik madaniyatini shakllantiradigan badiiy pedagogik ta'lif va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sohasidagi strategik reja asosida yotadi va tasviriy san'at fani bo'yicha talabalarni tayyorlash sohasidagi asosiy kasbiy ta'lif dasturining maqsadi bilan bevosita uyg'undir. Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq quyidagi faoliyat turlari doirasini kengaytirish lozim: ta'limi faoliyat turi (ijtimoiy-pedagogik, o'qituvchilik); madaniy-ma'rifiy (ma'ruzalar o'qish, san'at bo'yicha mushohadalar, muzey, galereyalar, arxitektura va milliy madaniyat yodgorliklariga ekskursiyalar); badiiy ishlab chiqarish, korxonada interer, ekstergera badiiy bezak berishni nazarda tutuvchi rassom yoki matbaa ishlab chiqarishida kitob rassomi; ilmiy-tadqiqot va uslubiy.

Tadqiqot doirasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi badiiy-estetik kompetentligining uchta tarkibiy qismi aniqlashtirildi: kognitiv (estetik tarbiya sohasida kasbiy mahoratning mavjudligi); emotsiyal-qadriyatli (o'qituvchining kasbiy faoliyatga doir qadriyatli yo'naliishlari); shaxsiy-refleksiv (ichki ijobiy motivatsiyaning shakllanganlik darajasi).

Muammoga doir mavjud ilmiy izlanishlar tahliliga tayangan holda tadqiqot doirasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchining badiiy-estetik kompetentligi bu badiiy-estetik jarayonlar, shu jumladan, badiiy-estetik bilim, malaka, ko'nikma, qadriyatlar, badiiy-estetik yo'naliish va motivatsiya, badiiy-estetik vositalarni egallah, badiiy-estetik holatlarni to'g'ri idrok etish, o'quvchilar bilan badiiy-estetik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni ta'minlaydigan shaxsiy sifat va xususiyatlar majmuidir, degan xulosaga kelindi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sont Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 6-son, 70-modda.
2. Анализ и интерпретация произведения искусства (учебное пособие). – Москва: Выс.школа, 2005 г. Стр.551.
3. Ванслов В. Искусство и красота: Статьи по общей теории искусства – М.: «Знание», 2006 г. Стр.288.
4. Ильина Т.В. Введение в искусствознание (учебник для вузов). – М.: «Юрайт», 2019 г. Стр.201.
5. Волков Н.Н. Композиция в живописи. – М.: Издательство В.Шевчук, 2014 г. Стр.368.
6. Baymetov B.B. "Pedagogika olyi ta'lif muassasalarida talabalarga kompozitsiya fanini o'qitishning nazariyasi va amaliyoti". "Science and Education" scientific journal. – Uzbekistan: 2020 г. №7. 658–663-b.
7. Talipov N. "Tasviriy san'atda kompozitsiya mezonlari va vositalarini o'qitish orqali talabalarda ijodiy jarayonlarni shakllantirish". "O'zDSMI xabarları" ilmiy jurnal, 2019-y. №4. 43–48-b.
8. Кузин В.С. Психология. Учебник. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: АГАР, 1997 г. Стр.304.
9. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – М.: АГАР, 1998 г. Стр.250.
10. Abdurasilov S.F. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012-y. 232-b.

## MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA ETYUD, GAMMA, MASHQLAR ORQALI FORTEPIANO IJRO KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, O'zbekiston san'at va madaniyat instituti "Kasbiy ta'lism (5151600 – Vokal va cholg'u ijrochiligi) yo'naliishida o'tiladigan fortepiano darsini etyud, gamma va mahorat mashqlari orqali samarali o'tishiga yo'naltirish haqida so'z ketadi. Shuningdek, maqolada, talabaning texnik mahoratini oshirishga xizmat qiladigan uslubiy ko'rsatmalarining ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lism, texnik mahorat, sur'at tezligi, applikatura, mashq,akkord, arpedjio, xramatik gamma, legato.

### РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИГРЫ НА ФОРТЕПИАНО В ИСПОЛНЕНИЕ ЭТЮДОВ, ГАММ, УПРАЖНЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье раскрываются вопросы технического процесса обучения игре на фортепиано с помощью этюдов, гамм и упражнений со студентами бакалавриата Государственного института искусств и культуры по направлению «Профессиональное образование (5151600 – Вокального и инструментального исполнительства). Также в статье раскрывается значение методических указаний, служащих для совершенствования технических навыков студента.

**Ключевые слова:** самостоятельное изучение, технические навыки, темп, аппликатура, упражнение, аккорд, арпеджио, хроматическая гамма.

### DEVELOPMENT OF PIANO PLAYING SKILLS THROUGH THE PERFORMANCE OF ETUDES, SCALES, EXERCISES IN THE PROCESS OF SELF-STUDY

**Abstract.** This article reveals the issues of the technical process of learning to play the piano with the help of etudes, scales and exercises. with undergraduate students of the State Institute of Arts and Culture in the direction of "Professional education (5151600 - Vocal and instrumental performance), The article also reveals the importance of guidelines that serve to improve the student's technical skills.

**Key words:** independent study, technical skills, tempo, fingering, exercise, chord, arpeggio, chromatic scale.



Oliy ta'limga bugungi kunda sifatli mutaxassisimizda shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Aynan shu sababli, Respublikamizda Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limgi qo'llab-quvvatlash borasida izchil ishlarni amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2018-yil 3-fevraldag'i PQ-3504-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlar qabul qilindi va ular asosida ta'lim sifatini oshirish, raqamlı texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish kabi aniq yo'naliishlar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir", – deb ta'kidlagani bejiz emas, albatta. Zero, ta'lim respublikamizning kelajagini, yuksak taraqqiyotini belgilab beradigan, ijtimoiy turmushning

barcha jabhalarini isloh etishda hal qiluvchi vazifani bajaradigan tayanch tizimdir [1]. Prezidentimizning yuqorida ko'rsatilgan Murojaatnomasida 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlangani, ayniqsa, biz pedagoglar uchun shiorga aylanib, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarga munosib hissa qo'shishimizga da'vat bo'limoqda.

Yangi O'zbekistonda oliy ta'limgi yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'lim tizimiga ko'ra, talabaning umumiyo'qish yuklamasidan 60% mustaqil ta'limga yo'naltirilgan. Oliy ta'lim fanlari, xususan, musiqa ta'limi fanlarining samaradorligini oshirishda mustaqil ta'lim jarayoning o'rni beqiyos, albatta. Zero, bu jarayon ta'limgining muhim bochqichi bo'lishi bilan birga, unda talabaning bilish qobiliyati, fanga aloqador bilim va ko'nikmalari mustaqil egallash va o'zlashtirish bilan rivojlanadi. Talabani mustaqil ta'lim vaqtidan oqilonaga foydalanishga o'rgatish, mashq'ulotlarni unumli o'tishi uchun samarali uslublar orqali yo'naltirish har bir pedagog zimmasidagi asosiy va muhim masaladir. Chunki kreativ, intelektual salohiyatli, mustaqil fikrllovchi, yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj hozirgi davr talabidir.

Musiqa ta'limga talabani mustaqil ishslash amaliyotining ko'p qismi fortepiano cholg'usida

o'tishi tabiiy. Bu amaliyotning xato va kamchiliklarini nazorat qilish, zarurat bo'lganda o'z vaqtida o'qituvchi tomonidan to'g'irlab borish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Shu munosabat bilan bugungi kunda fortepiano fani mustaqil ta'lif jarayonini sifatini oshirishga qaratilgan uslubiy tizim ko'rsatmalariga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Ijrochining texnik mahorati deganda, turli janrdagi asarlarni fortepianoda erkin va tabiiy ravishda ijo etish qobiliyati tushuniladi. Texnik mahoratni rivojlantirishdan asosiy maqsad, mazkur cholg'u uchun yaratilgan asarlarda uchraydigan murakkab element (passaj,akkorddan akkordga keskin o'tish, bezaklar va b.)larni hech qanday to'siqlarsiz bajara olish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Texnik mahoratni rivojlantirishda barmoq uchlari bilan klaviaturani his qilish ahamiyatlidir. Oktava,akkord, arpedgio, passaj kabi texnik mahorat turlarini faqat faol va mustahkam barmoq uchlari bilan amalgaloshirish mumkin. Ijro nuqtayi nazaridan murakkab bo'lgan asarlarni chalish uchun ijrochining pianistik apparati (qo'l postanovkasi) to'g'ri shakllangan bo'lishi, unda mayda, ya'ni barmoq texnikasi, yirik texnika, qo'sh notali, akkordli, oktavali kabi texnik turlari yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Pedagogik amaliyotda texnik ko'nikmasi turlicha bo'lgan talabalarni uchratishimiz tabiiy. Ko'p hollarda o'quvchi-talabalarda uchrab turadigan qo'l, bilak, yelka qisilishi, barmoq uchlarning klaviaturani yaxshi his qila olmaslik, sur'at tezligida sustkashlik natijasida kelib chiqadigan turli sabablar, mo'ljallangan maqsadlarga erishishda to'sqinlik qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchitalabaga individual yondashgan holda uning ijrodagi harakatlarini e'tibor bilan kuzatib, kamchiliklarini tahlil qilib borishi zarur. Shu o'rinda asar ijrosi jarayonida beixtiyor sodir bo'lishi mumkin bo'lgan shu kabi kamchiliklarning ayrimlarini bartaraf etish yo'llari haqida aytib o'tish joizdir. Bunda:

- *qo'lni bo'sh quygan holda, ya'ni barmoqlarning ilashqoq<sup>1</sup> [2.703] holatida bir-biriga yaqin joylashgan uchtovushliklarni non legato ijo uslubida yelka, bilak (qo')dagi qisilishlarni oldini olishga ijobiylar ta'sir ko'rsatadi. Bu mashqlarda o'quvchi yelkasini bo'sh qoygan holda mustahkam barmoq uchlari bilan chalishini o'qituvchi kuzatib borishi kerak;*

- *yelka va qo'l qisilishida legato mashqi ham ancha samaralidir. Bunda, asarning mayda texnikali qismi sekin tempda, notalar bir-biriga bog'langan to'liq tovush bilan ijrosi kuzatib boriladi. Bu mashqda melodik yo'ning tovushlarini biridan ikkinchisiga silliq o'tishi mushaklarning qisilishini tabiiy ravishda bo'shashtiradi;*

- *ikkala qo'ning texnik mahoratini baravar rivojlantirib, ularning sinxronligiga erishish maqsadida, unison usulda yaratilgan etyudlarni ijo etish va etyudni o'zlashtirish jarayonida ma'lum bir mashqni ikki qo'l bilan o'rganish foydalidir.*

Musiqua asarlarda uchraydigan texnik murakkabliklarni bartaraf etish uchun imkon qadar maxsus mashqlardan ko'proq foydalinish maqsadga muvofiqdir. Ammo bu

fikr bilan texnik mashqlar hamma asarlar uchun birdek qo'llaniladi, degani emas. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, musiqiy matnning konkret jumlesi ijrosining natijadorligiga erishish uchun dastlab unga aloqador texnik mashq turini belgilab olish lozim. Masalan, punktir ritmli, to'tlikning birinchi yoki oxirgi notasiga aksent, har 3-, 6-, 9-notaga aksent kabi mashqlar mayda texnikani rivojlantirish uchun qo'llanilsa,akkorddan akkordga keskin o'tish mashqlari esa yirik texnikani rivojlantirishda qo'l keladi. "Mashqlardan natijaga erishishda ularni g'ayrat, shiddat va sport ishtiyogi bilan ijo etish kerak" [3.268], – deydi mashhur rus musiqashunosi va pedagog A.D.Alekseev. Demak, asar janriga qarab texnik mahoratni maxsus tanlangan mashqlardan muntazam ravishda foydalangan holda shakllantirish va rivojlantirish maqsadga erishishda samarali yo'l ekan. Shu o'rinda mashq turlarini Jamil Charshemovning "Prelyudiya" asari asosida ko'rib chiqishni lozim topdik.

Mazkur asar mayda texnika asosida – o'n oltilalik notalar bilan bir xilda keladigan monoton kuy yo'li o'ng qo'l barmoqlarning chalkashuviga bilaklarning qisilishiga olib keladi. Bunday vaziyatlarda va boshqa mayda texnika ko'rinishidagi asarlarda quyidagi mashqlarni qo'llash tavsiya etiladi:

**Sforzando** mashqida barmoqlarni baland ko'targan holda forte ijo etiladi. Mashqda barmoqlarning faoliygiga e'tibor qaratish zarur.



**Staccato** mashqida o'ng qo'l barmoqlarning aktivligini yo'qotmagan holda, o'rta tempda keskin tovush hosil bo'lishiga ahamiyat berish kerak.



**Punktir ritmli** mashqda esa punktir ritmni aniqlik bilan ijo etishga e'tibor qaratish zarur.



Bu mashq turini aksiga o'zgartirib, ya'ni kuchsiz hissani bir muddat "tutib" ijo etish ham mumkin.



<sup>1</sup> Ilashqoq – qattiq va epchillik bilan biron narsani ushslash.

Quyida tavsiya etilayotgan mashq turlari boyicha 1-, 4-, yoki 8-notalarini bir muddat “tutib” turib qolganlarni tezroq chalish bilan ham mahorat tezligini oshirishda yaxshi natjalarga erishish mumkin.

Four musical staves (a, b, c, d) illustrating eighth-note patterns. Each staff consists of four measures in common time (indicated by a 'C'). Staff a: eighth-note pairs (two notes per beat). Staff b: eighth-note triplets (three notes per beat). Staff c: eighth-note pairs followed by eighth-note triplets. Staff d: eighth-note triplets followed by eighth-note pairs.

Keyingi mashq turi **kuchsiz notani** aksent bilan chalish. Bu mashq turida 3- va 4-notalar urg'u bilan ijro etiladi.

Two musical staves (e, f) illustrating eighth-note patterns with accents. Each staff consists of four measures in common time. Staff e: eighth-note pairs with accents on the first note of each pair. Staff f: eighth-note triplets with accents on the first note of each triplet.

Quyidagi mashq turida har bir tovush 2, 3 martadan qaytarib chalinadi.

Two musical staves (g, h) illustrating eighth-note patterns with accents. Each staff consists of four measures in common time. Staff g: eighth-note pairs with accents on the first note of each pair. Staff h: eighth-note triplets with accents on the first note of each triplet.

Mashq bajarish jarayonida barmoq uchlari bilan klaviaturani yaxshi his qilib, mushaklarning bo'sh holati nazoratda bo'lishi kerak. Mashqlar ijrosida qo'llarning ortiqcha harakatidan bilakda paydo bo'ladicidan og'riq bo'limasa, mashqlar to'g'ri bajarilayotgan bo'ladi. Mayda texnika mashqlarida ohang dinamikasi ravonligiga alohida e'tibor berish lozim. Shuningdek, mayda notalarning tovush "tengligi"ga erishish barmoq texnikasining asosiy sharti ekanligini unutmagan holda har bir mashq turi ijrosida qo'llarni nazorat qila oladigan qulay tempda chalish maqsadga muvofiqdir. Mashqlarni bir vaqt davomida ko'p va muntazam ravishda ijro etish mahorat texnikasini rivojlanadiradi va murakkab lavhani avtomatik yodda qolishiga yordam beradi.

Talabaning bu yo'naliishdagi kamchiliklarni bartaraf etishda uning imkoniyatidan kelib chiqib, mos keladigan asarni ijro dasturiga kiritish kerak. Shu bilan birga, uning mahoratini "o'stirishda" o'qituvchi uzoqni ko'zlagan holda har bir o'quv semestriga murakkabligi

<sup>1</sup> Applikatura (lot. appliko – qo'ymoq, bosmoq) – musiqa cholg'ularini ijro qilganda barmoqlarni to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibi.

jihatidan turli darajadagi etyudlarni oldindan belgilab olishi ham muhimdir.

Musiqiy asar mazmun-mohiyatini yoritib berishda kompozitor g'oyasini ochib berish badiiy asar ustida ishflashning asosiy shartidir. O'quvchi-talaba badiiy asar mohiyatini tushunishi, asardagi murakkab elementlarni aniqlab, ularni chalish yo'llarini "loyihalab" olishi juda muhim. Bunday shartlar etyudlarga ham taalluqli. Dastlab, ijro dasturida o'rinn olgan etyudning shakli, kuy yo'llari tarkibining ketma-ketligi, qanday texnik usulga asoslanganligi kabi xususiyatlari oldindan puxta tahlil qilinadi. So'ng, qo'llarning chaqqon harakatlanishiga xizmat qiladigan ma'lum texnik mashqlar belgilanib olinadi va etyud jumla (lavha)lari ustida ishlanadi.

Alovida aytib o'tish kerakki, etyudlar tahvilida ahamiyatli bo'lgan jihat bu, **applikatura**<sup>2</sup>dir [4.18]. Nota matnida belgilangan applikaturani doimiy ravishda to'g'ri chalib, uni yod olish etyud mohirona ijrosining eng asosiy shartlaridan biridir. Faqatgina to'g'ri yod olingen applikatura orqali tez sur'atda qo'l harakatlarini to'g'ri yo'nnaltirish mumkin. Etyudlar ko'pincha mayda notalardan iborat bo'lganligi bois, tovush bir xilligi va ritmik ketma-ketligini rivojlanirish juda muhim jarayondir. Ularni maqbul ijro darajasiga yetkazib chalishda tovush tengligiga faqat eng kichik nuqsonlarni eshitma bilish qobiliyati orqali erishish mumkin. Qo'l harakati ko'nikmalari noto'g'ri bo'lganida, mushaklarning qisilishini yuzaga keltiradi. Har bir mashg'ulotdan mashg'ulotgacha ma'lum ijroviy murakkab lavha (jumla)lar ustida ishlash tufayli, bunday holatlar vaqtida bartaraf etiladi va talaba passajlardagi tovush tengligini tinglashga odatlanib, zarur ko'nikmalarni egallaydi.

K.Cherni(1791–1857) «125 упражнений в пассажах», «40 ежедневных упражнений», Ye.Timakin (1916–2004) «Ежедневные упражнения пианиста» Арпеджио, Sh.Ganon(1819–1900) «60 упражнений для беглости» каби mahoratli pianinochi va pedagoglarning mashqlarlar to'plami texnik mahoratni rivojlanirish uchun juda foydalidir. Bu to'plamlar nafaqat mahoratni oshirishda, balki ularni harakat xotirasida davomiyl qolishida katta rol oynaydi. Bundan tashqari, to'plamlarning texnik formulasi mashg'ulot yoki konsert oldidan pianistik apparatni qizdirishda ham yaxshi omildir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, texnik mashqlardan muntazam shug'ullanish yaxshi, albatta. Lekin ularni mashg'ulotlarda me'yordan ortiq, ongsiz ravishda qo'llash ijroning quruq, jonsiz, mexanik tarzdag'i ijroga olib keladi. Demak, mashqlarni ham xuddi musiqiy asarlar singari har bir tovush, jumlalarni tinlash orqali ifoda yetish zarur.

Musiqiy asarlarni maromida ijro etish uchun talaba (ijrochi) gamma va ularning turlari (akkord, arpedgio, xramatik gamma va b.)ni avvaldan ta'limning dastlabki bosqichlarida egallagan bo'lishi kerak. Gammalar majmuasini o'z vaqtida o'rganish nafaqat texnik mahoratni oshirishga, balki asarlarni tezroq o'zlashtirib olishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir. Chunki gamma majmuasiga oid arpedgio turlari,

xromatizm, qo'shnotali gammalar, akkord turlari kabi elementlar jahon klassik asarlardan tortib, zamonaviy musiqiy asarlarning deyarli barchasida keng qo'llaniladi. Gammalarda ham mashqlarning boshqa turlariga qoyiladigan talablar doirasidan kelib chiqib, ularning har bir notasiga befarq bo'lmasdan, ularni yaxshi "eshitib" chalish muhim. Bundan tashqari, qo'l apparatini, ohang yo'lini boshqara oladigan qulay tempni belgilab olish, texnik mahorat mashqlarining ijrosidagi samarali natijaga erishishning asosidir. Mashqlarda ong va harakat doimo uyg'un bo'lsa, o'zlashtirilgan texnik uslublar shunchalik maqsadga muvofiq bo'ladi [5. 5].

Taniqli xorijiy musiqachi va mashhur pedagoglar G.Neygauz, S.Feynberg, A.Goldenveyzerlarining fikricha, talabalarning mashg'ulotlarima'lummaqsaqda yo'naltirilgan bo'lishi kerak. "Mashgulotlarning aniq maqsadga yo'naltirilganligi mustaqil ta'limgarayonining muhim shartlaridan biridir" [6.5].

Yuqorida fikrlarni inobatga olgan holda shuni aytish mumkinki, fortepiano fanining mustaqil ta'limgarayonida talaba maqsadni aniq va to'g'ri belgilab olishi, konkret vaziyatga yo'naltirilgan uslublardan oqilona foydalanishi, uning mashg'ulotlarini samaradorligini oshirib, ijodiy izlanishga undaydi.



#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. [https://aza.uz/uz/posts/talim-sifatini-oshirish-yangi-ozbekiston-taraqqiyotining-yakkayu-yagona-togrigoldir\\_437457](https://aza.uz/uz/posts/talim-sifatini-oshirish-yangi-ozbekiston-taraqqiyotining-yakkayu-yagona-togrigoldir_437457)
2. Даль В.И. Толковый словарь русского языка (современная версия). – Москва: «Оксмо», 2003 г. Стр.703.
3. Алексеев А.Д. Методика обучения игре на фортепиано. – М.: «Музыка», 1978 г. Стр.268.
4. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 18-b.
5. Маркионова Н.Ф. Самостоятельная работа над фортепианным репертуаром. Методические рекомендации для студентов заочного отделения. 2018 г. Стр.5. <http://surl.li/gyyfg>
6. Свистун Ю.М. Проблема самостоятельной работы учащихся фортепианного класса в отечественной музыкальной педагогике. // Научный журнал, КубГАУ, №119 (05), 2016 г. Стр.5.

## **ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA XOTIN-QIZLARNING ROLI**

**Annotatsiya.** Maqolada, xotin-qizlar va gender tenglik masalalarida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishning dolzarbligi va sohada amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tahliliy fikrlar bayon etiladi. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarning ta'lif-tarbiya masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgani, ularni ijtimoiy himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan samarali ishlar xususida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** oila, xotin-qizlar, ilmiy faoliyat, ijtimoiy himoya, gender, salohiyat, ta'lif, tahlil.

## **РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НАУКИ**

**Аннотация.** В статье освещается актуальность научной деятельности по проблемам женщин и гендерного равенства и выводы аналитических исследований по работе, проводимой в данной области. Уже сегодня то, что глава нашей страны уделяет внимание вопросу образования женщин на уровне государственной политики, высказываются замечания по поводу проводимой эффективной работы по улучшению их социальной защиты и условий труда.

**Ключевые слова:** семья, женщины, научная деятельность, социальная защита, гендер, потенциал, образование, анализ.

## **THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE**

**Abstract.** The article highlights the relevance of scientific activities in women's and gender equality issues and the conclusions of analytical research on the work being carried out in the field. Even today, the fact that the head of our country pays attention to the issue of women's education at the level of state policy, comments are expressed about the effective work being carried out to improve their social protection and working conditions.

**Key words:** family, women, scientific activity, social protection, gender, potential, education, analysis.



XXI asr ta'lif tizimi va ilm-fan kishilik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan global ma'naviy qadriyatlar, o'ziga xos ijtimoiy mentalitet va dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilishi munosabati bilan faqat o'qimishli, ma'naviy jihatdan yetuk kishilargina mavjud muammo va ixtiologlarni har qanday tajovuz va urushlarsiz yechishga qodir jamiyatni shakllantirish mumkinligini talab qilmoqda. Albatta, jamiyatni intellektual tarzda rivojlantirish – bu ijtimoiy taraqqiyot asosini tashkil qiladi. Bu holsiz ilmiy-teknik taraqqiyotga erishishning imkonii yo'q darajada bo'llib, u insonning global xarakterdagi manfaatini himoya qilmaydi. Jamiyat tadrijiy taraqqiyoti intellektual salohiyatning asosi shubhasiz ma'naviy barkamollik hisoblanadi.

Mamlakatimizda ayolga bo'lgan munosabat o'z tarixiy ildizlariga ega. Ajodolarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo'lishga da'vat etishgan. Abdulla Avloniy: "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar", – deb yozgan edi [1].

Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ongu tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi, ta'lif-tarbiyasini takomillashtiruvchi xilqat – ayoldir. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, hurmat-ehtiromni davlatning ularga bo'ladigan munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab,

ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va oliyanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi. Ayolsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular jamiyatning yetakchi kuchlaridir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo'lmastigiga to'la ishonch hosil qilamiz.

"Ayollarни izzat-ikrom qilish, ulug'lash, ardoqlash, og'irini yengil qilish ota-bobolarimizdan qolgan muqaddas udumdir. Ma'lumki, muqaddas Qur'oni karimning eng katta suralaridan biri – "Niso", ya'ni "Ayollar" deb ataladi. Alloh taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi va bu ilohiy so'zlar zamirida, albatta, teran hikmat mujassam" [2], – deydi davlatimiz rahbari o'z nutqida.

"Ayol kishiga ayol deya, ojiza deya munosabat ko'rsatilishiga Sharqda tabiiy hol, deya qaraladi. Albatta, bu, ayol xilqatining niyoyatda nozikligiga ishora aslida. Lekin bugun tobora global lashib, inja iltifotlardan yiroqlashib borayotgan dunyoning "ojizalar" yelkasida erkaklar bilan teppa-teng "yuk" ortayotgani ham ayni haqiqatdir. Zero, bu hol hayot atalmish ajab hodisaning talabiga ham aylanib ulgurdi" [3]. "Bugungi kunda Yangi O'zbekiston strategiyasi xalqimizni yorug' kelajakka chorlab va yangilanishga safarbar qilib, umumiyl maqsadlar yo'lda birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanib bormoqda" [4.14-b.]. "Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'lgan

*xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro'yobga chiqarish yo'lida amaliy harakatlarga undab keldi” [5.16-b.].*

Shu bois, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot darajasiga baho berishda gender tenglikni ta'minlash borasida erishilayotgan natijalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zotan, gender tenglik har bir insonning asosiy huquqlaridan bo'lib, jamiyatni barqaror rivojlanishida muhim o'r'in tutadigan mezondir. Bugun xotin-qizlar huquqlari masalasi borasidagi muammolar jahon hamjamiyatini ham diqqat e'tiboridadir.

Yaqin yillar mobaynida O'zbekistonda ayollarga bo'lgan munosabat, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida ta'kidladi: “*Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi*” [6].

Darhaqiqat, ayollarning o'rnini oila qo'rg'onidan tortib, deputat kursisigacha ko'rishimiz mumkin. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarimizning baxtli yashashi uchun, ularning huquq hamda erkinliklarni ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiylarni hamohang tarzda bajarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilyapti. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham xotin-qizlarning barcha sohalarda teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. Hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaati hamisha ustuvor bo'lib kelmoqda. Bu borada yurtimizda oxirgi yillarda gender tenglikni ta'minlash, davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha dadil qadamlar qo'yildi.

Zero, jamiyatimizda oila va ayollar masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, doimo e'tiborga molik masala sifatida qaralmoqda. Davlatimiz rahbarining: “*Ayollarni davlat va jamiyat hayotiga keng jalb etish islohotlor samaradorligi hamda iqtisodiy o'sishini ta'minlashi – amaliyotda o'z isbotini topgan haqiqat. Jinslar tengligiga erishish mohiyatan insonga shaxs sifatida namoyon bo'lishga halal beruvchi barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va bartaraf etishdan iborat*”, – degan so'zlari bizning oldimizga katta mas'uliyat yuklaydi [7.63-b.]. Yuqoridagi takliflardan kelib chiqib, bu masalada tamoyil va yo'nalishlar “*Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida*”gi 562-tonli O'zbekiston Respublikasi Qonunida mujassamlashgan [8].

Yangi O'zbekiston jamiyatining madaniy taraqqiyoti, davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan davlatlar orasida tutgan o'rni va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini teran anglashi bugungi kun xotin-qizlariga bog'liqdir. Shu bois, jamiyat tayanchi bo'lgan ayollarga e'tibor kuchaymoqda. Bugungi kunda barcha sohalarda yetuklikka erishib kelayotgan opa-singillarimiz

chinakam To'marislар avlodи ekanini alohida namoyish qilishmoqda.

“*Buyuk bobokalonimiz Amir Temur bir necha yillik safarlarda bo'lgan paytlari saltanat barqarorligini ta'minlashga Bibixonimning qo'shgan hissasini eslasak, fikrimiz yanada asoslanadi*” [9], – deya ta'kidlaydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Z.Akromova.

Ayolning ilmli bo'lishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh-urug'lari va qolaversa, butun jamiyatning ilmli, madaniyatli bo'lishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda Xitoy faylasufi Konfutsiy aytganidek: “*Erkak ilmli bo'lsa – nari borsa bir kishi ilmli bo'ladi, ayol ilmli bo'lsa – millat ilmli bo'ladi*” [10.48-b.]. Demak, qadimdanoq ayollarning ilmli, oqila, fozila bo'lishidan butun jamiyat manfaatdor bo'lib kelgan.

Yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e'tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta'lim va hatto, harbiy sohada xizmatlari beqiyos.

Yurtimizda xotin-qizlarning mavqeini yuksaltirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda ularning bilimlarini kuchaytiish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, xotin-qizlar oilani, jamoani, jamiyatni, millatni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Shu o'rinda, ayolni har tomonlama avaylab-ardoqlash, ularning izzat-hurmatini joyiga qo'yish borasida mamlakatimizda boy tajriba to'planganligini ham aytib o'tish joiz.

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar va gender tenglik masalalarida ilmiy faoliyatning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, ta'lim va ilmiy salohiyatni kuchaytirish, ehtiyojmand oila qizlari uchun davlat granti yiliga 800 taga oshirib boriladi (bunda, ehtiyojmand oilalar xotin-qizlarni muhandis texnik, injeneriya, energetika, axborot texnologiyalari sohasiga yo'naltirishga e'tibor qaratiladi):

- 3 yoshga to'lmagan farzandi bo'lgan talaba qizlarga masofaviy ta'lim olish imkoniyati yaratiladi;
- qishloq joylarda iqtidorli qizlar uchun “Hokim stipendiyasi” joriy etiladi.

Bu ham yurtimizda ayolga ehtirom va e'tiborning yaqqol ifodasidir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “*Ayollarimiz hayotiy muammolarni, oila va mahalladagi o'tkir masalalarni, ularni bartaraf etish yo'llarini jamiyatning tomir urushini boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladilar. Ular o'zlarining mehribonligi, yuksak mas'uliyat tuyg'usi, mehnatsevarligi bilan barchaga o'mak bo'la oladilar*” [11.parliament.gov.uz].

E'tirof etish joizki, oilaning ma'naviy rahnamosi – ayoldir, onadir. Donolar: “*Ayol bir qo'li bilan beshikni, bir qo'li bilan dunyoni tebratadi*”, – deb bejiz aytmag'anlar. Chunki ayol oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi barobari, jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lmog'i lozim.

So'nggi yillarda ayollarga turli lavozimlar ishonib topshirilmoqda. Bizning ayollarimiz bu borada ishonchni oqlayaptilar. Milliy parlament tarixida

birinchi marotaba ayol kishi Tanzila Kamalovna Norboyeva Oliy Majlis Senati Raisi lavozimiga saylandi. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (OMBUTSMAN) etib, Feruza Eshmamatova tayinlandi.

Vatanimizning oliy mukofoti "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan ayollarimiz bor. Jumladan, bunday yuksak maqomga erishgan O'zbekiston xalq artisti Munojotxon Yo'lchiyeva, fermer Lola Murotovalarning jasoratlari tafsinga loyiq. Yurtimizdagi 11 ta xalqaro aeroportni o'z ichiga olgan "Uzbekistan Airports" AJga rahbar etib Ra'no Jo'rayevaning munosib topilgani, o'zbek oilasida kamolga yetgan Aziza Shonazarovaning Kolumbiya universiteti professori maqomini birinchilardan bo'lib olgani hamda yana bir hamyurtimiz Nigora Hakimovaning Oksford universitetining islomshunoslik markazida o'zbekistonlik ilk tadqiqotchi ayol bo'lgani barchamizni g'ururlantiradi. Shuni ham unutmaslik kerakki, siyosiy maydonda qancha xotin-qizlarimiz ko'p bo'lsa, bu keyingi avlod ong-shuurida ham havas hissini uyg'otadi. Bu orqali qizlarimiz ta'limga olishga, ilmiy salohiyatini oshirishga harakt qiladilar. Bu degani, avvalo, siyosiy lider ayollarimiz o'z faoliyatini yanada kengroq targ'ib qilishi kerak bo'ladi, degani. Ta'kidlash lozimki, "O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'tasida 37-o'rning ko'tarildi. Holbuki, bundan 5 yil avval biz bu borada 128-o'rinda edik" [12.parliament.gov.uz:]. Yangi O'zbekistonda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida Prezident farmoni qabul qilindi [13]. Kelajakda ushbu qo'mita gender madaniyatining tub o'chog'i sifatida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan oilalar va xotin-qizlar manfaatlari uchun xizmat qiladi. Davlatimizda tashabbuskor va tashkilotchi ayollarimiz tuman va shahar hokimi lavozimiga tayinlanib, bugungi kunda olti nafar hokim sifatida faoliyat yuritmoqdalar. Shaxsan davlatimiz rahbari yurtimiz ayollarini ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishida boshchilik, g'amxo'rlik, e'tibor qilayotganliklari bu – baxtli ayol, baxtli ona, baxtli kelajak uchun g'amxo'rlikdir.

Chunochi, xotin-qizlar ta'limi va ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratib berilyapti. Sababi, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar va gender tenglik masalalarida ilmiy faoliyatning ahamiyatini xalqimiz yaxshi qabul qilmoqda va samarasiga ishonch hosil qildi. Bu borada qabul qilingan qaror, farmonlar esa, sohani yanada taraqqiy ettirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faoliagini oshirish bo'yicha Milliy dastur va Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Mazkur sohada ham amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'p. Ayniqsa, olima va ziyoli ayollarimizning safini oshirish doimo millatimizning dolzarb va kun tartibidan tushmaydigan masalalardan ekanligi ayondir. Masalan, birgina ta'limga sohasini olaylik.

Ta'limga sohasi: jami 1158 200. Ayollar 867 700/ 75 % Zaxiradagi 15668 nafar ayolni rahbarlikka tayyorlash

- 11, 3 ming nafari tuman (shahar)larda,
- 2,4 mingi respublikada o'qitiladi;
- 600 dan ortiq o'quv-seminar tashkil etiladi;
- yuqori natijaga erishganlar milliy kadrlar zaxirasiga olinadi;

- davlat boshqaruvi akademiyasida xotin-qizlar uchun 30 foiz kvota joriy etiladi.

Respublikamizda 151 ta oliy ta'limga muassasalarini mavjud bo'lib, ulardan 104 tasi davlat, 47 tasi nodavlat hamda xorijiy oliy ta'limga muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Hozirda Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi tizimida mehnat qilayotgan hodimlarning 41 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, ayni paytda tizimda xotin-qizlar orasida 879 nafar fan doktorlari, 2208 nafar falsafa doktori (PhD), 833 nafar professorlar, 2024 nafar dotsentlar barqaror faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, 4 nafar rektor, 56 nafar prorektor (direktor o'rinnbosari), 199 nafar fakultet dekani va dekan o'rinnbosari lavozimlarida ayollarimiz rahbarlik qilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi 402-son qaroriga asosan 2020–2021 o'quv yilida xotin-qizlar uchun – 940 ta davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari ajratildi.

"Qizlar uchun maxsus stipendiya". Maxsus stipendiya talaba-qizlarga oliy ta'limga muassasalarida umumiy shartlarda belgilangan stipendiya saqlab qolning holda stipendiyaning bazaviy miqdorida qo'shimcha tarzda oyma-oy to'lanadi. Mazkur stipendiya sohiblari oliy ta'limga muassasalarining stipendiya komissiyasi tomonidan belgilangan mezonlar asosida aniqlanadi [14.2]. Xalqimiz yangi O'zbekistonni qurish, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishdek ezgu va ulug'vor maqsad yo'lida bormoqda. Bu jaryonlarda mamlakatimizda gender tenglik va xotin-qizlarimizning ta'limga olishini ta'minlash, ilmiy solohiyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, albatta, o'z samarasini beradi. Zero, jamiyatda xotin-qizlarning savodxonligini ta'minlashdan maqsad: xalqimiz demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatni barpo etishdek niyatlarini ro'yobga chiqarish, yurt taraqqiyotini yuksaltirishdir. Shubhasiz, ushbu maqsad sari tashlangan har bir dadil qadam farovonlikka erishishda muhim poydevor bo'ladi. Ammo negadir bu sohada ham fundamental, ya'ni qizlarimizning yoshlik davridan ayrim muammolar hamon uchrab turadi.

"Birgina ta'limga sohasini oladigan bo'lsak, bizda qizlar va o'g'il bolalarning bilim olishlari, kasb tanlashlari bo'yicha kelajaklarini ta'minlashda farqlar bor edi, hali ham bunday dunyoqarash uchrab turibdi.

To'g'ri, hamma bolalar matabda o'qitiladi. Biroq keyinchalik kasb tanlash, oliy o'quv yurtida tahlis olishga kelganda, ko'proq e'tibor va ustunlik o'g'il bolaning ta'lif olishiga, uning uchun barcha sharoitni yaratishga qaratiladi. Chunki ba'zi insonlarda: *faqat o'g'il bolaga bilim berish kerak, o'qitish kerak, chunki u bizning boquvchimiz, degan qarashlar ustunlik qiladi.* Qiz bolaga kelganda, bu boshqacha tus oladi. Maktab ta'limi majburiy bo'lgani bois o'qiydi. Ammo keyin: "Bu birovning xasmi, kerak bo'lsa turmush o'rtog'i boqib oladi", degan tushunchaga urg'u beriladi. Vaholonki, qiz bola oliy ma'lumotli bo'lsa, qanchalik bilim va salohiyat olsa, buni kelgisida farzandlariga ham "yuqtiradi", har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas'uliyat bilan yondashadi. Yurtning kelajagi esa mana shunday dunyoqarashga ega onalar tomonidan yaratiladi" [15], – deydi senator T.Narbayeva.

Shu bois, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar va

gender tenglik masalalarida ilmiy faoliyatning ahamiyatini yanada oshirishga va sohada samarali faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarimiz safini yanada kengaytirish masalalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz va quyidagi takliflarni o'rta ga tashlaymiz:

- ayollarning ilmiy bo'lish darajasini oshirishni ta'minlashda targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada chuqurroq olib borish;

- mahalla fuqarolar yig'inida yo'lga qo'yilgan kasb-hunar o'rgatish tizimini sifatlari tashkil etish va bu yo'nalishda real hisobotlarni shakllantirish;


- mahalla fuqarolar yig'inida olima ayollar ishtirokida treninglar tashkil etish va unga aholini qiziqtirish;

- ishsiz, ammo iqtidorli hamda yuqori ilmiy malakali xotin-qizlarni davlat ishi bilan ta'minlash;

- fan-ta'lim sohasida xotin-qizlarning innovatsion g'oyalari, loyiha va ishlasmalarini joriy etishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash va OAVda targ'ib qilish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://mininnovation.uz/ru/news/post-372>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil, 8 mart.
3. G'ulomova D. "Yosh kuch" jurnali, 2022-y. №1 / 18-b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi: – T.: "O'zbekiston", 2021-y. 464-b.
5. O'sha manba. 16-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2020-yil, 24-sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtaida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2021-y. 278-b.
8. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil, 3-sentyabr.
9. Akromova Z. "Ayol bo'lish sharaf, o'zbek ayoli bo'lish yanada sharaf!". "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2020-yil, 10-mart. №14
10. Konfutsiy. Sultonlarga nasihat (risola). История китайской философии. – Москва: 1989 г. Стр. 48.
11. <https://parliament.gov.uz/uz/events/committee>
12. [parliament.gov.uz](https://parliament.gov.uz)
13. <https://lex.uz/ru/docs/PF-81-son>
14. <https://gender.edu.uz/>
15. Narbayeva T. O'zbekistonlik xotin-qizlar ilm, ma'rifatga yo'g'rilgan islohotlar, ezgu ishlar yo'lida ona Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shmaqda <https://strategy.uz/index.php?news=879>



V- **BO'LIM**

# KUTUBXONA

To'ychi BAYTURAYEV,  
O'zDSMI "Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik"  
kafedrasи mudiri, dotsent, pedagogika fanlari nomzodi

## O'ZBEKİSTONDA BİBLİOGRAFİK FAOLİYATNING RIVOJLANISHINI O'RĞANGAN MUTAXASSİSLAR

**Annotatsiya.** Maqolada, O'zbekiston bibliografiyasining tarixi, shakillanishi, rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan mahalliy olimlar Sh.M.Shamsiyev M.M.Turopovlarning kutubxona ishi va bibliografik faoliyatni o'rganishdagi tadqiqotchilik, pedagogik faoliyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, institutning shu mutaxassisligida ta'lim olayotgan talabalarga va shu sohada ularning ishlarini davom ettirishga qiziqqan yoshlarga mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** bibliografiya, nashrlar, kundalik, retrospektiv, tavsif.

## СПЕСИАЛИСТЫ ИЗУЧИВШИЕ РАЗВИТИЕ БИБЛИОГРАФИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В статье отечественные ученые, внесшие вклад в историю, становление и развитие библиографии Узбекистана Ш.М.Шамсиев М.М.Исследование Туропова библиотечного дела и библиографической деятельности посвящено изучению педагогической деятельности и ориентировано на студентов, обучающихся по данной специальности института и молодых людей, заинтересованных в продолжении своей работы в этой области.

**Ключевые слова:** библиография, публикации, дневник, ретроспектива, рекомендация.

## SPECIALISTS WHO HAVE STUDIED THE DEVELOPMENT OF BIBLIOGRAPHIC ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

**Abstract.** In the article, domestic scientists who contributed to the history, formation and development of the bibliography of Uzbekistan Sh.M. Shamsiev M.M. Turopovs study of librarianship and bibliographic activity is devoted to the study of pedagogical activity and is focused on students studying in this specialty of the institute and young people interested in continuing their work in this area.

**Key words:** bibliography, publication, journal, retrospective, recommendation.



O'zbekiston bibliografiyasining shakillanishi va rivojlanishini o'rgangan olimlar, pedagogika fanlari nomzodlari Sh.M.Shamsiyev M.M.Turopovlarning hisoblanadi. 1965-yil institutni tamomlagan Sh.M.Shamsiyev mutaxassislik kafedrasida o'qituvchi lavozimida ish boshlagan. Yosh mutaxassis kasbga bo'lgan qiziqishi orqali kafedra o'qituvchilarini orasida tez o'z o'rniaga ega bo'ldi. U 1970-yil Moskva davlat madaniyat institutining aspiranturasiga o'qishga qabul qilinadi. "Inqilobdan oldingi Rossiya vaqtli matbuoti bibliografiyasining manbashunoslik va funksional tahvilil (1702–1917-yillar)" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasini taniqli olim A.N.Verevkina rahbarligida amalga oshirgan. Domla ikkala tilda, ya'ni rus va o'zbek tillarida erkin faoliyat yurita olgan. Chunki uning otasi taniqli tilshunos olim bo'lgan.

1977-yilda Moskva Davlat madaniyat institutida "Inqilobdan oldingi Rossiya vaqtli matbuoti

bibliografiyasining manbashunoslik va funksional tahvilil (1702–1917-yillar)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Dastlab olimning hamkasbi bilan birgalikda "O'zbekistonda kundalik davlat hisob registatsiya bibliografiyasi" (1984-y.) o'quv qo'llanmasi chop etidi.

Sh.M.Shamsiyev 1990–2005-yillari "Bibliografiya" kafedrasи mudiri, 1995–2001-yillar "Kutubxona ishlari" fakulteti dekani lavozimlarida faoliyat yuritgan ustoz hisoblanadi. Olim "Ijtimoiy-gumanitar fanlar bibliografiyasi", Ijtimoiy siyosiy adabiyotlari bibliografiyasi" fanlari bo'yicha o'quv qo'llanmalarini maydonga keltirdi.

1966-yilda M.M.Turapov ham institutni imtiyozli diplom bilan bitirgach, institut kafedrasida mehnat faoliyatini boshlaydi. Uning asosiy qiziqishlari XIX asr ikkinchi yarmida va XX boshlarida O'zbekistondagi

bibliografiya ishining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini o'rganishga qaratilgan. O'zbekiston bibliografiyasining shakllanishi, o'lkashunoslik adabiyotlarini o'rganish va ularni bibliografiyasini shakllantirishdan boshlanganligini chuqur o'rgangan olimlardan biridir.

Pedagogika fanlari nomzodi dotsent Musa Mamatovich Turopov bu davr bibliografiyasini o'rganishda o'lkamiz bibliografiyasiga katta hissa qo'shgan bibliograflar V.M.Mejov, N.V.Dimitrovskiy, A.A.Semenov, N.A.Burov, Ye.K.Betger, A.V.Penkov, O.V.Maslova, M.P.Avsharova kabi yirik bibliograflarning va boshqa qator mutaxassislarning mamalakatimiz adabiyolarini bibliografiyalash bo'yicha turli manbalarini mustaqil o'rgangan birinchi mahalliy olimlardan hisoblanadi. Mutaxassislik kafedrasiga shu davrda mudirlik qilgan tarix fanlari doktori, professor G.N.Chabrov M.M.Turapovning bu faoliyatini yaxshi baholagan bo'lib, uni ilmiy ishga yo'naltirishga katta e'tibor bergan. G.N.Chabrov mamlakatimiz madaniyati, san'at turlari rivojlanishi bo'yicha kundalik adabiyotlar bibliografiyasini tuzgan mutaxassis bibliograflardan biri hisoblanadi.

Leningradlik olimlar ilmiy ishdagi har bir fikrga, tadqiqotchining ilmiy tahlillariga, o'rganilgan manbalariga, berilgan tavsiyalariga aniq dalillar bilan munosabatlarning bo'lismeni talab qilishganligini hisobga olsak, Musa Mamatovich Turopov barcha talablarni to'g'ri tushinib ishni bajara olgan, deya olamiz. 1974-yil Musa Mamatovich Turopov Leningrad davlat madaniyat institutining kutubxonashunoslikk va bibliografiya ishlaridan ilmiy daraja beruvchi kengashda "O'zbekiston haqidagi ababiyotlar bibliografiyasining shakllanishi va rivojlanishi" mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilgan.

1974-yil O'zbekistonda Toshkent davlat madaniyat instituti ochilishi bilan "Kutubxonachilik" fakulteti va uning tarkibidagi kafedralar bu institut tarkibiga o'tkazilgan. Musa Mamatovich Turopov keyingi

ilmiy faoliyati shu institut bilan bog'langan. U paytda institutning rektori bo'lgan A.P.Qayumov institutda mutaxassislik kafedralarida ilmiy ish qilishga iqtidori bor yoshlarning ishga qolishiga katta e'tibor bergan. Musa Mamatovich Turopov biz institutda o'qigan 1974–1978-yillarda o'z ilmiy ishini endi himoya qilib kelgan iqtidorli yosh mutaxassislardan biri edi. Ilmiy ish himoyasidan keyin domlaning Toshkentda "O'zbekiston haqida bibliografiya 1852–1970-yillar" mavzusida o'quv qo'llanmasi nashrdan chiqarilgan. Musa Mamatovich bu ishda O'rta Osiyo respublikalari haqidagi 1852–1935-yillarda chop etilgan bibliografik ishlanmalarning material, manbalarning ilmiy ahamiyatini ochib bergan, deb olimlar tomonidan baholangan. Musa Mamatovich mazkurko'rsatkichdag'i O'rta Osiyodagi davriy va seriyali nashrlarning mazmunini, materiallarni bibliografiyalash metodikasi va o'sha vaqtdagi bibliografiya ishini tashkil qilish haqidagi ma'lumotlar ham ilmiy tahlil qilgan.

Shu davrda Musa Mamatovich respublikada bibliografik qo'llanmalarni maxsus hisobga olish, ya'ni bibliografiyaning paydo bo'lishi va buning respublika aholisida bibliografik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sirini ham alohida tahlil qilgan, deb aytishimiz mumkin.

M.Turopovning 1980–1990-yilda ko'plab o'quv-uslubiy va o'quv qo'llanmalari nashr qilingan bo'lib, ularda bibliografiyaning nazariy va amaliy masalalari tahlil qilib berilgan. Umuman shu yillarda bibliografiyaning nazariysi bo'yicha Moskava, Leningrad va boshqa qator shaharlar olimlarining ishlariga domlamiz o'z munosabatini bildirgan. Shuningdek, mamlakatimizda bibliografik faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning nashr va adabiyotlarini bibliografiyalash bo'yicha uslubiyatini tahlil qilib bergan. Uning O'zbekistonda bibliografiya fanining nazariy va ilmiy-metodik masalalari yoritilgan ko'plab maqolalari konferensiya materiallarida va vaqtli matbuatlarda nashr qilingan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Байтураев Т.Д. Библиографическая деятельность доктора исторических наук, профессора Г.Н.Чаброва. Румянцевские чтения. 2022 г. Материалы научно-практической конференции (19–21 апрель 2022 г.). – Москва: Пешков дом, 2022 г. Стр.56–61.
2. Байтураев Т.Д. Становление и развитие библиотечного образования в Узбекистане. Библиотека. Культура. Общество: материалы II между нар. науч. Pract. конф. (город Орёл, 17-18 марта 2022 г.). – Орёл: Орловский гос. ин-т культуры, 2022 г. Стр.16-21.
3. Mamatraimov X. O'zbekiston bibliografiyasining tadqiqotchisi: (M.I.Turopovning 70 yilligi). Kutubxona-UZ. 2010-y. № 2. 37-b.

## KUTUBXONALAR VA MADANIYATLARARO MUNOSABATLAR: MUAMMONING BA'ZI BIR JIHATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, globallashuv davrida kutubxonalarining madaniyatlararo munosabatlarini rivojlantirish imkoniyatlari va o'zaro aloqalarining yangi yo'llari yoritilgan. Ushbu muammo bo'yicha kutubxonashunos olimlarning fikr-mulohazalari sharhlangan.

**Kalit so'zlar:** kutubxona, institut, globallashuv, kommunikatsiya, axborot.

## БИБЛИОТЕКИ И КУЛЬТУРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ: НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМЫ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается деятельность библиотеки, которая призвана в эпоху глобализации взаимодействовать и находить новые пути сотрудничества в межкультурном пространстве. Дан обзор работ библиотековедов по освещаемым проблемам.

**Ключевые слова:** библиотека, институт, глобализация, общение, информация.

## LIBRARIES AND CULTURAL RELATIONS: SOME ASPECTS OF THE PROBLEM

**Abstract.** This article examines the activities of the library, which is designed in the era of globalization to interact and find new ways of cooperation in the intercultural space. A review of librarians in the studied problems is given.

**Key words:** library, institute, globalization, communication, information.



Mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar kutubxonalarining jamiyatdagi o'rni va rolini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ular yangi maqsad va vazifalarni ilgari surmoqda, yangilikka ehtiyoj tug'dirmoqda, foydalanuvchilarning turli guruuhlariga xizmat ko'rsatishning yangi shakl va usullarini, ularning faoliyat ko'rsatishining yangi yo'l va vositalarini izlashga va atrof-muhit bilan yangi munosabatlarni tashkil etish muammolarini o'rganishni talab etmoqda [1].

Davlatlararo va madaniyatlararo o'zaro aloqalar faollashib bormoqda. Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining progressiv rivojlanishi natijasida, odamlar dunyoning qaysi qit'asi yoki qismida joylashganligidan qat'i nazar, muloqot qilishlari mumkin. Inson faoliyatining madaniyat, fan, sport, biznes, tibbiyot va boshqa sohalari barcha chegaralarni kesib o'tdi. Shuning uchun biz boshqa madaniyatlarni va ularning qarashlarini hurmat qilishni va tushunishni o'rganishimiz kerak. Matbuotdagि chiqishlar va hayotiy vaziyatlar globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot masalasining ahamiyatini ortib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Kutubxonalar madaniy qadriyatlarni saqlovchi va yetkazib beruvchi ijtimoiy institut sifatida ushbu masalada asosiy rolni o'ynaydi. Global axborotlashtirish, axborotli jamiyatga o'tish kutubxonalarini asosiy faoliyatlarida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Kutubxonalarining asosiy turlari global axborotlashtirish sharoitiida ham bir xil bo'lib qoladi, lekin ular orasidagi chegaralar, vazifalar aniq bo'lib bormoqda. Globalashuv

davrida kutubxonalarining madaniyatlararo munosabatlarini rivojlantirish imkoniyatlari va o'zaro aloqalarining yangi yo'llari kutubxonashunos olimlar: Ryabov, M.A.Volodin, B.F.Paus, I.I.Astafyeva, O.N.Grushevitskaya, T.G.Motulskiy, R.S.Geniyeva, S.A. Yezova tomonidan o'rganilgan va fikr-mulohazalar bildirilgan. Maqolada ularning ushbu muammo bo'yicha asosiy fikrlari sharhlangan. Kutubxonalarining boshqa jamoatchilik institutlari bilan o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyati ham o'zgarmoqda. Kutubxonalar bilan yaqindan muloqotga kirishayotgan jamoatchilik institutlari sonini ko'payish tendensiyasi kuzatilmoqda [2].

Hozirgi davrda kutubxonalar madaniy qadriyatlarni saqlovchi va yetkazib beruvchi ijtimoiy institut sifatidagi maqomi o'zgarib bormoqda. Bu Internet orqali axborot tarqatishning tobora ortib borishi bilan xarakterlanadi. Bu esa "Kitobxon-kutubxona" tizimida tubdan yangi aloqa shakllarining shakllanishiga sabab bo'limoqda. Ushbu progressiv o'zgarishlar tabiiy ravishda kutubxonalaridan foydalanuvchilar uchun kutubxona-axborot xizmat ko'rsatishda yangi yondashuvlarni yaratilishini talab qiladi [3]. Ayni damda kutubxonalarda globalizatsiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmat turlari: interaktiv xizmatlar ko'rsatish, hujjatlarni elektron shaklda yetkazib berish, axborot saytlari, portallar, elektron kutubxonalar yaratish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Uzoq davrlar mobaynida kutubxonaning "ma'rifat" modeli uning o'ziga xos xususiyatlari va tavsiflari kutubxonaning jamiyatdagи mavqeini klassik, an'anaviy tushunishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy

vazifasi, ma'rifiy maqsadlar uchun foydalanishga mo'ljallangan ma'lum bir nashriyot mahsulotlarini saqlash bo'lgan. Axborot va kommunikatsiya vositalarini rivojlanishi hamda jamiyatda yangi bilimlarni shakllanishi natijasida, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish vazifalarida ham yangilanishlarga olib keldi.

Ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarining globallashuvivakommunikatsiyasohasidagitechologik inqilob zamonaviy kutubxonani asrlar davomida hujjalarda tasdiqlangan ma'lumotlarni toplash uchun emas, balki bu aloqalarni o'zlashtiradigan odamlarning fikrlashini to'liq uyg'otishga imkon berdi. Bunday kutubxonaning asosiy ish shakllari endi toplash va saqlash vazifalari emas, aksincha kitobxonlarning muvaffaqiyatlari ijtimoiylashuviga va ularning zamonaviy dunyon bilishga hissa qo'shadigan turli tadbirlardir. Ma'lumki, globallashuv dunyoda turli modellarga ko'ra ro'y beradi. Tadqiqotchi O.N.Astafyeva madaniyat modeliga asoslangan globalizatsiya g'oyasini ishlab chiqdi. Bu modelga ko'ra globalizatsiyaning asosiy maqsadi, millati va yashash joyi, madaniyatidan qat'i nazar, insonlarga berilayotgan imkoniyatlardan foydalanishdir [4].

T.G.Grushevitskayaning fikricha, globallashuv va madaniy dinamika jarayonlari yagona jahon madaniyatining shakllanishiga olib kelmaydi. Zamonaviy madaniyat bir-biri bilan muloqot va o'zaro aloqada bo'lgan asl madaniyatlar majmui bo'lib qolmoqda. Madaniy o'zgarish faqat har tomonlikka, bir xillikka olib kelmaydi, balki umuminsoniylikka olib keladi. Madaniy o'zgarishlar ko'proq madaniy muloqot mantig'iga bo'yunsadi [5]. Bu o'zgarishlar kutubxonalarning hozirgi holatida, ayniqsa, ko'zga tashlanadi. Ular hujjat va foydalanuvchi o'tasidagi aloqa orqali foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini qondiradi. Shuning uchun, "... uni bajarish, kutubxona turli vaqtlarda, turli mualliflar tomonidan ishlab chiqarilgan va turli nuqtalarda tarqalgan uchrashuvlar joyi va vaqt tashkilotchisi vazifasini bajaradi" [6].

Kutubxona bevosita foydalanuvchilar o'tasida muloqot jarayonini tashkil etganda, hujjatlarni yaratish jarayonini chetlab o'tganda ham aloqa vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ijtimoiy ahamiyatga ega axborot tashuvchisi bo'lgan ayrim foydalanuvchilar bir vaqtning o'zida tegishli hujjatlarning mualliflari (real va potensial) sifatida harakat qiladilar [3]. Muloqotning bu turi davomida amalga oshiriladigan turli tadbirlar o'tkazish (uchrashuvlar, munozaralar, davra suhbatlari, anjumanlar va boshqalar) kutubxona foydalanuvchilarini qiziqtirgan olimlar, yozuvchilar, shoirlar va boshqa axborot egalari ishtirokida bo'ladi. Bu hodisalar odatda og'zaki muloqotni turli xil hujjatlardan ko'proq yoki kamroq darajada foydalanish bilan birlashtiradi [6].

Ye.Y.Geniyevaning ta'kidlashicha, klassik va umum qabul qilingan g'oya "kutubxonaning ijtimoiy muassasasi" sifatidagi g'oyasi muhim vazifalaridan biri hujjatl to'plamlarda keltirilgan madaniy merosni o'zlashtirish jarayonida shaxslarning ijtimoiylashtirishdir. Yangi davr "o'quvchilarni atrofdagi voqelikni faol tushunishga jalb etish

usullarini o'zlashtirishni ham talab qiladi. Ularning madaniyatlararo kompetentligi va tolerant tafakkurini shakllantiradi. Natijada, kutubxonalarini madaniyatlar o'tasidagi o'zaro hamkorlik markazlariga aylantirish, zamonaviy dunyo muammolariga, turli to'siqlarni muvaffaqiyatli bartaraf etadigan va madaniy stereotiplarga munosib javob bera oladigan yuqori madaniyatli shaxs shakllanadi" [7].

Shunday qilib, madaniyatni oddiy tushunish xususiyatlarini ilmiy jihatdan hisobga olib, shuni ta'kidlash kerakki, har qanday madaniyatning o'ziga xosligi madaniyatning paydo bo'lishi va mavjudligi jarayonida asta-sekin shakllanadigan dunyoning madaniy manzarasida o'z ifodasini topadi. Dunyoning madaniy manzarasi turli madaniyatlarda odamlarning dunyoni o'zlaricha idrok etishi, his qilishi va boshdan kechirishi va shu tariqa dunyoning o'ziga xos qiyofasini, "dunyo manzarasi" deb atalgan g'oyani yaratishi natijasidir [5]. So'nggi paytlarda kutubxonachi va kitobxonlarning o'zaro munosabatlariga ularning madaniy farqlarining ta'sirini o'rganish, ya'ni madaniyatlararo muloqotni joriy etish g'oyasi kutubxonashunoslikda endigma o'rganilayapti. Kutubxona madaniyatlararo o'zaro ta'sir markaziga aylanib, turli madaniyat vakillari o'tasidagi muloqotning dialogik turini ishlab chiqadi [8]. Kutubxona madaniyatlararo muloqot markazi sifatida o'z makon va vaqtini yangicha tashkil etadi, turli qadriyat va xulq-atvor me'yorlarini ishlab chiqadi. Ushbu platformada har bir kishi ishtirok etishi mumkin bo'lgan faol ijtimoiy ta'sirning ochiq joyidir [7].

Sotsiologik va madaniy yondashuvlarga tayanib, Ye.Y.Geniyeva Madaniyatshunoslik va madaniyatlararo aloqaning konseptual apparatini kutubxonashunoslikning muammoli sohasiga kiritdi, kutubxonani madaniyatlararo muloqot markazi sifatida nazariy jihatdan asoslab berdi. Muallifning fikriga ko'ra, kommunikatsion (muloqot olib boruvchi kutubxona) kutubxonaning boshqa kutubxonalardan muhim farqi shaxsning turli dunyoqarash turlariga tayanishidir: birinchi holda – plyuralistik dunyoqarash, tolerant, ko'p madaniyatli fikrlash, madaniy kompetentlikka; ikkinchidan – tafakkurning monologik shakllariga.

Insonning fikrlashini faollashtirish, uning ijtimoiylashuvi yangi muloqot maydonida, muloqot muhitida, muloqot amaliyoti orqali amalga oshirilishi mumkin. Ularning asosiysi turli ijtimoiy qatlamlar, tillar, madaniyatlarni ifodalovchi dolzarb mavzularda dialogik muloqot sifatida tashkil etilgan umumiy madaniy tadbirlardir. Kutubxona madaniyatlararo muloqot markaziga aylandi, barcha darajadagi muloqot – shaxslararo, madaniyatlararo muloqat dunyoda o'zini topish, ijtimoiylashuvning kuchli vositasi, balki keyingi rivojlanish uchun rag'bat sifatida ham harakat qiladi, yangi istiqbollarning yaratuvchisi sifatida faol mavqega ega bo'ladi [7].

Yuqoridagilar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jamiyatda kutubxonalarning ijtimoiy vazifasi sezilarini darajada o'sib bormoqda va bu birinchi navbatda ularning o'zaro fikr almashish bilan bog'liq aloqalar va

munosabatlarni rivojlantirishdagi maxsus missiyani kasbiy anglashlari bilan bog'liq. Shuni aytib o'tish mumkinki, kutubxonalar o'zlarining tashkiliy-funksional tuzilishini ham, atrofdagilar bilan munosabatlarini ham faol o'zgartirib, o'zlarini yangi ijtimoiy maqomga tayyorlay boshladilar.


Kutubxonalar kommunikativ funksiyasining ko'rchipchilik tadqiqotchilari, avvalo, an'anaviy kutubxona xizmatlari jarayonida kutubxonachi va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarga daxldor bo'lib,

muammoni o'zaro psixologik va etnik muammolarni hal qilish nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar. Demak, kutubxonachining ijtimoiy roli "axborot olamida yordamchi va yo'lko'rsatuvchi sifatida kitobxonga ta'sir ko'rsatishning yangi strategiyasini qo'llovchi", degan xulosaga keldilar [9]. Kutubxonalarni madaniyatlararo aloqa markazi sifatida rivojlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, nafaqat kutubxonachilarni kasbiy muloqat qilish malakasini rivojlantiradi, balki zamonaviy madaniy shaxs modelini shakllantiradi.



#### Foydalanilgan adabiyyotlar:

1. Рябов М.А. Библиотек как коммуникативная система.– Москва: «Библиотековедение», 2008 г. № 2. Стр.28–31.
2. Володин Б.Ф. Всемирная история библиотек. СПб.: «Профессия», 2004 г. Стр.410.
3. Паус И.И. Повышение социальной ответственности института библиотеки в современных условиях. – М.: Научные и технические библиотеки, 2010 г. №10. Стр.35–38.
4. Астафьева О.Н. Глобализация как социокультурный процесс. Вестник БАЕ. – М.: 2009 г. №2. Стр.14–23.
5. Грушевицкая Т.Г. Основы межкультурной коммуникации (учебник для вузов). – М.: «Юнита-Дана», 2003 г. Стр.352.
6. Мотульский, Р.С. Библиотека как социальный институт. – Минск: 2002 г. Стр.374.
7. Гениева Е.Ю. Библиотека как центр межкультурной коммуникации. – М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2005 г. Стр.208.
8. Езова С.А. Поликомпетенция библиотечного специалиста: к постановке вопроса. – М.: «Библиотечное дело», 2005 г. Стр.33-34.
9. Езова С.А. Библиотечное общение как феномен исследования. – М.: «Либерия-Бибинформ», 2007. Стр.160.



# VI BO'LIM YOSH TADQIQOTCHI

Umida IBRAGIMOVA,  
O'zDSMI "Sahna nutqi" kafedrasi katta o'qituvchisi,  
mustaqil izlanuvchi (PhD)

## MUSIQALI TEATRDA SAHNA NUTQI: O'ZIGA XOSLIGI VA XUSUSIYATI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, musiqali teatrning vujudga kelishi, sahna nutqi muammolari, nutqning musiqa bilan uyg'unligi hamda musiqali teatarda sahnnaviy nutq haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** adabiy til, sahna nutqi, teatr, aktyor, spektakl, talaffuz, musiqa, ohang, ijro, janr.

## СЦЕНИЧЕСКАЯ РЕЧЬ В МУЗЫКАЛЬНОМ ТЕАТРЕ: ЛИЧНОСТЬ И ХАРАКТЕРИСТИКИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы возникновения музыкального театра, проблемы сценической речи, отсутствие в репертуаре классических произведений, гармония сценической речи с музыкой, сценическая речь в музыкальном театре.

**Ключевые слова:** литературный язык, сценическая речь, театр, актер, спектакль, произношение, музыка, тон, жанр.

## THE STAGE SPEECH IN THE MUSICAL THEATR: PERFECTALISM AND CREATIVITY

**Abstract.** This article discusses the emergence of musical theater, problems of stage speech, the lack of classical works in the repertoire, harmony of stage speech with music, and stage speech in musical theater.

**Key words:** literary language, stage speech, theater, actor, performance, pronunciation, music, tone, genre.



Davr o'tishi bilan sahna ijodkorlarining ham ijro uslublarida yangilanish, rang-baranglik sezilib boradi. Aktyorlik mahorati, sahna nutqi borasida ulkan ijro usullarini ustoz san'atkornarning ijodiy merosi halihamon qo'llagani aktyorlarga ibrat. Sahnadagi ijro qanday shakl va uslubda bo'lmasin uni tomoshabinga yetkazuvchi, ta'sir etuvchi asosiy kuch aktyorning so'z bilan ishlash mahoratiga bog'liqdir. Shuning uchun sahna nutqi har doim aktyorning diqqat markazida bo'ladi.

Sahnalashtirilayotgan spektakllarda sahna nutqiga bo'lgan e'tibor doim rejissyor tomonidan kuchaytirilishi lozim. Shuningdek, shevachilikidan holi, zamonaviy tarzda adabiy til qoidalariiga rioya qilgan holda asarning tilini buzmasdan ifodalashga alohida e'tibor berish kerak. Zero, musiqali teatr aktyorining ijodkor sifatida shakllanishida sahnnaviy nutq, obraz yaratish jarayonidagi ijodiy izlanishda an'analardan foydalanish masalasi juda dolzarb.

O'zbek musiqali teatr san'ati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk bor Turon truppasi ichida

paydo bo'lib, keyinchalik 1940-yilda alohida ajralib musiqali drama janr sifatida shakllangan. Teatrshunos olimlarning bu boradagi samarali tadqiqotlarida musiqali teatralohidajansifatida atroflichao'rganilgan. M.Rahmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, S.Tursunboyev, H.Ikromov, M.Hamidova, D.Musayeva, K.Umurzakov, D.Rahmatullayeva, O.Tojiboyeva, G.Xalikulovalar musiqali teatrning yutuqlari, muammolari qatorida aktyorlarning ijodiga bag'ishlangan monografiyalar ham yaratganlar. Jumladan, O'zbekiston xalq artistlari Lutfixon Sarimsoqova, Mahmudjon G'ofurov, Hamza Umarov haqida ibratli manbalar bor. Tadqiqotimizda ko'proq musiqa, aktyorning ovoz imkoniyatlari, aktyorlik mahorati chuqur tahlil qilinadi.

Musiqali spektakllarda ularning obraz yaratish, holatdan-holatga o'tish, ovoz imkoniyatlarda, ijro qilishda, sahnadagi jonli so'zida sahna nutqi masalalarini alohida o'rganish davrning o'zi talab qilgani bois tadqiqotlarda ushbu manbalarga murojaat qilindi. Muqimiyl nomidagi o'zbek musiqali teatrida, sakson yillik tarixida sahnalashtirilgan spektakllarning

sahna nutqi borasida muvaffaqiyatlari, yutuqlari qalamga olinsa, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilsa har tomonlama yoshlarning chucherroq bilim olishiga yordam bo'ladi. Chunki ushbu teatrda yirik obrazlarni yaratgan aktyorlar ko'pki, ularning bugun ijodini o'rjanmaslik, ijro mahoratini, ayniqsa, sahna nutqi masalalarni qalamga olmaslik katta ayb sanaladi.

O'zbek musiqali drama teatrining mashhur rejissori Razzoq Hamroyev aytganidek, kuylovchi aktyorning san'atida qo'shiq hech qachon asosiy maqsad bo'lomaydi. U faqat yaratilayotgan obrazning, ichki mohiyatini ochish uchun vosita bo'lishi mumkin. Gapiruvchi inson qanchalik so'zga e'tibor bersa, kuylovchi aktyor ham kuyiga shunchalik e'tibor berishi kerak, ana shundagina kuylovchi aktyorning ideali paydo bo'ladi. Kuylanadigan so'z ichki mohiyati bilan yoki undagi tub ma'nosi bilan qimmatlidir. Kuylovchi qanchalik chiroyli kuylamasin, agar u so'zni va musiqiy tovushni hayajonli musiqiy ijro etmasa, o'z tuyg'ulari bilan aytayotgan so'zning tub ma'nosini jonlantirmasa va shu tuyg'ular bilan o'z hamkorlarida kerakli jozibani uyg'otmasa, uning ijrosi hech qachon badiiy ifodalikka yetib bora olmaydi. So'zlarda va tovushlarda kuylovchining jonli dil kuyi eshitilsagina musiqiy nutqning go'zalligi va undagi yashirin tuyg'ularni to'la-to'kis baholash mumkin. Demak, musiqa ichki holatni ifodalaydi.

1970-yillarda musiqali teatrda asosiy masala bo'lgan so'zdan qo'shiqqa, qo'shiqdan so'zga o'tish masalalarini chuqur tadqiq qilgan san'atshunoslik fanlari nomzodi, sahna nutqi mutaxassis K.Umrzoqov «Проблема сценического спектакля и узбекская музыкальная драме» mavzusida yozgan dissertatsiyasi bu boradagi qimmatli tadqiqot deb hisoblash mumkin [9.]

Mustaqillik yillarda sahna nutqi masalalari borasida olib borilgan tadqiqot san'atshunoslik fanlari nomzodi G.Xoliqulovaning «O'zbek tarixiy dramasi talqinida sahna nutqi masalalari» (1980–90-yillar) [3] mavzusidagi dissertatsiyasida ham tarixda shuhrat qozongan “Nodirabegim” musiqali spektakl sahna nutqi yuzasidan tekshirilgan.

Musiqali drama ijrochiligidagi bir muhim masala hukm suradi. Bu so'zdan qo'shiqqa, qo'shiqdan so'zga o'tish masalasi. Musiqali teatr aktyori uchun eng qiyin jarayon mana shu bo'lsa kerak. Chunki aktyorning yutug'i ham, kamchiligi ham aynan mana shu lahzada seziladi. Agar aktyor kuchli dramatik sahnaga ovozi, hissiyotini butunlay sarflab qo'ysa, qo'shiqning emotsiyonalligi susayib ketadi. Ovozga ham ma'lum darajada putur yetishi mumkin [3.B.64].

Musiqali spektakl murakkab janr. Murakkabligi shundaki, har qanday asarning g'oyasi birinchi navbatda aktyorlar tomonidan yuzaga chiqariladi. Musiqali teatr ravnaqi ham aktyor mahorati va sahna nutqiga bog'liq. Jumladan, musiqali drama teatrлари spektakllarining keng jamoatchilikka manzur bo'lib, el orasida shuhrat qozonishida, milliy sahna

san'atimizda munosib o'rin egallashida kuchli ovoz imkoniyati va dramatik mahoratga ega, shu bilan birga nutqi ravon aktyorlarning xizmati rol o'ynaydi. Chunki dramatik aktyor o'zining ijrosi, holatga kirishi, psixologiyasi bilan obrazni ichki dunyosini ochib bersa, musiqali drama aktyori ariya orqali obrazning ichki kechinmasini ifoda qilishi zarur. Uning ichida kechayotgan jarayonlar, to'fonlar, yoki duetlarda dramatizm paydo bo'lishi kerak. Mana shu xattiharakatlarning hammasi musiqaga quriladi. Musiqada ifoda etiladigan kayfiyatning o'zi aktyorni holatga olib kirishiga katta yordam beradi. O'z-o'zidan nutqqa ta'sir qiladi.

Musiqali teatrda musiqa spektaklga jon bag'ishlaydi. Musiqa bilan boyitilgan asarning voqealari kuy va qo'shiqlar orqali bir-biri bilan bog'lanadi. So'zdan asar dunyoga keladi, so'zdan qo'shiq yaraladi. Sahnadagi qahramonning ichki iztirobi kuchayib, quvonch yoki hasrat cheksiz bo'lganda, so'z bilan ifodalab bo'lmash holat qo'shiq va kuy orqali tomoshabinha yetkazib beriladi.

Ijroda so'z sodda, jonli va haqqoni, odatdagi nutq kabi bo'lishi kerak. So'zlar ovoz va kuy musiqa bilan birlashganda, aniq fikrlarga va tuyg'ularga ega bo'lishi kerak. Musiqali teatrning aktyori, so'z asosiy vositalardan biri ekanligini bilishi, so'z sahnada tomoshabinlarga eng muhim ta'sir vositasi bo'lishi, barcha ifoda vositalari: ovoz, so'z musiqa katta ahamiyatga egaligini angalashi shart. So'z bilan kuy bir-biri bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Kuy aynan shu so'z uchun, so'z esa aynan shu kuy uchun yaratilgandek tuyulishi lozim. Musiqasiz so'z tuyg'udan mahrum. Musiqa so'zni boyitadi, ta'sirchalik kuchini, munosabatini oshiradi, hissiyot va tasavvurni uyg'otib, kuylovchining ovoz ranglarini boyitadi. *“Kuylovchi aktyor kuylash jarayonida aniq fikr bilan bog'langan so'zning ichki mohiyatini va shu bilan birga, musiqaning ruhiy ma'nosini ochib berolmasa, uning ijrosi hech qachon to'laqonli bo'lomaydi”* [7.B.20].

Musiqali teatr aktyori qahramon nutqi orqali dardini ochadi, dardning avj pardalarida kuylash orqali yaxlit holatni sahnada yarata oladi. Musiqali drama teatri aktyorlari oldida yana ovoz bilan bog'liq o'ziga xos murakkab ijodiy qiyinchiliklar turadi. Agar musiqali spektaklda aktyorning sayqallangan, chiroyli ovozi bo'lmasa, a'lo darajada bajarilgan rol ham ahamiyatini yo'qotadi. Drama teatrida qahramonlarning holati, ichki kechinmalari ta'sirli monologlar orqali ifoda etiladi. Ayni paytda, musiqali teatrda monolog vazifasini ariya bajaradi. Musiqali teatr aktyori obraz xarakterini dramatik va vokal ifodalarini bir-biriga singdirib yuborish orqali ochadi.

Ba'zan asar har tomonlama mukammal yozilgan, adabiy manba ham, musiqa ham yaxlit dramaturgiyaga ega bo'ladi. Lekin tomoshabin uni ko'ngildagidek tomosha qilmaydi. 1964-1965-yillarda sahnalashtirilgan “Momo yer” musiqali dramani

bunga misol qilish mumkin. Asarning mavzusi dolzarb, unda umuminsoniy muammolar ko'tarilgan. Ushbu pyesada hech qanday kamchilik kuzatilmaydi. Bastakor I.Akbarov ham bor mahoratini ishga solgan. Yuksak professional darajadagi musiqa bastalangan. Spektaklda Muqimiy teatrining san'atkorlari ishtirok etgan. Ammo spektaklning umri uzoqqa cho'zilmadi. Xo'sh, sababi nimada?

Asosan ushbu sahna asarlarida bastalangan kuy-qo'shiqlarda inson ko'ngliga yetib boradigan ohanglarni kamligida, deyish mumkin. Nazarimizda, xuddi shunday holni 1970–1980-yillarda sahnalashtirilgan "Kumush shahar malikasi" musiqli dramasida ham kuzatish mumkin. Masalan, "Gulsara", "Tohir va Zuhra", "Alpomish" yoki "Farhod va Shirin" kabi musiqli dramalarda, shu bilan birga "Momo yer"da ham bir xususiyat mavjud, u ham bo'lsa kuydir.

Har bir musiqiy asarning aria va duetlarida milliy ohanglar yashaydi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish kerakki, bizning musiqiy san'atimiz qanchalik rivojlanmasin, uning negizida milliy ohanglar bo'lmas ekan, umrboqiy qo'shiqlar yarata olmaymiz. Buyuk mutafakkir Abdurauf Fitrat ta'kidlagandek: "Agar biz milliy ohanglarimizni yo'qotsak, o'zligimizni yo'qotib qo'yamiz" [8.B.4.].

Shuning uchun bastakorlar T.Jalilov, T.Sodiqov, Y.Rajabiy, M.Leviyev, D.Zokirov, S.Jalil musiqa bastalaganda xalqimizning qadimgi boy merosidan unumli foydalananadi. Masalan, "Gulsara", "Tohir va Zuhra", "Alpomish", "Nurxon" kabi musiqli dramalardagi kuy-qo'shiqlarni oladigan bo'lsak, ular xalq orasida keng ommalashib ketdi. Hattoki, insonlar ushbu spektakllardagi ariyalarning so'zlarini yoddan aytib, xirgoyi qilib yurishgan.

Bu xildagi musiqli dramalar mana necha o'n yildirki, teatrlerimiz sahnasida qayta-qayta qo'yilib, repertuarni bezab kelmoqda. Haqiqatdan ham tomoshabin musiqli drama spektaklini ko'rganda, undan faqat ma'naviy ozuqa, estetik zavq emas, balki esda qoladigan yaxshi kuyni, kishi qalbini hayajonga to'ldiradigan qo'shiqni ham olib ketishi lozim. Demak, tomoshabinga har tomonlama, manzur bo'ladigan mukammal spektakl yaratish uchun musiqli drama, ajoyib ohangdor kuylar bilan chuqur sug'orilishi shart. Nazarimizda, bu muammoni hal etishda dirishyor va solistlar bilan birga bastakorlar xalq diliiga yetib boradigan, omma orasida tez va keng yoyiladigan kuy-qo'shiqlar bastalashni jiddiy talab etishlari kerak.

Teatrlerimizda sahnalashtirilayotgan asarlarda tomoshabinlarga, mutaxassislarga manzur bo'la oladigan betakror ijodiy jarayonlar asosan so'z orqali o'z yechimini topadi. Toki yosh aktyorlar faqat rol ustida ishlash, obraz yaratish jarayonlaridagina o'zining nutqi, ovozi, talaffuzi, nutqiy xarakterlar yaratish bilan chegaralanib qolar ekan, e'tirozga sabab bo'ladigan turli nutqiy nuqsonlar yo'qolib ketmaydi. So'zlarning oxirgi bo'g'inini yamlab yuborish, urg'ularni noto'g'ri

qo'llash, buning natijasida so'zda boshqa ma'no kelib chiqishi mumkin, keraksiz joyda baqirib gapirish, ovozni to g'ri yo'naltirishni bilmaslik, bu achinarli holat.

Zero, so'z eng beminnat, eng ta'sirchan fikr anglatish yoki fikr anglash, muloqot, o'zligini namoyon qilish, ming bir ichki holat, xatti-harakat, maqsadlarning ifodachisi ekan, tilning o'tkirligi, ta'sirchanligi, ravnligi, benuqsonligi faqat aktyorning o'z nutqi ustida jiddiy ishlay olishi, uni takomillashtirib borishi, teatrlardagina emas, shuningdek, hayotda, televideniye, radio, dublyajdagi ijodiy chiqishlarida ham o'zbek adabiy til me'yorlariga amal qilmas ekan, nuqsonlar ustiga nuqsonlar paydo bo'laveradi. Hozirgi paytda ko'proq yoshlar sahnada juda erkin xatti-harakat qiladilar. Bu bir tomondan yaxshi, ammo bu nutqning to'laqonligi, aniqligi, jarangdor va ta'sirchanligiga putur yetkazmasligi kerak. Nutqiy yetishmovchilik, nutqiy no'noqlik mavjudligi yoshlarimizning hozirgi kunda badiiy adabiyotmizning boy va betakror olamidan yetarli darajada bahramand bo'la olmayotganidadir. Aktyor tilining burro, boy, betakror bo'lishida kitobxonlik, mutolaaga chanqoqlik ham katta ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot aktyorning nutqiy madaniyatiga, fikrining mantiqiy izchil shakllanishiga va takomillashishiga sabab bo'ladi. Jamiyatning ma'nnaviy barkamolligi yoshlarning badiiy adabiyotga chanqoqligi bilan bog'liq. Noaniq so'z, yomon talaffuz qilingan so'z tomoshabinni teatrda sovutadi. Spektakllarning nutqiy to'laqonligi uning badiiylik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan ekan, tilimizning tozaligi uchun kurash nafaqat sahna nutqi mutaxassislari, balki avvalo ijodkor aktyor va rejissyorlarning ham katta mas'uliyati bo'lib qolishi kerak.

Musiqli teatr aktyori bo'lishni orzu qilgan kishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining musiqli teatr aktyorligi yo'nalishida ta'lim olishi, aktyorlikning sir-siroatini, sahna nutqining nozik jihatlarini sinchiklab o'rganish kerak. Zero, bu bosqichni o'tamagan kishi teatrda aktyor bo'lib shakllana olmaydi. Institutda aktyorlik mahorati, sahna nutqi, vokal, sahna harakati fanlarini yaxshi o'zlashtirmagan aktyor kamchiliklarini tushunmay teatrda ham rol ustida ishlay olmaydi. Sahnaviy nutq asarning badiiy yaxlitligini ta'minlashda muhim omillardan hisoblanadi. Ko'pincha bu masala umumiy tarzda qaraladi. Asar tili, personaj nutqi, qahramon xarakteri masalalarini, shuningdek, so'zning tub ma'nosini tushunmay sahnada ijro qilinadi. Bu holat dramaturgning va rejissyorning g'oyasini tomoshabinga yetkazishda aktyor o'z ustida mutassil ishlash kerak. Sahnada bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilayotgan aktyorlar ansamblida yaratayotgan qahramonini yoki personajining o'rnini aniq his eta olishi lozim.

So'z ustida ishlash monolog, dialoglarni klassik asarlar nutqida saqlab qolish bilan birga, zamonaviy nutq ohanglaridan foydalanish ham yaxshi natija

berishi mumkin. Chunki ko'p hollarda aktyor organikasida eski o'zbek tilining element va ohanglari saqlanib qolmasligi, eski o'zbek tili ohanglari buzilishiga olib borishi klassik asarlardagi sahnayvi nutq me'yorlarining buzilishiga olib kelish kuzatiladi. Bugungi kun yoshlarining istalgan til, istalgan sheva, istalgan nutqiy ohang me'yorlarida gaplashishlariga odatlangani klassik asar ustida ishlash jarayonida o'ta muammoli, deyarli hal etib bo'lmas darajada qarama-qarshiliklar tug'diradi.

Yangi mukammal musiqali dramalar kam yaratilayotgani sababli, ba'zi teatrlar dramatik asarlarni musiqali dramaga aylantirishga majbur bo'layotganiga guvoh bo'lish mumkin. Biroq ularning syujeti har doim ham musiqali drama janriga mos tushavermaydi. Bastakor pyesa yozilgan she'rlarga kuy bastalaydi. Ushbu ariya, duet yoki raqslar esa

o'zaro bog'lanmagan holda ijro etiladi. Chunki ular ko'pincha asar mantiqidan kelib chiqmay, sun'iy ravishda kiritilgan bo'ladi. Ammo ular ko'pincha asar mavzusini, hech bo'limganda asosiy obrazlarning xarakterini, yuz beradigan voqealar mohiyatini ochib bermaydi. Bunday asarlarni to'la ma'noda musiqali drama deb bo'lmaydi.

Sahna nutqi keng fikrlashga chuqur mulohaza qilishga, millatning tarixiy ildizlarini aniq bilish, ularga mehr bilan yondashishga o'rgatadi. Musiqali drama esa, insonlardagi didni tarbiyalaydi. Ayniqsa, buni chuqur anglashda muammolar ham bor. Bu muammolarni esa oilaviy muhitdan, mакtabda ijtimoiy fan o'qituvchilari o'zining tilga, nutqqa e'tiborli bo'lishlari, oliy o'quv yurtida esa boy tariximiz, adabiyotimiz, she'riyatimizga murojaat etish orqali yoshlarga o'rgatish, ongiga singdirish zarur.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yashin K. Tanlangan asarlar (I-tom). – Toshkent. O'zbek davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958-y. 377-b.
2. Isroilov M. Monolog ustida ishlash. – T.: 2003-y.
3. Xoliqulova G. Sahna nutqi. – T.: O'zDSI, 2008-y.
4. Nosirova A. Sahna nutqi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012-y.
5. Xalikulova G. Sahna nutqi (tarixiy dramalar talqinida). – T.: O'zDSMI, 2008-y.
6. Tojiboyeva O.Q. Epos va teatr (birinchi kitob). – T.: "San'at", 2015-y. 236-b.
7. Muhammedova G. Kuylovchi aktyorning shakllanishi. – T.: 2008-y.
8. Rajabov I. Maqomlar. – T.: "San'at", 2006-y.
9. Умурзаков К. Проблемы сценической речи в Узбекской музыкальной драме (диссертация). 1987 г.

## TONAL VA MODAL LADLAR

**Annotatsiya.** Maqola musiqiy ifoda vositalarning eng asosiyalaridan biri bo'lmish – lad tizimlariga bag'ishlangan. Lad tizimining tonal va modal turlarini batafsil ko'rib chiqishga asosiy e'tibor berilgan. Maqolaning maqsadi – modal ladlarning o'ziga xos xususiyatlari tonal ladlar bilan taqqoslagan ravishda ko'rsatish va ochib berish.

**Kalit so'zlar:** lad, tovushqator, funksional aloqalar, modal ladlar, tonal ladlar, turg'unlik, noturg'unlik.

## ТОНАЛЬНЫЕ И МОДАЛЬНЫЕ ЛАДЫ

**Аннотация.** Статья посвящена одному из главных средств музыкальной выразительности – ладовым системам. Основное внимание уделено рассмотрению тональных и модальных видов ладовых систем. Цель статьи - продемонстрировать и выявить особенности модальных ладов в сопоставлении с тональными.

**Ключевые слова:** лад, звукоряд, функциональные отношения, модальные лады, тональные лады, устойчивость, неустойчивость.

## TONAL AND MODAL MODES

**Abstract.** The article is devoted to one of the main means of musical expression - mode systems. The main attention is paid to the consideration of tonal and modal types of fret systems. The purpose of the article is to demonstrate and reveal the features of modal modes in comparison with tonal ones.

**Key words:** mode, scale, functional relations, modal modes, tonal modes, stability, instability.



Modal ladlar tarixan ladning eng qadimgi shakllaridan biridir. Yevropada ular birovozlikda (bir ovozli xalq ohanglari va professional musiqa (grigorian xoral), ya'ni bir ovozli vokal musiqada paydo bo'lgan va rivojlanishning ulkan tarixiy yo'llini bosib o'tib, o'z mohiyatini ko'povozlikda ham saqlab qolgan. Y.N. Xolopov: "Kuy musiqaning birlamchi ko'rinishi bo'lgani kabi, modal birovozlik ham murakkab lad shakllarining dastlabki turidir. U qadimgi yunon musiqasi, qadimgi Sharq, Afrika, Evropa madaniyatlariga, barcha mamlakatlarning xalq musiqasiga, gregorian kuylar, shuningdek, Yevropa polifoniysi va gomofoniyasiga xosdir" [1.1].

XX asr musiqasida **modal ladlar** doirasini tabiiy ladlar (xalq musiqa ladlari yoki diatonik ladlar, ayrim manbalarda berilishicha, yunonlarning oktavali "qadimiy ladlari"), gemitilik, qadimgi cherkov, obixon ladlar, pentatonika, trixord, tetraxord kabi kichik hajmli, oktava chegarasidan oshadigan lad shakllari, sharqona va simmetrik ladlar tashkil etadi. Modal ladlar **tarkibi, tuzilishi, hajmi, tonlarning o'zaro aloqalari va funksiyalari** jihatidan o'ziga xos va noyob bo'lib, ularning xususiyatlari tonal ladlar bilan taqqoslanganida yanada aniq va ravshan namoyon bo'ladi.

Tonal tizimda ikkita lad shakllari, ya'ni major va minor mavjud bo'lib, ular ma'lum bir o'zgarmas tovushqator asosida hosil bo'ladi. Tonal ladlarning modal ladlardan farqlovchi yana bir muhim xususiyat shuki, tonallikda lad oktava doirasida yettita pog'ona bilan chegaralanadi. Modal tizimda esa ladlar turli diapozon – trixord, tetraxord, pentaxord, nona, tersdetsima, hattoki, ikki oktavagacha hajmda bo'lishi mumkin. Tovushqator hajmi deb, balandlik jihatidan chetki tovushlarning interval munosabatiga aytildi, tovushqator hajmiga pog'onalar soni ham

kiradi. Modal ladlarda qo'shni tovushlar bir-biri bilan faqat sekunda masofada emas, balki tersiya yoki kvarta intervalida joylashuvi ham uchraydi. Masalan, lad kvinta hajmida ham besh pog'onaga yoki uch pog'onaga ham ega bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan N.Gulyanitskaya modal ladlarni 3 guruhga ajratadi:

- o'z tarkibida yetti tongacha bo'lgan kichik hajmli – dixord, trixord (uchta tovush tersiya, kvarta kam hollarda kvinta hajmida), tetraxord (to'rtta tovush kvarta yoki kvinta hajmida), pentaxord (beshta tovush kvinta, seksta yoki septima hajmida), geksaxord (oltita tovush seksta, septima, oktava hajmida), geptaxord va hokazolar;

- yetti va undan ortiq pog'onalardan iborat ladlar – oktaxord, nonaxord, dekaxord, undekaxord;
- yirik hajmli ikki oktavali lad birikmali [2.2].

Tonal tizim yagona markaziy ton, ya'ni tonikaning ustuvorligi va qolgan barcha tonlarning unga bo'y sunishi asosida tuzilgan kuchli markazlashgan tizimdir. Modal tizimda ham asosiy tayanch ton mayjud bo'ladi, lekin tonal ladlardan farqi shundaki qolgan barcha tonlar asosiy tonga tortilmaydi. Ma'lum bir sharoitda (masalan: ritmik to'xtalish, takroriylik va h.k.) ladning har bir toni asosiy ton bo'lishi mumkin. Ya'ni, modal ladlar tonal ladlardan farqli ravishda yagona markaziy tayanch tonga ega emas, ular asarning har bir qismi yoki bo'limida o'zgarib, butun asar davomida bir nechta bo'lishi mumkin.

Tonal ladlarda har bir tonning funksiyasi (vazifasi) har bir pog'ona va uning asosida tuzilgan akkord zimmasiga qat'yan yuklatilgan. Masalan, tonal tortilishlarning markazi yagona bo'lib, u ladning birinchi pog'onasida joylashadi va tonika deyiladi. Shu kabi subdominantva dominanta va ularning guruhiga kiruvchi pog'ona va akkordlar ham o'zining ma'lum bir

qat'iy funksiyasi, ya'ni vazifasiga ega. Modal ladrning funksionalligi deyilganda esa, avvalambor, tonlarning **tayanchliliqi** yoki **notayanchliliqi, turg'unligi** yoki **noturg'unliligi**<sup>1</sup> tushuniladi. Ularda boshlang'ich yoki yakunlovchi tovush vazifasini bajaruvchi **asosiy** tonlar, shuningdek, **o'tkinchi** va **yordamchi** tonlar mavjud. Yana shuni aytib o'tish kerakki, bitta pog'ona bir nechta funksiyani bajarishi mumkin. Masalan, kuyning ma'lum bir iborasida o'tkinchi bo'lib kelgan tovush vaqtinchalik tayanch tovushga aylanishi mumkin.

Ular tonlarning o'zaro aloqasi sifatida tashkil etilib, har bir ton o'zining ma'lum bir funksiyasiga ega. Turg'unlik va noturg'unlikning o'zaro munosabati – lad tizimlari uchun funksional munosabatlarning umumiy shaklidir.

**"Turg'unlik** – bu muqim funksiya bo'lib, to'xtash vazifasini bajaradi: u yashirin harakatsizlik, ya'ni harakatni to'xtatish hissini beradi. Turg'un ton hech qayerga tortilmaydi, aksincha boshqa tonlarni o'ziga tortadi.

**Noturg'unlik** – jo'shqin funksiya bo'lib, harakat vazifasini bajaradi: u musiqa rivojlanishining davom etishini talab qiladi. Noturg'un tovushlar har xil nuqtalardan markazga yo'halgan. Shuning uchun noturg'unlik xilma-xildir: u turg'un tovushga harakatning turli shakllarini o'z ichiga olishi mumkin. Turg'un va noturg'un tovushlarning interval, funksional munosabati jihatidan turli xil shakllari, turli lad tizimlari vujudga keladi. Modal ladr uchun "turg'unlik"ka nisbatan ko'proq "tayanchlilik" (to'xtash funksiyasini ifodalovchi sifatida) xosdir. Asosiy (markaziy) tayanch odatda tovushqatorning pastida yoki o'rtaida joylashadi va asosiy funksiya sifatida faqat bitta nuqtani egallaydi. Ushbu ladrning noturg'un elementlari o'zining funksional jihatidan bir xil emas va o'z navbatida o'zgaruvchanlikni talab qiladi" [3.4].

Bundan tashqari, noturg'un tonlarning ichida yondosh tayanch tonlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ular o'zining noturg'unliligini saqlab qolgan holda, o'z atrofida boshqa noturg'unlarning harakatini

yig'ishi mumkin va shu orqali o'zini tayanch tovushiga taqqoslaydi. Ular yondosh tayanch tonlar yoki lad antitezalari deb atalib, bir nechta bo'lishi mumkin. Yondosh tayanch tonlar bu:

- ritmik cho'zilgan, takting kuchli va nisbatan kuchli hissalariga to'g'ri keladigan tovushlar;*
- kuy, qaytarish, musiqiy intonatsiya orqali ta'kidlangan tovushlar;*
- musiqiy ibora boshlangan yoki tugallangan tovushlar.*

Kuyning rivojlanishi jarayonida yondosh tayanch ton o'zgarishi yoki birinchisidan boshqasiga o'tishi mumkin. Asosiy tayanch va yondosh tayanch ton o'rtaida katta tersiya, kichik tersiya, sof kvinta, sof kvarta intervallar ladning asosini tashkil etadi. Ayrim hollarda yondosh tayanch va asosiy tayanch tonlar uchtovushlikni hosil qiladi. Asosiy tayanch tovush tovushqatorning pastki yoki o'rtaloni bo'lishi mumkin. Bu tovushning funksiyasi harakatchan bo'lib u boshqa tovushga o'tishi mumkin. Bu holda lad o'zgaruvchanligi hosil bo'ladi.

Modal tizimda o'zgaruvchanlik muhim ahamiyat kasb etadi va uning o'ziga xosligi tonal tizimdagidek keskinlikni dinamik o'sishi va pasayishi bilan emas, turli xil ranglar o'yini, koloristik effektlar bilan bog'liq. O'zgaruvchanlikning turlari lad markazlarining joylashishi va tuzilishi, lad tovushqatorining strukturasiga bog'liq. Quyidagi holatlar nisbatan ko'proq uchraydi:

- tovushqator saqlanib, lad va uning markazi o'zgaradi (o'zgaruvchanlikning bu shakli o'zbek xalq musiqasida keng tarqalgan);*
- markaz saqlanib, tovushqator o'zgaradi ; Ta'kid joizki, modal ladrning muhim va xarakterli tomoni – ularning o'zgaruvchanligidir.*

Modal ladrnari o'ziga xos xususiyatlari tonal ladr bilan taqqoslanganida yanada aniq va ravshan namoyon bo'ladi. Yuqorida bayon etilgan ladrning farqlanishiga oydinlik kiritish maqsadida, quyidagi taxminiy jadvalni taqdim etdik<sup>2</sup>.

Tonal	Modal
XVII–XVIII asrlar	Qadimgi davr o'rtalari XIX–XX asr musiqasi
Yevropa professional musiqasi	Qadimgi davrmusiqasi, Rossiya va Yevropa diniy musiqasi, turli xalqlar musiqasi, XX asr kompozitorlik uslubi
Major va minor	Tabiiy (diatonik yoki xalq musiqasi ladr), grigorian va obixod ladr, pentatonika, gemitolika, sharq xalqlari ladr, simmetrik (sun'iy) ladr, individual ladr va h.k.
Tonallaclar avtonom deb nomlanadi	Modal ladr esa natijaviy deb ataladi. Chunki, tovushqator ko'p hollarda asaming oxirida belgilanadi.

Tonal lader asosan cholg'u musiqasining keng nivojlanishi natijasida, amaliyotda ko'proq tarqalgan.	Modal lader (sun'iy laderdan tashqari) ko'proq vokal musiqasiga xos bo'lib, inson ovozi tabiatini va fiziologik xususiyatlarini aniqroq ifodalay oladi.
Tonal lader qat'iy ravishda oktavali tizimlardir.	Modalladler oktavali tizim qatorida kichik hajmli (trixord, tetraxord, pentaxord), katta hajmli oktavadan oshadigan (12, 15 va hk tovushli) tovushqatorlardan tashkil topishi mumkin.
Tonal laderlarning asosiy tamoyillaridan <i>subordinatsiya</i> bo'lib, tovushqatoming barcha tovushlari markaziy pog'ona tonikaga tobe hisoblanadi.	Modalladlarda esa <i>koordinatsiya</i> (muvofiglashuv) asosida tovushqatoming pog'onalari o'zaro bir-biriga bo'y sunadi.
Tonal laderlarning pog'onalari funksiyasi va aloqalari o'zgarmaydi.	Modal laderlarga o'zgaruvchanlik xos bo'lib, uning alomatlari yuqorida bayonlarimizda atroficha yonitildi.
Tonal lader kuchli markazlashgan laderdir.	Modal lader kuchsiz markazlashgan lader hisoblanadi. Tonika tushunchasi umuman ishlatilmasa-da, <i>tayanch ton</i> , <i>turg'un ton</i> kabi atamalar qo'llaniladi.
Tonal laderlarning birligi funksional aloqalarga asoslanadi.	Modal laderlami esa tovushqatoming yaxlitligiga.
Turg'un va noturg'un pog'onalaming soni aniq bo'la di	Turg'un va noturg'un pog'onalaming soni o'zgaruvchan bo'la di.
Tonal laderlarning asosiy tayanch tovushlari uchtovushlikni hosil qilib, pog'onalaming aloqalari asosan kvarta-kvinta, kam hollarda esa sekunda, tersiya nisbatiga asoslanadi.	Modalladlarda turg'un tovushlarko'pincha I, IV va V pog'onalarda joylashadi, hamda sekundaviy aloqalar asosiy o'ringa chiqadi.

Xulosa o'rniда айтishimiz mumkinki, tonal va modal laderlarning asosiy farqi, ularning semantik ma'no-mazmunini aks etuvchi vositalar bilan belgilanadi. Modal laderlarda ushbu semantik vosita, biringchi navbatda, uning maxsus melodik-ohang tuzulishini belgilab berovchi tovushqator tarkibidir.

Albatta, takrorlash kerakki: tonal va modal lader o'rtaсидаги farq musiqiy matnlarda emas, faqatgina nazariy adabiyot va uslubiy qo'llanmalar sahifalarida yengib bo'lmashdek ko'rinishi. Jonli musiqada tonal va modal laderlarning elementlari doimo o'zaro bog'liqdir.

### Фойдаланилган адабиётлар:

- Холопов Ю. Гармоний. Теоретический курс. – Москва: 1998 г. Стр.161.
- Гуляницкая Н. Введение в современную гармонию. – М.: 1984 г. Стр.85.
- Бершадская Т. К вопросу об устойчивости и неустойчивости в ладаксе русской народной песни. // Проблемы лада. – М.: 1972 г.
- Бершадская Т. Лексики по гармонии. – Ленинград: 1978 г. Стр.75.

<sup>1</sup> Turg'un va noturg'un funksiyalar haqida bat afsil qarang: Бершадская Т. К вопросу об устойчивости и неустойчивости в ладах русской народной песни. // Проблемы лада. – Москва: 1972 г.

<sup>2</sup> Shunga o'xshash jadval O.N.Azimovaning "Garmoniya tarixi" hamda "Zamonaviy garmoniya" kursi ma'ruzalarida keltiriladi.

## **TARIXIY VOQELIKNI BADIY TALQIN QILISHDA AKTYORLIK SAN'ATINING O'RNI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, aktyorlik san'atining muhim jihatlari bilan birga turli xil masalalar, jumladan, sahnada kechinma san'atiga imkon qadar erishish, unga oid jarayonlardan misollar, teatrshunoslar tomonidan sohaga oid olib borilgan ishlardan namunalar keltirish asosida tadqiq va tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** aktyor, rejissyor, drama, teatr, pyesa, tandem, sahna, dramaturg, xarakter, spektakl, dramatizm, dekoratsiya.

## **РОЛЬ АКТЕРСКОГО ИСКУССТВА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ РЕАЛЬНОСТИ**

**Аннотация.** В данной статье, наряду с важными аспектами актерского искусства, исследуются и анализируются различные вопросы, в том числе, как максимально достичь искусства переживания на сцене, примеры процессов, связанных с ним, и примеры работы, осуществляющей театроведы в этой области.

**Ключевые слова:** актер, режиссер, драма, театр, пьеса, tandem, сцена, драматург, персонаж, спектакль, драматургия, декорация.

## **THE ROLE OF ACTING ART IN THE ARTISTIC INTERPRETATION OF HISTORICAL REALITY**

**Abstract.** In this article, along with the important aspects of acting art, various issues are researched and analyzed, including how to achieve the art of experience on the stage as much as possible, examples of processes related to it, and examples of work carried out by theater scholars in the field.

**Key words:** actor, director, drama, theater, play, tandem, stage, dramatist, character, performance, dramatism, scenery.



Teatr san'atining mahsulini xalqqa taqdim etishda, aktyorlik mahoratining tomoshabinga ta'sir etuvchi vositalari son-sanoqsiz. Hamma gap shu vositalarni o'rnda qo'llay bilishda. Teatrning sahna asarlarida shartlilikning ustuvorligi, tomoshabinga ta'sir o'tkazish vositalarning rang-barangligi, tomoshabin bilan ochiq muloqotga o'tish kabi ijro va rejissyorlik izlanishlari, yangi topilmalar – bular hammasi tomoshabinlarni tezda o'ziga rom etadi.

Bu borada, ayniqsa, aktyorning kechinma san'ati alohida ahamiyat kasb etuvchi jabha hisoblahadi. Aktyor sahnada nafaqat o'z rolini ijro etadi, balki uni yaratadi, ya'ni yangi bir shaxsni o'z dunyoqarashi, o'z mahorati bilan ijod qiladi, uni bunyod etadi. Ma'lumki, aktyor muayyan bir siyomi yaratar ekan, o'zidagi shaxsiy ehtiros, sezgilar va ruhiy kechinmalar bilan birga o'zini boshqa kishi o'rniqa qo'yadi va "agar men, shu berilgan shart-sharoitda bo'lsam nima qillardim?" degan savolni oldiga qo'yib, obrazni yaratishga harakat qiladi, o'zidan kelib chiqqan holda muayyan bir maqsad sari intiladi. Aktyorning rol ustida ishlashida kechinma san'atining o'rnini ularga oliygohdayoq o'rgatilishi, professional teatr jamoasi uchun juda samarali ishlardan biridir. Har bir obraz aktyordan o'zidan butkul xoli bo'lish, obraz ichki kechinmasiga to'liq o'tishini talab etadi. Bu jarayonsiz

ular tomoshabinni ta'sirlantira olmaydi. Uning ijrosi hech qanday natija bermay, quruq ma'nisiz harakatga aylanib qolaveradi. Kechinma san'ati aktyorning ijo mahoratini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbek Milliy Akademik drama teatrda o'ndan oshiqligi tarixiy-biografik mavzudagi spektakllar sahnalashtirildi. "Alisher Navoiy" (muallif: Uyg'un va Izzat Sultonov, rejissyor: Turg'un Azizov), "Sohibqiron" (muallif: O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, rejissyor: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Olimjon Salimov), "Piri Koinot" (muallif: Xayitmat Rasul, rejissyor: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Valijon Umarov), "Mirzo Ulug'bek" (muallif: Maqsud Shayxzoda), "Muqaddas taxtizar" (muallif: Hayitmat Rasul va Yo'ldosh Muqimov, rejissyor: Arsen Ismoilov), "Jahon Otin Uvaysiy" (muallif: Zulkumor Soliyeva, rejissyor: Valijon Umarov), "Kunduzsiz kechalar" (muallif: O'zbekiston xalq shoiri Uzmon Azim, rejissyor: Valijon Umarov), "Usmon Nosir" (muallif: Nodira Rashidova, rejissyor: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Marat Azimov), "Adibning umri" (muallif: Usmon Azim, rejissyor: Valijon Umarov) kabi spektakllar shular jumlasidandir.

1996-yilda Abdulla Oripovning "Sohibqiron" pyesasini rejissyor Olimjon Salimov sahnalashtiradi. Bu spektaklda ham rejissyor tarixiy spektakllar dekoratsiyasini mahorat bilan yaratadigan rassom Baxtiyor To'rayev, aktyorlar T.Mo'minov, E.Komilov,

<sup>1</sup> Xoliqulova G. Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida) – Toshkent: 2007-y.

G'.Hojiyev, R.Karimovlarning tandemini yaratdi. Spektakl voqealari Temur umrining oxirgi yillarini o'z ichiga oladi. Temur rolini yaratgan T.Mo'minov uni qilichidan qon tombib turgan qahrli sarkarda emas, balki rahmdil inson qilib tasvirlaydi. Biz Temurda ko'rishimiz kerak bo'lgan shahdni, shijoatni Amir Husayn (R.Karimov) va Boyazid (E.Komilov)da ko'ramiz. Amir Husayn ko'p bor Temurga qarshi isyon ko'taradi-yu, har safar uning singlisi O'ljoy Temurdan uni avf etishini so'rab olardi. Amir Husayn tavba qilishdan, Temurga bo'ysunishdan ko'ra o'llimni afzal ko'radi. Uning ko'zlarida o'llimdan aslo qo'rmaslik, unga tik borishi bilinib turadi. Tarixdan ma'lumki, Amir Temur do'sti Amir Husayn bilan birga Chingizzon avlodiga qarshi kurashadi. Biri Barlos, ikkinchisi, Qozog'on urug'didan chiqqan sarkardalar edi. Balh qurultoyi Temurni rasman Amir deb saylaydi. Temur davlatining asos tayanchi yagona shoh, mo'l xazina, yengilmas lashkar edi. "Temur tuzuklari"da yozilishicha, davlat aslo tavakkalning mevasi emas, u raiyat, ya'ni xalqning kuch-irodasidir.

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" poetik dramasida Amir Temur shaxsiyati, faoliyati, mavqe va maqomiga doir fikr, voqealar o'z aksini topgan. Ammo muallif asarda Amir Temur shaxsiyatini ideallashtirmaydi. Aksincha, ul zotni o'z davrining vakili sifatida tasavvur qilib, sohibqironning faoliyatini yashayotgan tarixiy muhitdan ajratmagan holda tasvirlashga intiladi.

Amir Temur sultanati mustahkam, tinch, farovon edi. Ketma-ket qurilishlar, g'alabalar bo'lardi. O'zi bosib olgan viloyatlarga o'g'illarini va ishonchli odamlarini qo'yib, o'z vaqtida o'lponlar kelib turardi. Faqat Rumo hukmdori Sulton Boyazid Temurni takror-takror jingga chaqiraverardi. U Temurning sultanatiga bepisand boqib hasadini ko'rsatardi. Temur sabr qilib, Boyazidni totuvlikka chorlaydi. Boyazid Temur sultanatidan qochib borganlarga o'z saroyidan joy berib, homiylik qiladi. Temur piri Said Barakadan: "Ikki dindosh, bitta turk qavmi olishsalar, talashsalar nomus emasmi", – deb maslahat so'raydi. Temurning tinchlik haqidagi nomasiga javoban Boyazid: "Agar biz tomonga kelmasang, xotinlaring taloq bo'lgay", – deb javob yo'llaydi. Temur bilib turardi, Farang mamlakatlari Turkiylardan cho'chib Rum bilan Movaraunnaxrnii gij-gijlab qo'yanini. Afsuski, Boyazid bu nayrangni tushunmaydi.

Temurning shatranj usulida jang qilishi dunyoga mashhur. Bu safar ham aynan shu usulni qo'llaydi. Jangdan oldin o'g'illarini chaqirib nasihat qiladi. Mironshohga o'ng, Shohruh Mirzoga chap qanotni

topshiradi. Chodir ichida Alovuddin bilan shatranj o'ynab tashqaridagi jangni barobar olib borardi. Hufyalar uning allaqachon xotirjam, sovuqqon shatranj o'ynab o'tirganini Boyazidga yetkazganiga ishonchi komil edi. Jangda to'lg'amo usulidan foydalanim dushman askarlarining markaz qismiga hujum qilishni buyuradi. O'zi esa ketma-ket donalarni surib, Alovuddinni mot qiladi. Jangda g'olib bo'lib, Boyazidni asirga oladilar.

Boyazid Temurning oldida asir bo'lib tursa ham qaddini tik tutib, uning iltifotiga, taassufiga zor emasligini ko'rsatib qo'yadi. Temur: "Taqdir degan buyuk hukmdor kulgan ikkimizning ustimizdan ham. Men bir langu sen esa ko'r notavon so'qir. Bu dunyoda butun odam topilmagandek, ikkimizga yer yuzining jilovini bermish", – deb kulardi. Ikkisi ham qanchalik qudratli podshoh bo'imasin, Yaratganning huzurida ojiz banda edi. Boyazidning lashkarlari so'nggi damda

xiyonat qilib, ikki tarafga qochib ketgani uchun u shu ahvolga tushgandi. Uning ko'zlarida zarracha qo'rquv yoki afsus yo'q edi. U o'llimdan ham qo'rmasdi. Temurdan faqat Rumo yurtini vayron qilmaslikni va o'g'illarining taqdirini so'raydi. Mag'lublikni tan olib, inson, bir padar sifatida o'g'illaridan xavotir olib qayerdaligini so'raydi. Temur Rumoni boshqarishni uning o'g'illariga topshirishini aytadi, o'zini esa turk ahlining noahillik tarixiga tirik timsol sifatida yashashiga qaror qiladi. Boyazid jangda mag'lub bo'lishdan ham asir tushib, avf etilib tirik qolishni dahshat deb bilardi. Shuning uchun Temurdan o'ldirishini tiz cho'kib so'raydi. Amir Temur uni tirik qoldirgani g'ururini oyoq osti qilgandi. Bunday yashashdan o'llimni afzal ko'radi. Temur shohlarning mag'lub bo'lishini, kishanlanishini, tiz cho'kishini aslo istamasdi. Askarlar Boyazidni kishanlab olib kelishganda, darhol bo'shatishni buyurgandi. Hozir ham o'rnidan turishni buyurib, qo'yib yuboradi. Boyazid Temurga: "Jahongirlik qismatingda bor ekan, sen ham taqdir qoshida zaifsan, ojiz", deb chiqib ketadi.

Rejissyor Olimjon Salimov "Sohibqiron" spektaklini ichki dramatizm, xarakterlarning nozik psixologik talqini bilan boyitib, falsafiy-romantik drama sifatida talqin etadi. Rejissyorning butun e'tibori buyuk davlat arbobining ko'p qirrali obrazini, qudratli davlat barpo etishga intilgan shaxsning murakkab, iztirobli ichki dunyosini ochishga qaratilgan. Tesha Mo'minov ijrosida Amir Temur maqsad sari intiluvchi shaxs. Tomoshabin ko'z o'ngida jisman kuchli bo'lsa-da, qalban sodda, shu bilan birga aql va kuch ufurib turgan shaxs qiyofasida namoyon bo'ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ahmedov N. Tarixiy shaxs talqini. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-y. 150-b.
2. Rahmonov M. O'zbekiston teatri tarixi. – T.: "Fan", 1968-y. 106-b.
3. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M., Muxtorov I. O'zbek Milliy Akademik drama teatri tarixi. – T.: 2003-y. 69–140-b.
4. Xoliqulova G. Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida) – T.: 2007.

Shaxnoza RUSTAMALIYEVA,  
O'zDSMI 2-bosqich doktoranti  
Pirmuhammad XOLMAXMATOV,  
O'zDSMI "Madaniyatshunoslik" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

## **XX ASRNING MASHHUR METSENA – “MAN AFANDI” VA TURKISTONLIK TALABALAR TAQDIRI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, XX asrda vatanimiz tarixida ilk bora xorijda tahsil olgan talabalarning taqdiri, ularga muntazam ravishda homiylik qilgan Saidnosir Mirjalilovning faoliyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** "Man afandi", "Sharq kechalari", "Ulamo", "Ta'lim haftaligi", "Ko'mak", "NKVD", "Germaniyadagi o'quvchilarimiz".

## **ИЗВЕСТНЫЙ МЕЦЕНАТ ХХ ВЕКА – “MAN AFANDI” И СУДЬБА ТУРКЕСТАНСКИХ СТУДЕНТОВ**

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о судьбе студентов, обучавшихся за границей впервые в истории нашей страны в XX веке, и деятельности Сайдносира Мирджалилова, который регулярно их опекал.

**Ключевые слова:** "Ман Эффенди", "Восточные ночи", "Уламо", "Неделя образования", "Помощь", "НКВД", "Наши студенты в Германии".

## **FAMOUS PHILANTHROPIST OF THE XX CENTURY – “MAN AFANDI” AND THE FATE OF TURKESTAN STUDENTS**

**Abstract.** This article tells about the fate of students who studied abroad for the first time in the history of our country in the twentieth century, and the activities of Saidnosir Mirjalilov, who regularly took care of them.

**Key words:** "Man afandi", "Eastern Nights", "Ulamo", "Education Week", "Help", "NKVD", "Our Students in Germany".



Asrlar davomida ilm-fan va sivilizatsiya beshigi bo'lgan Turkiston temuriylar davridan keyin bu mavqeini yo'qotdi va yuksalib borayotgan G'arb sivilizatsiyasiga qarshi mag'lubiyatga uchradi. Abu Ali ibn Sino, al-Forobi, Alisher Navoiy, Ali Qushchi kabi buyuk zotlarning ixtirolari, g'oyalari bilan dunyoga nur sochgan Turkiston o'lkasi keyinchalik tanazzulga yuz tutdi va ularni tarbiyalagan ilm-fan markazlari bo'lgan madrasalar ilm maskani bo'lishdan to'xtab, o'z o'rnnini taqlid va sharhga qoldirgan muassasalarga aylanib qoldi. Go'yoki endi ilm va tafakkur tug'diruvchi madrasalar kun o'tkazish, barcha narsalardan chekinish, dunyo hayotidan umid uzish maqomini olgandek edi.

Bu ruslar tomonidan bosib olingan Turkiston va islam mintaqasida amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosatining kichik bir oqibati edi, xolos. Buni yaxshi anglagan o'lkadagi ziyorilar, ulamolar mustamlaka istibdodidan xalos bo'lish uchun harakat qila boshlashdi. Ular, avvalo, zamonaviy bilimlarni chiqur o'rgangan holda Turkistonning yangi, o'zgacha dunyoqarashga ega bo'lgan avlodini tarbiyalashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Ushbu yo'l orqali qoloqlikdan va mustamlaka zulmidan chiqib ketish mumkin ekanligiga xalqni ham ishontirishga urina boshladilar.

Turkiy dunyoning markazi bo'lmish Turkistonning g'ayrimusulmonlar tomonidan bosib olinishi va musulmon Turkiston xalqining o'z milliy dinini, milliy tilini himoya qilish uchun olib borgan kurashi o'zining

ma'rifatparvar xarakteri bilan ajralib turadi. Ushbu harakat yo'lboshchilarining xurofotdan qutulish va islam dinining asl mohiyatiga qaytish, bosib olingan Turkiston yerlarini ozod qilish, uning diniy va milliy qadriyatlarini saqlab qolgan holda zamonaviy davlatchilik poydevorini yaratish kabi maqsadlari osonlikcha amalga oshadigan jarayon emas edi. Barchamizga ma'lumki, jadidchilik harakati maorif yo'lli bilan bosqichma-bosqich rivojlanish hamda bu orqali istiqlolga erishish yo'lidan borgan edi. Ular tomonidan Turkistonning barcha hududlarida kutubxonalar, bosmaxonalar, teatr truppalar, gazeta va jurnallar hamda yangi usul maktablari tashkil qilinib, bu orqali mahalliy aholini umumjahon taraqqiyotidan orqada qolmaslikka, jamiyatni isloh qilishga chorlashadi.

Taraqqiyarvar jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida bugungi kun nuqtayi nazari bilan aytganda, eng yirik loyiha bu o'lkanning eng ilg'or va fikri uyg'oq yoshlari xorijda tahsil olishiga qaratilgan sa'y-harakatlar edi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Jadid taraqqiyarvarlari tomonidan o'zbek yoshlari Turkiya, Germaniya, Rossiyaning Ufa, Qozon, Saratov va Qrim shaharlarida tahsil olishi uchun moddiy va ma'naviy tomonlama barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Tarixdan bizga ma'lumki, andijonlik tijoratchi Mirkomil Mirmo'minboyev XX asrda Turkistonlik yoshlarning haqiqiy homiysi, bugungi kun ta'biri bilan aytganda o'z zamonasining saxovatpesha metsenati edi. Ammo bu hali hammasi emas, millatning ertasini o'ylab molidan, kerak bo'lsa jonidan ham voz kechib, har qanday

xatarga ko'ksini qalqon qilgan bu insonlar haqida hali aytilmagan gaplar, yozilmagan asarlar, ma'lum qilinmagan, to'liq o'rjanilmagan jihatlar bisyordir.

Shunday atoqli taraqqiyarvar shaxslardan biri bu – Saidnosir Mirjalilovdir.

Saidnosir Mirjalilov (o'zbek adabiyotining zabardast vakili Oybekning turmush o'rtoq'i Zarifa

Saidnosirovaning otasi edi.) 1884-yil Turkiston shahrida tug'ilgan.

Avval eski maktabda, so'ng rus-tuzem maktabida o'qidi, madrasa ta'lmini ham oladi. Yoshligidan tadbirkor va mehnatkash bo'lgan Saidnosir Mirjalilov tuijorlik faoliyatini kichik bir gazlama do'konini ochishdan boshlaydi. U savdo ishlari bilan bir paytda jadid taraqqiyarvarlari g'oyalari bilan tanishadi va Turkiston shahridagi ilk jadid maktabini tashkil etadi. 1914-yil 25-desyatina yerida 40-50 ming rubl puli bilan xususiy paxta tozalash zavodini quradi. 1914-1917-yillar davomida u Turkiston shahrining taniqli savdogari va boylaridan biri sifatida shuhrat qozonadi. Hatto, 1914-yil Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan musulmon vakillar syezdida ham ishtirok etadi.

S.Mirjalilov 1917-yil Turkiston shahar dumasiga saylanadi va siyosiy faoliyatga kirishadi. Fevral inqilobidan so'ng Toshkentda tashkil etilgan "Sho'royi islomiya" tashkilotining faol a'zolaridan biriga aylanadi. Turkistondagi milliy ozodlik harakatining taniqli namoyandalaridan biri Saidnosir Mirjalilov Turkiston mustaqillikka erishishi orzusida 200 000 rubldan ortiq bor sarmoyasini Turkiston muxtoriyati hukumati xazinasiga hadya qiladi. O'zi uchun qanchalik xavfli bo'lishini anglagani holda Turkiston muxtoriyatiga kirib, muvaqqat millat majlisi moliya komissiyasining raisi, hukumat g'aznachisi lavozimida ish olib boradi. Muxtoriyat qonga botirilib, uning rahbarlari ta'qib ostiga olingach, S.Mirjalilov Qo'qondan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Bolsheviklarning Turkiston muxtoriyati rahbarlariga nisbatan qidiruv va ta'qibi kundan-kunga ortib borardi. 1918-yilning mart oyida Toshkentdan Moskva shahriga yetib borib, Turkistonda ro'y berayotgan xunrezliklarga chek qo'yish yo'llarini axtaradi. Shundan so'ng 1918-yilning yozida Kavkaz orqali Turkiyaga borib, Turkistonda kechayotgan dahshatlar haqida jahon hamjamiatini ogohlantirishga qaror qiladi.

Bu vaqtida Toshkentdan Turkiyaga Munavvar qori Abdurashidxonov tavsiyasi bilan muftiy Sadreddinxon Sharifxo'jayev, "Ulamo" jamiyatidan Nuriddinbek



*Saidnosir Mirjalilov*

Xudoyorxonov va G'ozi Olim Yunusovlar kelgan edi. Rasmiy Turkiya bu vaqtida o'zining ahvolini hisobga olib, Turkiston muxtoriyati uchun bevosita yordam bera olmasligini, agar Turkistondan maxsus hay'at tashkil etilsa, "Antanta" hukumati rahbarlari bilan uchrashishga imkoniyat yaratib berishi mumkinligini ma'lum qiladi. "Ulamo" jamiyatni vakillari bu yordamni rad etib, Toshkentga qaytadi. S.Mirjalilov Istanbulda qolib, Turkiyada yashayotgan Shohid Ehson Musayev, Nuriddin hoji Musoboyev kabi ko'plab vatandoshlari bilan uchrashadi. So'ngra Toshkentga kelib, Turkiyada olib borgan ishlari haqida Turkiston taraqqiyarvarlariga xabar beradi.

Ikki hafta Toshkentda bo'lib, maxsus hay'at masalasini muhokama qiladilar. So'ng Krasnovodsk-Karki-Taxtabozor orqali Bokuga yo'l oladi va u yerda Turkistondan keladigan maxsus hay'atni kuta boshlaydi. Biroq Mahmudxo'ja Behbudiy va uning hamrohlarining Qarshida sirli o'limi barcha rejalarini chipakka chiqaradi. S.Mirjalilov 1919-yil yozida Tbilisisiga keladi va ikki yil davomida Tbilisida yashaydi. 1921-yil yozida Botumi orqali yana Istanbul shahriga borib, Turkistonning kelgusidagi masalasida muzokaralar olib boradi. Biroq vaziyat chigalligicha qolaveradi. S.Mirjalilov hayotini vatandan va oilasidan uzoqda tasavvur eta olmasdi. Shu bois, u qolgan umrini ham milliy istiqlol uchun kurashda o'tkazishga qaror qiladi. 1921-yil so'ngida bolsheviklar e'lon qilgan umumiyligi tufayli Turkistonga qaytib, 1921-yil dekabrida Toshkentga kirib keladi.

1922-yil boshida S.Mirjalilov Turkiston hukumatidagi mahalliy rahbarlar, jumladan, Abduqodir Qushbegiye, Ali Rasulevlar bilan maslahatlashgan holda, sobiq hamkorlari Toshkentlik boylar Najmiddin Sherahmadboyev, Mirodil Mirzaahmedov, Tolibjon Musaboyevlar bilan "Turkiston" savdo-sanoat shirkatini tashkil etadi. Shirkat daromadining asosiy qismini o'lkada maorif va madaniyatlari yuksaltirish sohasiga qaratadi. Jumladan, "Ko'mak" jamiyatni orqali iste'dodli yoshlarni Germaniya va Turkiyaga mamlakatlariga o'qishga yuborishga homiylik qiladi. 1923-yil yanvar oyida Toshkentda "Nashri maorif" jamiyatni ochilganida S.Mirjalilov, T.Musaboyevlar uning ta'sischilariga aylanadilar. 1925-yilning 12-dekabr kuni Saidnosir Mirjalilov aksilinqilobi faoliyatda ayblanib qamoqqa olinadi va 1926-yil 16-iyulda uch yilga dahshatli Soloves konslageriga hukm qilinadi. Bir necha marotaba "qo'shib berish"lar oqibatida Toshkentga farzandlari huzuriga faqat 1936-yildagina qaytib kelishga erishadi. Biroq 1937-yil 18-iyulida yana qamoqqa olinib, hech bir aybi isbotlanmagani holda 1937-yil 9-oktjabr kuni mash'um "uchlik" tomonidan o'lim jazosiga hukm etiladi.

Saidnosir Mirjalilov saxiy va bag'rikeng inson edi. U ko'plab turkistonlik yoshlarni ilm-fanga, san'at va hunarga ilhomlantiradi. Ularga keragida homiylik, ustozlik qildi. Uning "jinoiy ishi"da bir qator turkistonlik talabalarning Berlindan yo'llagan maktublari mavjud. Xatlar S.Mirjalilovga yuksak ehtirom bilan, ayni paytda, do'stona ohangda yozilgan. Talabalar, avvalo, Germaniyadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvol,



o'zlarining ilm yo'lidagi harakatlari va faoliyatları, iqtisodiy holati haqida axborot beradi. Qiziq jihatı, sho'rolar hukumati talabalarni iqtisodiy siquvga olib, ularga pul yuborishning barcha yo'llariga to'siq qo'ygan edi. Shunday bir sharoitda S.Mirjalilov Moskvaga borib, u yerda faoliyat olib borayotgan nemis kompaniyalari bilan kelishib, pul yuborish yo'llarini topadi. Maktublarda maxfiy qilib yozilgan “Man afandi” aynan Saidnosir Mirjalilov edi.

Saidaxonim Sherahmedova (1905–1992)ning 1925-yil 20-yanvar Berlindan yozgan xatida u o'zbek qizlariga xos shaddodlik bilan boy otaga “dakki” bergani ko'zga tashlanadi: “Qizlaringiz haqqindagi fikringiz bir qadar konservativ fikr ko'rindig'idan men bu fikrga bus-butun qarshiyim va har chanida hech o'lmafsa asarini anglaya bilajak bir daraja qadar o'qitmog'iniza tarafdarom. Turkistonda bo'lundug'i zamonda so'yladingiz mone'lar Toshkenta keldig'idan so'ngra qolmas deb ideya qildim”, – deydi. Shubhasiz, Germaniyada tahlil olgan ilk o'zbek qizlari Xayriniso, Maryam va Saidaxonimlar o'sha vaqtlarda barcha Turkiston ayollarining faxri edi. Aytish joizki, bu xatlar S.Mirjalilovga yetib ham borgan emas. Aksincha, pochtadan to'g'ri maxsus “idora”ga kelib tushavergan. Keyinchalik o'z ustozlarining qamoqqa olinib, mahv etilganini eshitgan shogirdlar sho'rolar mamlakatiga qaytishdan bosh tortganlar. Germaniyada o'qigan ayrim talabalarning Saidnosir Mirjalilovga Berlindan yuborgan xatlaridan ko'rindiki, xalqimizning asl ziyoli va saxovatli kishilaridan bo'lgan Saidnosir Mirjalilov o'sha vaqtida xorijga o'qishga ketgan vatandoshlarimizni imkon qadar moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turgan. Ming afsuski, 1937-yil va undan keyingi qatag'onlar ana shunday hurfikrli bobolarimizni yo'q qilib yuborgan edi.

O'sha davrda ziyoga intilganlar orasida bir nechta

xotin-qizlarimiz ham bor edi. O'zbek ayoli chet davlatga u yerni tilini yaxshi bilmay, lekin ilm izlab, har qanday qiyinchiliklarni gardaniga olib yo'lga otlanishi o'sha davr uchun katta jasorat aslida. Chunki O'zbekistonda 1920-yillar boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat xotin-qizlarni maktablarga jalb etish ishiga to'sqinlik qilardi. Xususan, 1921–1922-yillarda BXSR va XXSRda bir necha qizlar maktablarda ta'lim olardi, xolos. Keyingi yillarda esa ushbu ikki respublikalarda uchtadan xotin-qizlar maktablari ish olib bora boshladи<sup>1</sup>. Turkiston maktablarida qizlar ko'proq fors va turk she'riyatini o'rganib, yozuvga kam e'tibor berilgan<sup>2</sup>. Ularga umuman dunyoviy bilimlar o'rgatilmagan va dunyoviy ishlarga aralashishlari, dunyoviy ilmlarni olish mumkin bo'lmagan. Ayrim joylarda qizlar maktabi bo'lsa-da, ota-onalar ularni bir yil ta'lim organidan keyinoq maktabdan chiqarib olgan.

Qizlar juda erta tur mushga berib yuborilgan. Jadidlar yangi usuli maktablarda o'g'il va qiz bolalarni bir yerda ta'lim olishini yo'lga qo'ya boshlaydilar. Shunday maktablardan birida Abdulqodir Shakuriy Samarqandda dars berdi. Qizlarni o'qitishga uning xotini ham ko'mak bergen<sup>3</sup>. Tabiiyki, o'sha davrdagi bu yangicha usul mahalliy boylar, ruhoniylarning noroziligiga sabab bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, bunday maktablar Turkistonning boshqa hududlarida ham ochila boshlagan. Arxiv hujjatlariga ko'ra, bunday maktablardan Toshknetdagи Eshonxo'ja Xonxo'jayev yangi usuli maktabida 3 nafar, Sobirjon Rahimovning maktabida 15 nafar qiz tahlil olgan<sup>4</sup>. Demakki, ilmga bo'lgan ishtiyoq, yuksalish, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan o'sishga intilish shu darajada yuqori bo'lgan-ki, bu ayol-qizlar ta'lim olish yo'lida o'zga bir davlatga borishga ham tayyor bo'lgan. 20-yillarning boshlarida O'zbekistonda xotin-qizlar ta'limi ular uchun maxsus ochilgan maktablarda tashkil etildi. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalarning birga ta'lim olish tizimiga ham asta-sekin o'tila boshlandi. Masalan, 1923-yilda Buxorodagi 12 ta maktab-internatda 300 nafar o'g'il va qiz bolalar birgalikda ta'lim olgan. Xorazmda esa bunday maktablar soni 10 taga yaqin edi<sup>5</sup>.

Bu davrda mahalliy hokimiyatlar ham xotin-qizlar

<sup>1</sup> O'zR MDA. 47-I-fond, 1-ro'yxat, 333-ish, 16-orqa varaq.

<sup>2</sup> O'zR MDA. 47-I-fond, 1-ro'yxat, 333-ish, 16-orqa varaq.

<sup>3</sup> O'zR MDA. 1-I-fond, 31-ro'yxat, 943-ish, 23-sahifa.

<sup>4</sup> O'zR MDA. 47-I-fond, 1-ro'yxat, 1148-ish, 149-orqa sahifa.

<sup>5</sup> Q.Nishonboyeva dissertatsiyasi. O'zR MDA. 3-47-fond, 1-ro'yxat, 404-ish, 124-sahifa.

ta'lmini yaxshilash uchun turli tadbirlarni amalga oshirishga harakat qildilar. Shunday tadbirlardan biri Toshkentning eski shahar qismida 1922-yil 16-24-mart kunlari o'tkazilgan "Ta'lim haftaligi" bo'ldi. Haftalikda 100 dan ortiq xotin-qiz ishtirok etdi. Unda sho'rolar ta'lim tizimining "ulug'ligi" va eski ta'lim tizimining "zararliliqi" ta'kidlandi. Haftalik oxirida esa, eski maktab va undagi o'qish usullari ustidan teatrlashtirilgan sud o'tkazildi<sup>6</sup>. Xotin-qizlarni ommaviy ravishda "ochish" kompaniyalari tufayli, ularning erlari bilan munosabatlarida muammolar yuzaga kela boshladi. Sovet hukumati bergen "erkinlik" ana shunday natijalarni bera boshladi. Uch-to'rt kun darslarga borib, ajralish to'g'risida "maslahatlar" olgan xotin-qizlar qaytib bunday maskanlarga borishdan bosh tortishdi<sup>7</sup>.

20-yillarda xotin-qizlarning savodsizligini tugatish maqsadida ochilgan savodsizlikni tugatish maktablarining ochilishidan savod chiqarish emas, balki maishiy muammolarni hal etish kabi siyosiy maqsadlarni ko'zlaganligi ayon bo'ladi. Bu esa oilalardagi ajralishlarning soni ortishiga olib keldi. Bundan kelib chiqib, jadidlar ta'larning haqiqiy shakli zarur ekanligini, nafaqat erkaklar, balki ayollarni ham ziyoli qilish muhim ekanligini xalqqa singdirishga harakat qiladilar. Yangi usuli maktablarda jadidlar xotin-qizlar ham erkaklar bilan teng huquqli bo'lib, ular o'rtaida farq bo'lmasligi, teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydilar. Ular: "*Xotunlar ilmli bo'Imoqlari lozim. Ilmli bo'Imagan kishi tarbiya usulidan albatta mahrum bo'ladi. Bolalar tarbiyasini xotunlarga maxsus bir vazifa bo'lgani uchun tarbiya qiluvchilarning bilim darajalari yuqori bo'lmog'ini taqozo etadi*"<sup>8</sup>, – deya ta'kidlashgan.

Jadidlarimizning xotin-qizlarning ma'orif masalasi muhim ekanligi, ularning jamiyatda erkaklar bilan teng tarzda ta'lim olishi zarurligini bot-bot ta'kidlangan maqolalalarini o'sha davr matbuotida ko'p uchratish mumkin. Jadidchilik harakatining namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat: "*Kelajak avlodlarimizning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo'imasliklari uchun xotin-qizlarimizni o'qimishli, sog'liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo'lishlari kerakligi zarur. Oiladagi mushkul vazifa go'dak tavalludidan so'nggi er-xotin bo'yniga tushadigan farzand tarbiyasidir*", – deb ta'kidlaydi<sup>9</sup>. U o'zining "Oila" asarida ham xotin-qizlarimizning avvalo tibbiy madaniyatini oshirish zarur ekanini, uch bosqichga bo'lingan bola tarbiyasida birinchi galda jism tarbiyasi turadi, deydi. Asarda muallif badan tarbiyasi bolaning to 7 yoshga to'lguniga qadar

<sup>6</sup> Газета "Известия", 7 апреля 1922 года.

<sup>7</sup> O'ZR Prezidenti huzuridagi arxiv. 58-fond, 1-ro'yxat, 2115-ish, 9-sahifa.

<sup>8</sup> Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: "O'qituvchi", 2002-y. 31-sahifa.

<sup>9</sup> Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: "Ma'naviyat", 2000-y. 5-sahifa.

<sup>10</sup> "Yoshlik" jurnali, 2019-yil, 9-soni.

<sup>11</sup> Turdiev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. – T.: 9-sahifa. 2006-y.

ota-onaning mas'uliyati bo'lib, u bolaning sog'lom, har xil odatlardan saqlangan holda, kamolotga yetkazishda muhim ekanligini uqtiradi. Farzandning ilk kunlaridan uni yuvintirish, yo'rgaklash, uxlatalish soatlari ahamiyatli bo'lish, buni muntazam va to'g'ri bajarilishi bo'yicha ketma-ket dasturilamal ham berilgan. Xususan, bolaga qaysi payt qancha miqdorda sut berish, uning uyqu vaqt, beshikda yotgan payti erkin harakatlanishini ta'minlash va boshqa shunga o'xshash muhim jihatlar alohida ta'kidlab o'tilgan.

Manbalarda qayd etilishicha, 1922-yilda o'zbek yoshlari ilk bora Germaniyaga yuboriladi. Bu tarixiy voqeaga bu yil 101 yil to'libdi. O'sha davrda Germaniya oliygohlarida tahsil olayotgan ruslar soni 10 ming, yaponlar 4 ming, usmonli turklar 2 ming, eronliklar va afg'onlar 500, arablar esa 200 nafar bo'lganlari holda O'zbekistondan birgina Abduvahob Murodiy o'z yo'li bilan borib, Gyote va Geyne vatanidagi oliy o'quv yurtlaridan birida tahsil olayotgan edi<sup>10</sup>. Turkistonlik ma'rifatparvar Salimxon Tillaxonov bu holatni ko'rib: "Chetga ko'proq o'quvchilar yuborish kerak" ("Turkiston" gazetasi, 1923-yil 11-mart), – degan maqolasida jo'shib yozgan edi: "**Germaniyada Rossiyaning 10 000, Yaponiya-nning 4 000, Turkiyaning 3 000, hatto, Xitoyning 3 000 talabasi bor ekan. Mana bu hisobga qaraganda, 12 million nufusga molik Turkistonimizdan 70 nafargina talaba-nning bo'lishi hech vaqtida bizni qanoatlanira olmaydir. Harakat qilib, kelg'usi yillarda Ovruponing har burchagiga 70 minglab talabalar yuborishimiz kerakdir. Bizning do'xtirimiz, adibimiz, muarriximiz, texnigimiz, faylasufimiz va hokazo ulug' ishchilarimiz, yo'l boshlag'uvchilarimizni o'z ichimizdan chiqarishimiz lozimdir. Tajribalik do'xtirlarimizning yo'qligidan elimizning buyuk qismi qo'rqinchli yuqumli kasalliklar bilan dunyoga vaqtisiz vido etmoqdalar. Tarbiya yo'sinini bilmaganimiz uchun yangi tug'ilgan bolalarning 30-40 foizi o'lib ketadir. Toshkentning o'zida bizga qaraganda ozgina bo'lgan ovrupoliklarning 100 ga yaqin do'xtirlari bor. Bizda bo'lsa, sog'ni kasal qilg'uchi, kasalni o'ldirguchi 5-10 ta nodon tabiblarimizdan boshqa hech nimamiz yo'qdir".**

1921-yil 23-aprelda Toshkentda o'tkazilgan o'zbek ilmiy komissiyasi majlisida o'zbeklardan xorijga talabalar yuborish masalasi muhokama qilindi. Unda komissiya a'zosi A.Yunusovning ma'ruzasi tinglandi. A.Yunusov bu xususda to'xtalib, shunday dedi: "**Har qanday mamlakatning istiqboli ko'p hollarda uning manfaatiga xizmat qilishga yetarli darajada tayyor bo'lgan yuqori ma'lumotli faollarga bog'liqdir. Shuning uchun biz, masalan, Yaponianing G'arbiy Ovrupo mamlakatlariga yuborib, o'z olimlari, muqandislari, vrachlari va boshqalarga ega bo'lganligini ko'ramiz. Turkiston Respublikasi kelgusida, haqiqatan ham, o'z milliy avtonomiysi taraqqiyotiga erishmoqchi bo'lsa, unda yaqin kelajakda o'zining tub aholisi ichidan o'z oldida turgan katta vazifalarni qal qilish imkoniyatiga**

**ega bo‘lgan, yuqori darajadagi zamonaviy ilmlar bilan qurollangan faollariga ega bo‘lishi kerak”<sup>12</sup>.**

Aynan shuning uchun ham bu davrda jadidlar yoshlarni xorijga o‘qishga ko‘proq yuborish, buning natijasida davlatni yanada rivojlantirish, rahbarlar ichida o‘z millatimiz vakillari sonini oshirishni maqsad qilishadi. Qolaversa, fan va xo‘jalikning turli sohalarida zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yoshlarning yuqori malakali kadrlar bo‘lib qaytishi xalqimiz va mamlakatimizning keyingi taqdiriga katta ta’sir o‘tkazishi mumkin edi. Dastlabki harakatlar o‘laroq “**Ko‘mak**” tashkiloti orqali moddiy jihatdan talabalarning ta’limini qo’llab-quvvatlash tizimi yo‘liga qo‘yildi.

Ko‘plab saxovatpeshalar imkon qadar bu talabalarga yordam berishadi. Shulardan biri A.Murodiy Germaniyada oliy ziroat maktabida tahsil olayotgani, u o‘qishini bitirguniga qadar ta’minotni bo‘yniga olgan shaxs vafot etganini, ta’minotsiz qolgani va agar unga yordam qo‘li cho‘zilmasa o‘qishini davom ettira olmasligini, uni tashlab ketishga majbur bo‘lishini ma‘lum qiladi va bu haqidagi maqola 1922-yil 26-noyabrda “Turkiston” gazetasida “**Chetdagi talabalarga yordam**” nomi ostida bosilib chiqadi. Shundan keyin, 23-noyabr kuni Toshkent yoshlarining “**gap**” yig‘ilishlarida Murodiyning xati o‘qib berilgan va yig‘ilganlar bir og‘izdan o‘z maoshlarining 25 foizini Berlinga yuborishga va’da bergenlar. Toshkentlik bir guruh maorif va madaniyat xodimlari uning moddiy ta’minoti uchun qog‘oz va oltin pul, Mirzacho‘l dehqonlari nomidan esa qo‘y va meva-cheva yuboradilar. Jumladan, jadid ziylolaridan Saidnosir Mirjalilov 20 000 so‘m, Cho‘lon 7 500 so‘m yuboradilar, Munavvar qori Abdurashidxonov, Shokirjon Rahimiylar ham alohida himmat ko‘rsatadilar. Bundan tashqari, Toshkent ma‘rifatparvarlari 2-dekabrdan adabiy kecha uyuştirib, undan tushgan sof foydani (75 000 so‘m) “tegishli yo‘llar bilan” Abduvahob Murodiyga yetkazadilar<sup>13</sup>.

Bu hali hammasi emas, gazetada turkistonlik chetda ta’lim olayotgan talabalarga yordam berishga undab ko‘plab maqlolalar e’lon qilib turilgan. Ko‘p talabalar atigi bir yillik, ayrimlari o‘zida boricha mablag‘ bilan yana boshqalari hech qanday mablag‘siz tavakkal qilib yo‘lga otlangani, ularning ziyoli bo‘lib yurtga qaytishi Turkistonning ham rivojiga ta’sir ko‘rsatmay qolmasligi ta’kidlangan. Ma‘rifatparvarlarimiz uchun Turkistonlik talabalarning mablag‘ yetishmasligi sababli o‘qishni tashlab ketishlari ziyorilar, mas’ullar uchun juda uyatlari, sharmandalik bir hol sanalardi.

1922-yildan boshlab Turkiston Respublikasi va Buxoro Respublikasi rahbarlari birgalikda Germaniyaga 70 dan ziyod yoshlarni o‘qishga yuboradi. 1923-yil sentyabrida talabalar ahvolini bilish

va yaxshilash uchun Germaniyaga borgan Turor Risqulov “Germaniyadagi o‘quvchilarimiz” (“Turkiston” gazetasasi, 1923-yil 19-dekabr) maqolasida ular soni haqida ma‘lumot bergan. Unga ko‘ra talabalar orasida 1 nafar qiz gimnaziyada tahsil olgan. Germaniyada ta’lim olgan xotin-qizlarimiz ko‘pchilikni tashkil etardi aslida. Xususan, Gulsum Rahimova, Xayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova, Ruqiya Xo‘jayeva, Xayriniso Ismoilova va boshqalar edi.

20-yillarning boshlarida Germaniyaga o‘qishga borgan talabalar vatan ishonchini oqlab, ilmli bo‘lishga, dunyoning turli burchaklaridan kelgan talabalarning tili, madaniyati, urf-odatlarini o‘rganishga, fan va texnikada erishilgan barcha yutuqlarini puxta o‘rganishga, o‘z milliy madaniyati hamda san‘ati haqida tasavvur uyg‘otishga ham harakat qildilar. Ular nemislar o‘tasida “**Sharq kechaları**”ni o‘tkazib, milliy ashula va raqslarimizni targ‘ib qilib bordilar. O‘zlarining “**Ko‘mak**” ilmiy, adabiy va ijtimoiy jurnalini nashr qildilar<sup>13</sup>. Afsuski, Germaniyada tahsil olganlarning barchasi keyinchalik ta’qiqqa uchradiilar. 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab SSSRda Germaniyada tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalarga nisbatan siyosiy ta’qib va shubha kompaniyasi tobora kuchayib boradi. Natijada, 1927-yil yozgi ta’til kunlarida O‘zbekistonga kelgan Solih Muhammad, Nasriddin Sherahmad o‘g‘lining Germaniyaga qaytib borishiga ruxsat berilmaydi. Bunga chiday olmagan Nasriddin Sherahmad o‘g‘li, hatto, o‘z joniga qasd qiladi va tasodifan o‘lmay qoladi.

1937-yilning qonli voqealari boshlanishi bilan ularni Germaniyaning josuslari va aksilinqilobchi-millatchi unsurlar sifatida mahv etdi. Ularni turli tuhmatlar bilan qamashdi, otishdi, surgun qilishdi. Safdoshlarining taqdirdan xabar topgan ayrim yoshlar Germaniyadan qaytishmadi. Ularning ko‘pchiligi Germaniya va Turkiyada faoliyatlarini davom ettirishdi, chunki davr shuni taqozo qilgan edi. O‘ttizinchi yillarga kelib, sobiq Ittifoqning g‘arbiy sarhadlaridan sharqiy sarhadlarigacha, shimoldan janubgacha bo‘lgan diyorning eng bilimdon, sara farzandlari ta’qibga giriftor bo‘ldi, xayollariga kelmagan ayblar ularga taqalib, hibsga olindi, ko‘plariga “**Xalq dushmani**”, “**Millatchi**” degan tavqi la’nat osilib, otib yuborildi.

Bu sovuq shamollardan Maryam Sultonmurodova ham chetda qolmadidi. Maryam Sultonmurodova 1919-yil komsomol safiga o‘tgan, 1921-22-yillarda Xorazm Okrug Kommunistik partiysi Markaziy Qo‘mitasida madaniyat ishlarini boshqargan, keyinchalik xotin-qizlar bo‘limi mudiri vazifasida ishlagan edi. Urganchning Chandir Qiyot qishlog‘idan chiqqan qizning na rus tilini, na olmon tilini bilmagani holda Olmoniyaga o‘qishga borishga rozilik berishining o‘zi u davrning chinakam qahramonligi edi aslida.

(Davomi bor)

<sup>12</sup> “Turkiston” gazetasasi, 1922-yil, 18-dekabr.

<sup>13</sup> Turdiev Sh. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. 14-sahifa. – T.: 2006-y.

## SHOHSANAM OBRAZI SULTONPOSHSHA RAHIMOVA IJODIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama teatri aktrisasi, O'zbekiston xalq artisti Sultonposhsha Rahimovaning hayoti va ijodi yoritiladi. Shuningdek, "Oshiq G'arib va Shohsanam" spektaklida Sultonposhsha Rahimovaning Shohsanam obrazni tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** spektakl, masxaraboz, musiqa, rejissyor, partnyor, doston, baxshi, xalfa, detal, mizansena.

## ОБРАЗ ШОХСАНАМ В ТВОРЧЕСТВЕ СУЛТОНПОШШИ РАХИМОВОЙ

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о жизни и творчестве Султанпошии Раҳимовой, актрисы Хорезмского областного музыкально-драматического театра имени Огахи, народной артистки Узбекистана. Также говорят, что большую роль в творчестве Султанпошии Раҳимовой сыграл персонаж Шахсанам в спектакле "Ашик Гарип ва Шахсанам".

**Ключевые слова:** спектакль, клоун, музыка, режиссёр, партнёр, дастан, бакши, халфа, деталь, мизансцена.

## THE IMAGE OF THE PRINCESS IS IN THE CREATION OF SULTANPOSHSHA RAKHIMOVA

**Abstract.** This article describes the life and work of Sultanposhsha Rakimova, an actress of the Khorezm Regional Musical Drama Theater named after Ogakhi, People's Artist of Uzbekistan. It is also said that the character of Shahsanam in the play "Ashiq Garib va Shahsanam" played a big role in the creative skills of Sultanposhsha Rakimova.

**Key words:** performance, clown, music, director, partner, epic, bakshi, halfa, detail, miseanscene.



O'zbek teatr sahnasida chinakam iste'dodli, fidoyi, bir umr xalq ijodidan bahra olgan san'atkorlar ko'p. Ulardan biri O'zbekiston xalq artisti Sultonposhsha Rahimovadir.

Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama teatrining tomoshabin va san'at ahli Sultonposhsha Rahimovaning nomini eshitar ekan, ularning ko'z o'ngida bu san'atkor yaratgan o'nlab ajoyib obrazlar gavdalananadi. Aktrisa haqida yozilgan kitoblardan ma'lum bo'lishicha, Sultonposhsha Rahimova o'zining ijodi davomida ikki yuzdan ortiq asosan bosh qahramonlarni gavdalantirgan. U "Layli va Majnun", spektaklida Layli, "Nurxon" musiqali dramasida Nurxon, "Tohir va Zuhra" spektaklida Zuhra, "Maysaraning ishi"da Oyxon, "Aziz va Sanam" pyesasida Sanam, "Oshiq G'arib va Shohsanam" spektaklida Shohsanam obrazlarini tahsinga loyiq darajada talqin etgan.

Ayniqsa, "Oshiq G'arib va Shohsanam" spektaklining Ogahiy teatr tarixida o'rni kattadir. Bu asar musiqali teatrining yosh aktyorlari uchun mahorat maktabi bo'ldi. Chunki mazkur musiqali spektakl o'zining mazmundorligi, asar tilining ravonligi, musiqalarga boyligi hamda xalqchilligi bilan ajralib turadi. Bastakor Rahmon Ollaberganovning ijodi spektakl haroratini yuksaltirgan.

Ushbu asar qator san'atkorlar uchun aktyorlik iste'dodi, mahorat maktabi, ijrochilik san'atining sinash mezoniga aylangan. Birgina Ogahiy nomli teatrning o'zida Shohsanam obrazini Rajabbibi Boyjonova, Onabibi Ochilova, Bibijon Iskandarova, Shirin Ramazonovalar talqin etgan. Sultonposhsha Rahimova Shohsanam obrazini yaratish orqali o'zida dramatik mahorat bilan ashulachilikni mujassamlashtirgan san'atkor sifatida tanilgan. Bu obrazda o'ziga xos xalqchillik, hayotiylik mujassam. Boshqa qator aktrisalar ijrosidan asosiy farqi ham shunda.

S.Rahimova maxsus san'at matabida tahsil ko'rmagan. U 1929-yil Xivada san'atkorlar oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi Rahim Ollaberganov xalq masxaraboz, amakisi Rahmon Ollaberganov esa Xorazmnинг ko'zga ko'ringan bastakorlaridan bira bo'lgan. Keksa san'atkor Otaxon Matyoqubovning eslashicha: "Sultonposhshani bolalik paytlaridan yaxshi bilaman. Uning otasi hamda amakisi to'y va konsert tomoshalarida jajji qizaloqni o'zi bilan birga olib yurardi. U yoshlik paytidanoq iqtidorli qo'shiqchi bo'lib tanilgan. Mana shu ishtiyoq, qobiliyat kelajakda uni aktrisa bo'lib shakllanishiga imkon berdi. Shuning uchun ham amakisi Rahmon Ollaberganov "Oshiq G'arib va Shohsanam" musiqasini jiyanı Sultonposhsha Rahimova imkoniyatidan kelib chiqib yozgan" [1]. O'sha paytlarda amakisi Rahmon Ollaberganov teatrda musiqa rahbari bo'lib ishlar, ijodi jarayonlarda akasi bilan ko'p maslahatlashardi. Uning kuylarida xalq badiiy ijodkorligi, xususan, dostonlar, xalq termalarining kuchli ta'siri sezilib turishi, musiqiy dramaturgiyaga masxaraboz o'yinlari, hajviy kuylarni xarakterli vosita sifatida singdirib yuborilishi shundan. Ayniqsa, "Oshiq G'arib"da bu usul ko'p foyda bergan. "Meni Shohsanam rolida o'ynashga ko'ndirgan ham amakim edi, – deya xotirlaydi ustoz san'atkor. – U men uchun maxsus qo'shiqlar ijod etdi. Amakimning ish uslubi ham, qo'shiq va kuy yaratishi ham o'ziga xos edi. U xalq kuy va qo'shiqlari, zamonaviy ijrochilik uslubini juda yaxshi bilardi" [2.19].

Zamondoshlarining xotirlashicha, Sultonposhsha Rahimova teatr san'ati ravnaqiy uchun kuch-quvvatini ayamagan, butun umrini san'atga baxshida qilgan ijodkor bo'lgan. U Gulsara, Xolisxon, Nurxon, Zuhra, Shohsanam, Shirin bo'lib sahnada jarangdor va mayin ovozi bilan kuylar edi. U bilan yonma-yon katta sahnada

turib xalqimizga xizmat qilgan O'zbekiston xalq artisti Shirin Ramazonovaning eslashicha: "Sultonposhsha opa sahnadagi har bir harakatini mehr bilan bajarardi. O'z rolini aniq va maromiga yetkazib ijro etar, tomoshabin ko'z o'ngida tirik Shohsanam turgandek bo'lardi. Aktrisa ham ovoz, ham tashqi qiyofasi jihatidan Shohsanam roliga mos tushgan. Spektakldan so'ning uning yoniga keluvchi muxlislari niyoyatda ko'payib ketardi. Qarsaklar yog'ilardi... Opa tabiiylikni yoqtirardi, o'z qahramonini mehr bilan, muhabbat bilan suyardi.. Ko'plar uni "Xorazm bulbuli" der edi. Uning jarangdor ovozi ko'plab yurakka kirib bordi... Qahramonini ishonarli qilib sahnaga olib chiqishda tunu kun tinmasdi, orom neligini bilmasdi" [3].

Aktrisani xalq orasida, davralarda qo'shiq kuylash orqali san'atga kirib kelganligi teatr san'ati xususiyatlarini o'rganish va o'zlashtirishida ham ahamiyatga molik bo'ldi. Tomoshabin bilan muloqot, partnyorni his qilish, ovoz pardalaridan foydalana bilish mahorati sahnada badiiy obraz yaratishida ham qo'l keldi. Mazkur spektaklda ijro etilgan ariya va duetlarning aksariyati bunga qadar ham Sultonposhsha Rahimovaning ijro repertuaridan joy olgan xalq qo'shiqlaridan iborat bo'ldi. "Rahmon aka musiqani yozishda ishni baxshi va xalfalardan boshladi. Dastlab Bola baxshi – Qurbonnazar Abdullayevga uchrashdi. "Oshiq G'arib" dostoni yetmish ikki mustaqil kuy bilan ijro etilgan bo'lib, hozirda uning o'ttiz to'rt kuyigina saqlanib qolgan. Spektaklda teatr imkoniyatidan kelib chiqib, yondashilgan. Bastakor "Oshiq G'arib"ning Xorazmdagi hamma ijrochilari Qodir sozchi, Juma ota kabi baxshilar, Soraxon Ollaberganova, Nazira Sobirova kabi xalfalar bilan uchrashib, ko'pgina kuylarni yozib oladi, sahna asariga moslashtiradi. Bu ishlarda una shogirdi Abdusharif Otajonov yaqindan hamkorlik qiladi" [2.14]. Sahnaviy jilo berilgan xalq qo'shiqlari ijrosi Shohsanam xarakterini yaratishda aktrisaga qulay shart-sharoit yaratib bergen bo'lishi aniq. Buni R.Olloberganovning o'zi ham suhbatlarida e'tirof etgan. "Bastakor yaratgan kuyni o'zi his qilgandek ijro eta biladigan xonandani topish uchun ham mas'uldir. U kuy bastalar ekan, xayolida uni ijro eta biladigan san'atkor siymosi gavdalanadi. Men ushbu kuyni butun qochirimlari bilan ijro etadigan ashulachi faqat jiyanim Sultonposhsha bo'lishi mumkinligini his qildim. O'ylaganimdek bo'lib chiqdi. Kuy quyib qo'ygandek uning ovoziga mos keldi va tezda ommaviyashib ketdi" [2]. Ushbu kuy-qo'shiqlar Sultonposhsha Rahimova ijodiy mahoratining yanada takomillashuvi uchun qulay shart-sharoit yaratib berdi.

Ustoz san'atkor sahnada tabiiy ijrosi bilan ajralib turar, voqealarni o'z boshidan kechirayotgandek samimiy ijro etar, obrazni hayot haqiqatiga imkon qadar yaqinlashtirishga intilar edi. Bu haqda uning shogirdi Shirin Ramazonova shunday deydi: "Sultonposhsha Rahimova izlanuvchan, sermulohaza san'atkor bo'lgan. U doimo yaratayotgan qahramonining ruhiy kechinmasi

bilan yashardi. Obraz tahvilida aktrisa doimo o'ziga xos mustaqil yo'ldan borib, qahramoni xarakterining aniq, oddiy va tushunarli bo'lishiga intilardi. Shuning uchun ham aktrisa har gal repititsiyaga yangi fikr, qahramon xarakterini, asar g'oyasini ochishga xizmat qiladigan biror detal topib kelardi. Lozim bo'lsa, rejissyor taklif etgan mizanssenani qahramon xarakteri mantig'idan kelib chiqib, o'zgartirishga ham erishardi" [3].


San'atkor "Oshiq G'arib va Shohsanam" musiqali dramasida ilk bor bosh qahramonni talqin etar ekan, obraz yuzasidan o'z uslubi, ijodiy yondashuvini ko'rsata bildi. Ushbu obrazni sahnada birinchi bo'lib yaratish aktrisadan uzoq izlanish, tinimsiz ijod qilish, mahorat ko'rsatishni talab qildi. Shuningdek, mazkur qahramonni yangi topilmalar hisobiga badiiy bo'yoqlar bilan boyitish, obrazni to'lqonli ifodalash borasida ham boshqalarga namuna bo'la oldi. Uning bu boradagi o'ziga xos ijro yo'li keyinchalik Xorazm teatri aktyorlari tomonidan davom ettirildi. Ana shunday topilmalardan bir nechtasini "Oshiq G'arib va Shohsanam" spektaklida kuzatish mumkin. "Mazkur spektaklda sahna to'ridagi ko'shk ikki yarim-uch metr balandlikda bo'lib, ko'shkda o'tirgan Shohsanam yorini ko'rib, o'ziga sig'may yerga otlishi hech kimni befarq qo'ymaydi. G'arib chaqqonlik bilan qizni tutib oladi. Aktyorlarning aytishicha, mazkur sahna har gal tomoshabinning tahsiniga sazovor bo'ladi. Ilk bor ko'shordan o'zini yerga otish, mahoratli xonanda Sultonposhsha Rahimovaning o'ziga xos topilmasi edi. Keyinchalik butun zalni to'lqinlantirib yuborgan bu detal boshqa aktrisalar ijrosida ham qo'llaniladi va olqish oladi" [4.128]. Bundan ko'rindaniki, ushbu sahna muvaffaqiyatlari ijro etilishida aktrisaning obraz qiyofasiga tabiiylik bilan kira bilish qobiliyatini qo'l keladi. Aktrisa obraz xarakteridan kelib chiqqan holda, aynan unga mansub jihatlarni ochishga yordam beradigan badiiy vositalarni izlaydi va to'g'ri tanlay biladi.

Demak, xalq badiiy ijodkorligidan unib chiqqanligi sababli ham Sultonposhsha Rahimovaning ijodida ko'proq xalq ijodkorligi ustuvorlik qilgan. U teatrning qolipiga tushib qolmasdan, balki xalq ijrochiligidagi tayandi. Bir so'z bilan aytganda, yoshligidan xalq musiqasiga yaqinligi, musiqa ruhini, tabiatini his eta olish iste'dodi sababli, aktrisa musiqali drama janrinining yetuk mutaxassisini bo'ldi.

Turli davrda sahna yuzini ko'rgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" musiqali dramasining Xorazm hamda Muqimiy teatrida sahnalashtirilishida o'ziga xos xislat bor. Avvalambor, ushbu asarda aktyorlik maktabi uchun juda katta imkoniyatlar yaratilgan edi. Sababi, tajribali va endi-endi sahnaga chiqqan yosh aktyorlar ham xalq og'zaki ijodi namunalari asosida yaratilgan sahna asarida ovoz imkoniyatlari, xalq orasida mashhur bo'lgan aytishuvlar, termalar zaminida bastalangan musiqa hamohangligida obraz yaratadilar. Dramatik holatdan musiqaga, yoxud musiqiy chiqishlardan dramatik holatlarga o'tishda aynan xalq og'zaki ijodiyoti an'analari ko'maklashdi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O.Matyqubov bilan suhbat. 2021-yil, Toshkent shahri.
2. Sh.Ramazonova bilan suhbat. 2021-yil, Urganch shahri.
3. Tojiboyeva O. Epos va teatr. 128-b.



# VII BO'ΛIM E'TIROF

Omonulla RIZAYEV,  
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"  
kafedrasi professori v.b., san'atshunoslik fanlari nomzodi,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi san'at arbobi

## UMR SO'QMOQLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o'zbek teatr san'atining rivojiga munosib hissa qo'shgan teatrshunos olim, san'atshunoslik va teatrshunoslik ilmining darg'alaridan biri, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Hamidulla Ikromovning hayot va ijod yo'llari qalamga olinadi.

**Kalit so'zlar:** teatr san'ati, ilmiy maqola, tadqiqot, madaniyat, ilmiy-ijodiy salohiyat.

## ПУТИ ЖИЗНИ

**Аннотация.** В этом романе учёный, приобщивший к узбекскому искусству мастерство искусства-веда и театроведа, кандидата искусствоведения Хамидуллы Икромова и его произведения.

**Ключевые слова:** театральное искусство, научные публикации, культура, ученый-творчество.

## WAY OF LIFE

**Abstract.** In this novel scientist who addicted skills for uzbek art, artiologist and theatrologist mastership, candidate of artiologist Hamidulla Ikromov's life And his works.

**Key words:** art of theatr, scientist publications, culture, scientist-creativity.



Ushbu mo'jaz maqolada, mamlakatimiz teatr san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan va hanuz shu sohada samarali qalam tebratib kelayotgan yetuk teatrshunos olimlardan biri Hamidulla Ikromov haqida fikr bildirmoqchiman. Uning qalamiga mansub o'nlab ilmiy maqola, taqriz, to'plam va o'quv adabiyotlari mutaxassislar, o'quvchi-talabalar hamda tadqiqodchilar uchun milliy teatrimiz o'tmishi va bugungi kunida kechayotgan jarayonlarni his qilish, o'rganish va shu sohada izlanishlar olib borishda foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Hamidulla Ikromovni taniganimga bu yil roppa-rosa 40 yil bo'libdi. 1983-yil, endigina Toshkent teatr va rassomlik institutini tugatib, O'zbekiston Teatr jamiyatida ish boshlagan kezlarim, Hamidulla aka Madaniyat institutida dars berar va shu institut qoshidagi Teatr jamiyati seksiyasining jamoatchilik asosidagi raisi vazifasini bajarardi. Bungacha, Teatr jamiyati qoshidagi Respublika aktyorlar uyining rahbari sifatida faoliyat yuritganligi bois, teatrlardagi ijodiy jarayondan yaxshi xabardor edi. Biz bir tashkilotda ishladik, ilmiy rahbarimiz ham bir bo'lgan – san'atshunoslik fanlari doktori, professor Muhsin Qodirov...

Shubhasiz, Hamidulla Ikromovning san'at shaydosi bo'lib voyaga yetishida u o'sib-ulg'ayib, hayotni tanigan oilaviy muhitning ta'siri katta bo'lgan. O'z vaqtida dong'i ketgan mashhur sozanda va bastakor Inomjon Ikromov nomini, balki bugun ba'zi

yoshlarimiz yaxshi bilmas. Biroq O'zbekistonda birorta kimsa yo'qki, xalqimizning ruhiyatiga singib ketgan "Munojot" qo'shig'ini eshitmag'an, undan zavqlanmag'an, hayratlanmag'an bo'lsa. Navoiy bobomizning mashhur g'azalini kuyga solgan va shu kungacha radio-televideniye, to'y-u tantanalarda el suygan xonandalar tomonidan ijob etib kelinayotgan, allaqachon milliy-ma'naviy qadriyatimizga aylanib ulgurgan "Munojot"ning muallifi aynan Inomjon Ikromov bo'ladi.

Ustoz san'atkor bastalagan o'nlab mumtoz kuy-qo'shiqlar nom qozongan xonandalar ijrosida magnit tasmalariga muhrlanib, teleradiokompaniyaning oltin fondidan munosib joy olgan. Tabiiyki, Inomjon Ikromov xonadoni hamisha mashhur bastakorlar, shoirlar, sozanda-yu xonandalar bilan gavjum bo'lgan. Bu xonadonda kuy yaralgan, ziyo taralgan. Hamidulla Ikromov ana shunday ziyoli, nurli xonadonda dunyoga kelgan, ulkan madaniyat va san'at arbolarining shirin suhbat, bahs-munozaralari, kuy-qo'shiqlari og'ushida o'sib-ulg'aygan. Hayajonli lahzalarga to'la jo'shqin ijodiy muhit uning yetuk san'atshunos olim bo'lib kamol topishida asosiy omillardan bo'lgan.

Garchi musiqiy muhitda ulg'aygan bo'lsa-da, Hamidulla Ikromovning taqdiri teatr san'ati bilan bog'landi. Albatta, musiqa ham teatr san'atining asosiy komponentlaridan biri sifatida uning tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qoldi.



Hamidulla Ikromovning uzoq yillik samarali mehnat faoliyatiga nazar solsak, uning ilmiy-ijodiy, pedagogik va tashkilotchilik qobiliyatining o'ziga xos qirralarini ko'ramiz. Biroq uning asosiy faoliyati pedagoglik bilan, aynan teatr san'ati pedagogikasi bilan bog'liq bo'ldi. Parallel ravishda pedagoglik qobiliyatini ilmiy izlanishlari bilan quvvatlantirdi. Bolalar teatrining o'ziga xos xususiyatlari, muammolari va istiqbollari mavzusida dissertatsiya yoqlab, san'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishdi.

Shu zayl, Hamidulla Ikromovning ham hayotiy, ham kasbiy tajribasi ortib borgan sari u jamoatchilik ko'riklarida, turli konferensiya va anjumanlarda, radio, televideniye va matbuot sahifalarida tez-tez ko'rina boshladi. Natijada, sohani yaxshi bilishi, tajribasi va ilmiy-ijodiy salohiyatini nazarda tutib, uni O'zbekiston Madaniyat vazirligining "yuragi" bo'lmish San'at boshqarmasining rahbari lavozimiga tayinlashadi. Albatta, san'at sohasidagi davlat siyosatini hayotga tatbiq qilish, Prezident Farmonlari, Hukumat Qarorlarining bajarilishini ta'minlash, shu yo'nalishda ijodiy-tashkiliy jarayonni tashkil qilishda alohida mas'uliyat yuklangan nufuzli boshqarmani boshqarish hazilakam ish emas.

Bundan tashqari qator hukumat tadbirleri, bayramlar, san'at sohasidagi Respublika va Xalqaro anjumanlarni tashkil qilish va o'tkazishda ham boshqarmaning javobgarligi va mas'uliyati yuqori. Ana shunday mas'uliyatlari, ayni paytda sharafli vazifani bajarishdek katta sinovdan o'tgan Hamidulla Ikromov, Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat

san'at institutida yangi joriy qilingan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor vazifasiga tayinlanadi. Orada bir muddat institut rektori vazifasini ham bajaradi. Pedagoglik bilan suyagi qotgan, oly ta'llim qonun-qoidalari va xususiyatini yaxshi bilgan Hamidulla Ikromovning keyingi faoliyati yanada samarali bo'ldi.

Aynan shu davrda taqdir taqozosi bilan men institutga rektor bo'lib bordim. Hamidulla akani avvaldan bilganim uchun ham u kishi bilan ishslash menga yengil, hatto, maroqli bo'ldi deyishim mumkin. Qaysi bir rahbarning faoliyati unumli va samarali bo'lsa, bilingki, jamoada uni qo'llab-quvvatlovchi, unga suyanchiq bo'lguichi insonlar bor. Hamidulla Ikromov ana shunday jonkuyar suyanchiqlardan bo'ldi. Men "jonkuyar" iborasini alohida bo'rttirib aytishni xohlardim. Chunki, Hamidulla Ikromov chindan ham institutning jonkuyar, kuydi-pishdilaridan edi, ba'zan hatto, "oshirib" ham yuborardi. Aynan kuydi-pishdiligi, jonkuyarligi, ilmiy-pedagogik salohiyati va ko'p yillik samarali faoliyati, va ayniqsa, kasbiga sadoqati bois "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

Meni keyinchalik "O'zbekteatr" ijodiy-ishlabchigarish birlashmasining bosh direktori, O'zbekiston teatr ijodkorlari uyushmasining raisi lavozimiga o'tkazishdi. Hamidulla Ikromov Uyushma Kengashining a'zosasi sifatida Respublika va Xalqaro miqyosda tashkil qilingan barcha ko'rik festivallar, ilmiy-amaliy konferensiya va boshqa turli anjumanlarning eng faol ishtirochilaridan biriga aylandi. Respublikamiz teatrlerida sahnalashtirilgan yangi spektakllarning jamoatchilik ko'riklarida mutaxassis sifatida muntazam ishtirok etdi, radio-televideniyeda intervyular, matbuot sahifalarida ilmiy maqolalar e'lon qildi, kitoblar chop etdi, professor ilmiy unvoniga erishdi...

Shu o'rinda Hamidulla Ikromovning oilaparvarlik xislatlarini ham alohida ta'kidlashni istardim. Farzandlariga, ayniqsa, umr yo'ldoshiga bo'lgan g'amxo'rliги, mehr-muhabbati e'tiborga loyiq.

Hayot juda qiziq. Hamisha ko'z o'ngingda ba'zan jiddiy, ba'zida hazil-huzul qilib, bahslashib, kulishib, diyordashib yurgan insonning birdaniga sakson yoshga to'lganligini eshitsang, g'alati tuyularkan. Chunki sen bilgan, tanigan, yonma-yon faoliyat yuritib kelayotgan inson qancha yoshga kirmsasin, umr so'qmoqlari qanchalik uzun va uzoq bo'limasin, tasavvuringda go'yo ilk marotaba uchrashganingdek hamisha yosh, navqiron bo'lib qolaverarkan. Men uchun ham Hamidulla Ikromov qirq yil avval tanishganimdek yosh, g'ayratli, "qirchillama" bo'lib qolaveradi. Illohim, to'qson yoshga kirganlarida ham shu so'zlarni aytish bizga nasib qilsin!

Rashid USNATOV,

O'zDSMI "Musiqali, dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasi dotsenti

## O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI, PROFESSOR SHUHRAT ABBOSOVNING PEDAGOGIK MAHORATI

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston xalq artisti, professor Shuhrat Abbasovning pedagogik faoliyati, talabalar imkoniyatlari yuzaga chiqarish, bilimi, fantaziyasini boyitish, tanlagan sohasining talablari va sirlarini puxta o'rgartish borasidagi o'ziga xos pedagogik usulini o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va institut yosh o'qituvchilariga mahorat darslarida qo'llanma sifatida tavsiya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** aktyor, rejissyor, xarakter, kino, mutaxassis, pedagog-rejissyor, film, rassom, voqelik, dramaturg, baletmeyster, pedagog, muallif, uslub.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАВЫКИ НАРОДНОГО АРТИСТА УЗБЕКИСТАНА, ПРОФЕССОРА ШУХРАТА АББОСОВА

**Аннотация.** В статье рекомендуется изучение, анализ, обобщение педагогической деятельности Народного артиста Узбекистана, профессора Шухрата Аббасова, развитие студенческих возможностей, обогащение знаний, воображения, требований и секретов выбранной области, как руководство для магистров. классы для молодых учителей.

**Ключевые слова:** актер, режиссер, персонаж, фильм, специалист, педагог-режиссер, фильм, художник, реальность, драматург, хореограф, педагог, автор, стиль.

### PEDAGOGICAL SKILLS OF THE PEOPLE'S ARTIST OF UZBEKISTAN, PROFESSOR SHUKHRAT ABBOSOV

**Abstract.** In the state rekomenduetsya study, analysis, obobshchenie pedagogicheskoy deyatelnosti Narodnogo artista Uzbekistana, professora Shuxrata Abbasova, razvitiye studencheskix vozmojnosteyst, obogashchenie znaniy, voobrazheniya, trebovaniy i sekretov vybrannoy oblasti, kak. class for young teachers.

**Key words:** actor, director, character, film, specialist, pedagogue-director, film, artist, realism, playwright, choreographer, pedagogue, author, style.




Kinorejissyor Shuhrat Abbosov kino san'atining miridan-sirigacha mukammal egallagan amaliyotchi, nazariyotchi, tashkilotchi, targ'ibotchi, shu bilan birga kino san'ati sohasiga, teatrlarimizga bilimli, malakali rejissyor kadrlarni tayyorlaydigan ajoyib pedagog, murabbiy edi.

Suhrat Abbosov barakali, sermahsul ijod yo'lida o'zbek kino san'atining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan, milliy san'atimizni dunyoga tanitgan san'atimiz darg'alaridan biri edi. Uning ijodiy mahsuli bo'lgan "**Mahallada duv-duv gap**", "**Sen yetim emassan**", "**Toshkent non shahri**", "**Abu Rayhon Beruniy**" kabi filmlari xalqimizning ma'naviy merosiga aylangan.

Ustoz san'atkor maxsus fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib borish jarayonida talabalarning imkoniyatlari, o'ziga xos qirralarini ochish, mahoratlarini to'g'ri yo'naltirishdagi uslubi nimalarda ko'rindi, ya'ni rejissyorlik va aktyorlik mahorati fanidan mashg'ulotlar olib borishdagi o'ziga xos xususiyatlari, darsni tashkil qilish mahorati nimalardan iborat, buni qanday ilg'ab olish mumkin, degan savolga javob topishga harakat qilamiz.

Shuhrat Abbosov o'zining pedagogik faoliyatini 1980-yilda boshlagan. Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutiga 1979-yilda rektorlik



lavozimiga tayinlangan professor M.Rahmonov institut professor-o'qituvchilari tarkibiga bilimdon, yetuk mutaxassislarini jalb qilish maqsadida, namunali ijodiy ishlari bilan jamoatchilik nazariga tushgan mutaxassislarini jalb qilishni rejalashtirib, san'at sohasida katta salohiyatga ega bo'lgan teatr va kino rejissyorlari va artistlarini o'qituvchilikka jalb qildi. O'zbekiston xalq artistlari Halima Nosirova, Sosan Benyaminov, Turg'un Azizov va Shuhrat Abbosov shular jumlasidan<sup>1</sup>. Maqsad, institutda maxsus fanlarni o'qitish darajasini yangi bosqichga ko'tarish, kafedralar tarkibini izlanuvchan, salohiyatlari yangi mutaxassislar bilan boyitish, institutda tayyorlanayotgan yosh kadrlarning sifati, bilimini talab darajasiga ko'tarish edi.

<sup>1</sup> Махмудов Ж. XX–аср режиссураси. – Toshkent: 2015-y.

Shu yillar davomida Shuhrat Abbosov bir qancha dramatik teatr rejissyorligi kurslari talabalarini mustaqil ijodga uchirma qilib, respublika teatrлари, kino va televiziёиye sohalarini yetuk, bilimdon kadrlar bilan ta'minlashda o'z hissasini qo'shdi. Xo'sh, ustozning institutda boshqa mutaxassislik fanlaridan mashg'ulotlar olib boradigan domlalardan o'zgachaligi, bo'lajak yosh rejissyorlarni tarbiyalash, ularga soha sirlarini o'rgatish, tabiiy imkoniyatlarini ochishining uslublari nimada?

Shuhrat Abbosovning boshqa rejissura va aktyorlik mahoratidan talabalarga nazariy va amaliy bilim beradigan domlalardan farqi, ustozning jahon adabiyoti, madaniyati va san'ati durdonalari bilan oshnoligida, deyish o'rini bo'ladi. Shuhrat Soliovichning qo'lidan kitob tushmas edi. Servantes, Shekspir, Gyote, Shiller, Bayron, Balzak, Dyuma, Pushkin, Tolstoy, Dostoyevskiy, Brexit, Lorka singari buyuk adiblar ijodi durdonalarini qayta-qayta mutoala qilib lazzatlanar ekan, har safar ularning yangi-yangi qirralarini kashf qiladi, ular haqida shogirdlariga maroq bilan gapirib berishdan charchamaydi<sup>2</sup>.

Ustozning hayotiy tajribalari, ustozlik saboqlari, pedagogik mahorati, mahoratdan eksperimental ochiq darslari, yosh rejissyorlarni tarbiyalash usullari, kasb sirlarini o'rgatish borasidagi individual yondashuvlari, talabalarning yuragiga yo'l topib, ularning ma'naviy dunyosini boyitib, kamolot cho'qqilari sari yetaklashlari haqida yozma tahliliy materiallar kam.

Mutaxassislik fanlaridan talabalarni o'qitadigan, ularga bilim beradigan, mahorat sirlarini o'rgatadigan domlalarning professionallik darajasini, ustozlik salohiyati darjasini, salmog'ini bilmoxchi bo'lsangiz talabalar bilan suhbatlasting, ularning fikr-mulohazalarini "sof oltin" deb qabul qilish o'rini. Xolis fikr bo'limasa-da, baribir mulohazalarda jon bor<sup>3</sup>.

Lekintalaba-yoshlarshumutaxassisliko'qituvchilar, umuman teatr va kino san'atiga aloqador ziyorilar, jurnalist, teatrshunos, va san'atshunoslar Shuhrat Abbosovning nomini nega bunchalar katta hurmat va ehtirom bilan tilga olishadi? Buning sababi, ustoz pedagogik uslubning nihoyatda ta'sirchan, samarador, mahsuldar, bugungi kun talablariga mosligida deyish mumkin.

Odatda talabalarning kuzgi va bahorgi reytingi ko'rik kezlari institut ustaxonalarida hayot qaynaydi. Ustoz kursining rejissyorlik va aktyorlik mahorati fanlaridan reyting ko'rikleri, kurs talabalarning mustaqil ishlari ko'rigi doimo institut talabalarini, professor-o'qituvchilarining diqqat markazida bo'ladi. Shuhrat Abbosov rahbarlik qilayotgan rejissyorlik kursi talabalarning mutaxassislikdan reyting ko'riklerini orziqib kutishadi, bamicoli professional teatrning premyerasini intizorlik bilan kutayotgandek. Sababi har bir talaba, har bir o'qituvchi ustozning talabalar bilan tayyorlagan dasturidan yangilik kutadi,

o'ziga nimanidir oladi. Kurs rahbari o'z shogirdlarining bahorgi, kuzgi reyting ko'riklariga parchalar tanlashdagi didiga, uquviga juda katta e'tibor beradi. Tajribali, talabchan murabbiy sifatida talabalarning reyting ko'rigiga tanlangan asarlarning mavzu va janriy nuqtayi nazaridan qamrovining kengligini, badiiylik darajasini, mazmundorligini, ta'sir kuchini nozik ilg'aydi va ularni xolisona baholaydi.

Shuhrat Abbosovga xos va boshqalar orzu qilsa arzigulik yana bir xususiyat bor. Ustoz o'z kurslaridagi reyting ko'rigini boshlashdan oldin ulug' shoirlarning she'rlaridan birini o'qib beradi. Buning sababi, yig'ilgan pedagoglar va talabalarning diqqatini bir nuqtaga jamlashdir. Shundan so'ng, barcha yig'ilganlarning fikri faqat sahnaga qaratiladi. Eng muhimi professionallik nuqtayi nazaridan ahamiyatlisi, reyting ko'rigiga tayyor talabalar ham hayajonni bosib, fikrini yig'ib oladi. Ustozning bu pedagogik usuli nihoyatda foydali, deb o'layman.

Shuhrat Abbosovning mutaxassislik fanlarini o'qitish uslubiga xos xususiyatlaridan yana biri, ustoz talabalarga badiiy puxta asarlarni ko'p mutolaa qilish, estetik didini tarbiyalash, reyting ko'rikleri-yu, mustaqil ishlariiga parchalar tanlashda zamini puxta, tomoshabinlarga ma'naviy ozuqa beradigan asarlar bilan ishlashni o'rgatadi.

Notanish makon va zamon, hayotiy muhit, qahramonlar yurish-turishi, urf-odatlari, ularning xarakteri, psixologiyasini o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, aniq rejissyorlik rejasini tuzish yosh, bo'lajak rejissyor uchun ancha murakkab bo'ladi<sup>4</sup>. Bunday usul talabalarning jahon dramaturgiyasining keng dunyosiga olib kiradi. Ularni yangi oqimlar, uslublar bilan tanishtiradi. Bo'lajak rejissyorlarni kengroq fikrlashga, dramaturgiyadagi yangi yo'nalishlar, yangi shoirlar bilan tanishtiradi, eng asosiyisi, talabalarga o'zi uchun shu paytga qadar tanish bo'limagan yangi dunyoni kashf etishga yordam beradi.

Ustoz san'atkorning o'z pedagoglik faoliyatida talabalar bilan ishlash, ularga kasb sirlarini o'rgatish, bilimini boyitish, fantaziya va tabiat ato qilgan tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirishda, professionallik sari yetaklashda ustozlari losif Radun va Toshxo'ja Xo'jayev an'analarini davom ettirdi. Shuningdek, u rahbarligida tayyorlangan drama teatri rejissyorligi bo'limi talabalar tomonidan tashkillishtirilgan kurs ishi jarayonida Gyoteyning "Faust", Shekspirning "Gamlet", "Qirol Lir" kabi badiiy barkamol, zuvalasi pishiq asarlari haqida qilgan ma'ruzalari talabalar va professor-o'qituvchilarda ham katta taassurot qoldirgan.

Bunday tadbirlar ulug' dramaturglarning "Qirol Lir", "Ajal minorasi", "Qonli toy", "Bo'z to'rg'ay", "Hayot shomi" kabi mashhur sahna asarlarning tahlili bo'lajak rejissyorlarning dunyoqarashi, estetik tafakkurini boyitishda alohida ahamiyat kasb etadi<sup>5</sup>. Bunday ustoz qo'lida ta'lim olgan yoshlarimiz uchun bu katta omad va baxt, deb o'ylaymiz.

Ustozning pedagoglik uslubiga xos yana bir o'zgachalik, shogirdlarini birinchi kursdan boshlab

<sup>2</sup> Азизов Т. Моя режиссерские работы. – Ташкент: 2010 г.

<sup>3</sup> Maxmudov J. Ergash Masofayev. – Т.: 2014-у.

<sup>4</sup> Азизов Т. Моя режиссерские работы. – Т.: 2010 г.

<sup>5</sup> Maxmudov J. Ergash Masofayev. – Т.: 2014-у.



"Abu Rayhon Beruniy" O'zbekfil'm 1974- yil



"Sen yetim emassan" O'zbekfil'm 1962- yil

tasviriy san'atning sirli olami bilan tanishtirishga xarakat qilishi edi. Talabalar muzeylarga borishi, bir hafta davomida kamida bitta kartinani (qaysi janrdaligidan qat'iy nazar) qunt bilan kuzatishi, mavzu, janr va qaysi maktabga taalluqli ekanligini mukammalroq o'rganishi kerak bo'ladi. Ma'lumki, tasviriy san'at asarlarida rassom biron-bir hayotiy yoki tarixiy voqeaneing eng yuqori nuqtasini, o'z hayotiy kuzatuvlarining bir lahzalik, o'zining ijodiy fantaziyasini bezovta qilgan onlarini bir umrga muhrlab qo'yadi. Ustozning talabi va maqsadi bitta kartina atrofida talabalarning o'z fantaziysi va tasavvurlarini ishga solib, rassom tasvirlagan voqeaga olib keladigan uzlusiz xatti-harakatni, voqealar zanjirini o'z tasavvurlari ekranida yaratishi va shundan keyin o'z kursdoshlariga voqealar silsilasini tushuntinrish edi.

Yana shunday foydali mashg'ulotlardan biri, talabalarning kundalik daftariga har kuni ko'rgan voqealarni, kuzatuvlarini yozib borish talabidir. Kurs rahbarining maqsadi, talabalarni o'z atrofida sodir bo'layotgan hayotiy voqealarni bo'lajak ijodkor ko'zi bilan ko'rishga o'rgatish bo'lgan. Kuzatuvchanliksiz hayotni chuqurroq o'rganib, bilib bo'lmaydi. Insonlar kamdan-kam vaziyatlarda o'z yuragini boshqalarga ochishi mumkin.

"Ko'pincha insonlar o'z iztirob, g'am-tashvishlarini odamlar ko'zidan yashirish uchun xotirjam ko'rinishga

harakat qiladilar. Bunday vaziyatlarda insonning ichidagini bilish juda qiyin. Siz kuzatayotgan shaxsnинг ichki holati, kayfiyati, uning muomalasi, xatti-harakati, munosabatda seziladi. Shu yo'l bilan ko'nglida nima borligini aniqlashga harakat qiling. Agar obyektning fikrini, ko'nglida nima bo'layotganini topishga muvaffaq bo'sangiz, bu siz uchun bebaho xazina hisoblanadi", – der edi ustoz.

Davrimizning ulug' rejissyorlardan biri Bahodir Yuldashev: "Rejissyorning ozuqasi – bu hayotni kuzatuvlardan olgan taassuroti", – deb bekorga aytmagan. Shuhrat Abbosovning talabalar bilan olib borgan mashg'ulotlarning rang-barang, qiziqarli, mazmundor va ta'sirchanligining sababi – keng qamrovli, oldindan rejalashtirilgan mavzu va g'oyalalar, rejalar asosida olib borilganligida. Ustoz o'z pedagogik faoliyatida bo'lg'usi yosh rejissyorlarning ham nazariy bilim, ham amaliy mashg'ulotlarda bir xil tenglikda olib borishga harakat qilgan. Uning fikricha, rejissyor mahoratlari aktyor, bilimdon teatr yetakchisi va yaxshi tashkilotchi bo'lishi shart.

Jamoaning hamfikrлиgi, ijodiy izlanishlarda aktyorlarning bir-birini tushinishi va qo'llab-quvvatlashi, jamoadagi sog'lom ijodiy muhitni yaratish va uni saqlab qolish, teatr bosh rejissyorining mahorati, bilimi boy fantaziysi va tashkilotchilik qobiliyatiga bog'liqdir.

## MOHIR CHANGCHI RUSTAM NE'MATOVNING IJODIGA BIR NAZAR

(Ustozning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi)

**Annotatsiya.** Maqolada, XX asrning 70-yillarida chang cholg'usi ijrochiligidagi yuksak texnikaviy mahorat egasi sifatida changchi sozandalar orasida karvonboshilikni qo'lga kiritgan, chang ijrochiligidagi yangi qirralarni ochgan sozanda Rustam Ne'matovning hayoti haqida so'z boradi. Chang sozini O'zbekiston bo'ylab targ'ib qilish bilan birga, ijro uslubi marakkab bo'lgan musiqiy asarlarni chang cholg'usi uchun moslab ijro etgan mashhur sozanda haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ustoz, san'atkor, sozanda, sahna, ijro, konsert, dastur, dirijyor.

## ВЗГЛЯД НА ТВОРЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ЧАНГЧИ РУСТАМА НЕ'МАТОВА

(Посвящается светлой памяти учителя)

**Аннотация.** Рассказывает историю жизни Рустама Нематова, несравненного музыканта, который в 70-х годах XX-го века приобрел известность среди пылесосов как обладатель высокого технического мастерства в игре на инструменте dust, открыв новые грани в исполнении dust. Помимо популяризации звучания Чанга по всему Узбекистану, о стиле исполнения рассказывает хаки, известный певец, который адаптировал и исполнил музыкальные произведения, являющиеся маракабом, для инструмента чанг.

**Ключевые слова:** педагог, артист, солист, сцена, спектакль, концерт, программа, дирижер.

## SKILLFUL CHANGCHI WHO RUSTAM NE'MATOV'S CREATURE EXAMPLES

(It is dedicated to the bright memory of the teacher)

**Abstract.** This article is about outstanding musician of chang instrument, professor, Rustam Nematov, who was a professional with high technical skills. Rustam Nematov reached the peak of his career in the 70 th of XX century, when he was a leading musician, achieved the first place among the chang players and broke new ground.

The article tells about famous musician, who adjusted complex musical compositions for the Chang instrument along with the spread of chang instrument throughout Uzbekistan.

**Key words:** teacher, performer, musician, stage, performance, concert, program, conductor.



1974-yil Toshkent davlat madaniyat institutida tahsil olib yurgan kezlarim ko'plab ustozlar bilan tanishganman. Ularning ijro mahoratlarini ko'rib, menda ham ularga o'xshagan ustoz bo'lish orzusi tug'ilgan bo'lsa kerak, deb o'yayman. O'sha yillarda "Xalq cholg'u asboblari" kafedrasida ko'plab o'z sohasining fidoyilarini faoliyat olib borishgan. Ulardan: Hasan Komilov, Ergash Toshmatov, To'lqin Toshmatov, Rajab Rahmonov, Numonjon Sharipov, Xayrullo Tursunov, Rahimjon Shermetov, Kamoljon Nazarmuhamedov, Anvar Odilov, Tohir Yo'ldoshev, Jasur Rasulto耶ev, Shukurullo Ahmadjonov, Farhod Alimov, Tohir Sobirov, Karimjon Azimov va Rustam Ne'matovlarni alohida yodga olaman. Yuqorida ismlari zikr qilingan ustozlarning har biri haqida ko'plab maqlolar yozib, hozirda tahsil olayotgan talabalar e'tiboriga havola qilish maqsadga muvofiq, deb bilaman. Shulardan biri mohir sozanda, professor Rustam Ne'matovning hayot va ijod yo'llarini baholi qudrat yoritmoqlikni shogirdlik burchim, deb bildim.

Ustoz Rustam Ne'matov R.Glier nomidagi Respublika o'n yillik musiqa məktəbida (hozir bu dargoh R.Glier nomidagi maxsus musiqa akademik litseyi deb yuritiladi) o'qituvchi Farruh Mirusmonov sinfida ilk musiqa saboqlarini oladi. Yosh Rustam mohir pedagog Farruh Mirusmonovning qobiliyatli shogirdlaridan bo'lib, 1951-yilda musiqa məktəbinining ikkinchi sinfida o'qiyotgan chog'laridayoq zabitlar uyida tashkil etilgan konsertda sahnaga chiqib, u o'zining ilk ijrosi bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan. El nazariga tushayotgan o'n bir yoshlik sozanda Moskvadagi adabiyot va san'at dekadasi ishtirokchilariga bag'ishlab, changda Sulaymon Yudakovning "Jon O'zbekiston" nomli asari va L.Saksonskiy qayta ishlagan "Ikki belarus qo'shig'i" kuylarini ijro etganda zalni gulduros qarsaklar tutib ketgan. Uning ijrosidagi mukammallik tomoshabinlarda yaxshi taassurot qoldirgan edi.

1957-yil musiqa məktəbini muvafaqqiyatlil tugatgach, Rustam Ne'matov shu yili Toshkent

davlat konservatoriyasiga o'qishga qabul qilinadi. Bu dargohda eng talabchan, mahoratlari changchi sozanda ustoz Fozil Xarratov sinfida tahsil ola boshlaydi.

Iste'dodli yoshlarni yuzaga chiqarishda tarbiyachilar katta rol o'ynaydi. Rustamning iste'dodini yuzaga chiqqargan uning talabchan ustozlaridir. Farruh Mirusmonovdan keyin Fozil Xarratov mana shunday talabchan, qattiqqo'l, mehnatsevar, mahoratlari ustozlardan biri bo'lgan. Fozil Xarratov saxiy qalb ustoz bo'lgan bo'lsa, Rustam esa sinchikov shogird sifatida ustozining usullarini bekamu ko'st o'rgandi.

Rustamning oliy dargohda tahsil olgan davri uning ijodiy izlanish va haqiqiy sozanda bo'lib yetishishidagi asosiy bosqich bo'ldi. U talabalik yillarida L.Betxovenning "Ekosez", F.Alekseyev qayta ishlagan "Oy nur sochar", B.Giyenko qayta ishlagan o'zbek xalq kuylari "Gulbahor va tanovar", V.Motsartning "Figaroning to'yi" operasidan Figaro ariyasi kabi musiqiy asarlarni fortepiano jo'rligida ijro etgan bo'lsa, keyinchalik chang torlari orqali ijro uslubi murakkab bo'lgan yirik musiqiy asarlarni ijro eta oldigan bo'ldi. Oliygohning pedagogik jamoasi talabalar orasidan eng iqtidorlilarini badiiy-ijodiy jamoalarga ish o'rganish uchun yuboradi. R.Ne'matov ham iqtidorli talaba sifatida Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi To'xtasin Jalilov nomidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestiriga changchi sozanda bo'lib biriktiriladi.

1961-yilning dekabr oyida konservatoriyaning bir guruh a'lochi talabalari orasida Rustam ham sahnaviy amaliyat o'tagani Moskva shahriga boradi. Toshkentlik talabalarning o'zlari Gnesinlar nomidagi Moskva davlat musiqa pedagogikasi institutida, P.Chaykovskiy nomidagi Moskva davlat konservatoriyaning kichik zalida o'zlari tayyorlagan konsert dasturlarini namoyish etib, moskvaliklarni O'zbekistonning serohang musiqa madaniyati bilan tanishtiradilar.

Rustam Ne'matov Moskvadan kelib davlat imtihonlariga tayyorgarlik ko'radi va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib, imtiyozli diplom olishga sazovor bo'ladi. Davlat imtihon komissiyasi bir ovozdan uni konservatoriyaning "Xalq cholg'u asboblari" kafedrasiga o'qituvchilikka tavsiya etadi. U haqiqiy ijodkor, o'ziga talabchan san'atkori sifatida erishilgan muvaffaqiyatlar bilan cheklanib qolmadi. Rustam Ne'matov ikkinchi bor konservatoriya da tahsil olishga qaror qiladi. Bu safar u opera-simfonik dirijorligi fakultetiga o'qishga kiradi. U T.Jalilov nomidagi xalq cholg'u asboblari orkestrida ishlab yurgandayoq dirijorlikka qiziqqan, bu kasbning sirlarini o'rganishni orzu qilgan edi. U dirijorlik orgali barcha musiqa asboblarining o'rniga ahamiyatini chuqurroq bilish mumkin ekanligini tushungan edi.

Dirijor – muallim, dirijor – sozanda, dirijor – tashkilotchi, dirijor – jamoa rahbari hamda tarbiyachisidir. Ustoz bu fakultetda professor Muxtor

Ashrafiy ustaxonasida tahsil oladi. Simfonik orkestrda dirijor bo'lib ish olib borish, ijrochilik san'atini mukammal egallab olishda asos bo'lib xizmat qildi.

Rustam Ne'matov omadli san'atkori. U Muxtor Ashrafiy, Fozil Xarratov, A.I.Petrosyans va Nabi Xalilov singari ulug' san'atkorlardan tahsil olgan bo'lsa, Ayub Qodirov, Faxriddin Sodiqov, G'anijon Toshmatov, Zokirjon Obidov va boshqa mashhur sozandalar bilan birga ishlash baxtiga muyassar bo'lgan. R.Ne'matovning ijrochilik parvozi sekin-asta yuksala boradi. 1967-yilda Vengriyada bo'lib o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasida, 1971-yilda O'zbekiston yoshlari guruhi bilan Fransiyaning Parij shahridagi Katta istirohat bog'iда berilgan konsertda Rustam Ne'matov J.Bizening "Karmen" operasining "Muqaddima"sini, "Guluzorim", "Chaman ichra", "Rohat" singari o'zbek xalq kuylarini ijro etib, parijsliklar olqishiga sazovor bo'ladi.

1971-yil ustozning hayotida katta voqeal sodir bo'ldi. Shu yil yosh ijrochi sozandalarning I Respublika tanlovi bo'lib o'tadi. Tanlovda 108 nafar saralangan sozandalar ishtiroy etadilar. Ustoz tanlovgaga uzoq va jiddiy tayyorgarlik ko'radi. Uzoq va mashaqqatli mehnat o'z samarasini berdi. Bu bellashuvda ustoz birinchi mukofotga sazovor bo'ldi. Respublika tanlovi muvaffaqiyatidan keyin Rustam Ne'matov ijrosidagi bir qancha kuylar Toshkent "Melodiya" firmasi tomonidan plastinkaga yozilib, keng ommaga tarqatildi.

Rustam Ne'matov yaxshi va bilimdon mutaxassis bo'lib tanilgandan so'ng, u 1974-yil tashkil etilgan Toshkent davlat madaniyat institutiga ishga taklif etiladi. Madaniyat institutida chang sozi, dirijorlik, ijrochilik tarixi, jamoa bilan ishlash uslubiyoti, orkestr sinfi kabi fanlardan dars bera boshlaydi. Ustoz dars berish bilan birga professor-o'qituvchilar va talabalar ilmiy-nazariy konferensiyalarda faol ishtiroy etadi. Uning ilmiy maqolalarida ham asosiy mavzu sevimli chang cholg'usi edi. 1976-yilda O'zbekiston televideniyesi orqali ustoz san'atkoring konsert dasturi namoyish etiladi. Bu konsert sozandaning bir necha yillik faoliyati bo'yicha hisoboti edi.

Ustoz san'atkori 1982-yilning aprel oyidan televideniye orqali "Chang taronalari" mavzusidagi ko'rsatuvni olib bora boshladidi. Bu ko'rsatuvning ssenariy muallifi ham, boshlovchisi ham, ijrochisi ham ustozning o'zi edi. Teleko'rsatuv davomida chang cholg'usining kelib chiqish tarixi, unga o'xshash bo'lgan cholg'ularning ta'rifi, chang cholg'usining o'tmishdagi va hozirgi ijrochilarini va ularning mahoratlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Ushbu teleko'rsatuvda ko'plab chang cholg'usi ijrochilarini teletomoshabinlarga tanishtirdi. Shulardan biri birinchi ayol changchi sozanda, xalq cholg'u asboblari yosh ijrochi-sozandalaring I Respublika tanlovi g'olib Fazilat Shukurova bo'ldi.

Keyinchalik bu ikkala iste'dodli sozanda changda duet bo'lib ham chala boshlaydilar. 1983-yil 21-aprelda ularning birgalikdagi konserti Toshkent

davlat konservatoriyanining "Musiqa saloni"da bo'lib o'tadi. Ular A.Xachaturyanning "Lezginka", o'zbek xalq kuyi "Rohat", T.Jalilovning "Otmagay tong" S.Yudakovning "Raqs" syuitasidan "Farg'onacha raqs", S.Aleskerovning "Tarantella" va M.Xarratovning "Yoshlik valsi" kabi musiqiy namunalarni ijro etadilar.

1990–2000-yillari T.Jalilov nomidagi O'zbekiston Davlat Akademik xalq cholg'ulari orkestri jo'rligida rang-barang asarlar ijro etgan. Hamda konservatoriyaning katta zalida "Bahor", "Turkiston", A.Navoiy nomidagi opera va balet katta teatri sahnalarida yakkaxon sozanda sifatida ijodiy konsertlarida milliy taronalarni, xalq kuylarini, bastakorlar ijodi va jahon mumtoz kuylarini maromiga yetkazib ijro etib, musiqiy madaniyatimiz hayotida yorqin iz qoldirgan. Ustoz R.Ne'matov radio oltin fondi tasmalariga yuzdan ortiq musiqiy asarlarni muhrlagan.

Ustoz XX asrning 70-yillaridan chang sozi ijrochiligidagi yangi qirralarni ochgan, yuksak ijro

mahorat egasi sifatida changchi-sozandalar orasida karvonboshilikni qo'lga kiritgan beqiyos san'atkori edi.

O'zbekiston xalq artisti, Foruk Sodiqov (1966-yil, aprel): "*Men ishonch bilan ayta olamanki, Rustam Ne'matov bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki jahonda tengi yo'q sozandadir. Uning ijro etgan murakkab va yirik shakldagi asarları o'z darajasida talqin etilishi bilan ajralib turadi. Rustam Ne'matov ijrosidagi sadolar palitrasining rang-barangligi, tovush dinamikasining qudrati, texnikaviy mahoratning yuksakligi, musiqiy jumlalarning ta'sirchanligi va beqiyosligi kabi jihatlar bu sozanda san'atkoring yutuqlarini belgilovchi omillardir*"<sup>1</sup>, – deb aytgan edi.

Ustoz san'atkori Rustam Ne'matov o'zining ijodiy, ilmiy va pedagogik faoliyati bilan o'zbek milliy cholg'u ijrochiligi san'ati ravnaqiga munosib hissa qo'shgan, o'z zamonasining zabardast san'atkori sifatida yodimizda qoladi.

<sup>1</sup> Lutfullayev A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixi. – Toshkent: "Musiqa", 2006-y.

# O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali*

*Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi*

**Nashrga tayyorlovchilar:**

G'ani Xudoyev,  
Faxriddin Abduvohidov,  
Ozoda Shobilolova.

**Sahifalovchi-dizayner:**

Abdug'ani Sodiqov



Bosishga ruxsat etildi: 04.09.2023-yil  
Ofset bosma usulda bosildi.  
“Arial” garniturasi. Bichimi 60×841/8.  
Shartli bosma tabog'i 12,25.  
Buyurtma raqami №. Adadi: 195 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,  
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13  
Jurnal “NISO POLIGRAF” MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: O'rtta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz –1.